ISSN 3030-3370
№ 1 (8) 2025

AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



https://buxdu.uz

ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 1 (8) 2025

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY’ATI:

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste’dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug’ bilimdoni edi. U xalqimiz o‘tmishini xuddi o‘zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o‘rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig’i butun borlig’icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e’tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma’rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko‘hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo‘l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR

Муродӣ Низомиддин,
доктори илмҳои филологӣ, профессори
МДТ Донишгоҳи давлатии Хуҷанд
ба номи академик Б.Ғафуров
(Тоҷикистон)
E-mail: murodinizomiddin@mail.ru

ТАВАҶҶУҲИ САДРИДДИН АЙНӢ БА СУХАНВАРОНИ ФОРСИЗАБОНИ ЧИН

Аннотация. Асрҳои XVI-XIX сесад соли рушди адабиёти классикии уйғур дар кишвари Чин ба ҳисоб меравад, ки бо шукуҳу дараҷаи хеш раванди таҳаввули адабиёти форсизабонро дар Ҳинд ба ёд меоварад. Ин асрҳо замони таъсирпазирии азими суханварони Ғарби Чин аз адабиёти форсу тоҷик аст, ки дар омӯзиши таҳаввули анаъанаҳои адабиёти Мовароуннаҳр берун аз он кӯмак мекунад. Аз ҷумла, ҳаёту фаъолияти шоири форсигӯи уйғур Таҷаллӣ, ки дар китоби устод Айнӣ ба тасвир омадааст.

Калидвожаҳо: Садриддин Айнӣ, Таҷаллӣ, адабиёти форсу тоҷик, адабиёти классикии уйғур, Чин, Ғарби Чин, адабиёти муҳоҷират.

Аннотация. XVI-XIX века считаются трехсотлетним периодом развития классической уйгурской литературы в Китае, которая своим блеском и уровнем напоминает процесс эволюции персоязычной литературы в Индии. Этот период отмечен значительным влиянием западнокитайских литераторов от персидско-таджикской литературы, что способствует изучению развития литературных традиций Мавераннахра за его пределами. В частности, жизнью и творчеством уйгурского поэта Таджалли, о котором упоминается в книге Садриддина Айни.

Ключевые слова: Садриддин Айни, Таджалли, персидско-таджикская литература, классическая уйгурская литература, Китай, Западный Китай, литература миграции

Abstract. The 16th-19th centuries are considered a three-hundred-year period of the development of classical Uyghur literature in China, which in its brilliance and level reminds the evolution of Persian-language literature in India. This period is marked by the significant influence of Western Chinese writers by Persian-Tajik literature, contributing to the study of the development of literary traditions of Maverannahr beyond its borders. In particular, the life and works of the Uyghur poet Tajalli, mentioned in the book by Sadriddin Ayni.

Key words: Sadriddin Ayni, Tajalli, Persian-Tajik literature, classical Uyghur literature, China, Western China, migration literature

Муқаддима. Пас аз сад соли таълифи “Намунаи адабиёти тоҷик”-и устод Садриддин Айнӣ ҳанӯз ҳам уқдаҳои ҷадиди матолиби тафсирнашудаи ин китоби муътабар мавриди баҳсу баррасии олимону ҳаводорони илму адаб қарор мегиранд. Ин бошад, бешак далели паҳнои донишу биниши нобиғаи асри гузаштаи мо устод Садриддин Айнӣ аст.

Ин ҷониб бо сабаби ҷустуҷӯ ва таҳрик дар мавзуи муҳоҷирати суханварони водии Фарғона, ки аз масоили хеле муассир дар шинохти ҷуғрофиёи интишори забон ва адаби форсу тоҷик дар офоқ аст, бар китоби “Намунаи адабиёти тоҷик” рӯй овардам. Ҷиҳати тулонӣ нашудани матлаб, ин ҷо мехостам танҳо дар як маврид истода гузарам. Он ҳам бошад аз ҷониби Садриддин Айнӣ ишора шудан ба хидмати шуаро ва удабое, ки хоса дар Ғарби Чин (имрӯза Шинҷон) мутаваттин буданду дар рушду камоли сухани форсии тоҷикӣ пайваста заҳмат кашиданд.

Агар харитаи умумӣ ё манзараи густариши адабиётро дар воҳаҳои уйғурнишини Чин назар кунем, пас аз тафаҳҳуси амиқ метавон хулоса бароварда, ки чор зинаи асосӣ ва таърихии он ба чашм намоён мегардад:

Яке давраи қадим, ки фақат бо ривоёт ва ақволи заиф мастур аст ва он то вуруди ислом аст. Дигар, рушди адабиёт пас аз ислом то салтанати муғул ва замони чингизиён.

Сеюм, тантанаи адабиёт дар асрҳои XVI-XIX.

Чаҳорум, адабиёти уйғур пас аз асри XIX то имрӯз.

Дар зинаи сеюми таҳаввул, ки он қуруни эҳёи дубораи адабиёт аст, қаламрави уйғур аз дидгоҳи фарҳангӣ-адабӣ дар маркази додугирифти ду тамаддун қарор гирифт: яке форсҳо, дигаре чиниҳо. Робитаи ба чашм намоёне, ки уйғур бо мардуми сарзамини Форс дошт, мардуми кишвари Чин низ дар навбати худ бо уйғур чунин муносибатро риоя кард.

Қисми асосӣ. Асрҳои XVI-XIX даврони майлони азими суханварони уйғур ба адабиёти форсу тоҷик ба ҳисоб меравад. Таҳқиқи таҳаввули анъанаҳо ва робитаҳои адабӣ дар ин замон бар он хулоса меорад, ки адибони уйғур баробари пайравӣ ва ибрат аз суннатҳои ҳавзаҳои адабии Мовароуннаҳру Хуросон, инчунин тавонистанд ангезаҳои азалии фарҳанги аҷдодии худро дар манотиқи хеш талқин кунанд.

Чунин буд, ки ҳатто баъзе суханварони форсу тоҷик ё шуарое аз водии Фарғона, хонигарии Қӯқанд ва халқиятҳое аз Осиёи Миёна маҳз дар қаламрави Кошғар сарпаноҳ ёфтанд [3, 337-360; 18, 52-55]. Бешак, боду ҳавои ин замини куҳан барои як зумра удабо чун сарчашмаи илҳому тафреҳ хидмат кард. Дар ин радиф, аслан на фақат муносиботи илмӣ-фарҳангӣ байни ин ду сарҳад, балки дар умум, муносиботи тиҷорӣ-иқтисодӣ низ дар авҷу камол ба чашм омаданд. Мубодилоти мухталиф байни Кошғару водии Фарғона ва сабабҳои онро метавон тариқи сарчашмаҳо ва осори таҳқиқӣ бештар мутаваҷҷеҳ буд [5, 65-67; 7, 85-106; 10, 38; 15, 52-65]. Аз ҷониби баъзе муаррихон дигар сабабҳои муҳоҷирати суханварон ва табақаи зиёии Осиёи Миёна дар охири асри XIX ва аввали асри XX низ ба таҳлил омадаанд [4, 109-120; 9, 213-224].

Ҷиҳати далел ва тақвияти илмии ин баҳс метавон чанд мисоли мушаххасро муқобала кард. Сардафтари адабиёти шуравии тоҷик устод Айнӣ дар “Намунаи адабиёти тоҷик” ягона шоиреро аз охири асри XVI ва аввали асри XX номбар мекунанд, ки ба ҳавзаи адабии Кошғар алоқа дорад. Маълум мегардад, ки ин шоир Таҷаллӣ (соли тав. 1847 – ваф. номаълум) ном дошта, дар хурдсолӣ аз Деҳлӣ бо падараш озими Кошғар шуда, дар шаҳри Ёрканд мутаваттин шудаанд. Ин масъала баракси ҳодисаи муҳоҷирати суханварон ба Ҳинд, бозгашту ҷалби зумрае аз ононро ба муҳити адабии уйғур низ тасбит мекунад.

Ҳарчанд имрӯзҳо дар Шинҷони Чин аллакай девони Таҷаллӣ бо фарогирии қисме аз ашъори форсӣ-тоҷикиаш барои алоқамандон манзур аст, аммо маълум мегардад, ки он замон осори комили ӯ дар дасти Садриддин Айнӣ набудааст [19]. Аз ҷумла, муаллифи китоб гӯяд: “Таҷаллӣ соҳиби девон аст. Аммо девонаш мутолиа нашуд” [17, 238]. Яъне ҳини китобат нусхаи девони Таҷаллӣ, ки аз тарафи Ҳашмат соли 1894 мураттаб шуда буд, мутаассифона ба устод Айнӣ дастрас нашудааст [23, 318].

Шояд ба ҷиҳати таҳти унвони муғлақи “Авлоди Ҳусайнхон” масбут будани ин мавзуъ, назари муҳаққиқини баъдина аз омӯзиши Таҷаллӣ барканор мондааст. “Тазкираи Қайюмий” баён мекунад, ки Ҳусайнхон номи падарбузурги Таҷаллӣ будааст [8, 229]. Ҳини пажӯҳиш маълум шуд, ки аз ин санади устод Айнӣ, пеш аз ҳама, адабиётшиносони ӯзбек мустафид шудаанд [1, 89]. (Дар аснои ҷустуҷӯи феҳристи осори хазинаи дастхатҳои шарқии Академияи улуми Ӯзбекистон (СВР) як нусхаи дигари девони Таҷаллиро низ дучор шудем. Китоби мазкур таҳти рақами 3022/XII дар Институти дастнависҳои ба номи Ҳ.С.Сулаймонови Академияи илмҳои Ӯзбекистон нигаҳдорӣ мешавад) [6, 209].

Натиҷаҳои тадқиқот ва таҳлил. Ошноӣ бо Таҷаллӣ дар Ӯзбекистон бошад асосан ба сабаби таҳқиқи ҳаёти яке аз суханврони муборизи ӯзбек Зокирҷон Фурқат иттифоқ афтод. Шоир Фурқат пас аз сафарҳои зиёди худ аз Ҳиндустону Кашмир, Туркияву Арабистон, Аврупову Миср озими шаҳри Хутан ва баъдан Ёрканди уйғур гашта, то охири умр бо шоир Таҷаллӣ дӯстӣ варзид. Дар сарчашмаҳо муошират ҳарду борҳо таъкид шудаанд.

Маълум мегардад, ки намояндаи ҳавзаи адабии Фарғона – Зокирҷон Фурқат дар Ёрканд низ китобхона таъсис карда, онро ба маҷмаи аҳли фазл мубаддал мекунад [20, 8-9]. Қабраш дар он ҷост. Ҳатто аз авлоди уйғури ӯ ба ҷашни шоир дар Ӯзбекистон мактуби миннатдорӣ аз Ёрканд расида будааст [21, 147-151].

Устод Айнӣ дар “Намунаи адабиёти тоҷик” ашъори ба форсӣ-тоҷикӣ эҷодшудаи Таҷаллиро мисол овардаанд. Абёти зер аз ҷумлаи он аст:

Боди Наврӯз бин, чӣ сон омад,
Ки Масеҳош бодхон омад.

Бо дами исавӣ насими баҳор
Ҳамнафас, балки тавъамон омад.
Балки бар дӯши худ фиканда Масеҳ,
Ҳуллаи Хизр дар миён омад... [17, 240]

Чун дар ин қазия фаротар рафтем, мушоҳида шуд, ки маълумоти дар “Намунаи адабиёти тоҷик” аз аҳволу осори Таҷаллӣ баррасишуда ба тариқи ихтисор аз “Тазкират-уш-шуаро”-и Муҳтарам ахз шудаанд. Тафаҳҳус дар боби Таҷаллӣ муайян кард, ки Муҳтарам ин шоирро аз наздик мешинохтааст. Аз ҷониби нигоранда шарҳи ҳоли ин адиб нисбатан муфассал зикр шуда, маълум мешавад, ки Таҷаллӣ дар аксари анвои адабӣ ба форсӣ эҷод карда, дар ҳарами шариф – Каъба чанд муддат истиқомат кардааст. Ҳоҷӣ Неъматуллоҳи Муҳтарам мегӯяд, ки дар аснои сафари худ аз Маккаи мукаррама аз аҳволи Таҷаллӣ дар он ҷо пурсон шудааст. Ба чашми худ дидааст, ки мардум ҳатто дар диёри муқаддас девони ӯро мутолиа мекардаанд. Ӯ ба тариқи комил бо осори Таҷаллӣ дар ҳамон арз ошноӣ пайдо кардааст. Даст ба даст будани намунаҳои шеъри тоҷикии шоири уйғур Таҷаллӣ, ваҳдату курбати фарҳангии миллатҳоро дигарбора собит месозад. Ин гуфтаҳоро метавонад навиштаҳои муҳаққиқи осори Таҷаллӣ М.Муҳаммадӣ низ ба исбот расонад [19, 199].

Аз ҳарорати сухани соҳиби “Тазкират-уш-шуаро” маълум мегардад, ки ба Таҷаллӣ ихлоси вофир ва иродати комил доштааст. Чунончи гӯяд: “Окиф-ул-ҳарамайн-уш-шарифайн ва-л-фоиз би саодат-ит-дорайн, саййиди авлоди Ҳусайн… Мутакаллимест гӯё, муаддаб дар таҷаллигоҳ, Мусои Тури суханронист…” [16, 64].

Тариқи асноди ин тазкира муайян мегардад, ки падараш марди фозил Сайид Қутбиддиншоҳ буда, замони салтанати Яъқуббеки Бадавлат ба Кошғар омадааст. Таҷаллӣ пас аз реҳлати падараш озими ҳаҷ мешавад ва боз дубора ба сарзамини уйғур бармегардад. Дар бозгашт ҷиҳати зиёрати қабри Баҳоуддини Нақшбанд дар Бухоро низ муддате истиқомат кардааст. Шоир Зокирҷон Фурқатро манобеи ӯзбекӣ ҳарчанд дӯсти Таҷаллӣ номидаанд, аммо Ҳоҷӣ Неъматуллоҳи Муҳтарам баён медорад, ки Фурқат на танҳо дӯсти Таҷаллӣ буда, балки назди ӯ таълим мегирифтааст ва илми тибро омӯхта будааст.

Таҷаллӣ аз шуарои тоҷикзабони уйғур аст. Ӯ ҳангоми сафараш ба Бухоро, мисли Фурқат, бо Асирии Хуҷандӣ мусоҳиб шудааст. Чунин қавле ҳам ҳаст, ки шеъри Тошхоҷа Асирӣ “Одамият чист? Худро дур аз шар доштан...” гӯё аз дӯсташ Таҷаллӣ илҳом шуда бошад [2, 5].

“Таҷаллӣ дар навиштани моддаи таърих дасти тавоное дошта, яке аз марсияҳояш дорои 50 таърих мебошад. Аз ашъори лирикиаш табъи нозук, дили беқарор ва аз шеърҳои ахлоқиаш ақлу фаросати комил ва тачрибаи зиёди рӯзгор доштани шоир маълум мегардад” [23, 317-318].

Хулоса. Уйғурҳо дар асрҳои охир дар маркази таъсиру таассур қарор гирифтанд. Бояд гуфт, ки аз байни худи фузалои уйғур низ ашхосе зуҳур карданд, ки диёри Хутану Ёркандро тарк карда, ба сӯи мамолики дигар роҳ ихтиёр мекарданд. Аммо ин ихтиёри онон ҳамешагӣ буд. Аз рӯи натоиҷи таҳқиқ метавонем гӯем, ки ҳамин муҳоҷиратҳо қавмияти имрӯзаи уйғурҳоро дар гӯшаҳои гуногуни олам таъмин кард. Вусъати илмии ин масъаларо метавон дар дигар кутуби муаллифи ин сатрҳо низ назар кард [11, 12, 13, 14, 22].

Нигоҳи устод Айнӣ бошад ҳанӯз сад сол қабл дар ин масъала дурбинона буда, тавонист, ки ҳиссаи арзандаи суханварони форсигӯи сарзамини Чинро дар таҳаввули анъанаҳои назму насри тоҷик берун аз қаламрави Моваруннаҳр низ далолат кунад.

Маълум мешавад, ки адабиёти муҳоҷират низ аз бахшҳои умдаи илми адабиётшиносӣ буда, таҳқиқи он паҳлӯҳои то ҳол норавшани таърихи адабиёти шарқӣ ва минҷумла, адабиёти форсу тоҷикро муайян мекунад. Шинохти ин қисмати таърихии адабиёт, хусусан дар ташхиси суҳуфи норавшани равобити адабии байналмилалӣ судманд ва натиҷабахш хоҳад буд.

АДАБИЁТҲО:

1. Абдуғафуров А. Зокирҷон Фурқат. (Ҳаёти ва иҷоди). – Тошкент: Фан, 1977. – 212 саҳ.
2. Асирии Хуҷандӣ, Тошхоҷа. Ашъори мунтахаб. Мураттиб ва муаллифи сарсухану тавзеҳот С.Асадуллоев. – Душанбе: Адиб, 1987. – 192 саҳ.
3. Бобохонов М. Тоҷикони Чин // Таърихи тоҷикони ҷаҳон. – Душанбе: Маориф, 1999. – 475 саҳ.

4. Елшибаев С. Кокандское ханство в 40-х-70-х годах XIX века: Политический расклад сил (по материалам “Туркестанского сборника”) // Учёные записки. Гуманитарные науки. – №5 (33). Худжанд: Ношир, 2012. – 240 с.

5. История Бадахшана. Подготовил к изданию А.Н.Болдырев. – Ленинград, 1959. – 68 с. Каталог фонда Института рукописей. Ответственный редактор А.П.Каюмов. – Том II. – Ташкент: Фан, 1988. – 396 с.

6. Кутлуков М. Монгольское господство в Восточном Туркестане // Татаро-монголы в Азии и в Европе. – Москва: Наука, 1977. – 504 с.

7. Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий. – Ҷ.1-3. – Тошкент, 1998. – 714 саҳ.

8. Мамадалиев И. Экономический кризис как фактор социальной дестабилизации: Туркестан в конце XIX – начале XX веков // Вестник ТГУПБП. – №2 (54). – Худжанд: Ношир, 2013. – 224 с.

9. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960. – 80 саҳ.

10. Муроди Н. Традиции персидско-таджикской поэзии в уйгурской литературе XVI-XIX вв. – Худжанд: Нури маърифат, 2017. – 404 с.

11. Муроди Н., Ван Юйхун. Китай и персидско-таджикская литература. (Взаимосвязь двух цивилизаций). – Худжанд: Ношир, 2022. – 140 с.

12. Мурод̄ Н. Адабиёти форсизабони Чин. – Ҷ.1. – Душанбе: Ирфон, 2013. – 230 саҳ.

13. Мурод̄ Н. Адабиёти форсу тоҷик дар Кошғар. – Хуҷанд: Ношир, 2016 – 418 саҳ.

14. Мурод̄ Н. Кошғар ва водии Фарғона: Муҳоҷирати суханварон ва идомаи равобити адаб̄ // Ӯзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Муҳаррири масъул Ш.Воҳидов. – Ҷ.4. – Тошкент, 2013. – 114 саҳ.

15. Муҳтарам. Тазкират-уш-шуаро. Бо тасҳеҳу муқаддимаи А.Ҷонфидо. – Душанбе: Дониш, 1975. – 372 саҳ.

16. Намунаи адабиёти тоҷик. Ҷамъкунанда С.Айнӣ. – Маскав, 1926. – 626 саҳ.

17. Сапаралиев Д. Этнополитическая история Оша и его окрестностей с XVIII до середины XIX в. – Бишкек: Илим, 1999. – 144 с.

18. Таҷаллӣ шеърларидин. Мураттиб М.Муҳаммадӣ. – Урумчи: Миллатлар нашриёти, 2000. – 200 саҳ.

19. Фурқат. Шеърлар. Мураттиб Х.Расул. – Тошкент, 1951. – 52 саҳ.
Фурқат ва Муқимий ҳақида мақолалар. Ҷамъкунанда Ғ.Каримов. – Тошкент, 1958. – 152 саҳ.

20. Чжао Хунцюань, Муроди Н. Зороастризм и персидско-таджикская литература в Китае. – Худжанд: Ношир, 2022. – 244 с.

21. ЭСТ. – Ҷ.7. – Душанбе, 1987. – 640 саҳ.

Xolmuratov Ikrom Oqmanovich,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)
E-mail: xolmuratov1968@mail.ru

AYNIYNING “ESDALIKLAR”IDA TOPONIMIK ATAMALARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli ma’rifatparvar, jadid adabiyotining namoyondalaridan biri, tilshunos olim, jonkuyar pedagog, fan arbobi Sadriddin Ayniyning memuar asari sanalgan «Esdaliklar”dagi toponimik atamalar haqida mulohazalar bildirishga harakat qilindi. Toponimlar obyektlarning qayerda joylashganligi, nomlanish tarixi, onomastik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Chunki toponimika o‘z navbatida tarix, geografiya va arxelogiya singari fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Maqolada yozuvchining o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlari, bevosita shohidi bo‘lgan voqealar, shaxslar, joy nomlari tilga olingan.

Kalit so‘zlar: toponimika, madrasa, mozor, qishloq, guzar, shahar, Kuyukmozor, ariq, arna.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка прокомментировать топонимические термины в “Воспоминания” (“Эсдаликлар”), который считается историческим трудом известного просветителя, одного из представителей современной литературы, лингвиста, страстного педагога, ученого Садриддина Айни. Топонимы помогают определить местоположение объектов, историю их наименования и их ономастические характеристики. Ведь топонимика, в свою очередь, тесно связана с такими науками, как история, география и археология. Упоминаются то, что писатель видел своими глазами, события, лица и места, непосредственным свидетелем которых он был.

Ключевые слова: топонимика, медресе, могила, село, гузар, город, Куюкмазар, ров, арна.

Abstract. In this article, an attempt was made to comment on the toponymic terms in “Esdaliklar”, which is considered the historical work of the famous enlightener, one of the representatives of modern literature, linguist, enthusiastic pedagogue, scientist Sadriddin Aini. Toponyms help to determine the location of objects, the history of their naming, and their onomastic characteristics. Because toponymy, in turn, is closely related to such sciences as history, geography, and archaeology. In this article the events, persons, and places that the writer saw with his own eyes and was a direct witness of are mentioned.

Key words: toponymy, madrasa, grave, village, guzar, city, Kuyukmazar, ditch, arna

Kirish. Jadid namayondalaridan biri sanalgan Buxorolik Sadriddin Ayniy o‘zining kundaliklari sanalgan “Esdaliklar” nomli me’muar asarida XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida xalqimiz bolalariga ta’lim-tarbiya berish maqsadida yangidan tashkil topayotgan ilm dargohlari, ya’niy madrasalar haqida ma’lumotlar ham beradi. Jumladan, Jadidlar, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o‘qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirish, millatni ma’nan uyg‘otish uchun kurash olib bordilar. Ular o‘zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandilar, shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma’naviy rahbari Ismoilbey Gasprali o‘qish-o‘qitish, maktab va madrasa islohotiga oid fikrlari ta’sirida bo‘ldilar [4, 65].

Jahon tilshunosligida nomlar, xususan, oykonimlar milliy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Chunki ularda xalqning milliy belgilari, madaniy-ma’rifiy salohiyati va qarashlari, tabiat va jamiyatga mehr-muhabbat, e’zozu e’tirofi bir butun holda mujassamlashgan.

Ayniy Buxorodagi yangi ochilgan maktab va madrasalar haqida ma’lumotlar berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘sha davr ilm dargohlarining qayerda joylashgani, unda ta’lim-tarbiya beradigan mudarrisi-o‘qituvchilar haqida, o‘qitish usullari to‘g‘risida ham atroflicha ma’lumotlar berishga erishadi. Shuningdek, toponimika bilan bog‘liq bo‘lgan 300 dan ortiq atamalarni keltiradi. Shu bilan bir qatorda

200 ga yaqin kasb-hunarga doir atamalar, madrasada ta’lim olgan taniqli shoir, tarixchi, siyosatshunoslar haqida ham batafsil ma’lumotlar berishga urunganligi “Esdaliklar”da seziladi.

Asosiy qism. Joy nomlari shu qadar ko‘pki, hamma toponimlarning ham ma’nosiga yetib bo‘lmaydi. Nom qancha ko‘p bo‘lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo‘ladi. Hamma nomlardan ma’no qidirib, mazmunini anglashilmagan nomlarni o‘zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo‘lgan ma’naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir [2, 18].

“Esdaliklar” dagi ko‘pchilik toponimlarning (joy nomi) ma’nosini bilish qiyin. Ko‘pchilik nomlar fors-tojik tillariga mansubligini ko‘ramiz. Asosiysi, minglab yillardan buyon nomlar nomlanib, yashab kelmoqda.

Madrasa – so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “o‘qish joyi”, “o‘qitish joyi”, ya’ni oliy o‘quv dargohi sanaladi [1, 521]. O‘sha davrlarda madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlardan matematika, fizika, kimyo, notiqlik san’ati, mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, kalligrafiya, musiqa, tibbiyot, geografiya, astronomiya va boshqa fanlar o‘qitilgan.

Natijalar va muhokama. «Esdaliklar”da madrasa so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha joy nomlari keltirilgan. Jumladan: Mir Arab, Ko‘kaldosh, Badalbek, Ja’farxoja, Gavkushon, Latifjon maxdum, Modarixon, Chorsusi, Olimjon [6, 42-46], Shodimbiy, Muhammadsharif, G‘oziyon, Muhammadali hoji, So‘zangaron, Hoji Zohid, Husaynboy, To‘pchiboshi Mirza Ubayd, Tursunxo‘ja, singari madrasalarning nomini atab o‘tadi.

Ayniy o‘zining «Esdaliklar”asarida keltirishicha, Mir Arab, Olimxon, Badalbek va Ko‘kaldosh madrasalarida ta’lim olish bilan birgalikda ushbu dargohlarda tolibi ilm ahliga darslar ham berganligi, umrining ko‘p qismi madrasalarda ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalalari bilan mashg‘ul bo‘lganligini yozadi.

1. Qishloq so‘zi bilan bog‘liq oykonimlar: Abediy, Azizobod, Bo‘ston, Revzor, Rozmoz[6.198], Ucho‘choq, Kuyukmozor, Qunduz, Kulbai Karamkoron, Kulob, Koshiyon, Husbudun, G‘urbun, Qaltiy, Yapaloq, Karbalo, Soktare, Gala jo‘y, Mahallaibolo, Murg‘ak, Nurota kabi qishloqlar nomi keltiradi.

2. Guzar so‘zi bilan bog‘liq oykonimlar: Chorxaros, G‘oziyon [6, 108], Ko‘chai Sangin, Xojaaspgardon, Siyohkoron, Pochchoqul hoji, Gavkushon, Morkush, Sesuguzar, Siyoh Koron, Ponobiyoz, Chilangar shayx, Aruson (O‘ruson)(O‘rus avliyosi) [10, 60], Xoja Uboiylar guzari, Sari puli Ravg‘angaron, Allofon, Murdasho‘yon, Nog‘orachilar guzari, Mirza G‘afur, Arabon, Sarbonon, Sabungarlar, Qo‘ymurg‘qush, Chubin hammomi guzari, Madoxon, Poyostona [7, 264] guzarlari keltirilgan.

3. Darvoza so‘zi bilan bog‘liq oykonimlar: Samarqand, Shayx Jalol, Talipoch,O‘g‘lon,Imom darvozasi, Qabola, Mozor, Darvozae Imomi, Buxoro kabi darbozalari borligini aytib o‘tadi. Bizga tarixdan ma’lumki XIX asr oxirlarida Toshkentda 12 darvoza, 40 yaqin qabriston (hatto yaponlar qabriston), 150 machit, 26 madrasa, 5 mingga yaqin do‘kon, 200 mahalla, 500 hovuz, 1500 bozor rastasi, 200 ga yaqin mavze (shahar chetlaridagi bog‘ hovlilar, mahallalar) bo‘lgan [2, 104].

4. Tuman so‘zi bilan bog‘liq oykonimlar: Vobkent tumani, Qiziltepa, Karmana, Pirmast, G‘ijduvon, Shofirkon, Xonrabot, Galaosiyo, Sherobod, G‘uzor, Qarshi, Nurota [8, 49], Chiroqchi, Yakkabog‘, Boysun, Shahrisabz, Kitob, Peshko‘ tumani [7, 200].

5. Gidronimlar bilan bog‘liq joy nomlari: Amudaryo, Jayhun [8, 26], Vaxsh daryosi, Sultonobod arig‘i, Ko‘li Jo‘bor (ko‘l), Pirmast arig‘i, Chetariq, Baloyi hovuzi, Jilli ko‘l, Kaspiy dengizi, Narak arig‘i, G‘oziyon hovuzi, Ponob arig‘i, Deshix arig‘i [6, 149], Shahrud arig‘i, Duoba arig‘i, Cho‘bboz labihovuzi, Furot daryosi, Zarafshon daryosi, Arbob labihovuzi, Zerabuloq.

Gidronim (yunoncha gidro-suv, onoma-nom) – suv obyektlarining, masalan, kanal, ariq, anhor, daryo, soy, jilg‘a, irmoq, buloq, quduq, dengiz, ko‘l qo‘ltiq va bo‘g‘oz, sharsharalarning nomlari sanaladi [2, 16].

6. Ko‘cha so‘zi bilan bog‘liq oykonimlar: Labi Rud, To‘qimado‘zlik, Sesu, Degrezon, Usta Ruhiy va ko‘chalar nomlarining borligini yozadi. Nafaqat ko‘chalar nomini keltirib qolmay balki, ularning qayerda joylashganligi, ko‘cha bilan tutash bo‘lgan joy nomlarini atab o‘tadi.

“Madrasa orqasidagi yuqori ko‘chada bir hovli bo‘lib, darvozasi yuqori ko‘chadan, orqasi Qutayba mozoriga tutashar edi, hovli egasining nomi Boboxoja edi. Uning asosiy kasbi chilangarlik, qo‘shimcha kasbi shayxlik edi. Shuning uchun uni Chilangar shayx der edilar” [6, 115]. Bu joyda Chilangar shayx kasbi laqab o‘rnida qo‘llanilgan.

“Chilangar shayx taxminan oltmish yoshda bo‘lib, baland bo‘yli, semiz, yuzi kata edi. Oq soqollari orasida qolgan bitta-yarimta malla tuklar uning yoshlikda sochlari sariq ekanini ko‘rsatadi. Qizil ko‘zlarida va ajin bosgan keng peshanasida qosh va kiprik yo‘q edi” [6, 116].

7. Makrotoponimlar bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari: Balx viloyati, Rossiya davlati, Tojikiston davlati, Moskva shahri, Afg‘oniston Respublikasi, Toshkent shahri, Hindiston davlati [6, 150], Turkiya davlati, Qozon shahri [6, 59], Poris (Parij) shahri, Ko‘histon, Bog‘chasaroy, Chorjo‘y, Jizzax shahri, Termiz shahri, Arabiston, Kavkaz, Eron, Petrburg shahri, O‘ratepa shahri, Buxoro viloyati, Amirobod shahri.

Yozuvchining mohirligi shundaki, o‘sha paytda turli shaharlar bilan, sovda-sotiq, ta’lim-tarbiya borasidagi o‘zaro hamkorlik vaqtida turli shahar va makonlarga bordi-keldiga to‘g‘ri kelgan. Bunday fursatdan foydalangan adib o‘z kundaliklarida yuqorida keltirilgan joy nomlarini tarixga muhrlagan.

8. Nikronimlar bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari: Muslim mozori, Qutayba mozori, Tirgaron gumbazi, Allofon gumbazi, Xo‘ja Muhammad Porron gumbazi, Bahovuddin Naqshband mozori, Xo‘ja Muhammad Turkijangi maqbarasi, Qoramozor [6, 114].

Mozor-O‘zbekistonda toponimlar tarkibida ko‘p uchraydigan termin. Bu so‘z arabcha bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “sig‘inish joyi” demakdir. Har xil “avliyolar” ko‘milgan joy mozor deyilgan. Mozori Sharif (Buxoro yaqinida) [3, 81], Qoramozor (bir necha joyda) kabi mozorlar ana shular jumlasidandir. Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda ayniqsa mozor ko‘p bo‘lgan [2, 81]. O‘zbek tilida ushbu “mozor” so‘zi “qabriston”, “avliyo”, “ziyoratgoh” kabi atamalar bilan ishlatiladi.

Ark-shahar. Buxoro shahridagi shahar nomi. Beklikning odamlari, bekning o‘zi yashaydigan qo‘rg‘on. Ushbu toponim tojikcha *ark* – “shahar qo‘rg‘oni ichida amirbek turadigan qasr” degan ma’noni anglatadi.

XIV-XVasr o‘zbek tilidagi *ark* – “saroy, qasr, baland qo‘rg‘on, ichki qal’a” ma’nolarini ifodalagan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida u “poytaxtdagi qasr, xon yoki amir saroyining mustahkamlangan qismi va shuningdek, saroyning o‘zi” kabi ma’nolarni bildiradi. (O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. II jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbuaa ijodiy uyi, 2024. – 35 b).

Ark ichi – mahalla. Andijon viloyatining eski shahar qismidagi qadimiy mahalla nomlari. “Boburnoma”da yozilganidek, Farg‘ona mulkining XV asrdagi poytaxti Andijondir. Arki 1504-yili Shayboniyxon qo‘shinlari tomonidan vayron qilingan.

Tekshirishlar natijasiga ko‘ra, hovlilar oralab saqlanib qolgan *ark* devorining uzunligi 460 m ga, eni 180 m ga to‘g‘ri keladi (XX asr 60-yillaridagi tekshirishlar). Ark devorining shimoliy qismi hozirgi Haqiqat torko‘chasiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, 1960-yillargacha ham devor qoldiqlari saqlangan edi. Keyinchalik imoratlar ortida qolib ketdi [13, 35].

Jo‘yodoq – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nomning tarkibi ikkita so‘z – *jo‘y* va *odoq* so‘zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *jo‘y* so‘zi “ariq”, “kanal” degan ma’nolarni bildiradi.

Professor T.Nafasov forscha-tojikcha *jo‘y* so‘zining “soy”, “kichik kanal”, “irmoq” kabi ma’nolari borligini ham ta’kidlaydi. Toponimning ikkinchi komponenti – *odoq* so‘zi “oyoq”, “etak” ma’nosidagi so‘zligini ta’kidlaydi.

Demak, Jo‘yodoq – “ariq” (kanal)ning etagi, oxiri” degan ma’nolarni bildiradi. Qishloq nomiga uning geografik o‘rni (ya’ni ariq (kanal) ning quyi qismida, etagida joylashganligi) asos bo‘lgan [13, 125].

Xulosa. Sadriddin Ayniyning «Esdaliklar”memuar asari bilan tanishar ekanmiz, ijodkorning hayoti nihoyatda og‘ir kechganligi, o‘sha davrdagi madaniyat, urf-odatlar, xalqimizning chor Rossiyasi tomonidan tazyiqlarga uchrashi, xo‘rlanishi, shu bilan bir qatorda, o‘zimizning mahalliy boylarimiz tomonidan bechorahol kun kechirishi aniq misollar bilan yoritib berilganligini kuzatamiz. Shu bilan birga, yozuvchi Ayniyning nihoyatda zukkoligi, zamonasi odamlarining fe’l-atvori, so‘zlashish madaniyati, o‘zini tutishi kabi xususiyatlarini ishonarli tarzda bayon qilgan. Asosiysi, o‘zi yashab turgan (qishloq, mahalla, guzar, machit-madrasa, tuman va boshqa toponimik) joy nomlari to‘g‘risida 300 dan ortiq atamalar haqida ma’lumotlar bergan.

Ayniyning «Esdaliklar”me’muar asari bilan Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asar o‘rtasida o‘xshash jihatlar ancha. Bobur “Boburnoma”sida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bevosita shohidi bo‘lgan voqealarni qalamga olgan. Xuddi shu holat Ayniyning “Estaliklar”ida ham kuzatiladi.

“Sulton Ahmad mirzo O‘ratepa va Xo‘jand va Marg‘inonni olib kelib [11, 20], Andijonning to‘rt yig‘ochida, Kubog‘a tushti. Bu fursatta, Darvish Gov otliq Andijonning arbobidin nomunosib so‘z aytqon uchun, yasoqqa yeti. Bu siyosattin tamom el bosildilar.

Sulton Ahmad mirzokim, kamsuxan va faqir va odmi kishi edi. Har so‘-un va ish-kuch beklarsiz qaror topmast edi, beklar bu so‘zlarga multafit bo‘lmay, duruslit javoblar aytib, ilgariga ko‘chtilar” [11, 20).

Darhaqiqat, Sadriddin Ayniyning yurgan yo‘llari, tarixiy joy nomlarida: qishloq, madrasa, ariq, guzar, ko‘cha, tuman, shahar va davlat nomlarida muhrlanib qolgan. Tilshunos olim o‘zining bebaho, tarixiy voqealarga boy, oltin gavharlarga teng bo‘lgan toponimlar (joy nomlari)ni kelajak avlodlarga beg‘araz tuhfa etgan.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli) 2-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005-2008. – 522 b.

2. Qorayev. S.Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 104 b.

3. Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? – Т.: Ўзбекистон, 1970. – 82 б.

4. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 268 b.

5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999. – 358 b.

6. Айний С. Асарлар. 8 томлик. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 198 б.

7. Айний С. Асарлар. 8 томлик. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 264 б.

8. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т., 1965. – 50 б.

9. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Т.: Фан, 1985. – 72 б.

10. Xolmuratov I. Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlarining talqini, tasnifi tahlili. – T.: Firdavs-shoh nashriyoti, 2020. – 60 b.

11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti, 2019. – 432. b

12. Xolmuratov I. Janubiy Qoraqalpog‘istondagi birikmali oykonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari \\ International Multidisceiplinury Research in Akademic Science (IMRAS).Volume.7, Issue 03, 2024. – B. 142-146.

13. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. II jildlik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbuaa ijodiy uyi, 2024. – 265 b.

Gayibova Farida Nasritdin qizi,
NavDU magistranti
(O‘zbekiston)
E-mail: gayibovaf78@gmail.com

SADRIDDIN AYNIYNING O‘ZBEK NASRI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va tojik adabiyotining yorqin vakili, Buxoro farzandi – Sadriddin Ayniy asarlari tahlili, uning she’riy va nasriy asarlari va o‘zbek nasriy adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi. Ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, ijodining rang-barangligi ochib beriladi. Adib asarlarida qalamga olingan mavzularning dolzarbligi va uningyangi o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Sadriddin Ayniy o‘zbek va tojik adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvar ijodkor. Ushbu maqola orqali Ayniy ijodining yangi qirralari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek va jahon adabiyoti, roman, qissa, ilmiy tadqiqot, avtobiografik asar, poetika, mumtoz adabiyot.

Аннотация. В статье рассматривается анализ творчества Садриддина Айни, яркого представителя узбекской и таджикской литературы, сына Бухары, его поэтических и прозаических произведений, а также его вклад в развитие современной узбекской литературы. Раскрывается мастерство художника и использовании слова и многообразие его творчества. Обсуждается актуальность тем, отраженных в произведениях писателя, и их вклад в новую узбекскую литературу. Он просвещенный творец, внесший большой вклад в развитие узбекской и таджикской литературы. В этой статье рассматриваются новые аспекты творчества Айни.

Ключевые слова: узбекская и мировая литература, роман, история, научные исследования, автобиографическое произведение.

Abstract. The article examines the analysis of the works of Sadriddin Aini, a prominent representative of Uzbek and Tajik literature, the son of Bukhara, his poetic and prose works, as well as his contribution to the development of modern Uzbek literature. The artist’s skill in using words and the diversity of his work are revealed. The relevance of the topics written in the writer’s works and their contribution to the new uzbek literature are discussed. He is an enlightened creator who made a great contribution to the development of uzbek and tajik literature. This article explores new aspects of Ainy’s creativity.

Key words: Uzbek and world literature, novel, short story, scientific research, autobiographical work, poetics, classical literature.

Kirish. Adabiyot – juda katta, maftunkor va sehrli bir bog‘. Shoir va yozuvchilar, ijodkorlar esa bu bog‘ni gullatuvchi, yashnatuvchi, unga o‘zgacha tarovat baxsh etuvchi va go‘zalligiga go‘zallik qo‘shuvchi bog‘bonlardir. Ular o‘z asarlari, she’rlari va ijod namunalari bilan adabiyot atalmish bu bog‘ning husniga husn qo‘shadilar.

O‘zbek adabiyotini juda ulkan va turfa gullarga boy bir bog‘ desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki undagi gullar kabi bo‘y taratib, o‘ziga rom etuvchi turfa she’r va nasriy asarlar kishilarni o‘ziga rom etadi. Sadriddin Ayniy o‘z asarlari, she’rlari va ilmiy tadqiqotlari bilan bu bog‘ning ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ijodkordir. Ayniy – serqirra qalam sohibi, o‘lmas asarlar muallifi. Yillar o‘tgan sayin adib asarlari o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay, bugungi kunga qadar o‘qib-o‘rganilib kelinmoqda. Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga doir faktlar, uning asarlari, she’riy janr namunalari, xalq og‘zaki ijodiga doir ma’lumotlar, adib yashagan davrning asarlarida aks ettirilishi kabi masalalar A.Xasanov, Osmanova, M.Qo‘shjonov, S.Mirzayev, R.Vohidov, S.Shermuhammedov, N.Karimov, M.Mahmudov, S.Borodin, Sh.Rizayev, S.Mamajonov, Sanjar Sodiq, A.Aliyev singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maqolada lingvistik, germenevtik, biografik, psixologik, analitik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Ayniy – o‘zbek va tojik xalqining farzandi, ikki tilda ijod qilgan zullisonayn ijodkor. U o‘z asarlari bilan ham o‘zbek, ham tojik adabiyoti ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk so‘z san’atkoridir. Adib ko‘plab buyuk insonlarni yetishtirgan shahar – Buxoroda tug‘ildi va shu tuproqda kamol topdi. Ilk ta’limni ham shu o‘lkada oldi va umrboqiy asarlar yaratdi. O‘z ijodini dastlab she’r yozishdan boshladi va nosirlikka tomon qadam qo‘ydi. Asarlarini o‘zbek va tojik tillarida yozdi, arab va

turkiy til imkoniyatlaridan ham keng foydalandi. Adabiyotshunos To‘ra Mirzayev ta’kidlaganidek: “Sadriddin Ayniy ijodi bilan bog‘liq bir muhim masala adabiyotdagi ikki tillilik (bilingvizm) muammosidir” [3, 4]. Bu esa adib asarlarining o‘ziga xos tomonlari e’tirof etilganligini ko‘rsatadi. Adabiyotshunos Majid Hasanov esa: “Sadriddin Ayniy “Namunayi adabiyoti tojik” kitobiga o‘zbek shoirlarini kiritar ekan, ko‘proq ularning fors-tojik tilida yozgan asarlari bilan qiziqadi, tojik adabiyoti taraqqiyotiga o‘zbek shoirlari qo‘shgan hissasini faxr bilan qayd etadi”, – deydi. Ya’ni adib ham tojik, ham o‘zbek ijodkorlari asarlarini o‘rganadi. Undan keyin esa ijodkor adabiyotimiz uchun juda katta qimmatga ega bo‘lgan ko‘plab ilmiy tadqiqitlar olib bordi. Buyuk qalam sohibining ijodi bilan tanishar ekanmiz, unda ham tarix, ham adabiyot, ham pedagogika, ham psixologiyaga doir masalalar yoritilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu esa uning naqadar serqirra ijodkor ekanligini ko‘rsatadi. Ayniy asarlarida, asosan, xalqning ijtimoiy-ma’naviy hayoti, o‘zbek xalqining tarixiy taqdiri va jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurashni aks ettiradi.

Sadriddin Ayniy nasri o‘sha davr tarixi, madaniyati milliy qadriyatlari haqida ma’lumot beruvchi nodir manbalardir. U o‘z asarlarida milliy o‘zlikni, adolatni, ilm-fan va ta’limni targ‘ib qilgan, o‘z davrida o‘zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan va o‘zbek tilida yozilgan adabiy asarlarni keng ommaga tanishtirishda faol bo‘lgan. Adib asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega va bugungi kunga qadar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan emas. Mashhur qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov bundan qirq yil muqaddam bosilgan “Ikki san’atkor” nomli maqolasida “Men Muxtor Avezov bilan Sadriddin Ayniyni doimo hurmat qilishimni, ularni sevishimni kitobxonlar oldida e’tirof etmoqchiman, ularning har ikkisi ham noyob hodisadir”, – deb yozgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ijodkor shaxsi, yozish uslubi, poetikasi, she’riyati azaldan qimmatli bo‘lgan va shundayligicha qoladi.

Sadriddin Ayniy poetik uslubini belgilovchi bosh asos bu tarixiy haqiqatga sodiqlik va rostgo‘ylik hisoblanadi. Uning Rudakiy, Firdavsiy, Sa’diy, Alisher Navoiy va Mirzo Bedil haqidagi ilmiy tadqiqotlarida ham shu xususiyat yetakchi o‘rin tutadi. Turkiy, forsiy, arabiy manbalarni taqqoslab, ilmiy qarashlarini tarixiy fakt, dalil, hujjatlar bilan asoslaydi. Har bir til imkoniyatlaridan keng foydalanadi va o‘sha tilda yozilgan asarlarni chuqur o‘rganib chiqadi. Uning asarlari nafaqat adabiyot, balki tarix fani uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Buyuk olim, betakror shoir va yozuvchi Ayniy ikki tuzumda yashadi. Badiiy asarlarida esa, asosan, o‘tmishni qalamga oldi. Adib turkiy xalqlarning tarixiy o‘tmishiga doir asarlar yozdi va bu tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda o‘rganishda katta rol o‘ynamoqda. Shuningdek, Ayniy o‘z asarlarida turkiy xalqlarni birlashtirish, ularning o‘ziga xos madaniyati va qadriyatlarini tilga oladi. Yangi tuzum aks etgan boblar esa o‘quvchida tarixiy boblar darajasida, deyish qiyin. Chunki o‘tmish mavzusi har doim, har zamonda qiziqarli va sirli hisoblanadi. Shuningdek, Ayniy o‘zbek adabiyotining klassiklaridan biri sifatida o‘zbek tilining rivojlanishiga, uning ilmiy va adabiy boyligini oshirishga katta hissa qo‘shdi.

“Sudxo‘rning o‘limi”, “Eski maktab”, “Esdaliklar” ijodkor olimning shoh asarlari sirasiga kiradi. Bu asarlar tom ma’noda adibga ma’naviy haykal qo‘ygan asarlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bu asarlar Ayniy nomini jahonga tanitdi va jahon adabiyotida ham olim asarlarining katta qiziqish bilan o‘rganilishiga yo‘l ochdi. Ushbu asarlar orqali dunyo xalqi o‘sha davr, tuzum, xalq hayoti va yashash tarzi haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ldi. Tarixdagi ko‘plab voqealarning jonlanishiga, boshqa adiblar ijodida ham aks etishiga sababchi bo‘ldi. Ayniqsa, ijodkorning “Eski maktab” asari o‘zbek adabiyotida katta ahamiyatga ega. Chunki asarda o‘zbek xalqining milliy ruhi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar yoritilgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari o‘zbek qishloqlaridagi hayot va urf-odatlar, an’analarga o‘ziga xos tarzda yondashilib tasvirlangan. Ayniy ushbu asari orqali o‘sha davrdagi ta’lim tizimini tanqidiy baholaydi va eski maktablarning zamon talablariga mos emasligini va ilm-fan rivoji uchun xizmat qila olmasligini ta’kidlaydi. Ushbu maktablarda bilim olgan o‘quvchilar ham jamiyat uchun kerakli shaxs bo‘lib voyaga yeta olmasligini aytib o‘tadi. Turli obrazlar orqali xalq hayotidagi jaholat va bilimsizlikni tasvirlab, xalqni ma’rifatga chorlashga, yangi maktablar tashkil qilishga va ilm o‘rganishga targ‘ib qiladi. Asarning bosh mavzusi ham aynan ta’lim tizimidagi nogironliklar va ommani bilim olishga undashdan iboratdir. Bu asar orqali yozuvchi o‘zining o‘sha davr xalq hayotiga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi va xalqni jaholat va bilimsizlikdan xoli bo‘lgan bir jamiyat qurishga chorlaydi.

Shubhasiz, “Eski maktab” Ayniy ijodining gultoji hisoblanadi va o‘zbek xalqining orzu va armonlarini tasvirlaydi.

O‘zbek adabiyotida ham Ayniy asarlarining qadr-qimmati yuqori. U o‘z asarlari: roman, hikoya va qissalari bilan yangi o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shdi, ko‘plab yosh ijodkorlar uchun ilhom manbayi vazifasini bajardi. Adib o‘zbek nasriga tarixiy qissa, roman-epopeyaning ilk namunalarini olib kirdi. Ilk bora “Esdaliklar”, “Eski maktab” singari tarixiy-avtobiografik qissalar yaratdi va bu qissalar zamonaviy o‘zbek adabiyotida “Bolalik” (Oybek), “O‘tmishdan ertaklar” (Abdulla Qahhor), “Ko‘rgan-kechirganlarim va Navro‘z” (N.Safarov) singari qissalar dunyoga kelishiga zamin yaratdi. Bu asarlar esa zamonaviy o‘zbek adabiyotida eng nodir asarlar sirasidan o‘rin oldi.

“Buxoro jallodlari”, “Muqanna isyoni”, “Temur Malik” nomli tarixiy qissalari esa Ayniyni buyuk tarixnavis sifatida e’tirof etdi. “Buxoro jallodlari” tarixiy qissanavislikning debochasi sifatida o‘zbek adabiyotida shunday qissalar yaratilishi uchun asos vazifasini o‘tadi. Akademik M.Qo‘shjonov ta’kidlashicha, “Bu asar yaratilgan davrda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani O‘rta Osiyoda keng tarqalib, o‘zbek, tojik xalqlari orasida tarixiy tafakkurga qiziqish ortgan davr edi” [1, 18].

Ijodkor “Muqanna isyoni”, “Temur Malik” tarixiy-hujjatli asarlar yaratdi va uni ocherk tarzida ommaga taqdim etdi. Ammo, aslini olganda, bu ikki asar hujjatli tarixiy qissa namunasi sifatida ma’naviy-ma’rifiy xarakterga egadir. U bu asarlari bilan o‘smirlarga mo‘ljallangan tarixiy nasrni boshlab berdi va ijodkorning ushbu asarlaridan ilhomlanib keyinchalik Hamid Olimjon “Muqanna” tarixiy dramasini, Muxtor Ashrafiy esa “Temur Malik” nomi bilan simfonik syutasi va “Muhabbat va qilich” baletini yaratdi. Mirmuhsin esa “Temur Malik” tarixiy romanini yozdi. Ayniyning ushbu ikki asari zamonaviy adabiyotda ko‘plab o‘lmas asarlar yaratilishida turtki vazifasini o‘tadi. Shu boisdan, ko‘plab shoir va yozuvchilar Sadriddin Ayniyni ustoz sifatida ko‘radilar va hanuzga qadar uning adabiy merosi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda, yangi qirralari kashf etilmoqda.

Milliy adabiyotimizda o‘zining buyuk va o‘lmas asarlari bilan iz qoldirgan Oybek ham Ayniy ijodidan ilhomlangan va o‘z asarlarini yaratishda bevosita uning merosiga murojaat etgan. Oybekning “Qutlug‘ qon” romani yozilishida Ayniyning “Yetim” tarixiy-maishiy qissasi xamirturush vazifasini o‘tagan. Har ikki asarda ham sujetlar mushtarakligiga va bosh qahramonlar ruhiy holati, ma’naviy dunyosi ham o‘xshashligiga ko‘zimiz tushadi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Sadriddin Ayniy – nafaqat o‘z davri adabiyotiga, balki zamonaviy davr adabiyotiga ham o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan tengsiz qalam sohibi.

Biz hozirga qadar Ayniyning faqat kichik janrdagi asarlariga murojaat etdik va tahlil qildik, ammo adib katta janrlarda ham samarali va sermahsul ijod qilgan. U o‘zbek adabiyotiga birinchilardan bo‘lib roman-epopeya janrini olib kirgan yozuvchi hisoblanadi. Adibning “Qullar” romani o‘zbek adabiyotidagi eng yirik birinchi roman-epopeyadir. Ushbu asarda xalq hayotining barcha qatlamlari qalamga olingan va xalqimizning bir asrlik hayot tarzi badiiy jihatdan aks ettirilgan. Shu jihatlari bilan ham ushbu asar Ayniy badiiyatining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Adibning o‘zi bilan davrdosh bo‘lgan yozuvchilardan eng katta farqi shundaki, u o‘z asarlarida bosh qahramon sifatida oddiy xalq vakillarini tanlab olgan va shu sababli ham uning asarlari o‘z qiymatini yo‘qotmaydi.

Adabiyotimiz tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur boshlab bergan memuar asar janrini Ayniy ham davom ettirdi va “Esdaliklar” memuar asarini yaratdi. Bu asar yozuvchi hayotining so‘nggi yillarida yaratilgan. Buning sababini esa ijodkor quyidagicha izohlaydi: “Mening fikrimcha, esdalik yozish roman va hikoya yozishdan qiyinroq bo‘lgani uchun bu ishni ko‘proq tajriba olgunimga qadar qoldirgan edim” [1, 96]. Ya’ni adib bunday asar yaratish uchun dastlab katta hayotiy tajribaga ega bo‘lmoqchi va undan so‘ng asarni yaratmoqchi bo‘lgan. Chunki inson yoshi qanchalik ulg‘aygan sari uning hayotga bo‘lgan qarashi, fikrlashi, tajribasi ham o‘zgarib boradi. Qissani hayotining so‘nggi yillarida yozishi esa yetuk bir memuar asar yaratilishiga imkon yaratgan. Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Alisher Navoiy ham o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarini umrining so‘nggi yillarida yozadi va hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlarini xulosa qiladi. Demakki, Ayniy ham bu ikki buyuk ijodkordan ilhomlangan va “Esdaliklar” asarini umrining so‘ngida yaratgan.

Xalq o‘g‘zaki ijodi xazinasi adib ijodining, nasrining yuksalishida muhim omil vazifasini o‘tadi. U bir qancha asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat etadi. “Qullar” romanidagi xalq qo‘shiqlari, “Doxunda” romanidagi aytishuv, laparlar bunga misol bo‘la oladi. R.Vohidov, M.Mahmudovlarning yozishicha: “Rahimdod chalgan nayning nolasi, u kuylagan dardli qo‘shiq Gulsum

va Husaynning badanlarini jimirlartib, mahzun yuraklarga sanchiq solgan mana bu misralar ham “Qullar” romaniga ayricha nafosat, mung, zebolik baxsh etgan:

Dodlama, dodlama, dod sasi galdi
Qarshining cho‘lida yor sasi galdi.
O‘lkadan o‘lkaga el kabi yursam,
Gunlarning birida yor yuzin go‘rsam…”

Haqiqatan, xalq qo‘shig‘idan olingan o‘g‘ir dard samolarga taralgan, qullikka mahkum insonlar qalbiga g‘ulg‘ula solgan” [2, 116] mungli satrlar Rahimdodning ko‘ngil iztiroblarini o‘zida aks ettiradi. Bu kabi misollarni adibning ko‘plab asarlaridan keltirish mumkin va ular xoh nasriy, xoh she’riy janr bo‘lsin asar qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sadriddin Ayniy adabiy merosi necha yillardan buyon O‘zbekiston va Tojikiston tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilmoqda, jiddiy natijalarga erishilmoqda va adabiyot ahliga taqdim etilmoqda. Ammo shunga qaramay, adib ijodining hamma tomonlari to‘la o‘rganildi, deya olmaymiz. Hatto, ijodkorning sakkiz jildlik “Asarlar” to‘plami nashr etilganidan keyingi ellik-oltmish yil mobaynida hali birorta jiddiy tadqiqot yaratilmadi. Shuning uchun ham bugungi kunda Ayniy adabiy merosining yangi jihatlarini tadqiq qilish adabiyotshunosligimizdagi katta muammolardan biri bo‘lib turibdi. So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati tufayli qo‘shni mamlakatlar, jumladan, Tojikiston bilan ham do‘stona munosabatlar o‘rnatildi. Buning natijasida esa, Ayniy ijodini o‘rganishda ham katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. Xususan, so‘nggi yillarda adib she’riy va nasriy asarlarining yangi jihatlari o‘rganilmoqda va keng ommaga tadbiq etilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 272 б.
2. Айний С. 8 томлик. 3-том. Қуллар. –Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1964. – 472 б.
3. Айний С. 8 томлик. 6-том. Эсдаликлар. –Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 208 б.
4. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
5. Қўшжонов М. Айний бадииятининг эволюцияси. – Т.: Фан, 1988. – 102 б.
6. Мирзаев С., Шермуҳаммедов С. Садриддин Айний. Хозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 206 б.
7. https://www.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=1
8. https://www.kh-davron.uz/kutubxona/barchakitoblarpdf.uz

FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,
BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori(DSc)
(O‘zbekiston)
E-mail: shavkat61hayitov@gmail.com
Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi,
Buxoro innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: mahbubaahmadova28@gmail.com

O‘ZBEK YOZMA ADABIYOTIDA “CHOR DARVESH” ASARINING QO‘LYOZMA MANBALARI VA MATNIY TADQIQI TALQINI

Annotatsiya. Maqolada matnshunos olim Ilhom Yo‘ldoshevning Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan “Chor darvesh” dostoni tarjima nusxasini Xiromiy dostoni qo‘lyozma manbalari bilan qiyosiy tahlil etish, bu asarning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini belgilash sohasidagi ilmiy faoliyatiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: “Chor darvesh”, qo‘lyozma, manba, matn, Hindiston, Mullo Qurbon Xiromiy, T.Qorayev, I.Yo‘ldoshev, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kitob, Sharqshunoslik instituti, Qo‘lyozmalar instituti, Mir Ammon Dehlaviy, toshbosma, Mirzo Abulfayz Samarqandiy, hamd, na’t, voqea tizimi, bayon usuli, o‘ziga xoslik, sayyor syujet, nasriy variant, tarjima nusxa.

Аннотация. В статье оценивается научная деятельность текстолога Ильхома Юлдашева в области сравнительного анализа перевода эпоса «Чор дервиш», распространенного среди народов Востока, с рукописными источниками эпоса Хирами и определение места этого произведения в истории узбекской литературы.

Ключевые слова: “Чор дервиш”, рукопись, источник, текст, Индия, Мулла Курбан Хирамий, Т.Кораев, И.Юлдашев, Ташкент, Самарканд, Бухара, Шахрисабз, Китаб, институт Востоковедения, институт Рукописей, Мир Аммон Дехлави, литография, Мирзо Абульфайз Самарканди, восхваление, нат, связка событий, повествовательный метод, оригинальность, мобильный сюжет, прозаический вариант, переводная копия.

Abstract: The article evaluates the scientific activity of the textual scholar Ilhom Yoldashev in the field of comparative analysis of the translation of the epic “Chor dervish”, which is widespread among the peoples of the East, with the manuscript sources of the epic of Hiromi and determining the place of this work in the history of Uzbek literature.

Key words: “Chor dervish”, manuscript, source, text, India, Mulla Kurban Khiromiy, T.Qorayev, I.Yoldoshev, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Shahrisabz, Kitab, Institute of Oriental Studies, Manuscripts institute, Mir Ammon Dehlavi, lithograph, Mirzo Abulfayz Samarkandi, praise, na’t, event system, narrative method, originality, mobile plot, prose version, translation copy.

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligida “Chor darvesh”ning o‘rganilishi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. 1960-yilda asar matni matnshunos olim A.Azizov tomonidan chop ettirildi. Akademik I.Mo‘minov “Zokirjon Furqat hayoti va faoliyatining tarixiy sharoiti” maqolasi hamda “O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan” deb nomlangan fundamental tadqiqotida “Chor darvesh” haqida mulohaza yuritadi. Faylasuf olim o‘zining nomlari tilga olingan tadqiqotlarida Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat “Chor darvesh”ni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganligini chuqur dalillab beradi [13, 23]. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari o‘zbek adabiyotining yirik tadqiqotchisi atoqli olim G‘ulom Karimov ham o‘zining “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1960-yil 1-sonida chop etilgan “Furqatning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati” maqolasida Furqatning “Chor darvesh”ni o‘zbek tiliga o‘girganligi haqida ma’lumot beradi. Zokirjon Furqatning mazkur tarjima asari hozirga qadar topilgan emas.

Asosiy qism. XX asrning birinchi yarmida o‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari bilan jiddiy shug‘ullangan iste’dodli olim O.Sharafiddinov o‘z tadqiqotlarida Siddiqning fors-tojik tilidan tarjima qilgan “Chor darvesh”ning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, o‘zi tomonidan tuzilgan “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”da Siddiq “Chor darvesh”idan namuna sifatida bir hikoyani beradi. Olim shu kitobda Xorazmda “Chor darvesh”ning tarjima qilinganligi haqida xabar beradi. Akademik V.Y.Zohidov ham Siddiq va uning nasriy “Chor darvesh”i haqida mulohaza yuritgan: “Bu davrda yashab ijod etgan yozuvchi Siddiq asli Hindistonda yaratilgan mashhur “Chor darvesh” degan asarni katta mahorat bilan ijodiy suratda o‘zbek tiliga tarjima qildi va o‘zbek adabiyotini boyitdi. Bu asarda, ayniqsa, savdogarlarning xulq-atvori va harakatidagi bir qancha yaramas xislatlar (xiyonat, qalbakilik, aldamchilik va hokazo) fosh qilinadi, tanqid etiladi. Bu asarning eng muhim fazilatlaridan biri shundan iboratki, unda personajlarning psixologiyasi, ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi katta mahorat bilan va juda ta’sirchan ravishda ochiladi, tasvirlanadi” [21, 173-174]. Akademik V.Zohidov “Chor darvesh”ning o‘zbek tiliga tarjima qilingan yana ikkita tarjimasi haqida to‘xtalib, Mavlono Xiromiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimada asl manbaga nisbatan ijodiy yondashilganligini e’tirof etadi. Mullo Qurbon Xiromiy “Chor darvesh”ining original asar ekanligi Toji Qorayev tadqiqotlarida chuqur asoslab berildi. Professor Toji Qorayev “Chor darvesh”ning o‘ndan ortiq qo‘lyozma manbalari va ikkita litografik nashri haqida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tarixida ilk marta batafsil ma’lumot berdi.

Natijalar va muhokama. Toji Qorayevdan 30 yil keyin I.Yo‘ldoshev “Chor darvesh”ning tarjima nusxalari va Xiromiy “Chor darvesh”ini qiyosiy tahlil etdi. Asarning matniy tadqiqini amalga oshirdi va muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqardi. “Chor darvesh” mavjud qo‘lyozmalarini aniqlab, ularning ilmiy tavsifini berdi, ilmiy muomalaga kiritdi. Qo‘lyozma manbalar asosida “Chor darvesh”ning ilmiy tadqiqini amalga oshirdi. Asarning joriy imlodagi nashrlaridan tushirib qoldirilgan qismlar va baytlarni aniqlab, ularni badiiy matn uchun zarurligini ilmiy asoslab berdi. Ustoz Toji Qorayevdan keyin “Chor darvesh”ning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni haqida o‘zining shaxsiy ilmiy kuzatishlari asosida g‘oyatda muhim mulohazalarni ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola etdi.

I.Yo‘doshev “Chor darvesh”ning fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bir qo‘lyozmasini joriy yozuvga transliteratsiya qilib o‘z dissertatsiyasiga ilova qildi. Toji Qorayev tadqiqoti orqali Xiromiy “Chor darvesh”ining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kitob shaharlarida ko‘chirilgan nusxalari ilm ahliga ma’lum edi. I.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqoti jarayonida asarning boshqa joylarda ham ko‘chirilgan nusxalarini aniqladi. Qo‘qonda hijriy 1293 (milodiy 1876) yilda ko‘chirilgan nusxa shular jumlasidandir. Olim mazkur qo‘lyozmani ilk marta tadqiqot ishiga olib kirib, uning ilmiy tavsifini berdi.
I.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotini yaratishda quyidagi manbalardan foydalangan:

1. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Xiromiy “Chor darvesh” asarining 217/II, 359, 2842, 4819, 7713/II, 9251, 1470, 12229, 12430 raqamli qo‘lyozmalari; shu asarning mazkur qo‘lyozmalar xazinasidagi 1210, 11374, 11717 raqamli nasriy tarjima nusxalari;
2. Xiromiy “Chor darvesh” asarining O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar instituti qo‘yozmalar xazinasida saqlanayotgan 2084/I, 2625, 2683 raqamli nusxalari; “Chor darvesh” nasriy tarjimasining 117/II, 2774 raqamli nusxalari;
3. Mullo Qurbon Xiromiy “Chor darvesh” asarining O‘zbekiston Davlat Badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan 1960-yili chop etilgan nashri;
4. Mir Ammon Dehlaviy “Bog‘u bahor” asarining 1989-yilgi nashri;
5. “Chor darvesh” asarining toshbosma nusxalari;
6. Tayanch manbalar sifatida O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan 7713/II hamda 11374 raqamli qo‘lyozmalar.

I.Yo‘ldoshev Xiromiy “Chor darvesh”ining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 7713(11), hamda “Chor darvesh” tarjimalaridan biri bo‘lgan mazkur institutdagi 11374 raqamli qo‘lyozmalarni o‘z tadqiqoti uchun tayanch manba sifatida tanlaydi.

I.Yo‘ldoshev tadqiqotining ikkinchi bobida Xiromiy “Chor darvesh”ining 1960-yili chop etilgan nashr nusxasi Mirzo Abulfayz Samarqandiy tomonidan hijriy 1293 (1876) yilda ko‘chirilgan 7713 (11) raqamli qo‘lyozma bilan chog‘ishtirib tadqiq qilingan.

Haqiqiy san’at asarida ortiqcha, maqsadsiz, muallaq turgan misra, bayt yoki qism bo‘lmaydi. Mumtoz adabiyotimiz namunalarining tug‘rosida turgan hamd-na’tlar asar mag‘zida turgan keng

qamrovli masalalar mag‘zini chaqishga o‘quvchini tayyorlaydi. O‘quvchini har tomonlama shakllangan, iymonli va insofli inson bo‘lib voyaga yetishishi uchun sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Istiqlolga qadar mumtoz adabiyot namunalarining g‘oyat muhim qismi hisoblangan hamd, na’t, munojotlarning nashrdan soqit qilinishi, ma’ruf sharqshunos olim Muhammadjon Imomnazarov ta’biri bilan aytganda “kalla pochasidan” judo etib kelingani nihoyatda adolatsiz xatti-harakatlar edi [1,10]. I.Yo‘ldoshev tadqiqotidan ayon bo‘ladiki, hukmron mafkura tazyiqi ostida qisqartirishlar “Chor darvesh”ni ham chetlab o‘tmagan. An’anaviy, muqaddimaviy qism nashrdan soqit qilingan. Mavlono Xiromiy “Chor darvesh”ni Allohga munojot bilan boshlagan:

Xiromiyga bu lahza ko‘rsat maqom,
Ki maqsad tariqida qilsun xirom.

I.Yo‘ldoshevning aniqlashicha, dostonning o‘quvchini iymon, e’tiqodga da’vat etuvchi hamd va na’t qismi nashrdan soqit qilingan, bu holat asarni ibtidosidan intihosiga qadar iymon va islom e’tiqodidan mahrum etishga olib kelgan. “Chor darvesh”ning 1960-yilgi joriy imlodagi chopi qo‘lyozma manba bilan chog‘ishtirilganda hamd va na’t ruhidagi 24 bayt nashrdan tushirib qoldirilgan. Yaxlit asarning nashr nusxasidagi qisqartirishlar esa 211 baytdan iborat.

Professor Toji Qorayevning aniqlashicha, Xiromiyning asl manbaga nisbatan ijodiy yondashganligi voqeaning qoliplovchi hikoyasidayoq ravshan ko‘rinadi [13, 26]. Dostonning tojik-fors tilidagi tarjima nusxasidan farqi I.Yo‘ldoshev tomonidan ham dalillar asosida isbotlab berilgan. I.Yo‘ldoshevning qat’iy xulosasiga ko‘ra, faqat she’riy janrda yozilganligi uchun emas, Xiromiy dostoni voqealar tizimi va bayon usullaridagi o‘ziga xosligi bilan tarjima nusxasidan keskin farq qiladi. Xiromiy o‘z “Chor darvesh”ini tarjima nusxalardagi mavjud sujet asosida yozgan bo‘lsa-da, uni turli voqealar asosida boyitib borgan. Muallif sayyor sujetli dostonni o‘z zamonasi voqealari bilan mohirona bog‘lay olgan. O‘z shaxsiyati va asarning yozilish tarixi bilan aloqador ma’lumotlarni she’riy matnga san’atkorona singdirgan:

Xaloyiqg‘a mashhur bo‘ldi so‘zim,
Va lekin emas anga loyiq o‘zim.
Bu so‘z nazmiga chun yaqin bo‘ldi til,
Sana erdi ming ikki yuz ellik yil.

“O‘z qobiliyatini ko‘z-ko‘z qilmaslik – hamisha iste’dod kafolatidir”, – deb yozadi V.Shekspir [16, 261]. Xiromiy shaxsiga xos katta iste’dod bilan uyg‘unlashgan xokisorlik “Chor darvesh”dan ko‘chirilgan masnaviyning dastlabki baytida o‘z aksini topgan. Dostondan ko‘chirilgan masnaviyning ikkinchi bayti “Chor darvesh”ning nechanchi yilda yozilganligi haqida aniq va tiniq ma’lumot beradi. Masnaviy satrlaridan aniq bo‘ladiki, asar hijriy 1250-(milodiy 1834) yilda yozib tugatilgan. Xuddi shu sana ustoz Toji Qorayevning nomzodlik dissertatsiyasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan 1795 raqamli “To‘tinoma” (Xiromiy) qo‘lyozmasidan quyidagi iqtibosni keltirish bilan inkor qilib bo‘lmas darajada” (I.Yo‘ldoshev) isbotlab berilgan edi:

Necha qog‘ozni men qaro qildim,
Elga ham arzu muddao qildim,
“Chor darvesh” sari sundim ilik.
Sana erdi ming ikki yuz ellik.

I.Yo‘ldoshev ayni muhim ilmiy haqiqatni professor Toji Qorayevdan 32 yil keyin Xiromiy “Chor darvesh”ning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida 7713 (II) raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi asosida aniqlab, ilmiy jamoatchilikka ma’lum qiladi.

Ustoz Toji Qorayev talqinicha, Mavlono Xiromiy asoslangan nasriy variantda qoliplovchi hikoyadagi voqealar keng, ba’zan tarqoq berilishi bilan birga unda Ozodbaxt bosh qahramon emas, u passiv, g‘arib, darveshnamo odam sifatida namoyon bo‘ladi. Voqealar rivojida uning ta’siri sezilmaydi. Qoliplovchi hikoyadagi voqealarni Ozodbaxt emas, uning vaziri Ravshanroy harakatga keltiradi. Ozodbaxtning o‘zini ham go‘shanishinlikdan shu vazir qutqaradi. Xiromiy qoliplovchi hikoya markaziga bosh obraz – Ozodbaxtni qo‘yadi, Ravshanroy va boshqa vazirlar obraziga sujet oqimidan o‘rin bermaydi. Ozodbaxt obraziga faol harakat bag‘ishlaydi. Xiromiy “Chor darvesh”ining nasriy tarjimadan farqi I.Yo‘ldoshev tomonidan quyidagicha qayd etilgan: “Xiromiy asari ma’lumotlar ko‘pligi, badiiy vositalar, umumlashmalarga boyligi bilan nasriy tarjimadan tubdan farq qiladi” [19, 13]. I.Yo‘ldoshev “Chor darvesh” asari nasriy tarjimalarining janr jihatdan tarkibini ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi:

1. Yozma adabiyotga xos namunalar;
2. Xalq ogʻzaki ijodiga xos namunalar.

Fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Shayx Muslihiddin Sa'diy She'roziy (1189-1292) adabiy merosi teran falsafiy mazmuni, nozik ifoda uslubi, umuminsoniy gʻoyalar talqinida ta'sirchan tasviriy vositalari bilan oʻz zamonasi hamda oʻzidan keyingi davr adabiy-badiiy hayotiga kuchli ta'sir oʻtkazgan [6; 15; 17; 22; 23]. Shayx Muslihiddin Sa'diy adabiy merosidan bizning zamonamizgacha 4 gʻazal devoni, "Boʻston va Guliston" pandnomalari yetib kelgan. Sharq adabiyoti tarixida gʻazalchilikning paygʻambari sifatida tan olingan Shayx Sa'diy gʻazaliyoti nasriy va she'riy "Chor darvesh" yaratgan ijodkorlarni ham gʻoyaviy teranligi hamda yuksak badiiyati bilan e'tiborini tortgan. Ustoz Toji Qorayevning aniqlashlaricha, Mavlono Xiromiy Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Nogoh uqobe zi sari sange havo xost" misrasi bilan boshlanadigan gʻazaliga muxammas bogʻlagan. Muxammasda shoirning dunyo, hayot, inson, noqobil hukmdorlar haqidagi falsafiy fikrlari ramziy tarzda oʻzining chiroyli ifodasini topgan" [13, 19].

Filologiya fanlari nomzodi I.Yoʻldoshev "Chor darvesh" nasriy tarjimalaridan biri Shayx Sa'diy gʻazali bilan boshlanib, ulugʻ fors-tojik shoiri gʻazallaridan biri bilan intiho topganiga e'tiborni qaratar ekan, yozadi: "Sa'diyning ikki gʻazali voqealarga shunday mantiqiy bogʻlanganki, kishida kitobning ibtidosi va intihosidek tasavvur uygʻotadi" [19, 13].

Oʻzbek adabiyotshunosligida ruboiy poetikasi va tarixini oʻrganish sohasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Ruboiyning oʻzbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodida tutgan oʻrni, ruboiy nazariyasiga doir maqola, monografiya va darsliklarda qimmatli mulohazalar bildirildi. Hodi Zarifov, Homil Yoqubov, Abduqodir Hayitmetov, Mahmudali Yunusov, Aziz Qayumov, Yoqubjon Is'hoqov, Rahmonqul Orzibekov, Ibrohim Haqqulov kabi ustoz olimlarning tadqiqotlari shunday ishlar sirasiga kiradi [4; 5; 7; 11; 12; 18; 20].

Ruboiy nazariyasi bilan bogʻliq muhim masalalar talqini iste'dodli tojik adabiyotshunosi X.Mirzozodaning tadqiqotlarida bor [8; 9]. Gʻiyosiddin Muhammad binni Jaloliddin, Shamsiddin Muhammad binni Qays ar- Roziy, Qabul Muhammad, Hazrat Alisher Navoiy kabi mumtoz olimlarning fundamental tadqiqotlariga tayanilgani holda zamonaviy adabiyotshunoslikda ruboiy janri mohiyati, ruboiy vaznlarining shaklari, ichki mohiyati haqida muhim nazariy fikrlar bayon etildi.

Ruboiy nazariyasi, uning qonuniyatlarini oʻrganish "Chor darvesh"ning qoʻlyozma manbalarini tadqiq qilgan I.Yoʻldoshev e'tiboridan ham soqit qolmagan. Badiiy adabiyotning barcha turlari, jumladan, oʻzbek mumtoz she'riyatida shakl va mazmun bir-biridan ajralmaydigan kategoriyalar ekanligini chuqur his qilgan olim talqinicha, olam va odam haqidagi falsafiy xulosalarning san'atkorlik kasb etishi, shakldagi qat'iy qoidalarning ustuvorligi mazkur janrning mohiyatini belgilaydi.

Iste'dodli olim oʻz fikrlarini dalillash uchun yuqorida ayrimlarining nomlari tilga olingan ustoz olimlarning tadqiqotlarida kuzatilmagan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahrida" kitobidan ixcham iqtibos keltiradi: "… soʻzlar ma'lum tartibli boʻlaklarga boʻlinib, bu boʻlaklarni muayyan va bab-barobar mavzun vaznli" [3, 139] deyish mumkin. Zahmatkash olim "Chor darvesh" nasriy tarjimasining 3, 46, 36a, 40, 62-varoqlaridan oʻrin olgan yetti ruboiyni aniqlaydi va ularni mohiyat e'tibori bilan ikki guruhga ajratadi:

1. "Chor darvesh"da talqin qilingan voqealarning she'riy takrori boʻlgan ruboiylar:
2. Alohida hikmat asosida bitilgan ruboiylar.

Shamsiddin Qays ar-Roziyning "Al- Moʻjam fi ma'oyiri ash'oru - l - ajam" asarida masnaviyning shakliy-poetik xususiyatlari toʻgʻrisida aytgan fikrlariga tayanib, zamonaviy adabiyotshunoslikda masnaviyga quyidagicha ta'rif berilgan: Masnaviy arabcha soʻz boʻlib, ikkilik degan ma'noni bildiradi. She'riy terminologiyada har ikki misrasi alohida-alohida qofiyalanib boradigan (har bir bandi ikki misradan tarkib topgan) she'rlar masnaviy-ikkilik deyiladi [11, 125].

Mumtoz she'riyatdagi epik va liro-epik asarlarda eng koʻp istifoda etilgan masnaviyning katta ijtimoiy voqealarni keng rejada yoritish, mavzuni badiiy obrazlar yordamida keng koʻlamda talqin qilish imkoniyatini sharhlashda mumtoz adabiyot tadqiqotchilari Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi satrlariga nazariy asos sifatida tayanadilar:

Lekin ul barchadin dagʻi xubi,
Bordurur masnaviyning uslubi…
Masnaviykim burun dedim oni,

So‘zda keldi vase maydoni.
Vus’atida yuz o‘lsa ma’rakagir,
Ko‘rguzur san’atin bori bir-bir [10, 338].

I.Yo‘ldoshev masnaviy mohiyatini sharhlashda Radiy Fishning Jaloliddin Rumiy “Ma’naviyi masnaviy” kitobi tahlili munosabati bilan aytgan g‘oyatda ohorli nazariy mulohazalariga asoslanadi. Ahamiyatiga ko‘ra, I.Yo‘ldoshev dissertatsiyada keltirilgan Radiy Fishning “masnaviy” xususidagi nazariy fikrlarini to‘liq keltiramiz: “Masnaviy oldindan o‘ylangan rejaga ega emas, hech qanday nizomga bo‘ysunmaydi. Uning yakka-yu yagona nizomi – erkinlik. Fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, holat – kayfiyat erkinligi… Holatlar zanjirbandligi – “Masnaviy”ni olg‘a yetaklovchi omil. Masnaviyda ko‘plab xalqlarning ertak, rivoyat, hikoyat, afsona, maqol va matallari jamuljam. Masnaviy olamni egallashga va o‘z-o‘zini anglashga intilgan inson ruhining buyuk taronasidir” [14, 247].

“Chor darvesh” nasriy variantidagi “Qissai avval”ning 2a, 5, 5a, 7a, “Qissai darveshi avval”ning 9, 12a, 13a, 14, 19, 19a, 23a, 24, 30, 30a, 31a, 33, 34, 34a, 37, 43; Ikkinchi darvesh qissasining 48, 48a, 49a, 51, 52, 53, 54, 60, 60a, 61, 62, 64, 66, Ozodbaxt hikoyatining 81, 84, 88a, 89, 92, 102, 115a, 120a, 122, 122a; Uchinchi darvesh qissasining 139a sahifalaridagi umumiy hajmi 116 misradan iborat baytlar zahmatkash olim tomonidan aniqlanib, chuqur g‘oyaviy-badiiy tahlil qilingan. Olimning aniqlashicha, bir satrdan iborat misra ham, “Chor darvesh” nasriy variantining turli o‘rinlariga mustaqil she’r sifatida kiritilgan. Matndagi bu she’riy tur ikkinchi darvesh hikoyatidagi 62, 63, 65, 65a, Xojai sakparast qissasidagi 121a sahifalarida mavjud.

I.Yo‘ldoshevning ilmiy izlanishlari natijasida ma’lum bo‘ladiki, nasriy matn mag‘zida ruboiy, masnaviy kabi yozma adabiyot namunalari bilan birga folklorga xos afsona, rivoyat, hazil-mutoyiba, maqol kabi janrlar ham katta o‘rin tutadi. Olim o‘z tadqiqotida ayrimlari tilgan olingan xalq og‘zaki ijodi janrlarining har biri haqida fikr yuritadi. “Chor darvesh” nasriy nusxalarining yozma adabiyotga qaraganda xalq og‘zaki ijodi asarlariga, aniqrog‘i xalq qissalariga yaqinligini asoslab beradi.

“Adabiyot – hikmat xazinasi” degan ilmiy haqiqat “Chor darvesh” nasriy variantlarini ichdan nurlantirib turadi. I.Yo‘ldoshevning qat’iy xulolasiga ko‘ra, nasriy matnda talqin qilingan voqealarga mushtarak bo‘lib ketgan hikmatlar “Chor darvesh” umrboqiyligini ta’minlagan omillardan biridir. Mavlono Xiromiyning adabiy mahorati shundaki, iste’dodli shoir hikmatlar nuri bilan yoritilgan voqealarni she’riy shaklda mohirona bergan. Sodda va ravon misralar qatiga hikmatli so‘zlarni san’atkorlik bilan singdirgan. Ijodkorning dostonnavis shoirlar orasida o‘ziga xoslikka erishib, mahorat cho‘qqisiga ko‘tarilganligining muhim yo‘nalishlaridan biri ana shundadir.

“Chor darvesh”ning nasriy va she’riy variantlarida asardagi obrazlar ichki olamidagi farqlarning voqealar rivojiga ta’siri I.Yo‘ldoshev tomonidan sinchiklab kuzatilgan. Olim birinchi darvesh hikoyatidagi majruh qizni davolash voqeasida tasvirlangan tabib timsolining ikki variantda ikki xil xarakterlanishini zukkolik bilan anglaydi. “Chor darvesh”ning nasriy variantida tabib bemor qizni davolaydi. Xiromiy “Chor darvesh”ida esa bemor qizning husnini ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qolgan tabib o‘z nafsi istagiga qarshi borib uni davolashdan voz kechadi. Mullo Qurbon Xiromiy havoyi nafsidan g‘olib kelgan javonmard tabibning bemor qizni davolamaslik sababini quyidagicha badiiy asoslaydi:

Dedikim, muni andaki joni bor,
Ki tangri shifo qilsa imkoni bor.
Muni har kishikim, davo aylagay,
Ham o‘zi vaslini muddao aylagay.
Chu ketdi chiqib andin ul sheri mard,
Davo qilmayin soldi ko‘nglima dard [19, 16].

I.Yo‘ldoshev talqinicha, Xiromiy qahramonlar xarakterini o‘zgartirishi bilan savdogarning bemor qizga g‘amxo‘rligini kuchaytirgan. Nasriy variantdagidan jiddiy farqli ravishda tabibni ilohiy ishq sohibi sifatida tasvirlagan. Nasriy tarjimada zikr qilinishicha, musofirning katta boyligi bo‘lib, uning mol-mulki bir savdogar ixtiyorida bo‘lgan. Musofir mollarini tojirdan qaytarib oladi va ularning hammasini tabibga bag‘ishlaydi. Bor-yo‘g‘idan ajralib, kambag‘allashib qolsa-da, sevgilisining sog‘ayishini istaydi. Ma’shuqasining sog‘ayishi uchun bor bisotidan ajraladi. I.Yo‘ldoshev talqinicha, musofir savdogarning bor bisotidan ajralashi doston voqealarining keyingi rivoji uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Olim “Chor darvesh”ning nasriy tarjimasida qadim Turkiston shaharlari voqelarining bayoniga singdirilgan quyidagi jumlalarga o‘quvchi e’tiborini tortadi:

“Bir navbat otam bu molni Turkiston safaridan keltirgan erdi”.

“Har qaysisiga yuz tumanlik mato xarid qildim. Ikkovini qofilaga qo‘shib Buxoroga ravona qildim”.

“Yemak-ichmakni o‘zimga harom tutib, tillo va nuqta olib, Buxoroga ravona bo‘ldim” [19, 16].

Turkiston va Buxoro iqtisodiy rivoji tarixiga doir bunday qimmatli ma’lumotlar Xiromiy dostonida ham mavjudligini aniqlaydi. Xiromiy “Chor darvesh”ida Kesh mulki muallif tilidan asar ibtidosidayoq tilga olingani dostonda Turkiston shaharlari din-diyonat, tijorat yurti sifatida talqin qilinganligiga dalil sifatida quyidagi baytni keltiradi:

“Qilib Kesh mulkida bir shoh zuhur,
Quyoshdek adolat bila soldi nur” [19, 16].

“Chor darvesh” dostonida qalamga olingan makon g‘oyatda keng. Voqealar Ajam, Chin, Yaman, Shom, Basra, Nimro‘z kabi mamlakatlarda, Kesh va Buxoro kabi shaharlarda kechadi. Dostonning har ikkala nusxasida ham inson mavzusi badiiy talqin mag‘zida turadi. Inson hayoti kechayotgan makon va zamon, davr va muhit tasviri e’tibordan soqit qilinmaydi. Ezgulik va yovuzlikning barcha davrlarda mavjud ekani, adolat va adovat o‘rtasidagi kurashning abadiy va azaliyligi, masofa bilmasligi, jahoniy maydonlarda kechishi va ayni masala “Chor darvesh” nasriy va she’riy nusxalarining tub negizida turishi I.Yo‘ldoshev tomonidan qiyosiy-tipologik tahlil orqali chuqur dalillangan.

“Chor darvesh” boshdan oxir Allohga muhabbat, Yaratganga e’tiqod ruhi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, asar ijodkorlari har bir xalq o‘tmishidagi jaholat, budparastlik, sehr-jodu haqidagi ma’lumotlarni ham e’tibordan soqit qilmaganlar. Qaysi dinga mansub bo‘lishidan qat’i nazar har bir xalqning, millatning ezgu urf-odatlari namuna qilib ko‘rsatilgan. I.Yo‘ldoshev talqinicha, Yaman savdogari sarguzashtidagi Malikaning bazzoz yigit va kanizakni jazolash uchun qo‘llagan tadbiri asnosidagi mehmondorchilik musulmonlarga xos. Ikkinchi darvesh hikoyatidagi No‘mon pirning ko‘ngil qo‘ygan ma’shuqasi hajrida tog‘dan xilvat tanlashi – so‘fiyona holat, ammo o‘zi vasliga yetolmagan, yetisha olmaslikka ko‘zi yetgan qizning toshdan haykalini yasattirishi, unga tirik insonga munosabat qilganday munosabatda bo‘lishi budparastlikdir [19, 17].

Ustoz Toji Qorayevning nomzodlik dissertatsiyasi hamda shu fundamental tadqiqot mazmuni yuzasidan chop etilgan maqola va risolalarida ham mavzuning ayni qirrasi o‘ziga xos uslubda va raviyada zukkolik bilan qalamga olingan. I.Yo‘ldoshev nasriy tarjimadagi ayrim qahramonlarni Mullo Qurbon Xiromiy o‘z dostoniga kiritmaganligini qayd qiladi. “Qissai avval”dagi Ravshan vazir obrazi shunday timsollardan biridir. Mavlono Xiromiyning asl manbaga nisbatan bunday ijodiy munosabati ustoz Toji Qorayev tadqiqotlarida ham e’tibordan soqit qoldirilmagan: “Xiromiy qoliplovchi hikoya markaziga bosh obraz – Ozodbaxtni qo‘yadi, shu hisobdan Ravshanroy obraziga (boshqa vazirlarga ham) asardan o‘rin bermaydi… U (Ozodbaxt – Sh.H) bevosita o‘z fikri-xayoli bilan ish tutadigan kishiga aylanadi. Nasriy variantda Ozodbaxtning ruhiy holati va g‘amgin kayfiyati tufayli og‘ir ton hukmron bo‘lsa (asosan, qoliplovchi hikoya ko‘zda tutiladi), Xiromiy dostonida romantik ruh hukmron” [13, 26]. Professor Toji Qorayev talqinicha, nasriy variantda hamma masala Ozodbaxtning farzandsizligi hamda uning ana shu baxtsizlik yo‘lidagi xatti-harakatlariga bog‘langan bo‘lsa, Xiromiy o‘z “Chor darvesh”ida bu masaladan ikkinchi darajali voqea sifatida foydalangan. Ozodbaxt voqeasi Xiromiy uchun jabrdiyda to‘rt darvesh, xojai sagparast fojiasini ochish uchun xizmat qilgan. Poetik uslubning kuchli hissiyotga, turli tasviriy vositalarga boyligi, vazn va ritmga, qofiya va radifga doir barcha talablarga qat’iy rioya qilinganligi Xiromiy “Chor darvesh”idagi qoliplovchi hikoyaning nasriy variantdagi qoliplovchi hikoyadan ta’sirchan chiqishiga asos bo‘lgan. Qoliplovchi hikoyadan boshlangan bunday ta’sirchanlik dostonning xotimasiga qadar davom etadi. U birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi darvesh sarguzashtlarida va Ozodbaxt hikoyasida yorqin nazarga tashlanadi. Xiromiy ikkinchi darvesh sarguzashtidagi xalqchil lavhalarni, isyonkorlik ruhini kuchaytirgan. Asosiy e’tiborini xalqning haqiqat va adolattalabligini, erkparvarligini ko‘rsatishga yo‘naltirgan.

Nasriy variantda Ravshan vazirni podshoh Ozodbaxt ota o‘rnida ko‘radi. I.Yo‘ldoshev Sharqshunoslik instituti xazinasidagi 1374-raqamli nasriy variant qo‘lyozmasi matniga asoslanib, podshoh va vazir o‘rtasidagi muloqotlarning eng ta’sirchan o‘rinlarini ilmiy mushohadadan o‘tkazgan. Ahamiyatiga ko‘ra, olim tomonidan qo‘lyozma manbaning 4a-varag‘idan olib, tahlilga tortilgan bir iqtibosni keltiramiz: “Podsho bu kun tong-la o‘lim menga yaqindirki, bir farzandim yo‘q. Mendan bo‘lak toj-u taxtimga kim molik bo‘lg‘ay va dushmanimdan intiqom olg‘ay” [19, 18] – deya tushkunlikka

tushadi. Dono vazir uni yo‘lga soladi: “Haq subhanohu taologa shuncha ish (noshukurlik) sizdan sazovor ermasdur. Kufroni ne’mat nuqsoni ne’mat bo‘lg‘ay” [19, 18].

Vazirning gapidan ruhlangan podshoh har kuni tongdan saroy a’yonlari va arkoni davlati bilan diniy muloqot qilishni odatga aylantiradi. Kunduzlari xayr-sadaqa berish bilan, tunda ibodat bilan mashg‘ul bo‘ladi. Nasriy variantdagi ayni voqealar bilan Xiromiy “Chor darvesh”dagi lavhalarni qiyosan nazardan o‘tkazgan. I.Yo‘ldoshev quyidagicha muhim xulosaga kelgan: “Ravshan vazirning asardagi ishtiroki kichik voqeani asarning yaxlit voqeasiga bog‘laydi.

Xiromiy Ravshan vazir zimmasidagi bu “yukni” Ozodbaxtning o‘ziga yuklaydi. Nasriy tarjimada hukmdor qabristonga vazir farzand tilab emas, ko‘ngliga bir farah hosil qilish ilinjida boradi. Xullas, Xiromiy asarida ruhiy holatlarga ko‘proq e’tibor beriladi”.

Uzoq yillar davomida badiiy asarlarimiz mag‘zidagi insonni kamolotga yetaklaydigan tasavvuf g‘oyalari haqida erkin mushohada yuritish imkoniyati yo‘q edi. Tasavvuf nuri bilan yoritilgan satrlar o‘quvchilardan pinhon tutilar edi. Shuning uchun o‘tgan asrning 60-yillarida yaratilgan ustoz Toji Qorayevning tadqiqotlarida Mullo Qurbon Xiromiyning “Chor darvesh” asari tasavvuf ohanglaridan tozalab tahlil qilingan. “Chor darvesh” to‘laligicha tasavvufiy fikrlar bilan yo‘g‘rilganligini, har bir darvesh hikoyati buni isbotlab turganini ustoz T.Qorayev g‘oyatda teran his qilganlar. Ammo hukmron mafkura tazyiqi ostida ularni ko‘rib ko‘rmaslikka, bilib bilmaslikka olishga majbur bo‘lganlar. Ilhom Yo‘ldoshevning “O‘zbek yozma adabiyotidagi “Chor darvesh” asarining qo‘lyozma manbalari va matniy tadqiqi” mavzuidagi tadqiqoti istiqlol davrida (1998) yaratilgan. Istiqlol bergan imkoniyatdan foydalangan olim “Chor darvesh”ni mafkuraviy cheklanishlarsiz tahlil qilgan. Buni nomzodlik dissertatsiyasining uchinchi bobiga qo‘yilgan sarlavhadan ham anglash qiyin emas. I.Yo‘ldoshev dissertatsiyasining uchinchi bobi “Chor darvesh va tasavvuf” deb nomlangan. I.Yo‘ldoshev ilmda tasavvufdagi yo‘nalishlar quyidagilarga bo‘lib o‘rganilganligini qayd qiladi: zohidona, orifona, oshiqona, rindona. Tadqiqotchining qat’iy xulosasiga ko‘ra, “Chor darvesh”dagi Ozodbaxt, uchinchi darvesh – fors podshosi va Basra malikasi tasavvufdagi oriflik maqomiga xosdir. Olim podshohning xalqni sarosimaga solmaslik uchun qabriston ziyoratiga tunda borishi darveshlar unga o‘z dardlarini erkin aytishlari uchun ularga o‘zini yaqin tutishi, fors podshosi va Basra malikasining orifliklari hamda hotamtoylikka umrlarini baxshida etishlarini tasavvufona yo‘nalishda tahlil qilishga harakat qiladi. Tasavvuf va tasavvuf adabiyotining nozikdid bilimdoni Y.E.Bertelsning “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan sharqning o‘zini ham anglash qiyin” [2, 54] – degan ko‘rsatmalariga amal qilib, “Chor darvesh” umuminsoniy mohiyatni o‘zida aks ettirgan asar bo‘lganligi uchun unda tasavvufning dunyoviy masalalari yoritilganligini ilmiy asoslashga harakat qiladi. I.Yo‘ldoshev fikricha, “Chor darvesh”da biror voqea yo‘qki, u tasavvuf adabiyoti bilan bog‘liq bo‘lmasa, asardagi rivoyat va afsonalar o‘quvchini real borliqdan go‘yo uzoqlashtirgandek bo‘lsada, inson siyratida yangi bir olam ochadi. “Chor darvesh”da makkora ayollar, dunyoga o‘ch kimsalar insondagi nafs ma’nosida ham keladi. “Masalan, qahramonlar ko‘ngillari mayl bildirgan ayolga uylanadilar yoki ishqlarini izhor qiladilar. Turli dindagi, turfa xarakterli ayollarning joiz-nojoiz xatti-harakatlari asar qahramonlariga yangidan-yangi savdolar tug‘diraveradi. Darveshlar o‘z ko‘ngillari, mayllari izidan borib, oxir-oqibatda o‘zlarini anglaydilar” [19, 19].

Tadqiqotchi “Chor darvesh” dostonlarining o‘ziga xos talqinlariga tayangan holda, uning diniy-tasavvufiy doston ekanligini tahlilar asosida dalillashga harakat qiladi.

Xulosa. I.Yo‘ldoshev tadqiqotining yutuqlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Olim “Chor darvesh”ning Xiromiyga tegishli Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasidagi 7713(II) raqamli nusxasi hamda shu fonddagi 11374 raqamli tarjima nusxani aniqladi. Ilmiy tadqiqot manbayiga aylantirdi. Ularni manbashunoslik amaliyotida ilk marta tavsif qilib, ilmiy iste’molga olib kiritdi.

2. “Chor darvesh” o‘n yetti qo‘lyozmasining matniy qiyosi ular orasidagi ikki qo‘lyozmaning mukammal va matnni to‘liq ekanligini aniqlash imkonini beradi. Bu qo‘lyozmalar Mavlono Xiromiy qalamiga mansub Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasidagi 7713(II) raqamli nusxasi hamda shu xazindagi 13374 raqamli tarjima nusxadir. Mazkur ikki qo‘lyozma nusxa matnshunoslik ilmi amaliyotida birinchi marta I.Yo‘ldoshev dissertatsiyasida ilmiy tadqiqot manbai qilib olingan.

3. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik va Qo‘lyozmalar instituti (sobiq) xazinasidagi “Chor darvesh”ning nasriy nusxalarini o‘rganish jarayonida 111/II raqamli qo‘lyozma tarjimani XIX asr boshlarida yashab ijod etgan mutarjim Mullo Muhammad Amin, taxallusi Mullo Ahmad al- Xonaqohiy ekanligini aniqladi.

4. Ishda Xiromiy asari qo‘lyozmalarini tarjima nusxalar bilan qiyoslash natijasida Mavlono Xiromiy o‘z she’riy dostonini fors-tojik tilidan qilingan tarjimalarga suyangan holda yaratgan, degan xulosaga kelingan.

5. Xiromiy “Chor darvesh”ni qayta ishlab voqealar bayonida, obrazlar talqinida, muhim yangiliklar kiritganligi haqidagi ustoz Toji Qorayev tomonidan aniqlangan badiiy kashfiyotlar I.Yo‘ldoshev tomonidan yangi ma’lumotlar bilan boyitildi.

6. Sharq adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida sayyor sujetda yaratilgan dostonlarni qiyosiy o‘rganish manbashunoslikda eng muhim masalalardan biridirki, I.Yo‘ldoshev ayni dolzarb muammoni “Chor darvesh” misolida muvaffaqiyat bilan yecha olgan.

7. Kelajakda ishonchli qo‘lyozma manbalar asosida “Chor darvesh”ning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va dostonni nashrga tayyorlash matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda I.Yo‘ldoshev Mullo Qurbon Xiromiyning “Chor darvesh” asari qo‘lyozmalarini nashr nusxalari bilan qiyosiy tahlil etish natijasida asarning 1960-yili O‘zbekistonda Badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan chop etilgan nusxasi katta qisqartirishlar va matniy xatolar bilan e’lon qilinganligini aniqlagan. Bu esa mukammal ilmiy-tanqidiy matn tuzish va dostonni nashrga tayyorlashda asos sifatida xizmat qiladi.

8. “Chor darvesh”ning Xiromiy qalamiga mansub qo‘lyozmasi va nasriy tarjimalarning o‘zaro matniy muqoyasasi I.Yo‘ldoshevni Xiromiy dostoni nisbatan mukammal, badiiy jihatdan yetuk, degan qat’iy xulosaga olib kelgan. Xuddi shunday xulosa ustoz Toji Qorayevning I.Yo‘ldoshevdan 32 yil oldin yaratgan nomzodlik dissertatsiyasida ham bor. Ikki olim qarashlarining uyg‘unligi g‘oyatda muhim ilmiy-estetik qimmatga ega.

9. “Chor darvesh”ning Qo‘qonda ko‘chirilgan, fors tilidan o‘zbek tiliga qilingan nasriy tarjimasi matnshunoslik ilmi tarjibasida birinchi marta I.Yo‘ldoshev tomonidan joriy yozuvga o‘girilib, dissertatsiyaga ilova qilingan. Bu kelajakda asarning nashr qilinishiga va o‘quvchilarning asar mazmuni bilan tanishishiga, tegishli ilmiy xulosalar chiqarishga mustahkam zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ayrim boblar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi f.f.d. M.Imomnazarov // Sharq Yulduzi, 1991. – №1. – B. 2-10.

2. Бертельс Е.И. Избранные труды Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 530 с.

3. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – 160 b.

4. Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. – T.: Fan, 1981. – 98 b.

5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: Fan, 1961. – 530 b.

6. Hayitov Sh. Alisher Navoiyning ko‘ngil gulshani. Buxoro, 2000. – 166 b.

7. Is’hoqov Y. Navoiy ijodida ruboiy janri. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1968. – №9. – B. 23-27.

8. Mirzozoda X. Ruboihoi Abu Abdullo Ro‘dakiy // Ustod Abu Abdullo Ro‘dakiy. – Stalinobod, 1958. – B. 34-38.

9. Mirzozoda X. Ro‘dakiy va takomuloti shakli nazmi ruboiy // Ro‘dakiy va zamoni o‘. Stalinobod, 1958. – B. 44-57.

10. Navoiy A. Xamsa. – T.: Adabiyot va san’at, 1986. – 424 b.

11. Nosirov O. Jamolov S. Ziyoviddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – T.: O‘qituvchi, 1979. – 182 b.

12. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – T., 1976. – 236 b.

13.Qorayev T. Xiromiy. Hayoti va ijodi. – T.: Fan, 1977. – 128 b.

14. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy . – T.: Adabiyot va san’at, 1986. – 248 b.

15. Рахмонов В. Узбекские переводы “Гулистана” Саади Шерози. Автореф. дис.канд. филол.наук. – Самарқанд, 1968. – 24 б.

16. Tafakkur gulshani. – T.: Adabiyot va san’at, 1989. – 262 b.

17. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. – Buxoro, 1994. – 180 b.
18. Yunusov A. Klassik va hozirgi zamon poeziyasida ruboiy. Barhayot an'nalar. – T., 1969. – 208 b.
19. Yo'ldoshev I. O'zbek yozma adabiyotidagi "Chor darvesh" asarining qo'lyozma manbalari va matniy tadqiqi. F.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.,1998. – 24 b.
20. Zohidov.V. O'zbek adabiyoti tarixidan. – T.: Badiiy adabiyot, 1961. – 266 b.
21. Shomuhammedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. – T., 1963. – 128 b.
22. Shomuhammedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm. – T.: Fan, 1981. – 242 b.

Adizova Obodon Istamovna,
BuxDUfransuz filologiyasi kafedrasi professori
(O‘zbekiston)
E-mail: o.i.adizova@buxdu.uz

FRANSUZ TO‘Y MAROSIMLARI FOLKLORINING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya. Maqolada marosimlar keng qamrovli hodisa ekanligi, unga aloqador poetik namunalarning mazmun-mohiyatini chuqur idrok etish uchun folklor tarixidan tashqari turli xil marosim bilan bog‘liq urf-odatlarni, rasm-rusumlarni, ularning tarixiy taraqqiyotini chuqur bilish zarur ekanligi yoritib bertilgan. Unda oilaviy maishiy marosimlar, tug‘ilish, balog‘atga yetish, nikoh to‘yi va o‘lim kabi inson hayotidagi muhim o‘zgarishlarni belgilovchi marosimlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Fransuz to‘y marosimlaridagi jamiyatda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy va diniy ma’lumotlarning rang-barangligi, folklor va odatlar tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi aniq misollar orqali yoritib berilgan. Shuningdek, Fransuz marosim folklori namunalari orasida to‘y marosimi bilan bog‘liq an’analarga alohida e’tibor qaratilganligi haqida so‘z boradi. Maqolada Fransuzlarda oilaviy marosimlarda tantanali tadbir uchun sevgi qo‘shiqlari, davrani ochish, ziyofat va uning torti uchun qo‘shiqlar ijro qilinishi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Fransuz tilidagi qo‘shiqlar ko‘p sonli mehmonlarning tashrifi uchun muhim rol o‘ynashi, hamda ular vaqt sinovidan o‘tgan va bir necha avlodlar tomonidan e’tirof etib kelinayotgan qo‘shiqlar ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: marosim, to‘y marosimi, an’analari, qarindosh, mehmon, kelin va kuyov, bazm, cherkov, urf-odat.

Аннотация. В статье поясняется, что обряды представляют собой комплексное явление, и чтобы глубоко понять суть связанных с ним поэтических примеров, необходимо помимо истории фольклора иметь глубокие знания обычаев, изображений и обрядов, связанных с различными обрядами, а также их исторического развития. Также среди примеров французского церемониального фольклора говорится, что традициям, связанным со свадебной церемонией, во все эпохи уделялось большое внимание. Содержит информацию о семейных обрядах, обычаях, знаменующих важные изменения в жизни человека, таких как рождение, совершеннолетие, бракосочетание и смерть. На конкретных примерах освещено разнообразие социальной, духовно-просветительской и религиозной информации, взаимозависимость фольклора и обычаев французских свадебных церемоний в обществе. В статье приведены сведения об исполнении французами песен о любви для торжественных мероприятий, открытия круга, а также песен для вечеринки и торта в семейных церемониях. Было также отмечено, что важную роль в привлечении большого количества гостей играют песни на французском языке, которые прошли проверку временем и признаны несколькими поколениями.

Ключевые слова: обряд, свадебный обряд, традиция, родственник, гость, жених и невеста, вечеринка, церковь, традиция.

Abstract. The article highlights the fact that ceremonies are a broad phenomenon, and that in order to deeply understand the content and essence of the poetic samples related to them, it is necessary to have a deep knowledge of various rituals, customs, and images related to them, as well as their historical development, in addition to the history of folklore. It also talks about the great attention paid to the traditions associated with the wedding ceremony among the examples of French ritual folklore in all eras. It provides information about family rituals, ceremonies marking important changes in human life, such as birth, adulthood, marriage, and death. The diversity of social, spiritual-enlightenment and religious information in society, the interdependence of folklore and customs systems in French wedding ceremonies are illustrated through specific examples. The article provides information about the performance of love songs for a solemn event, opening the circle, songs for a feast and its cake in French family ceremonies. It is also noted that songs in French play an important role in attracting a large number of guests, and that they are the songs which have stood the test of time and have been recognized by several generations.

Key words: rite, wedding ceremony, tradition, relative, guest, bride and groom, party, church, tradition.

Kirish. Fransuz marosim folklori namunalari orasida to‘y marosimi bilan bog‘liq an’analarga hamma davrlarda ham katta e’tibor qaratilgan. U bilan bog‘liq o‘zgarishlar doimiy qayd qilib borilgan. Fransuz to‘y marosimlari jamiyatda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy va diniy ma’lumotlarning rang-barangligi folklor va odatlar tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi.

Usbu maqolada Fransuz to‘y marosimlarining quyidagi turlari haqida fikr yuritiladi:

1. Tansor to‘ylar. Fransiyada tansor to‘ylar (bals masqués) katta marosimlardan biridir. Ushbu to‘ylarda maskarad, karnaval tashkil etish, tango, vals va boshqalar tashkil qilinadi.
2. Bal Sharita (Sharita to‘yi). Sharita to‘ylari tadbirlarida juda ko‘p yo‘nalishlar mavjud. Ular ham maskarad, tango, vals, fokstrot va boshqa tanlov va o‘yin san’atlari asosida tashkil qilinadi.

Asosiy qism. Ushbu maqolada Fransiyada o‘tkaziladigan to‘ylar haqida so‘z yuritmoqchimiz. Fransiyada davlat hududida kamida o‘ttiz kun istiqomat qilgan, rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan xorijliklarga ham to‘y qilishga ruxsat etiladi. Agar ushbu mamlakatda doimiy qonuniy yashayotgan bo‘lsa, marosim shaharning birorta hashamatli zalida bo‘lib o‘tishi mumkin. Bunda to‘y davlat belgilagan muddat ichida bo‘lishi lozim, shunda bu nikoh boshqa davlatlarda ham tan olinadi.

Fransiyada to‘y tashkil qilish xuddi bayramdek bo‘ladi, shuning uchun uni o‘tkazish ancha qiyin, misol tariqasida Fransiyadagi bir to‘y bilan tanishamiz: mehmonlar, yoshlar, keyin har ikki tomondagi qarindoshlar bir muhim voqeani yengil mehnat faoliyatini ko‘rsatish uchun taklif etiladi. Oradan bir hafta o‘tgach, yosh yigitning uylanish marosimida yana mehmonlar bir guruh bo‘lib kelishadi va ular bilan hashamatli bayram boshlanadi. Bu an‘anaviy to‘y marosimi hisoblanadi. Ba‘zi hollarda to‘ychilar eski fransuz qal‘asini ijaraga olishadi va marosimni bayram sifatida o‘sha yerda o‘tkazishi mumkin. Agar xohlasa, har bir kishi fransuz to‘yini o‘z xoxishiga ko‘ra o‘zgartirishi mumkin. To‘y marosimlari avtomobil va poyezdda ham bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari deyarli barcha fransuz shaharlarida pravoslav cherkovlarida ham to‘y marosimlarini o‘tkazish mumkin. Agar biror tomosha kerak bo‘lsa, to‘yni disneylendlarda ham tashkil qilishadi. Bu to‘y juda jozibali va qiziqarli bo‘ladi. Chunki u yerda har xil o‘yinlar, turli xil tomoshalar tashkil qilish, muzqaymoq yeyish, yana boshqa tomoshalarni ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Natijalar va muhokama. Pravoslav to‘y marosimlarini ko‘plab cherkovlar va soborlarda o‘tkazishadi. Parijdagi eng mashhur joylardan Sen Zhenev’yev, Bois va Aleksandra Nevskogo sobori cherkovlari shular jumlasidandir. Shuningdek, to‘yning nufuzi va hashamatini inobatga olishadi va bunday to‘ylar hammaga yoqadi. Keyin boshqa taniqli dam olish maskanlarida ham to‘y bazmlari uyushtirladi. Sankt-Tropez, Kann yoki Fransiya, Cote d‘Azur kabi mashhur joylar shular jumlasidandir.

Shohona to‘y marosimlarini nishonlashni istaganlar Versal saroyida o‘tkazishadi. Bu binoning ichi juda chiroyli bo‘lib, u yerda to‘y o‘tkazish qiyin hisoblanadi. Chunki, u hududda to‘y qilish uchun ruxsat olish, to‘y mavzusida parkini bezash kabi ishlarni tashkil qilish kerak bo‘ladi. Chunki unda Sena daryosi ustida suzuvchi kema-restoranlar orqali turli manzaralarni ko‘rib borish mumkin. Bu barcha tashrif buyurgan mehmonlar uchun juda noodatiy hamda qulay variant bo‘lib hisoblanadi.

Fransiyada yana boshqa bir udum bor unda, unda bir necha asrlar davomida saqlangan noyob soborlarni gullar bilan to‘yxona kabi bezash va yasatish mumkin bo‘ladi. Hamda har bir gul ramziy ma’noga ega bo‘lib, yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fransiya to‘ylarida ham o‘ziga xos rasm-rusm va marosimlar mavjud. Unda kelin va kuyov – ikkovlari maxsus kosadan sharob ichishi kerak bo‘ladi, chunki bunda kelin-kuyovlar sharafiga an‘anaviy tarzda dil so‘zlari aytilishi lozim. Odatda, bunday hollarda stakandagi sharobdan qoldirish mumkin emas, chunki u juda qadrli bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan urf-odat hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joiz, Fransiya uslubida bayram va to‘y tantanalari tadbirini tashkil etishda gul asosiy rol o‘ynaydi. Buning uchun gullar alohida tayyorlanadi. Unda oddiy narsani arzimas bo‘lsa ham, mehmonlar va boshqa yoshlar uchun mahorat bilan tayyorlash lozim bo‘ladi chunki, betakror bezatilgan to‘y muhiti yaratilishi kerak. Ayniqsa, joylarni bezashda Eyfel minorasi tasviri ifodasi pushti rangdagi gullar bilan bezatilishi kerak. Ushbu joylarda mehmonlar darhol bayramdagi kabi jam bo‘lishadi va chiroyli tarzda yaxshi kayfiyat bilan o‘z tilaklarini bildirishadi.

Fransiyada ham to‘yga nihoyatda jiddiy hozirlik ko‘rishadi. Urf-odatga binoan kelinning uyida o‘tkaziladigan unashtiruv marosimida yoshlar nikoh ahdi haqida ahdi-paymon qilishadi. Ushbu marosim to‘ydan yarim yoki bir yil oldin bo‘lib o‘tadi.

Fransuzlar to‘y kiyimlariga ham katta e’tibor berishadi. Ular to‘yda kiyiladigan ko‘ylaklarning yoshga mos bo‘lishini inobatga olishadi. Ayniqsa, qishloqlarda bunga katta e‘tibor berishadi. To‘y kuni kelin mehmonlar oldida chiroyli kiyimda va belbog‘, fartuk, bog‘ich hamda tuflida bo‘lishi lozim bo‘lgan. Kelinning bunday an’anaviy libosni kiyish odati ham saqlanib qolgan. Ushbu kiyimlarning barchasi ma’lum bir ramzga ega. Misol uchun, kuyov sovg‘a qilishi lozim bo‘lgan bir juft tufli kelin-kuyovning birdamligini ifodalasa, belbog‘ bokiralik belgisidir. Shunindek, kiyimda moviy rangbo‘lishi kerak, biror bir eski narsa misol uchun, buvisidan meros qolgan biror mato va qarzga olingan biror yangi buyum (bu dugonasining ziragi bo‘lishi mumkin) bo‘lishi darkor. Zamonaviy fransuz qizlari yuqoridagi urf-odatlarni to‘la-to‘kis ado etishadi. Biroq to‘ygacha kuyov kelinni ko‘rmasligi kerakligiga ishonishadi va nikohdan o‘tish marosimiga ular alohida kelishadi. Shuningdek, kelinning poyafzaliga ham e‘tibor berishadi, ya’ni poyafzaldan kelinning barmoqlari ko‘rinib turishi kerak. Bu gullar bilan bezatilgan, unga tegishli bo‘lgan poyabzal hisoblanadi. “Parij kelini” degan aksessuarlar tasviri bilan to‘ldiriladi. Kelin pardoz qilishga alohida e‘tibor qaratadi. Albatta, kelin tabiiy ko‘rinishga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

To‘y va motam kiyimlari bu marosim turlariga, ularning tabiatiga qarab farqlangan. To‘y kiyimlari, asosan, yorqin ranglarda, aksar oq rangda bo‘lgan. Zero, ushbu rang baxt-saodat timsoli hisoblangan. Kelinning oq rangdagi libosni kiyishi fransuz va boshqa xalqlarga ham birdek xosdir.

Fransiyada kuyov kelinga yumshoq pushti gul, shokolad va yangi turli xil gullar (Peonies va orkhide) sovg‘a qilishi kerak bo‘ladi hamda stol ustini bezatishi lozim. Barcha to‘ylar singari fransuz to‘ylarida ham musiqa fransuz uslubida bo‘lishi shart. Ular uchun eng yaxshi variant jonli orkestrdir. Fransiya to‘ylarida yoshlar uchun eng yaxshi raqs bu valsdir. Restoranning kiraverishida mehmonlar mezbonlar tomonidan kutib olinadi va tadbir davomida mehmonlarga e‘tibor qaratishib turishadi.

Fransiyada ham o‘ziga xos urf-odat bor. Yangi turmush qurganlar eski an‘anaga sodiq qoladilar va ikki tutqichli katta idishdan o‘zlarining baxtlari uchun suv ichishadi. Fransiyaning to‘y an‘analariga ko‘ra, qarindoshlar va do‘stlar uyning derazalari ostida baland ovozda “konsert” uyushtirishadi va u uyda yangi turmush qurganlar nikoh kechasini o‘tkazadilar. Buning uchun ular qoshiq, qozon, qopqoq va boshqa idishlardan foydalanadilar. Kelin kuyovlar tinch yashashi va nafaqaga chiqish imkoniyatini olish uchun yangi turmush qurganlar mehmonlarga atirlar va ichimliklar olib kelishlari kerak.

Kelin uchun to‘y kuni uning hayotidagi eng muhim kunlardan biridir. To‘y an‘analari mamlakatdan mamlakatga (va ko‘pincha mintaqadan mintaqaga) farq qiladi, lekin ko‘p joylarda umumiy jihatlar ham bor. Masalan, fransuz madaniyatida nikohni maxsus kun sifatida nishonlashga katta e‘tibor qaratishib, maxsus asal oyi o‘yinlari bordir.

Oilada o‘tkaziladigan marosimlar oilaviy-maishiy marosim hisoblanadi. Ular rang-barang bo‘lib, ushbu maqolada uning kattagina qismi to‘y marosimlarini tashkil qilishi haqida gaplashdik. Fransuzlarda ham kelin-kuyovning ota-onasi farzandlariga oila qurish uchun oq fotiha berishadi, ko‘pincha: “Mes enfants! Je ne peux pas résister à votre prière. Soyez heureux!”, (ya’ni “Bolalarim, sizlarning istaklaringizga qarshi chiqolmaymiz. Baxtli bo‘linglar!”) deyishadi. Fransuzlarda ham to‘y nikohsiz o‘tmaydi. Shu kuni kelin oppoq libos bilan otasi hamrohligida cherkov mehrobi yoniga keladi. Cherkovda o‘tirgan yoshi ulug‘ mehmonlar tomonidan “Dieu pour les bénir et a placé le sceau de la sainte approbation de l’Église sur ce mariage”, ya’ni “Robbim ularni marhamatlasin” deyiladi. Bu nikohga muqaddas cherkovda rozilik beriladi.

Fransiyada yigitlarning uylanish marosimida mehmonlar bir guruh bo‘lib kelishadi va ular bilan dabdabali to‘y marosimi boshlanadi. Shuningdek, Fransiyada, to‘ylar uchun maxsus gullar yasashadi. Bu bir necha asrlar davomida yasalgan va saqlangan noyob gullar bo‘lib, faqat to‘yxonani bezash uchun ishlatiladi. Har bir gul va o‘simlik ramziy ma’noga ega b’lib, yoshlar uchun maxsus ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Qishloqlarda eski bir odat bor, bu kunda ertalab kelinning bo‘lajak eri uyidan chiqib, kelinni o‘zi bilan birga ergashtirib olib chiqadi. Bungacha, bolalar kelin va kuyov cherkovga boradigan yo‘liga chiqib, ularning yo‘lini tasma bilan to‘sib olishadi.

Ularda yana bir odat bor Laurel marosimi uchun yo‘lga bir kosa sharob sepiladi va bolalarni u yerdan ketkizishadi. Fransiya to‘ylarida yoshlar hayotidagi kulgili yoki vahshiy sahnalardan ham namoyish etiladi. Shuningdek, to‘ylarning qiziqarli pallasi har doim shampan vinosi bilan an’anaviy sharob ichish odatiga muvofiq boshlanadi. Ushbu tadbirning birinchi qismida tashrif buyurganlarga alohida e’tibor qaratishadi, so‘ng yoshlar barcha mehmonlar oldiga kelishi kerak va ular nishonlashga

kelgani uchun ularga ham rahmat aytib, minnatdorchilik bildirishadi. Shuningdek, to‘ylarga qiziqchilar, ya’ni karikaturachilarni ham taklif qilishadi. Ular mehmonlar orasida kulgili repertuarlar namoyish etishadi. Go‘zal xonimlar uchun o‘yin-kulgi hamda yigitlar uchun fransuzcha shapka bezatish ishini mahorat bilan ko‘rsatib berishadi.

To‘yning fransuzcha uslubi bu mamlakatning eng romantik bayrami hisoblanadi, shuningdek, unda fransuz madaniyati hali ham ushbu maxsus kunni nishonlashga katta e’tibor qaratishi va barchaga birdek ta’sir ko‘rsatishini anglatib turadi.

Fransuzlarda to‘yning 1 yilligi paxta to‘yi deb atalib, to‘y sohiblaiga paxta futbolka va choyshab sovg‘a qilinadi.

To‘yning 2 yilligi charm to‘y deyilib, bilaguzuk, hamyon yoki hatto charm sumka kabi ko‘plab charm sovg‘alar beriladi. Shu kunning ikkinchi yarmida sham yorug‘ida kechki ovqatga taklif qilishadi. To‘yning 3 yilligi – bug‘doy to‘yi. Bug‘doy antik davrdan beri omadli narsa bo‘lib, u kelin-kuyovni baxtsizlikdan himoya qiladi deb qaralgan. Nikohning 3-yili dam olish kunlari qishloqqa borib, non pishirishgan va oshpazlik qilishgan. To‘yning 4 yilligi – mum to‘y. Mum to‘y uchun, birinchi navbatda, aqlga kelgan sovg‘a, shubhasiz, shamdir. To‘yning 5 yilligi – yog‘och to‘y. Unga yurak shaklidagi yog‘och taxtani berish, shuningdek, har xil turdagi yog‘ochdan yasalgan zargarlik buyumlarini sotib olishga e’tibor qaratilgan. To‘yning 6 yilligi – Kipr to‘yi. Kipr to‘yi uchun atir sovg‘a qilishgan. To‘yning 7 yilligi – jun to‘y. Bunda oz-ozdan shirinlik tarqatilgan. To‘yning 8 yilligi – ko‘knori to‘yi. 8 yil turmush qurganingizdan so‘ng, sizning sevgingiz xuddi ko‘knori rangi kabi kuchli bo‘ladi deb, Vintage vinosi keltirilgan. To‘yning 9 yilligi – sopol to‘y. Bunda hech narsa haqida qayg‘urmasdan birga vaqt o‘tkazish ko‘zlangan. To‘yning 10 yilligi – qalay to‘y. Eng chiroyli to‘y fotosurati yoki er-xotin juftligini ifodalovchi foto taqdim qilingan.

Nikohning 11 yilligi – marjon to‘y. Qisqichbaqa va boshqa dengiz mahsulotlari bilan kechki ovqat tayyorlab, oshpazlik mahorati ko‘rsatilgan.

Nikohning 12 yilligi – ipak to‘y. Ipak choyshablar to‘plamini sovg‘a qilishgan.

Nikohning 13 yilligi – vodiy nilufarining to‘yi. Vodiy nilufari novdasi sovg‘a qilib beilgan.

Nikohning 14 yilligi – nikoh yilligi. Unga 14 ta kichik sovg‘a berish lozim hisoblangan.

Nikohning 15 yilligi – billur to‘y yilligi. Muzeyiga tashrif buyurilgan.

To‘yning 20 yilligi – chinni to‘y. Chinni to‘y uchun eri yoki xotiniga so‘nggi 20 yildagi eng chiroyli fotosuratlar va xotiralar bilan foto albom berish va kechki ovqatni taklif qilish ko‘zda tutilgan. Nikohning 25 yilligi – kumush to‘y. Chiroyli marjon yoki chiroyli kumush uzuk tortiq qilingan.

Nikohning 30 yilligi – marvarid to‘y. Sovg‘angiz qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, eng muhimi, birga vaqt o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

To‘yning 35 yilligi – yoqut to‘y. Bu ajoyib nutq so‘zlash uchun ajoyib imkoniyatdir! Bunda istalgan sovg‘ani tanlash mumkin.

To‘yning 40 yilligi – zumrad to‘y. Sevgi maktubi yoziladi va zumraddan yashil bezakli taqinchoq beriladi.

Nikohning 50 yilligi – oltin to‘y. Uylanganiga yarim asr bo‘lgani uchun sovg‘alar, hech narsa oddiyroq bo‘lishi mumkin emas. Masalan, oltin bilan qoplangan atirgul taqinchoq xonim uchun bo‘lsa, janob uchun oltin yeng tugmalari berish mumkin.

Nikohning 55 yilligi – orxidey to‘y. Stolga bir nechta orxidey barglari qo‘yiladi.

To‘yning 60 yilligi – olmos to‘y. Olmosdek qimmatbaho sevgi ramzida shiftga soxta olmoslar osib qo‘yiladi va stol ustiga bir nechta kristall shaklidagi sham ushlagichlar qo‘yiladi.

To‘yning 65 yilligi – atirgul to‘yi. Atirgul daraxti: musiqa asboblari yoki mebel ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan binafsha rang aks ettirilgan ekzotik yog‘ochdan foydalaniladi.

Nikohning 70 yilligi – to‘yning platina yilligi. Bunda abadiy sevgini nishonlash uchun xotiralarga to‘la oqshom tashkil qilinadi. Chiroqlar gulchambarlari, stol choyshablari va aylanuvchi stol kabi oq/kul rangdagi stol bezaklari, er-xotinning eski fotosuratlari va kichik yurak shaklidagi shirinliklar davrani bezash uchun tanlanadi.

Xullas, nikoh to‘yi marosimi fransuz madaniyatida ham ikki yoshning yangi mustaqil hayotga qadam qo‘yishi bilan bog‘liq va ko‘pdan beri kutilgan baxt oqshomi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, to‘yda to‘plangan barcha mehmonlar uchun ham bir umr yodda qoluvchi kun ekanligi bilan boshqa milliy an'analardan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Arnold Van Gennep Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec.

2. Вежбитская А. Сопостовление култур через посредство лексики и прагматики. – М.: Языки славянской культуре, 2001. – 272 с.

3. В.Я.Пропп. Фольклор и действительность. Избранные статьи. – Москва: издательство “Наука”, 1976. – 16 с.

4. Adizova, Obodon. “Folklore in the context of modern culture” центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).

5. Adizova, Obodon. "les contes biographiques et esthétiques" центр научных публикаций (buxdu. uz) 32.32 (2023).

6. Istamovna, Adizova Obodon. “The exceptional in the works of van gennep” international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (2023): 122-125.

7. Adizova, Obodon Istamovna. “History and etymology of the fairy tale” Educational Research in Universal Sciences 2.1 special (2023): 121-126.

8. Adizova Obodon istamovna. “A look at folklore”. Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 88-91.

Pirnazarova Manzura Matnazarovna,
Abu Rayxon Beruniy nomidagi UrDU dotsenti,
filologiya fanlari doktori
(O‘zbekiston)
E-mail: ***manzuramatnazarovna@gmail.com***

DRAMATURGIYADA TARIXIY ANIQLIK VA IJODIY ERKINLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Matjonning tarixiy xarakter yaratish mahorati ochib berilgan. Ijodkorning “Najmiddin Kubro” tragediyasi tahlilga tortilgan. Badiiy asar g‘oyasini chuqurroq ochib berish maqsadida afsona va rivoyatlarga murojaat qilgani yoritilgan. Asarlardagi Najmiddin Kubro kabi tarixan real shaxslar faoliyati orqali umumbashariy masalalar ko‘rsatilganligiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tragediyada milliy vatanparvar obrazi yaratilganiga urg‘u berilgan. Tarixiy shaxs talqini muallifdan tarixiy aniqlik va ijodiy erkinlikni hisobga olgan holda muvozanatli yondashuvni talab qilishi va ushbu yondashuv tarixiy shaxslarning obrazini yanada hayotiy va ko‘p qirrali qilib ko‘rsatishga imkon bergani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy xarakter, tragediya, obraz, mavzu, g‘oya, badiiy tasvir, tarixiy haqiqat, portret, munosabat, qiyofa, taassurot, bayon uslubi

Аннотация. В настоящей статье раскрыто мастерство Омона Матчона как создателя исторических характеров. Подвергнуты анализу трагедия “Нажмиддин Кубро”. В целях обстоятельного раскрытия идеи художественного произведения подробно освещено его обращение к легендам и преданиям. Акцентируется внимание на то, что посредством освещения деятельности таких реальных исторических лиц, как Наджмиддин Кубро, на передний план выдвинуты общечеловеческие аспекты бытия. Также подчеркивается, что в трагедии создан образ национального патриота. Выявлено, что интерпретация исторического лица требует от автора взвешенного подхода с учетом исторической точности и творческой свободы, что позволяет более живо и многогранно показать образ исторических личностей.

Ключевые слова: исторический характер, трагедия, образ, тема, идея художественное изображение, историческая правда, портрет, отношение, внешний вид, впечатление, стиль изложения.

Abstract. This article reveals Omon Matjon’s mastery of creating historical characters. The tragedy “Najmiddin Kubro” by O.Matjon have been analyzed by the author of the article. O.Matjon turned to legends and myths in order to reveal the idea of the work of art in more depth. The author focused on universal issues by revealing the activities of historically real figures such as Najmiddin Kubro in his literary works. It is also emphasized that the tragedy creates the image of a national patriot. It is revealed that the interpretation of a historical figure requires a balanced approach from the author, taking into account historical accuracy and creative freedom, and this approach allows us to make the image of historical figures more realistic and multifaceted.

Key words: historical character, tragedy, image, theme, idea, artistic imagine, historical proportionality, portrait, attitude character, appearence, impression, style of expression.

Kirish. Omon Matjon iste’dodli realist ijodkor sifatida o‘z ideallarini ifoda etish maqsadida tarixda yashab o‘tgan, xalqimiz uchun qadrli bo‘lgan va butun dunyo tan olgan buyuk alloma shaxslarning obraziga murojaat qilgan. Aniq tarixiy dalillarni va tarixiy shaxslar haqidagi afsona va rivoyatlarni o‘rgangan, asarlariga singdirib yuborgan. Ijodkor asarlarini kuzatar ekanmiz, buyuk va oddiy insonlarning qalb go‘zalliklarini, zamon, umr, xalq, odamlar taqdiri va kelajagi bilan bog‘liqligi, vatan oldidagi burchi kabi mavzular shoir ijodining asosiy mazmuni ekanligiga amin bo‘ldik. Omon Matjon uslubini belgilovchi muhim omillardan yana biri – chuqur va purhikmat fikrlardan iborat ichki dramatizmdir.

Badiiy asarda tarixiy shaxs talqini asar muallifi, janri va shakliga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Biroq, bunday talqin muayyan g‘oyalar yoki tushunchalarni yetkazish, shuningdek, o‘quvchi yoki tomoshabinga hissiy ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, tarixiy adabiyotda tarixiy shaxslar ko‘pincha qahramon yoki uning ziddi, kuchli yoki kuchsiz, ideal shaxs yoki jinoyatchi sifatida namoyon bo‘ladi. Mualliflar ushbu shaxslardan tarixiy voqea va hodisalarga nisbatan o‘z qarashlarini singdirish, shuningdek, muayyan g‘oyalar yoki xatti-harakatlar namunalarining ahamiyatini ta’kidlash uchun foydalanishlari mumkin.

Asosiy qism. Ma’lumki, yozuvchining yozgan asari zamirida katta ijtimoiy mazmun, katta ijtimoiy dard yotmasa, unday asarning hech kimga nafi tegmaydi. “To‘rabekaxonim”, “Najmiddin Kubro”, “O‘n uchinchi eshik”, “Pahlavon Mahmud” kabi asarlar xalqimizning tarixiy hayotiga bag‘ishlangan. Tarixiy faktlarga, mashhur olimlarning asarlariga tayanilib, shuningdek, tarixiy shaxslar haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlarga asoslanib yozilgan bu ijod namunalarida qadim ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi, ilm-fanni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, insonparvarlik yo‘lida olib borgan faoliyatlari aks ettirilgan. Shoirning o‘zi asarlarini yozish jarayonlarini shunday izohlaydi: “…biz yoshlikdan yaxshilik, ezgulik, inson zotiga shafqat-muruvvat g‘oyalari ruhida tarbiya topganmiz. Bizning bugungi kamolotimiz shu g‘oyalarni qanchalik amalga oshira olishimiz bilan belgilanadi [3, 292].” Omon Matjon insonlardagi ezgu fazilatlarning yanada kamol topa borishi, shu yo‘l bilan inson g‘ururi va qadrininig ulug‘lanishi uchun kurashdi. U ijodkor sifatida hayotning, insonlarning, tabiatning turli ezgulik tomonlarini qalamga olishni ma’qul ko‘rgan. Uning she’riyatida ham, dostonlarida yozuvchidagi haqiqat va adolatga, inson qadri va g‘ururiga e’tiqod tuyg‘usi asarning umumiy ruhi, sujet xarakteri obrazlar faoliyatini badiiy talqin etishda o‘ziga xos tamoyil tarzida anglashiladi.Tarixiy dramaturgiya uzoq va boy tarixga ega bo‘lib, bu jarayonda tarixiy talqin masalasi markaziy o‘rin tutadi. Lekin qanday qilib tarixiy shaxsni sahnada asliyatiga yaqin tasvirlashimiz mumkin? Bu jarayonda qanday usul va yondashuvlardan foydalansa bo‘ladi? Bu masalada bir necha nuqtaga e’tibor qaratish lozim ko‘rinadi. Jumladan, tarixiy shaxslar talqini. Tarixiy shaxsni talqin qilishning birinchi bosqichi tarixiy manbalar va hujjatlar tahlilidir. Sahna asarlari mualliflari tarixiy shaxsning hayoti va xarakterini, ularning motiv va maqsadlarini sahnada to‘g‘ri yetkazish uchun nihoyatda puxta o‘rganadilar. Tarixiy fakt va hujjatlarni tahlil qilgandan keyin dramaturg oldida tarixiy shaxsni talqin qilish vazifasi turadi. Ular sahnada ishonchli va jonli obraz yaratish uchun tarixiy personaj xarakterining mohiyatiga kirib borishi, uning motivlari va his-tuyg‘ularini tushunishi kerak. Tarixiy shaxs talqini dramaturgdan tarixiy aniqlik va ijodiy erkinlikni hisobga olgan holda muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Masalan, “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasidagi piri murshid tomonidan aytilgan “Zobitlar almashar, shajaralar uzilar. Vatanning nomlanishi o‘zgarar, ammo uning asli, ma’nosi o‘zgarurmi?! Kecha afrigiylar, g‘aznaviylar, somoniylar... Bugun xorazmiylar, ertaga butunlay boshqa urug‘-amirlar kelur! Ammo bularning barchasi tuprog‘imizning mo‘tabar onalik yorlig‘i tuqqan go‘shalik mavqeini o‘zgartirgaymu?! Yo‘q! Gap fuqarolarning aql-idroki, kuch-qudrati, istaklari kimga, nimaga yo‘naltirilganida!” [5, 73] degan so‘zlari tarixiy aniqlikdan ko‘ra afzal deb topilgan ijodiy erkinlik mahsulidir.

Fojiada dramaturg asarni o‘qigan yoki sahnada tomosha qilgan kishilarda aziz avliyoning so‘zlari sifatida ta’sir qilishidan umidvor hamda shu mas’uliyatni anglagan inson o‘laroq Shayx Najmiddin Kubro tilidan aytilgan har bir so‘zga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, Shayx Najmiddin Kubro “Odob us-sufiyya” (So‘fiylar odobi”) asarida (tariqatdan ta’lim beradigan) “O‘sha pir shariat, tariqat va haqiqat ilmlari sohibi bo‘lsin hamda usuli dinda olim, tariqatda orif bo‘lsin. Shariat odoblarini tariqat va haqiqat sirlari orqali anglagan bo‘lsin. Tokim muridda shariat masalalarida biror mushkulotga uchrasa o‘z ilmi orqali uni muridga yechib bera olsin” (A’zamjon Toshboyev tarjimasi [8, 43]) – deydi. Najmiddin Kubro “Usuli ashara” asarida yozadi: “Shayx valiylik suvi ila murid vujudidagi kirlarni va unga keyinroq ilashadigan chirkinliklarni poklaydi”. “Valiylik suvidan maqsad ilohiy fayzdurki, inson bu doira ichiga kirmaguncha o‘sha fayzni ko‘nglidan o‘tkaza olmaydi” [8, 43]. Fojiada Shayx tilidan aytilgan “Yovuzlar-fitnakor, xudkashlar emin-erkin, adovat yo‘llari to‘silmagan zamonda yaxshilar ko‘nglida aziz xislatlar susayadi, eranlar ko‘kragida shijoat alangasi pasayadi, fayzu fazilatlar o‘rnini tahlika, sabrsizlik oladi” [5, 88] so‘zlari bir tomondan Shayx Najmiddin Kubroning murshidlik salohiyatini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan tarix fonida zamon muammolari, ehtimol, barcha zamonlar muammolarini o‘rtaga tashlashdir.

Tarixiy shaxsning talqinidan asarda dramatik keskinlikni yaratish uchun ham foydalaniladi. Masalan, muallif o‘quvchi yoki tomoshabinda hamdardlik yoki rag‘bat hissini uyg‘otish, shu orqali asarga, uning qahramonlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadida tarixiy shaxsni ma’lum bir nuqtai nazardan ko‘rsatishi mumkin. Biroq, bunday talqin, ayniqsa, muallif noto‘g‘ri yoki haddan tashqari soddalashtirilgan talqinni ishlatsa, bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda

tanqidchilar, muxlislar asarda tarixiy shaxs yoki tarixiy voqealarni to‘g‘ri aks ettirilmagan, degan haqqoniy e’tirozni bildirishlari mumkin.

O‘zbek tarixiy dramalari shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rgangan D.Rahmatullayeva ta’kidlaganidek, “O‘zbek tarixiy dramalarining aksarini tarixiy-biografik xarakterdagi asarlar tashkil qiladi. Xalqning buyuk o‘tmishdoshlari, jamiyat va xalq hayotida muhim o‘rin tutgan shaxslar hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish natijasi sifatida dunyoga keladigan bu kabi asarlarning o‘ziga xosligi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligiga biografik turga mansub ekan, bu asarlarda tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima asliga (prototipiga) asoslanishidadir. Tarixiy mavzudagi dramalarning aksari tarixiy-darajasi, ularning o‘z tarixiy prototipiga muvofiqligi va birikuvi oqibatida yuzaga kelgan xarakterlarning o‘z munosibligini aniqlash muhimdir” [7, 19].

Omon Matjon “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasini yozish uchun katta ko‘lamdagi manbalarni o‘rganib chiqdi. Ma’lumki, Najmiddin Kubro faoliyati Ibn al Asirning “Al-komil fi t-tarix”, Juvayniyning “Tarixi jahongushoy”, Rashididdin Fazlullohning “Jome at - tavorix”, Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul- avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoim ul- muhabbat”, Ali Safiyning “Rashohotu aynil – hayot”, Sayfiddin Boharziyning “Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob”, Ibn al-Karbaloyining “Ravzat ul-jinon”, Hamdulloh Qazviniyning “Tarixi guzida”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Abulg‘oziyning “Shajarayi turk” va boshqa manbalarda aks etgan. Shu bilan birga Najmiddin Kubro haqida xalq og‘zaki ijodidagi obrazi haqidagi qissalar va manoqiblar ham mashhur bo‘lib, “Shayx Najmiddin Kubro qissasi”, “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro”, “Ibn Xojib qissasi” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Asarda qalamga olingan davr Muhammad Xorazmshoh hukmronlik qilayotgan davr edi. Uning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdining, Xorazm ijtimoiy-adabiy muhitida ulkan mavqega ega bo‘lgan mutasavvuf olim, Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning istilochi bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi xalq xotirasida, folklor namunalarida va vatanimiz tarixida oltin harflar bilan yozib qoldirilgan. Tarixdan bilamizki, Najmiddin Kubro o‘zining jonidan kechib bo‘lsa ham Vatanini himoya qilish va shu yo‘lda jon berish darajasidagi ta’limotni olib kirdi. Omon Matjon mazkur tragediyasida milliy vatanparvar obrazini yaratadi. Ushbu tragediyada voqelikni teran, haqqoniy tasvirlanishi, inson ma’naviy dunyosining chuqur tahlil etilishi, vatanparvarlik tuyg‘usining ehtiros bilan ifodalanishi yotadi. Tarixdagi o‘tkir ijtimoiy-siyosiy muammolar, keskin konfliktlar vositasida zamon ruhi va kurashchan qahramonni ko‘rsatishga urinish turadi.

Natijalar va muhokama. Omon Matjon shaxsiyati, shuuridagi ko‘pgina fazilat, tuyg‘ularning Najmiddin Kubro qiyofasida namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan shoirning o‘zi yaratgan obrazga qalban va ruhan yaqinlik mavjudligini ko‘ramiz. Tragediyada Najmiddin Kubro shaxsi, ruhi va tafakkuri bilan tanishar ekanmiz, beixtiyor ko‘z ongimizda vatanga, xalqqa mehr-muhabbati, haq va adolatga e’tiqodi, el-yurt tinchligi yo‘lida kishilarni yakdillikka, fidokorlikka chorlagan inson namoyon bo‘ladi. Anglaymizki, ijodkor tabiatiga, ruhi va tafakkuriga xos fazilatlarning obrazga “singishi” uning jonli, ta’sirchan, hayotiy bo‘lishini asoslaydi. Omon Matjon ijobiy qahramonlarini haqiqat va adolatga e’tiqodini ta’kidlashini xush ko‘radi. Ijodkorning she’rlarida, “Gaplashadigan vaqtlar” dostonida, shu jumladan “Najmiddin Kubro” va “To‘rabekaxonim” kabi tarixiy tragediyalarida ham shu holatlar namoyon bo‘lgan. Asarda tasvirlangan kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshoh, Turkan xotun va yovuz bosqinchilar mukammal bo‘yoqlarda chizilgan. Ijodkor olis o‘tmish voqealarini ko‘z oldimizda mukammal gavdalantirish uchun etnografik materiallarga ko‘p murojaat etadi. Masalan “Najmiddin Kubro” tragediyasining boshlang‘ich sahifalarida Shayx Najmiddin Kubro xonaqohi tasviri beriladi. Olisda Jayxun yarqiraydi, deya ta’kidlanadi. Xonaqohda darveshlarning zikr tushish holatlari talqin qilinganki, bu tasvirlardan kubroviya tariqatining o‘ziga xos xususiyatlari Shayx xonaqohidagi holatlar orqali yoritilgan. Shuningdek tragediyaning 11-betidagi parchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ya’ni: “Ikkovlari yetaklashib ketishadi. So‘ridagi chalg‘uvchi endi yuksak ohangda “Saqili navo”ni boshlaydi” kabi jumlalarni kiritadi. Ma’lumki, “Saqili navo” deganda xorazmliklargagina xos bo‘lgan betakror kuyga urg‘u beriladi. Bu kuy mohiyati, Xorazm xalqining mashhur kuyi ekanligi, yurt tarixida bu kuy muazzam shodlik ekanligi haqida shoir “Saqili navo” degan she’rini ham yozgan [4, 100]. Omon Matjonga ushbu fojiani yozishda ilhom manbalaridan biri “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro” bo‘lganiga shubha yo‘q. A.Bektasheva yozishicha, asarni ilk bor tadqiq etgan olimlar, aksariyat holda, unda zikr etilgan voqealarni

bayon qilish bilan chegaralanishgan. Turkman olimi N.Halimov esa uning tarixiylik qiymatiga e'tibor qaratadi va asar Rashididdinning "Jome'"sidan ilhomlanib yozilgan, degan fikrga keladi. Ammo ular manoqibning manbasi, undagi obrazlar, prototiplar xususida aniq bir xulosa berishmagan". Olima "mazkur manoqib Abdurahmon Jomiyning "Nafahot" va Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asari ta'sirida yaratilgan. Shuningdek, undagi mulla Abdurahmonning prototipi Najmiddin Kubroning xalifasi Shayx Raziiddin Ali Lolo, birvarakay uchta obraz – shahzoda Abdulloh, Bag'dod tabibining o'g'li Jamiljon va juhud bolakayning prototipi esa Shayxi Valitaroshning ikkinchi bir xalifasi Shayx Majididdin Bag'dodiydir [2, 15]" – degan xulosaga keladi. Omon Matjon esa fojiada Abdul Jalil obrazi orqali manoqiblarda aks etgan voqealikni tasvirlashga intiladi. Natijada Abdul Jalil ukasi Abdul Xalil juftligida o'ta reallashadi, voqealar o'ta hayotiy tus oladi. Shayxning xun to'lashga rozi bo'lib, uzrxohlik bilan xonaqohga kelgan Xorazmshohga javobi manoqiblarda bitilganidek keskin ohangda berilgan: "Meni chopganida, mening jonimni olganida, meni jannati-yu, o'zini bihishtiy aylar erdi! Ulug shoh ham xijolat azobida turmagan bo'lar edilar. Bilmadim bu savob endi kimda ketadi!" [5,53]. Asarda O'zloq shoh va Jaloliddin siyosat dunyosidagi raqiblar emas, ma'nan bir-birining ziddi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ham Omon Matjonning dramaturg sifatidagi mahorati bo'lib, bu holatda ularning siyosiy muxolifati ildizlarini ochib beradi. Mana, Jaloliddinning ulug'vorligi va sha'ni manguligining siri: "(Jaloliddin): "...gar saltanatning quroldorlik majburiyati yelkamda bo'lmaganida, qolgan umrimni eshigingizning farroshi bo'lib o'tkarurga rozi erdim, pirim,.." [5, 53].

Omon Matjon imkon qadar Shayx Najmiddin Kubroning o'z so'zlari bilan aytgan g'oyalarni zamon tilida bayon qilishga harakat qiladi. Ularning aksarini Shayx qalamiga mansub ruboiylar tashkil qiladi. A.Bektasheva yozganidek, ilmda Shayxning shoirligi borasidagi bahs-munozaralar hanuz uzil-kesil yechimini topmagan. Turk olimi M.Qora uning shoirligiga shubha bildiradi va: "Favoyih ul-jamol"dek boshdan-oxir nozik va psixologik tahlillarga to'liq bir asarda she'rga o'rin berilmasligi g'alatdir", – deydi. Adabiyotshunos I.Haqqulning fikricha esa, aynan "Favoyih"dagi yuksak badiiy uslub, betakror tasvir va bayonlar Kubroning shoirligiga dalolat qiluvchi asosdir. Najmiddin Kubroning she'rlari bir to'plam shaklida yetib kelmagan bo'lsa-da, uning "Risolai fil-faqr" asari boshdan-oxir iyjoz va sajh usulida yozilganligi Shayxning arab tilida yuksak badiiy mahoratga ega bo'lganligidan darak beradi. Shuningdek, muallif risolaning ilk fasli bo'lmish hamd va na't qismi xotimasida 4 bayt, risola oxirida esa "Men holimni izohlash maqsadida o'zim haqimda quyidagi baytlarni yozdim", deya malomat mazmunida bitilgan 7 bayt she'rni keltiradi. Omon Matjon ijodida Shayx Najmiddin Kubro bilan bog'liq jihatlar o'z xarakter va ko'lami bilan bir-biridan farqlanuvchi tiplarga ajraladi: 1. Shoir lirikasida Najmiddin Kubro g'oyalaridan ta'sirlanish. 2. Najmiddin Kubro obrazini yaratish orqali ijodkor ruhiy olamida piri komil siymosi aksi. Shu bilan birga Omon Matjon shuurida Shayx Najmiddin Kubro obrazi paydo bo'lishi manbalari ham qator xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bular: xalq og'zaki ijodi, mumtoz manbalar, ilmiy manbalar.

Voha yoshlari qadimdan Shayx Najmiddin Kubro haqida ota-bobolardan qolgan rivoyatlar orqali uni tanishadi. Ulardan biri "Jamiljon qissasi" bo'lib, unda yosh avlod ilk bor Najmiddin Kubro haqida eshitadi. Bundan tashqari, Omon Matjon tarbiya topgan muhit va zamonda bolalarni Ko'hna Urganchga ziyoratga olib borish, Najmiddin Kubro qabrini ziyorat qilish taomili va imkoni bor edi. Keyinchalik oliy tahsil jarayonida shoir Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari bilan tanishadi. Hazrat Navoiyning bu asari garchi katta qisqartirishlar bilan nashr qilingan bo'lishiga qaramay, unda eng ko'p o'rin Najmiddin Kubroga ajratilgan. Shoirning "Shayx Najmiddin Kubro" tarixiy fojiasida Alisher Navoiy keltirgan ma'lumotlar muallif zehniga kuchli ta'sir o'tkazgani sezilib turadi. Undan tashqari, Alisher Navoiy hazratlarining o'zi ham Najmiddin Kubro muxlislaridan biri ekani har ikkala daho dunyoqarashidagi ko'plab umumiyliklar, qarashlar yakrangligida ko'zga tashlanadi. Masalan, Alisher Navoiy forsiy qasidalaridan biri – Muhammad alayhissalom na'tidagi "Ayn ul-hayot" ("Hayot bulog'i") qasidasida shunday yozadi:

Hast mashhur in, ki Nachmiddin vashoni ummatat,
Chazba baxshad az yaqin ba sag nazar to afganand,

ya'ni "Shu ma'lumki, ummatingni Najmiddin (Kubro) sifat avliyolari agar itga nazar qilsalar, shubhasiz unga jazba bag'ishlaydilar" [1, 29; 99] (Sayfiddin Sayfulloh tarjimasi).

Xulosa. Omon Matjon o'z dramalarida tarixiy shaxslarning obrazini yaratishda ularning tarixiy xususiyatlarini hisobga olish bilan birga, ularga badiiy tasavvur orqali yangicha nafas baxshida etgan.

Ushbu yondashuv tarixiy shaxslarning obrazini yanada hayotiy va ko‘p qirrali qilib ko‘rsatishga imkon bergan. Dramaturg tarixiy voqealarni sahnada aks ettirishda ularning mohiyatini chuqur anglab etgan va ularni badiiy talqin orqali yangicha talqin qilgan. Bu orqali u kitobxonlar va tomoshabinlarda tarixiy xotirani tiklash va milliy ongni oshirishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. – Т.: Фан, 2009. – 176 б.
2. Бекташева А. Р. Тариқат, маърифат ва шеърият муштараклиги (Шайх Нажмиддин Кубро ҳаёти ва ижоди мисолида). Филол. фанлар фалс. доктори (PhD) дисс… автореф. – Т., 2019. – 169 б.
3. Норматов У. Қалб инқилоби. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 292 б.
4. Норматов У. Нафосат гурунглари. –Т.: Муҳаррир, 2011. 390 б.
5. Омон Матжон. Дийдор азиз. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2012. – 200 б.
6. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 384 б.
7. Раҳматуллаева Д. XX аср ўзбек драматургияси ва театр саҳнасида тарихий драма (шаклланиш ва ривожланиш муаммолари) Санъатшунослик фанлари доктори дисс… – Т., 2004. – 330 б.
8. Сафарбоев О. Нажмиддин Кубро – қутби даҳр. (Схема ва диаграммалар. Услубий қўлланма) – Урганч: УрДУ ноширлик бўлими, 2011. – 44 б.
9. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – 114 б.
10. https://www.bukhari.uz/?p=26441

Гудзина Виктория Анатольевна
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент БухГУ
(Узбекистан)
E-mail: gudzinaviktoriya@gmail.com

“ГОВОРЯЩИЕ” ФАМИЛИИ В АНТРОПОНИМИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ДИСКУРСОВ НАЧАЛА XIX ВЕКА

Аннотация. В статье освещаются прием “говорящих имен”, активно используемый в русском литературной процессе до второй половины XIX века. Объектом исследования является творчество А.С.Грибоедова, сумевшего органически соединить в комедии в стихах “Горе от ума” черты классицизма и романтизма. В центре внимания находятся созданные талантливым писателем “говорящие фамилии”. Представлен анализ личных имен, отчеств и фамилий, образующих ядро антропонимического пространства произведения. Рассматривается создание антропонима из аппелятивной единицы в плане создания определенного круга ассоциаций, выявляющих при декодировании авторскую позицию по отношению к персонажам комедии, а также способствует более глубокому пониманию ее проблематики.

Ключевые слова: фамилия, антропоним, антропонимическое пространство, классицизм, прототип, назывная функция, аппелятив, авторские интенции, репрезентация.

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmigacha rus adabiy jarayonida faol ishlatiladigan “gapiruvchi ismlar” usuli yoritilgan. Tadqiqot obyekti A.S.Griboyedov asarlari bo‘lib, u komediyada “wit of wit” she’rlarida klassitsizm va romantizm xususiyatlarini organik ravishda birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Iqtidorli yozuvchi tomonidan yaratilgan “gapiradigan familiyalar” diqqat markazida. Asarning antroponimik makonining yadrosini tashkil etuvchi shaxsiy ismlar, otasining ismi va familiyasining tahlili keltirilgan. Apellyativ birligidan antroponim yaratish, dekodlash jarayonida muallifning komediya qahramonlariga nisbatan pozitsiyasini ochib beradigan, shuningdek, uning muammolarini chuqurroq tushunishga yordam beradigan ma’lum bir uyushmalar doirasini yaratish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: familiya, antroponim, antroponimik makon, klassitsizm, prototip, ism funktsiyasi, appelativ, appelyativ, mualliflik intensiya, reprezentatsiya.

Abstract. The article highlights the technique of “talking names”, which was actively used in the Russian literary process until the second half of the 19th century. The object of the study is the work of A.S.Griboyedov, who managed to combine organically the features of classicism and romanticism in comedy in the verses “Woe from Wit”. The focus is on the “talking surnames” created by a talented writer. The analysis of personal names, patronymics and surnames forming the core of the anthroponymic space of the work is presented. The creation of an anthroponym from an appellate unit is considered in terms of creating a certain range of associations that reveal the author's position in relation to the characters of the comedy during decoding, and also contributes to a deeper understanding of its issues.

Key words: last name, anthroponym, anthroponymic space, classicism, prototype, naming function, appellative, author’s intentions, representation.

Введение. Как известно, имена собственные, являясь частью лексико-семантической системы русского языка, подчиняются его лингвистическим законам. Однако в художественных текстах их функциональное поле значительно шире, поскольку антропонимы, согласно классификации М.В.Карпенко, выполняют не только назывную, но и характеризующую и идеологическую функции [3, 15]. Можно сказать, что большинство собственных имен частотны в художественных произведениях, где многие из них реализуют назывную функцию. Однако ряд антропонимов являются не только идентифицирующим маркером персонажа, но и выступают в качестве образа. Как верно отмечает исследователь К.А.Дмитриева, “Само понимание художественного произведения в принципе невозможно без осмысления используемой автором системы использования собственных имен” [2, 30].

Еще античная словесность оставила человечеству в наследие обширный материал, на базе которого уже тогда могло бы возникнуть самостоятельное направление в ономастике, изучающее имена собственные в художественном произведении. Однако лишь в 50-е годы XX века лингвистика разработала концептуальные теоретические положения, ставшие фундаментом для возникновения литературной ономастики. К ним относятся теория системности лингвистического знака и знаковый характер словесной единицы, позволившие ономатологам в имени собственном вычленить план содержания (означаемое) и план выражения (означающее), которые несут смысловую и эстетическую нагрузки при реализации авторских интенций и стратегий.

Художники слова в зависимости от своих целей при создании яркого антропонима обращают внимание либо на происхождение имени, либо на аллюзии и ассоциации, возникающие при его произнесении. Однако А.Ф.Рогалев справедливо отмечает, что “не каждое литературное имя обязательно является открыто “говорящим”, наделенным явным характеристическим “зарядом” [6, 5].

Основная часть. Придуманные писателями антропонимы выступают в качестве средств типизации, выполняя при этом экспрессивно-оценочную функцию. В диссертации А.В.Лахно указывается, что “Имя персонажей произведения художественной литературы также неотъемлемо от него, является его сущностью, находя в сатирической литературе свое гипертрофированное выражение” [4, 197].

Собственные имена стали обращать на себя пристальное внимание как особые лексические единицы в эпоху классицизма. М.В.Ломоносов считал, что ономастическая лексика представляет собой текстообразующий и стилеобразующий векторы художественного дискурса. Однако антропоним не воспринимался как самостоятельный объект анализа, а рассматривался как часть литературного направления.

В русской литературе объектом пристального внимания собственные имена как особый лексический разряд впервые стали в художественной практике классицистов. Рациональная нормативность классицистических произведений потребовала строгой кодификации лексических средств, и в том числе ономастической лексики. Имя при этом не выделялось из художественной и языковой ткани всего произведения в качестве самостоятельной смысловой сущности и отдельного объекта исследования, а опять же воспринималось как атрибут персонажа или даже целого литературного направления. Принято считать, что говорящие фамилии в классицизме мы можем эталонно рассматривать на примере произведений Д.И.Фонвизина. Но более чем за десятилетие до появления фонвизинского “Недоросля”, из под пера писателя В.И. Лукина выходит комедия “Мот, любовию исправленный”, в которой автор представляет персонажей с весьма выразительными характеризующими их именами. Здесь мы можем встретить как действующие лица с фамилиями, имеющими в своей основе положительные явления, так и отрицательные. Например, *Добросердов, Правдолюбов, Злорадов, Безотвязный, Пролазин*.

Героев с именами Чужехват и Пасквин можно встретить и в комедии А.П. Сумарокова “Опекун”. У Д.И.Фонвизина в “Недоросле” мы встречаем более знакомые нам говорящие фамилии, которые прочно связаны с характером персонажей их носящих: Милон, Правдин, Стародумом, Скотинин, Простаков, Вральман. *Нужно сказать, что некоторые из этих фамилий ранее уже были использованы его современниками. А вот с именем* Митрофан*, благодаря четко прорисованному Фонвизиным образу, произошла весьма любопытная трансформация. Прежде лексически нейтральное имя собственное уже больше двух веков считается почти что ругательством, и по сей день мы Митрофанами называем лентяев, недоучек и невежд.*

Творчество А.С.Грибоедова, которое в начале XIX века представляло синтез классицизма и романтизма, содержит большое количество собственных имен, в связи с чем имеет неоспоримую ценность в антропонимическом аспекте. В ранний период своего творчества А.С.Грибоедов написал такие драматические произведения, как “Молодые супруги”, “Притворная неверность”, “Студент”, “Кто брат, кто сестра, или обман за обманом”, которые сделали его имя узнаваемым в литературной среде. Впервые в пьесе “Проба интермедии” талантливый писатель использовал “говорящие фамилии”, эксплицитно характеризовавшие героев произведения: *Резвушков, Диезина, Алегрин, Свисталова, Припрыжкин*.

Но антропонимическое пространство комедии в стихах “Горе от ума” поражает обилием и разнообразием многослойных “говорящих” фамилий. Российский исследователь Н.М.Азарова уверена, что принцип отбора и создания драматургом “говорящих” фамилий подвержен влиянию классицизма [1, 137]. Она предлагает их классификацию, основанную на трех видах:

1) собственно говорящие, харктеризующие персонаж по доминантной черте характера или поведения (*Фамусов, Тугоуховский, Репетилов, Молчалин*); 2) оценивающие фамилии: *Скалозуб, Хрюмина, Загорецкий, Хлёстова;* 3) ассоциативные – *Чацкий,* содержащие отсылку на прототипа реального героя.

О ценности приема “говорящих имен” в канве художественного текста так же высказывались О.П.Монахова и М.В.Малхазова [5]. Это один из традиционных приёмов мировой литературы, преданный забвению в наше время. До середины XIX века он был очень популярен. Имя персонажа предполагало его характер, становилось как бы эпиграфом к образу, определяло авторское отношение к герою и настраивало читателя на соответствующий лад. А.С.Грибоедов искусно пользуется этим приёмом в комедии. Его *Тугоуховский* действительно глух, *Молчалин* – скрытен и подчёркнуто немногословен. *Скалозуб* к месту и не к месту острит и хохочет – “скалит зубы”. Фамилия *Павла Афанасьевича Фамусова* соотнесена с латинским словом “молва”. Таким образом автор подчёркивает одну из важнейших черт этого героя: его зависимость от молвы и страсть разносить слухи”. К этому можно добавить, что фамилия *Фамусов* вполне соотносится и с английским famous, то есть “известный, знаменитый”, что не менее важно в характеристике “московского туза”.

Результаты и обсуждение. Надо отметить, что классифицировать имена грибоедовских героев можно и с той точки зрения, насколько просты они или усложнены. Действительно, *Тугоуховские* и *Скалозуб* расшифровываются достаточно просто, примерно так же, как герои ранней комедии Грибоедова “Студент” – гусарский ротмистр *Саблин и Полюбин*, герой-любовник, испытывающий горячее чувство к Вареньке. В этом смысле и фамилия *Репетилов, Хлёстова, Загорецкий* не представляют большого труда. То же можно сказать и о *Молчалине.* Однако в той же степени, как не прост этот персонаж, сложны для расшифровки его фамилия, имя и отчество. Ведь *Алексей* в переводе с греческого значит “защитник”. Да и жизненный опыт показывает, что, как правило, Алексеи – покладистые, смирные люди. Отчество же Алексея Молчалина указывает на его незнатное происхождение. Тверской обыватель Степан Молчалин – это вам не московский туз Павел Афанасьевич Фамусов.

Не менее сложно “выстроено” имя главного героя “Горя от ума” *Александра Андреевича Чацкого*. Собственно имя этого персонажа в переводе с греческого значит “мужественная защита”, а в паре с отчеством Андреевич – то есть сын “мужественного, храброго” – составляется весьма примечательный “букет”. Надо ли удивляться темпераменту, мужеству Чацкого и его умению отстаивать свои мнения?! Кстати, кроме всего прочего, его фамилия указывает на то, что этот “рыцарь без страха и упрёка” – потомственный дворянин, принадлежащий к знатному и старинному роду, так же, как и *Трубецкие, Волконские, Оболенские*. Об этом можно прочесть в книге А.В. Суперанской и А.В. Сусловой “Современные русские фамилии”: “*Суффикс - ской (-ский*) более редкий по сравнению с суффиксом -ов и даже -ин. Относительная нечастотность его в фамилиях исторически объясняется происхождением самих этих фамилий. Первоначально он отмечается в княжеских фамилиях…” [7]. Естественно, сам Чацкий очень хорошо помнит о знатности своего рода; он “член английского клуба”, как и Фамусов, вряд ли забывает о том, какая разница между ним и безродным Молчалиным. Фамилия *“Чацкий”* несет в себе зарифмованный намек на имя одного из интереснейших людей той эпохи: *Петра Яковлевича Чаадаева*. В черновых вариантах “Горя от ума” Грибоедов писал имя героя иначе, чем в окончательном: “*Чадский”*. Фамилию же Чаадаева тоже нередко произносили и писали с одним “а”: “Чадаев”.

И если антропоним создается из аппелятивной единицы (“Простаковы” от “простак”, “Скотинины” от “скотина”), прямо и однозначно указывая на главную и единственную черту характера, то фамилии героев “Горя от ума” тоже часто “говорящие”, но функция их иная, чем в классицизме: в фамилиях задан определенный круг ассоциаций, который в целом не упрощает, а наоборот, осложняет понимание характера, выявляя в нем новую грань. Такие имена, как Молчалин, не только сохраняют в себе первоначальное значение (“молчать”), но и сами по себе

являются потенциальными нарицательными именами: эта возможность реализуется уже в тексте: *(“Молчалины блаженствуют на свете!”;* “В нем Загорецкий не умрет!”), а впоследствии в статье И.А. Гончарова “Мильон терзаний”, где говорится, например, о “Чацких” во множественном числе. Мы можем рассматривать “молчалинство” как социальный и культурный феномен. В комедии Грибоедова “говорящие” фамилии не только указывают на какой-то аспект характера героя, но еще и отсылают к теме человеческого общения – “говорению” и “слушанию”:

Говорящая фамилия	Значение	Вид речевой деятельности
Фамусов	Молва	говорение
Репетилов	Повторение	говорение
Тугоуховские	Тугое ухо	слушание
Скалозуб	Скалить зубы	говорение
Молчалин	Молчание	слушание

Значит, имена героев значимы не только по отдельности, но и все вместе: в совокупности они составляют важный символический ключ к пониманию проблематики “Горя от ума”: ведь это комедия о трудностях общения (именно поэтому сквозные мотивы в ней – глухота и непонимание). Такая глубокая символичность не свойственна “говорящим” фамилиям в классицизме. Поэтому можно сделать вывод, что Грибоедов лишь формально сохраняет классические рамки, наполняя их психологическим и социально-психологическим содержанием.

Выводы. Таким образом, использование А.С.Грибоедовым “говорящих” фамилий представляет собой не столько создание произведения в рамках действующего в его эпоху классицизма как литературного направления, сколько репрезентацию героя через многозначную номинацию. Антропонимическое пространство комедии включает личные имена, отчества и фамилии, которые емко и многогранно отражают как яркие черты и создаваемые типы героев, так и авторскую позицию по отношению к персонажам.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Азарова Н.М. Пособие по русской литературе XIX века. Ч.1. – М.: Прометей, 2000. – 504 с.
2. Дмитриева К.А. Говорящие имена в произведениях русских писателей // Вестник науки. № 9 (9), 2018. – С. 30-31.
3. Карпенко М.В. Русская антропонимика. Конспект лекций спецкурса. – Одесса: ОГУ, 1970. – 40 с.
4. Лахно А.В. Имя собственное как объект сопоставительного исследования. Системообразующие свойства имени литературного персонажа в художественном тексте и его переводе. – Москва, 2006. – 220 с.
5. Монахова О.П., Малхазова М.В. Русская литература XIX века. Ч.1. – М.: Марк, 1995. – 586 с.
6. Рогалев А.Ф. Литературная ономастика. – Гомель: ГГУ им. Ф.Скорины. – 46 с.
7. Суперанская А.В., Суслова А.В. Современные русские фамилии. – М.: Наука, 1981. – 176 с.

Xajiboyev Kishin Alisher o‘g‘li
Urganch innovatsion universiteti
o‘qituvchisi (O‘zbekiston)
E-mail: kishinxajiboyev@gmail.com

ROMAN SUJETIDA INSON VA TABIAT KONSEPSIYASI
(Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani asosida)

Annotatsiya. Maqola XX asr o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan Erkin Samandar va uning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani haqidagi fikrlar bilan boshlangan. Roman sujetidagi inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi tahlil etilib, shaxsiy mulohazalar aytilgan. Fabula, hayotdagi voqeaning asarda aks etishi, harakatlar dinamikasi, ichki harakat, tashqi harakat singari unsurlarda tabiat va inson munosabatlari uyg‘unlik kasb etib, Ganja, Qurbon Salayev, Buvaning harakatlaridagi har bir millat o‘zligini asrashi, tabiat boyliklarini himoya qilishi, nafaqat himoya qilishi, balki uning qadriga yetishi kerakligi haqidagi g‘oyalar misollar bilan ochiqlangan. Erkin Samandar inson va tabiat muammosining chuqur ildizlarigacha kirib borishga intiladi. Bunga, asosan, insonlar va to‘rt unsurdan biri bo‘lgan suv (Amudaryo suvi), oq g‘oz va qabar o‘simligi voqealarini badiiy tahlil qilish orqali erishganligi bir nechta tahlillar orqali berilgan.

Kalit so‘zlar. Inson, tabiat, sujet, fabula, suv, Amudaryo, ichki harakat, tashqi harakat.

Аннотация. Статья начинается с размышлений об Эркин Самандаре, внесшем большой вклад в развитие узбекской литературы XX века, и его романе “Берег, потерявший свою реку”. Анализируется выражение концепции человека и природы в сюжете романа и приведены личные комментарии. В таких элементах, как басня, отражение жизненных событий в произведении, динамика действий, внутреннее действие, внешнее действие, природа и человеческие отношения достигают гармонии, а на примерах раскрываются идеи действий Гянджи, Курбана Салаева и Бувы о том, что каждый народ должен сохранять свою самобытность, беречь природные богатства и не только охранять, но и ценить их. Эркин Самандар стремится проникнуть в глубокие корни проблемы человека и природы. По результатам нескольких анализов показано, что это было достигнуто главным образом за счет художественного анализа событий людей и одной из четырех стихий, воды (воды Амударьи), белого гуся и растения-паутинки.

Ключевые слова. Человек, природа, сюжет, басня, вода, Амударья, внутреннее действие, внешнее действие.

Abstract. The article begans with thoughts about Erkin Samandar, who made a great contribution to the development of 20th-century Uzbek literature, and his novel “The Shore That Lost Its River”. The expression of the concept of man and nature in the plot of the novel is analyzed, and personal comments are made. In elements such as the plot, the reflection of life events in the work, the dynamics of actions, internal and external actions, the relationship between nature and man is harmonious, and the ideas that each nation should preserve its identity, protecting natural resources, not only protect them, but also appreciate them in the actions of Ganja, Kurban Salayev, and Buva are explained with examples. Erkin Samandar seeks to penetrate to the deep roots of the problem of man and nature. He achieved this mainly through the artistic analysis of the events of people and one of the four elements: water (the water of the Amu Darya), white goose, and gabar plant, which is shown through several analyses.

Key words: Man, nature, plot, fabule, water, Amu Darya, internal movement, external movement.

Kirish. Inson va tabiat birligi konsepsiyasi Erkin Samandar asarlarining asosi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu jihat ijodkorning she’rlaridan tortib, qissa va romanlarida ham o‘ziga xos tarzda aks etgan va “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romaniga qadar muayyan tadrij yo‘lini bosib o‘tgan. Adibning “Amu jilolari”, “Osmon to‘la nur”, “Sohildagi bolalar” kabi she’riy majmualaridagi ko‘plab she’rlarida markaziy qahramon yoki asar badiiy konsepsiyasini tashuvchi bosh badiiy komponent sifatida tabiat va hayvonot bosh o‘ringa chiqadi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida bu vazifa inson va tabiat o‘rtasida nisbiy tenglik hosil qiladi. Inson va tabiat birligi konsepsiyasi asosan inson muammosi doirasida yoritiladi. Inson tabiatidagi yovuzlik tuyg‘ulari, odam bolasining botiniy-psixologik muammolari ko‘proq

ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan roman sarlavhasiga chiqarilgan nom ham daryosini (Amudaryo) yo‘qotgan qirgoqni, shu qirg‘oq misolida Orol dengizidan ajralgan, Amudaryoda suv tanqisligi, sho‘rlanishning keskin oshib ketishi, cho‘llashish natijasida aziyat chekayotgan odamlar tasvirlanadi. Ushbu fojiaga sabab bo‘lgan insonlar botinidagi yovuzlikning poetik ramzlashtirilgan shaklini ifodalaydi. Shuningdek, bosh qahramon Ganja va Amudaryoning o‘tmishi, buguni va kelajagi tabiat pozitsiyasidan turib tasvirlanadi. Romanda tasvirlangan sujet voqeligining bir yo‘li ikki obyekt vositasida berilishi insonlik va tabiat dunyosini muqoyasada qabul qilishga zamin hozirlaydi.

Asosiy qism. “Sujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so‘z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak” [1, 116]. Shunday ekan, “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanidagi sujetda tabiat va inson mukammal birlik hosil qiladi. Bu birlik insoniyat nafsi sababli buzilganda, Amudaryo suvining kamayib ketishi, Orol dengizining qurishi kabi jiddiy muammolarga olib kelishi romanga Ganja va Amudaryo liniyasiga uzviy bog‘langan holda olib kiriladi. Boshqa voqealar shu liniyaga bog‘lanadi. Ganja Qorayontoq qishlog‘i farzandi sifatida Amudaryo bo‘ylarida voyaga yetadi. Asar voqealarining aynan Amudaryo qirg‘oqlarida ro‘y berishi muallif ijodiy niyati ijrosi uchun aynan maqbul variant. Daryo va Orol dengizidagi o‘zgarishlar, avvalo, uning atrofida yashaydigan aholini tahlikaga solishi tabiiy hol. Shu sababli asarda Qorayantoq, Duldulsoy, Kiyikto‘qay, Bog‘iston kabi Qoraqalpog‘iston va Xorazmdagi daryo bo‘ylarida joylashgan joylar obyekt sifatida tanlab olinadi.

Voqealarning hayotda yuz berish tartibi (fabula) bilan ularning asarda joylashtirilish tartibi yuqorida ham ta’kidlab o‘tganimizdek farqlanadi. Masalan, Ganja romanning boshida qamoqdan chiqib poyezdda kelayotganda ikkinchi turmush o‘rtog‘i Mohirani ko‘rib qoladi. Bu paytda bir kun kelib shu qiz bilan hayot yo‘llarini bog‘lashi Ganjaning xayoliga ham kelmagan edi. Mohiraning onasi Ganjani xushlamaydi. Mohira u bilan gaplashgani uchun qizini koyib beradi. *“Har qo‘lida ikki shishadan “Borjomi” ko‘tarib, qizil kuylakli qiz kupega kirdi. Yuzlari kuylagidek lov-lov yonardi. Yigitni ko‘rib, beixtiyor: “Voy, bizning kupega chiqdingizmi”, deb yubordi. U bosh qimirlatdi. – Taniysanmi? – so‘radi ayol. – Bufetni menga bular ko‘rsatdilar, - dedi qiz mamnun. “Bufetni bilsa ichadiganlardan, ichib olib hali tamosha ham ko‘rsatar. Qayoqdan ham duch keldik bu ro‘dapoga”* [2, 9].

Agar voqealar hayotda yuz berish tartibi bilan berilganda roman boshidan Ganjaning Mohira bilan emas, birga o‘qib, sevishib turmush qurgan birinchi ayoli Qumri bilan uchrashgani aks ettirilgan bo‘lishi kerak edi. Albatta bunda muallif muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zlagan. O‘sha roman boshida epizodik obraz ko‘rinishidagi Mohira roman oxirida Ganja bilan doimiy birga bo‘ladi. “Seviklining aybi ravo ko‘rinur, Jami ters ishi o‘ng, sazo ko‘rinur” [3, 23] deganlaridek Ganjaning o‘tmishda qilgan xatolari Mohiraga qahramonlik bo‘lib tuyuladi. Ko‘ngil qo‘yib tanlagan Qumri esa Ganjaga xiyonat qiladi. “*Ganja poyezdga chiqdi. Voajab! Ro‘parasida Mohira turardi. O‘sha qizil kuylakli qiz. Ganja qamoqdan qaytayotganida poyezdda ko‘rgan Mohira. Ganjaning avvalgi hayrati ham gapmi, nahotki deb boqardi ko‘zlariga ishonmay. Ikkalasi ham bitta dam olish maskaniga borishayotgan ekan. Tavba! Tavba!!!*” [2, 242]. Muallif birinchi rafiqasi bo‘lsa-da Ganjaga xiyonat qilgan Qumrini emas, balki o‘z aqli bilan Ganjaga kuch bag‘ishlagan ikkinchi ayol Mohirani asar boshida ko‘rishni istaydi. Ko‘rinadiki, Erkin Samandar romandagi sujet voqealarini tartibi o‘zgartirib, kitobxon faolligini, asarning qiymatini oshirgan. O‘quvchini qahramon ruhiyatiga yaqinlashtirgan.

“Ko‘rib o‘tilgan misoldan ayon bo‘ladiki, fabula voqealarning tabiiy oqimi bo‘lsa, sujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya’ni badiiy qayta ishlangan shaklidir. Mazkur holni istilohda aniq ifodalash uchun ayrim manbalarda “sujet kompozitsiyasi” atamasi qo‘llaniladi” [1, 118]. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani sujet kompozitsiyasida tushirib qoldirsa bo‘ladigan voqealar ham asar ichida muayyan mazmunni ifodalashga xizmat qildirilgan. Deylik, roman bosh qahramoni Ganjaning qizi Ra’no tug‘iladigan kunida ishga borishi fabula nuqtayi nazaridan unchalik muhim emas, tushirib qoldirsa bo‘ladi. Biroq sujet kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan bu voqea muhim, chunki bunda Ganjaning tabiat oldida qiynalayotgan vijdoni, ruhiy holati, o‘zi bilan o‘zi kurashib yurgan onlari, o‘rtanib yashagan qamoqdagi besh yillik umri yorqin tasvirlangan. Mana o‘sha Ganjani vijdoni bilan hisoblashishga unadayotgan o‘ylar: “*Daryo sassiz oqar edi. Daryo hali o‘z boshiga tushadigan ko‘rguliklarni bilmaydi-da, bilsa ehtimol shovqin ko‘tarardi, qirg‘oqqa bosh urardi, qurilayotgan katlavon-u to‘g‘onni buzib, yemirib, toshlarni kemirayotgan texnikani girdobiga olardi, chilparchin qilib tashlardi*” [2, 38].

Bunday holat Buva personajida ham uchraydi. Oq g‘oz va qabar haqidagi voqea fabula uchun unchalik muhim emas, tushirib qoldirsa ham bo‘ladi, ammo sujet nuqtayi nazaridan juda ham muhimdir. Chunki Buva mayib bo‘lgan oyig‘ini davolash uchun aynan qabar o‘simligidan foydalanadi. Buni esa u o‘sha g‘ozdan o‘rgangan edi. “*O‘n-o‘n besh qadam narida bitta oq qush qorni kuradi, bag‘rini maysaga berib yotdi. Meliqush yordamida Buva qush tomon bordi. G‘oz ekan. Na hurkdi, na qochdi. Qanoti ostidan bir tomchi qon oqdi. Buva uning dumidan tutib asta ko‘tardi. Qush ko‘kragini berib yotgan maysa emas, qabar ekan. Odatda, yaralangan qushlar qabarga suykanadi, undan yarasiga malham topadi*” [2, 132]. Bu lavha orqali Buvaning haqiqiy tabiat shaydosi ekanligini sezish qiyin emas. U otlarni qutqarish uchun Kiyikto‘qayga kelib, otlar bilan yashaydi, sovuq qorda oyog‘i shikastlanadi. Oyog‘ini qabar bilan davolagach, tabiatga bo‘lgan mehrini shunday izhor qiladi: “*Tabiatni ona deb bekorga aytishmagan. U qushni ham, insonni ham o‘ylaydi. Dorixonasi ham, dorisi ham o‘zida. Oqsagan paytingda oldingdan chiqadi. Uni toptamasang bo‘lgani. Uni ko‘rsang, unga ixlos qo‘ysang bo‘lgani*” [2, 133]. Buvaning bu so‘zlari azaldan tabiat va inson birga yashaganligi, agar ahil bo‘lib yashasa, farovon, sog‘lom hayot kechirishi, bir-biriga dushmanlik qilsa, ularni og‘ir falokatlar girdobiga olishi ifodalangan. Go‘yoki, bu so‘zlar zamirida muallif romanning asosiy g‘oyasiga ishora qilayotgandek. Tabiat va inson munosabatlari, uning oqibatlarini teran kuzatishlari orqali Buva obraziga singdirgan.

Natijalar va mukoma. Ma’lumki, adabiy asar sujeti personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Ayni paytda bu asarda ichki harakat dinamikasi ham kuzatiladi, lekin u salmoq jihatidan sujet tipini belgilay olmaydi.

Romanda Ganja, Qurbon Salayev, Buva kabi personajlarning tabiatni himoya qilish borasidagi, Aminov, Isroli rais, Quljon kabi tabiatni oyoq osti qiluvchi tashqi harakatlari dinamikasi sujet voqealarini to‘ldirib boradi.

Tarix fani o‘qituvchisi Qurbon Salayevning harakatlarida har bir millat o‘zligini asrashi, tabiat boyliklarini himoya qilishi, nafaqat himoya qilishi, balki uning qadriga yetishi kerakligi haqidagi g‘oyalar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Qurbon Qorayantoq qishlog‘i maktabida tarix fanidan dars berar edi. Qoraqum etagida Qorayantoq qishlog‘i bilan birga ko‘l ham joylashgan. Uning atrofidagi yerlarni sho‘r bosib, hosildan chiqdi. Buni chorasini topa olmagan o‘qituvchi Isroil raisga uchrashdi, naf chiqmagach raykomga bordi. Tekshirib ko‘ramiz deyishdi, tekshirmadi. Qurbonning bu ish bilan boshi garang bo‘lib yurganda Naysonbuva yodgorligiga darz ketganligini eshitib qoldi. Borsa ahvol chatoq. Ziyoli ekanligidan uyalib ketdi. Tezroq chorasini qilmasa, yiqilib tushadi. Yana Isroil raisga, sho‘roga uchradi, foydasi bo‘lmadi. Ular endi bir qilmagan ishimiz machitning remonti edi deb baqirib berishdi. Boshi qotgan Qurbon Toshkentga, tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash idorasiga xat yozdi. Javob kelavermagach ikki-uch shogirdi bilan Naysonbuva qabristoniga borib, yodgorlikni remont qildi. Zero, “Shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatini shakllantirishga ta’siri, ularning barcha sohalari va yo‘nalishlari uchun universalligini, maqsadga muvofiqligini, imkoniyati realligini ta’minlaydi” [4, 36]. Bu Qurbon Salayev fitratida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ertasi kuni u ishlaydigan maktabda yig‘ilish bo‘ldi. Kun tartibida: Tarix o‘qituvchisi Qurbon Salayevning ishi. Yig‘ilishga Isroil rais ham keldi, u Qurbon mafkuraviy xatoga yo‘l qo‘yib, yoshlarni qabristonga olib borgani, eskilik sarqitlariga berilgani haqida so‘zladi. Doimo raisning pinjiga tiqilib yuradigan direktor bundaylar 37-yilda peshonasidan otilgani, hozir ham shafqat qilmaslik kerakligi, masjidni ham yo‘qotish kerakligini aytdi va oldindan yozilgan arizaga Qurbonni ishdan bo‘shatish uchun imzo chekdi.

Qurbon uyiga bordi. Rayon militsiyasi boshlig‘i kelib, o‘z-o‘zidan uyini tintuv qildi. Shkaf tagidan sellofon xaltachada nasha topib, uni 8 yilga kesishdi. Jazoning oltinchi yilida uni Duldulsoyga majburiy xizmat uchun olib kelishdi. Bu yerda u Ganja bilan tanishdi. Qirtepa portlatilishidan oldin bu tarixiy yodgorlik, portlatmang, mutaxassislarni olib kelib o‘rganaylik deganida, unga yana oldingi ishlaringni boshladingmi, deb ogohlantirish berildi. Bu jumlalarning o‘ziyoq roman tabiat va insoniyat munosabatlari muammosi ustiga qurilganidan dalolat beradi.

Romanda Komila aya obrazi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki Ganja rafiqasi Qumrini unga o‘xshatadi. Komila aya qo‘shiqni maromiga yetkazib kuylar edi. San’atni deb oilasini unutdi, lekin baribir xalq artisti bo‘la olmadi. Komila aya turmush o‘rtog‘i G‘ulomjon Sobirov bilan ajrashdi, o‘g‘li Zufar otasida qoldi. Umrining oxirida Komila aya kasal bo‘lib qoldi, bunga chidolmay uni G‘ulomjon aka uyiga olib keldi. Qumri ham ishni bahona qilib oilasidan uzoqlashdi, unutdi: *“ Qumrixon shahar Ijroqumining*

bo‘lim mudirligiga ko‘tarildi. Erta ketib, kech keladigan bo‘ldi. Majlislari, safarlari ko‘paydi… Qumrixonning bo‘ynida dog‘ ko‘rindi. Ganjaning yuragi shig‘ etdi. Nimaning izi? Xotini apil-tapil bo‘ynini bekitdi. Ko‘kragida ham xuddi bo‘ynidagi kabi qizil va ko‘kimtir dog‘lar ko‘rindi. Ularning o‘pich izi, tish izi ekanligiga shubha yo‘q edi” [2, 13]. Muallif bu harakatlar orqali 60-80-yillarda nafaqat ekologiyada balki insoniyatning ma’naviy hayotida ham axloqiy buzilishlar bo‘lganini aniq ko‘rsatib bergan.

Romanda ichki harakatlar dinamikasi Ganja, Buva, Qumri va Meliqush ot hissiyotlarida aniq ko‘rinadi. Ganja qamoqdan chiqib uyga qaytayotib, avvalo, Amudaryoni borib ko‘radi, suviga yuzlarini yuvadi. U yerda kechgan bolalik chog‘larini, baxtiyor kunlarini esga oladi. To‘yida Qumri ikkisi uchun Buva yasab bergan kema hozir sohilda kalamushxona bo‘lib yotardi. Uni ko‘rib, Qumri bilan o‘tkazgan kunlarini eslab ketdi. Yurak-bag‘ri eziladi. “*Kema daryo tashlab ketgan yerga bag‘rini berib yotardi. Shoxi singan. O‘ng biqinida uch-to‘rt taxtasini kimdir qo‘porib olib ketgan. Tag taxtalari teshilgan. Ichida kalamushlar in qurgan. Ichida kalamushlar in qurgan, kemtiklari ko‘p. Bechora kema, seni faqat daryo tashlab ketdimi* [2, 101]. Muallif ushbu harakatlarda suvi bo‘g‘ilgan Amudaryoning holatini, baxtli kunlaridan nishona, to‘rong‘idan yasalgan kemaning g‘arib ahvolini Ganjaning o‘ylari orqali beradi.

“Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani voqealari xronikali, konsentrik sujetning uyg‘unlashib ketishi asosiga quriladi. Romanda Ganja obrazi atrofida voqealar san’atkorona tarzda uyushtirilgan. U avvaliga Aminovning shum niyatlarini bilmaydi, unga yordamlashadi. So‘ngra uning asl basharasini bilgach u bilan kurashadi. Bu xronikali sujet voqealari bo‘lsa, romannning uch qismga bo‘linishi, birinchi qismda Ganjaning sinovli kunlar qurshovida qolishi, oilasi porakanda bo‘lishi, ikkinchi qism Buva va otlarning Kiyikto‘qayda Amudaryo suvidan hosil qilingan suv omborining tagida manguga qolib ketishi, uchinchi qism esa ham Ganjaning hayotini, ham ekologik muhitni barbod qilgan Aminovning qamalishi haqidagi voqealar konsetrik sujet voqealaridir. Bu o‘rinda muallifning qorishiqlik, har ikki tipga xos eng yaxshi jihatlardan foydalanishi asarning badiiy tomonlama mukammal bo‘lishiga xizmat qilgan.

Millat ziyolilariga nisbatan tazyiqlar hali oxiriga yetmagan bir paytda ushbu tarixiy romanning yozilishi qahramonlikdir. Bunday vaziyat haqida Erkin Samandar shunday deydi: “Sho‘rolar davrida ham tarixiy asarlar ozmuncha yozilgan emas. Lekin “rahmat” o‘rniga aksar hollarda yozuvchilar ta’qibga uchrashganidan xabaringiz bor. “Navoiy” romani uchun, garchi asarda o‘sha davr talabi chetlab o‘tilmagan bo‘lsa-da, ustoz Oybek qanday malomatlarga qolgani ma’lum. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi uchun Shayxzodani qamashgan. Mirkarim Osim ham, aslida ehtiyotkorlik bilan yozgan bo‘lsa-da, tarixiy asarlari uchun jazoga tortilgan... Bu ro‘yxatni davom ettirish mumkin. Lekin “ulug‘ og‘alarning” tariximizni buzib ko‘rsatgan asarlari ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan, mukofotlarga sazovor bo‘lgan” [5, 28].

Xulosa. Erkin Samandar ijodiga xos naturalistik tasvir mahoratining asosi yozuvchi xarakteri, tabiatni sevib yashovchi, teran fikrli bir shaxs ekanligi bilan bog‘liq. Jumladan “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida inson va tabiat munosabatlaridagi muammo real voqelik, tabiat va jonivorlar xarakterini chuqur o‘rganishning natijasidir. Adabiyotda Erkin Samandarga qadar inson va tabiat munosabatidagi muammolar haqida ko‘p yozilgan edi. Biroq “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” tamomila yangi badiiy-falsafiy va ijtimoiy talqinni aks ettirishi, tabiatning odamlar tomonidan yakson qilinishi va uning oqibatlari haqidagi romanligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Noshir, 2019. – 336 b.

2. Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Т.: Шарқ, 2009. – 126 б.

3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 160 б.

4. Айтматов А. Шаснинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгнинг роли. Филос. фанл. док. (PhD) дисс. диссертацияси – Т., 2019. – 36 б.

5. Samandarov E. Tarix mas’uliyatni sevadi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2008. – №28. – B. 3.

Nazarova Xilola Gulomjonovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: uzbekustoz@gmail.com

NODIM NAMANGONIY LIRIKASIDA IJTIMOIY SATIRANING YORITILISH KO‘LAMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nodim Namangoniy lirikasida ijtimoiy satiraning yoritilish ko‘lamining g‘oyaviy konsepsiyasi, davrdagi muhit va voqelikning tasviri yoritilgan. Shu qatorida Qo‘qon adabiy muhitida siyosiy hayotning badiiy tasviri, satiraning o‘rni, ijtimoiy tiplarning satirik talqinilari haqida fikr yuritilgan. Shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, davlat va jamiyat hayotidagi ayrim salbiy illatlar, amaldorlarning o‘z mansablarini suiiste’mol qilishlari, hukumat boshliqlarining davlat va xalq taqdiriga befarqligi singari illatlar uning “Maqsudi alarni siymu zardur”, “G‘alati”, “Shikoyati paxta”, “Dar mazzammati zamona”, “Xit qildi” kabi satirik xarakterdagi she’rlarida o‘z badiiy ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: satira, yumor, real hayot, boshboshdoqlik, Nodimning ma’rifatparvarlik qarashlari, ijtimoiy satira, Qo‘qon adabiy muhiti.

Abstract. This article discusses the ideological concept of the scope of coverage of social satire in the lyrics of Nodim Namangoni, as well as the image of the environment and reality of the time. In addition, the artistic depiction of political life in the literary environment of Kokand, the role of satire, and satirical interpretations of social types are discussed. The socio-political environment of this period, some negative vices in the life of the state and society, the abuse of their positions by officials, and the indifference of government leaders to the fate of the state and the people found their artistic expression in his satirical poems such as “Maqsudi alarni siymu zardur”, “G‘alati”, “Shikoyati paxta”, “Dar mazzammati zamona”, “Khit qordi”.

Key words: satire, humor, real life, mischief, Nodim's enlightened views, social satire, Kokand literary environment.

Аннотация. В статье исследуется идейная концепция сферы социальной сатиры в лирике Нодима Наманганий, а также изображение окружающей среды и действительности того времени. В этой связи рассматриваются вопросы художественного изображения политической жизни в кокандской литературной среде, роль сатиры, сатирические интерпретации социальных типов. Социально-политическая обстановка того времени, некоторые отрицательные пороки в жизни государства и общества, злоупотребление служебным положением чиновниками, равнодушие руководителей правительства к судьбам государства и народа нашли свое художественное выражение в его сатирических поэмах, таких как “Максуди аларни сийму зардур”, “Галати”, “Шикояти пахта”, “Дар маззаммати замона”, “Хит килди”.

Ключевые слова: сатира, юмор, реальная жизнь, хаос, просвещенные взгляды Нодима, социальная сатира, кокандская литературная среда.

Kirish. Zamonasining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri – Nodim Namangoniy asosan lirikada ijod qilgan, uning lirikasida o‘ziga xos ijtimoiy qarashlar va falsafiy mulohazalar yoritilgan. Uning asarlari milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilgan holda, ijodida din, axloq, adolat va inson huquqlari kabi mavzular alohida o‘rin tutdi. Uning ma’rifatparvarlik qarashlari o‘zining lirikasida ijtimoiy satiraning yoritilish ko‘lami bilan baholangan. Uning fikricha, jamiyatning rivojlanishi uchun ta’lim-tarbiya va bilim zarur edi. Bunda, albatta, jamiyatdagi osoyishtalik muhim hisoblanadi. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari turli mavzularda asarlar yaratib, davr adabiyotiga muhim hissa qo‘shdilar. Qo‘qon adabiy muhiti va shu bilan bog‘liq masalalar yuzasidan adabiyotshunoslikda talaygina ishlar qilingan. Xususan, akademik A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti” nomli ilmiy asari XIX asr I yarmidagi adabiy hayot va shu davrda yashagan ijodkorlarning hayoti va adabiy faoliyati haqida chuqur va izchil ma’lumotlar beradi. [3.361]Bu davrning adabiy muhit vakillaridan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ibrat, Hamza, Mirzo Ho‘qandiy, So‘fizoda, Zoriy, Yoriy, Qoriy, Pisandiy, G‘urbat, Rojiy Marg‘inoniy, Anbar Otin, Muntazir, Shavqiy, Nodim, Tamkin, Nisbatiy, Muhayyir,

Zavqiy, Muhsiniy, Mavlaviy Yo‘ldosh, Nusrat, Nayiriy, Shaydoiy, Umidiy-Havoiy, Roiq, Pisandiy kabi shoirlar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib, xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan asarlar yaratdilar. Ular “jamiyat va real hayot taqozo qilgan turli mavzularga murojaat qilgan bo‘lsalar-da, asosan ularni bir mavqe – xalq ommasi mafkurasi, bir g‘oyaviy yo‘nalish, umumiy dunyoqarash birlashtirib turdi” [4, 38].

Natijalar va muhokama. Nodim Namangoniy yoshligidanoq adabiyotga, san’atga qiziqishi baland bo‘lgan, ayniqsa, madrasada ta’lim olib yurgan kezlari o‘zbek, fors-tojik, ozorboyjon klassik shoirlaridan Navoiy, Jomiy, Bedil va Fuzuliy kabi buyuk ijodkorlarning asarlarini zo‘r ishtiyoq bilan mutolaa qilib ulg‘aygan. Unda ijodiy faoliyat, ya’ni shoirlik talanti juda erta uyg‘ongan, shuning uchun ham lirika uning ijodining asosiy va salmoqli qismini tashkil etadi. Shoirning lirik merosini g‘azallar, muxammas, murabba, musamman, ruboiy, hajviyot va maktublar tashkil etadi. Bizga tarixdan ham ma’lumki, Nodim Namangoniy yashagan davrda mehnatkash ommoning asosiy qismini tashkil etgan dehqonlarning hayoti, ayniqsa, mehnati o‘ta darajada og‘ir edi, u o‘zining “Maqsudi alarni siymu zardur”, “G‘alati”, “Shikoyati paxta”, “Dar mazzammati zamona”, “Xit qildi” kabi satirik xarakterdagi she’rlarida o‘z badiiy ifodasini topgan. “Shikoyati paxta” muxammasini yozish davomida bu holatlarni yaqqol ochib bera olgan. “Ey do‘stlar, birodarlar” – deya ezilgan xalqqa umumiy murojaat qilgan holda ularning yashash tarzi, mehnat faoliyatining nihoyatda og‘ir ekanligini nazarda tutib ketgan. Ularga murojaat ohangi jaranglab turgan.

Ekmak ekin ko‘maksiz, ey do‘stlar, gumonda,
Omboring ichra g‘alla ko‘p bo‘lsa, aqcha yonda,
Anqoni tuxumidur bu muhtoji notovonda,
Oson emas, birodar, dehqonchilik jahonda,
Xarji-yu zo‘r-u boz-u darkor har zamonda [1, 20].

“Omboring ichra g‘alla ko‘p bo‘lsa, aqcha yonda” bo‘lgani yaxshi-yu, ammo muhtoj kishilar uchun dehqonchilik g‘oyat og‘ir ish hisoblanar, g‘alla esa “anqoni tuxumidur bu muhtoji notovonda” edi. Bu davrda yengil sanoat shaxobchalarining tashkil etilishi bilan paxtachilik rivojlana bordi. Lekin bu bilan zamon kambag‘al dehqonlar tirikchiligini yengillashtirmadi, aksincha, yanada og‘irlashtirib yubordi. Nodim mana shunday og‘ir sharoitdan kelib chiqib o‘zining ushbu muxammasini yozgan. Bu muxammasi orqali shu davrdagi qiyin sharoitlarning realistik chismalarini yaqqol chizib bera olgan.

Bir necha kambag‘allar avqotin o‘tkuzolmay,
Qishlik maoshlarini asbobini tuzolmay,
Har kimsadin olib pul, mingdin birin uzolmay,
Paxtaga pul ko‘torib, vaqtida etkazolmay,
Orqasida mahosil, dehqonchilik tovonda [1, 21].

Chindan ham, o‘sha davrda qarzdorliklar, turli-tuman soliqlar kambag‘al dehqonlarni abgor qilib qo‘ygan edi, shoir ular boshidagi ana shu og‘ir kulfatlarni bilib butun vujud-vujudi bilan his qilib turar edi. Bu she’ri orqali zamondagi paxta- furushlar , savdogarlar hamda zavodchi boylar o‘rtasidagi o‘zaro raqobat kuchayib, ular ko‘pchiligini sina boshlaganini shoir qattiq kulgu ostiga olib, tanqid qilgan.

Xoli emas xavoniq sar halqasi riyodin,
Tazviru hiyla naqshin kashf etdi bu riyodin,
Maqsudi molu zardur inkoru inzuvodin,
Bo‘yini topmadim man bir faqr ila fanodin,
Ko‘p so‘filarni ko‘rdim ikki ko‘zi shilonda… [1, 23]

Shu bilan birga, shoir davr so‘fiylarini mol-u zarda bo‘lgan nafs ko‘zlarini “ikki ko‘zi shilonda” deya ularni asl maqsadlarini ko‘rsatib, umrini yaramas ishlar bilan o‘tkazib, gunoh, fisq-u-fasotni tog‘-tog‘ qilib orttirgan, xilvat go‘shalarda qorin g‘amida yurgan shayx va so‘fiylarni qattiq satirik tanqid ostiga olgan. Gruzin yozuvchisi N.Dumbadze hajviyaning-satira va yumor shakllarini mahorat bilan taqqoslangan holda satira va yumor bir onaning farzandlari ekanligini, yumor – iliq suv kabi isituvchi va erkalovchiligini, u kirlarni ham ketkaza olishini, satira esa qaynoq suv, u nafaqat kirlarni yuvadi, balki kuydiradi ham deb bekorga ta’kidlamagan. Buning yaqqol isboti sifatida ushbu satrlarda izoh beramiz.

Elin asir ko‘rdim dunyoning tashvishiga,
Bosmas farog‘at ila bir parcha non tishiga,
Sargashtai jahondur yozi bila qishiga,

Mashg‘ul jumla olam u nafsning ishiga,
Fikri tanur ichinda, andishasi qozonda [1, 23].

Deya davrdagi “jig‘ildon bandalarini” ham hajv ostiga olib tasvirlab ketgan. Eng yomoni bu hajv tarkibida xalqni dunyo tashvishlariga asirligini, hatto bir bo‘lak halol nononi tinchgina, rohatda yeya olmasligini zamona nafs kishilarini kasofati bilan ekanligini tasvirlab bergan.

She’rning oxirgi bandi orqali esa shoirning keksaygan chog‘ida ijod qilganligini anglashimiz mumkin. Butun bir davr hamda inson umri o‘tib ketishiga qaramasdan hech qanday zamonda erk uchun siljish bo‘maganligini o‘zida hargiz toqat qolmaganligini ta’kidlab ketgan.

Ey Nodimi kamina tokay senga bu g‘aflat,
Nogoh mart etgay, bu umrdur g‘animat,
Ayyomi navjuvonlig‘ xayf o‘tdi, yaxshi fursat,
Endiki piri bo‘lding, yo‘qdur madoru quvvat,
Toat qilurg‘a hargiz bu jismi notovonda [1, 23].

Nodim o‘zining yana bir “Xit qildi” satirik xarakterdagi she’ri orqali o‘sha davr kishilarining hayotga bo‘lgan intilishi va shijoati qishning qori-yu qahratoni, loyi-yu qatqalog‘idan bezor bo‘lganini, zamona zaylidagi kambag‘al bechorahollarning qiyin hamda mashaqqatli ahvolini tasvirlab bera olgan, bu lirikasi orqali oddiy insonlar boshiga tushayotgan mashaqqat va kulfatlarni ayovsiz ochib tashlagan.

Bu yil qish shiddati, qatqog‘, loyu qor xit qildi,
Bu jonu dil bila jismimg‘a aylab qor xit qildi,
O‘tun ho‘l, shami tiyra, uy sovuq, to‘n yo‘q, tabah ko‘rpam,
Pulim kam, ehtiyojim ko‘p,bular nochor xit qildi [1, 24].

Bu davrda qishning qahratoni, xalqning sovuqdan qiynalyotgani kamlik qilganday, qimmatchilik va qahatchilik ham avjiga chiqqan edi. Albattaki, aholi qiyinchiligi hamma zamonda ham moddiyat bilan bog‘liq edi, qimmatchilik kuchaygach, qahatchilik ham kuchayadi.

Xaloyiqni bu yil ahvoli tang o‘ldi maishatdin,
Bo‘lub qimmatchilik, bu narxi behamrov xit qildi [1, 27].

Buncha moddiy mashaqqatlar yetmganday, zolim amaldorlar har xil qing‘ir yo‘llar bilan xalq boshiga turli soliqlarni solib kambag‘al-ezilgan xalqning bisotidagi bor-buduni tortib olayotganligini ham zamon muhitidan kelib chiqib yoritib bera olgan.

Solibon uy puli, o‘lpon, zemiskayu qorovul pul,
Kelibon erta-kech istarshin, amlakdor xit qildi [1, 28]

Bunda yozuvchi davr ziddiyatlarini, avom qiynalgan xalq hayotini tasvirini bera olgan. Nodim kambag‘al mehnatkash dehqonlarning boshidan kechirayotgan azob-uqubatlarini ko‘rib, yurakdan achinib ezilgan, feodalizm ta’siridagi tutqunliklar, xonlar va boylar zulmidan ezilgan mehnatkash dehqonlarning ahvoliga xayrixohlik bilan qaragan, mehnatkash ommoning mashaqqatli turmushini o‘z she’rlarida cheksiz qayg‘u bilan tasvirlagan.

Professor V.Abdullayevning ta’kidlashicha, Maxmurning mashhur she’rlaridan biri “Hapalak” nomli g‘azalidir. Bu g‘azal nihoyatda o‘tkir va real yozilganligi sababli Maxmur ijodiyotida alohida o‘rin tutadi. Chunonchi, bu asarda shoir o‘z zamonasidagi qishloqlarning xarobaligini va undagi aholining xonlar va beklar zulmi ostida ezilib yotganini aks ettirib, xalq manfaatini himoya qiluvchi kishi sifatida bu holga birinchi tomondan g‘oyat achinadi, ikkinchi tomondan esa, og‘ir ahvolini yengillashtirish maqsadida xondan iltifot, adolat qilishni talab etadi [6, 298]. Nodim Namangoniy shoir Maxmurning ushbu satirik xarakterdagi she’riga muxammas bog‘lab, o‘zining 8 banddan iborat bo‘lgan ijtimoiy lirikasini yaratib, o‘sha davrdagi xalqning kambag‘al va ezilgan aholisining achinarli hamda ayanchli ahvolini yanada to‘laroq, yanada mukammalroq tarzda yoritib bera olgan desak mubolag‘a qilmaymiz.

Ertadan kechgacha ketmon chopib, issig‘da kuyub,
Yemagaylar zog‘ara, arpani noniga to‘yib,
Eru xotun talashib qo‘lini ko‘lmak bila yuvib,
Ajiriq tomirini kelisida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak [1, 29].

Tadqiqotchi D.Tajibayevaning ta’kidlashicha “She’riyat poetik timsolning asosi hisoblanadi. Har qanday sharoitda ham she’r yozilishi mumkindir, lekin haqiqiy she’r o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. She’r-ijodkorning qalbidagi og‘riq, quvonch, nafrat, hayrat, muhabbat. Qachonki ijodkor qalbida og‘riq

sezganda, quvonganda, sog‘inganda, nafratlanganda, hayratga tushganda, sevib qolganidagina ilhom daryosida suzadi. Shoir ko‘ngli kuchli bir ruhiy iztiroblar iskanjasida to‘lg‘onadi, azoblanadi. Poetik timsollar ifodasida shoir uslubining o‘ziga xos qirralari yaqqol ko‘zga tashlandi” [5, 320]. Shoirning asosiy muammosi lirikasi bag‘rida kuylanayotgan iztiroblar, nafratlar, og‘riqlar va hayratlar, aslini olganda, avom xalq boshiga yopirilib kelayotgan qora bulutlar talofatining natijasi istirobli chizgilari edi. Anglashilganidek, davrdagi eng og‘riqli muammo hajviy-satirik asar negizida bo‘lgan, ya’ni zora zamona amaldorlari, eshonlar, qozilar va murshidlarning vijdon-ko‘ngil ko‘zi ochilib, nafsiga qul bo‘lmasdan oddiy xalqqa adolat va insof nazari bilan yondoshsa degan muddaoda bo‘lgan. Shunday ekan, Nodim poetik merosida satira alohida sahifani tashkil etgan. Uning ijodining shu jihatiga baho beradigan bo‘lsak, hajviy janrning poetik sturukturasida xalqning taqdiri hamda qadriyatlari uzviyligini anglaymiz.

Xulosa. Bundan Nodim Namangoniy ijodi yuzasidan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. O‘sha davrda madhiyago‘ylik va qasidago‘ylik bilan shug‘ullangan eski tartiblarni saqlab qolishga hamda tiklashga urinuvchi saroy adabiyoti shoirlari real hayotdan uzoqlashgan bir paytda Nodim Namangoniy ilg‘or taraqqiyotga undovchi mavzudagi ko‘plab mazmundor ahamiyatga ega asarlar yaratgan. Uning she’rlarida XIX asr Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy hayotni, beklar va xonlar zulmida ezilgan mehnatkash dehqonlarning og‘ir hayotini, ko‘plab ilg‘or fikrli kishilar xor-u zorlikda hayot kechirayotganliklarini real ko‘rsatib bera olgan. Nodim asarlarida muhabbat va sadoqatni e’zozlab, do‘stlikni sharaflaydi. O‘lkadagi tengsizlikdan, nohaqlikdan norozi bo‘lgan shoirning g‘azabi goho tug‘yon uradi. Qo‘lga qalam olib dard-u alamini qog‘ozga tushirgan. Xalqning ayanchli ahvoliga achinib, iztirob chekkan. Shoir haqiqat va adolat izlab qattiq azoblangan, ammo ertangi porloq kun kelishiga ishongan. Bejizga “Oliyjanob inson bo‘lmish shoirgina insoniy go‘zllikni va pokizalikni tasvirlay oladi, shunday odamning badiiy timsolini yarata oladi”, – deyilmagan [7, 53].

ADABIYOTLAR:

1. Нодим Намангоний. Танланган шеърлар. – Т., 1964. – 88 б.
2. Каримов Ф. К. Ўзбек адабиёти тарихи, 3-китоб. – Т., 1975. – 318 б.
3. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Фан, 1961. – 362 б.
4. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 5-жилд. – Т., 1980. – 322 б.
5. Тажибаева Д. Тимсолларда поэтик услуб жозибаси// ЎзМУ хабарлари, 2016. – №4. – 320 б.
6. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб. – Т., 1964. – 384 б.
7. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т., 1993. – 322 б.
8. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1970. – 308 б.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 480 b.
10. htths://www.dissercat.com

Axmedova Hafiza Hakimovna,
BuxDu mustaqil izlanuvchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: akhmedova_khafiza@mail.ru

LIRIK MAKTUBNING SPETSIFIK XUSUSIYATLARI VA UNING ADABIYOTDA SHAKLLANISH ASOSLARI

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda maktublarning she’riy va nasriy shaklda yozilganligi ma’lum. Adabiyotshunoslikda “epistolyar janr” termini har ikki shaklda bitilgan maktublarni qamrab oladi. Maktub yashovchan janr sifatida qadimgi davrlardan hozirga qadar yaratilib kelinmoqda. Shu jihatdan maqolada lirik maktubning genezisi, shakllanish asoslari va rivoj topishi antik davr, Uyg‘onish davri adabiyoti, o‘zbek folklori, mumtoz adabiyotga borib tutashishi masalasiga e’tibor qaratilgan. Janrning adabiyotshunoslikda o‘rganilishi, spesifik belgilari, tabiati, tarixiy transformatsiyasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: lirik maktub, noma, genezis, adresat, adresant, xabar, badiiy informatsiya, epistolyar janr, lirik kechinma.

Аннотация. Известно, что к жанру письма обращались как в поэзии, так и прозе. В литературе термин “эпистолярный жанр” охватывает письма, написанные в обеих формах. Письмо, как один из древних жанров художественной литературы, все еще остаётся актуальным. В связи с этим в статье уделяется внимание генезису, основам формирования и развитию лирического письма, его связи с литературой древности, эпохой Возрождения, узбекским фольклором, классической литературой. Особое внимание обращено на специфические черты, природу лирического письма, а также на изученность его в литературоведении.

Ключевые слова: лирическое послание, генезис, адресат, адресант, художественная информация, эпистолярный жанр, лирические переживания.

Abstract. It is known that the genre of letter was addressed both in poetry and prose. In literature, the term “epistolary genre” covers letters written in both forms. Letter, as one of the ancient genres of literature, still remains relevant. In this regard, the article pays attention to the genesis, foundations of formation and development of lyrical letters, its connection with ancient literature, the Renaissance, Uzbek folklore, classical literature. Particular attention is paid to the specific features, nature of lyrical writing, as well as its study in literature.

Key words: lyrical message, genesis, addressee, addresser, artistic information,epistolary genre, lyrical experiences.

Kirish. Maktublar yozuv paydo bo‘lgandan boshlab hozirgacha insonlar o‘rtasidagi yozma muloqot vazifasini bajarib kelmoqda. Inson hayoti bilan bog‘liq har xil xabarlarni ifodalab kelgan xatlar hozirda ham bu turli shakllarda davom etmoqda. Buni hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi bir necha shaxslar orasida amalga oshiriladigan xabar mazmunidagi matnlar ham tasdiqlaydi. Maktublarda ikkita shaxs: adresat va adresant harakat qiladi. Ijtimoiy hodisa sifatida kishilar o‘rtasidagi muloqot vositasi vazifasini bajargan maktublar badiiy ijodga ham ko‘chdi. Natijada adabiyotshunoslikda “epistolyar janr” degan termin paydo bo‘ldi. Darhaqiqat, epistolyar janrning asosiy qoidalari mavjud: 1. Xat kimdan va kimga yo‘llangan holda manzil ko‘rsatilishi. 2. O‘zi to‘g‘risida xabar berish. 3. Xat yozish sabablarini tushuntirish. Bu xatning spesifik belgilari hisoblanadi. U orqali lirik qahramonning his-kechinmalarini, iztirob va quvonchlarini ifodalashga erishildi. Rus adabiyotshunosligida shu ma’noda bir necha terminlar ishlatilgan: epistolyar janr, lirik maktub, murojaat lirikasi (“adresovannaya lirika”). Adabiyotshunos Artyomovaning fikricha: “Xat insonning ichki dunyosini, uning fikrlari, sezimlarini, atrofiga munosabatini ifoda etish vositasi sifatida biografik, etik va didaktik xususiyatdagi asarlarda o‘rin tutadi” [1, 15].

Asosiy qism. Ko‘rinadiki, maktub orqali inson muayyan bir xabarni yo‘llaydi. Shuning barobarida adresatning tuyg‘u-kechinmalari: iztiroblari, sog‘inchi, muhabbati ham ifoda etiladi. Olimaning fikricha, maktublar biografik, etik va didaktik asarlar strukturasidan o‘rin oladi. Bundan ko‘rish mumkinki, maktublar ham shakliga ko‘ra nasriy va she’riy tarzda bo‘ladi. Epik asarlar tarkibida shu jihatdan nasriy maktublar kompozitsion vazifani bajaradi. Olima fikrlarini davom ettirib, yozadi:

“She'riy xabar (lirik maktub deyilmoqchi) shartli yoki haqiqiy murojaat bilan yozma (kamroq og'zaki) dialog holatini o'zida mujassam etgan lirik janr” dir [1,17].

Yoki V.K. Trediakovskiy xatni quyidagicha ta’riflaydi: “Nasrdagi kabi maktubni yo‘llovchi va qabul qiluvchi mavjud bo‘lib, bu yerda poetik obraz va shoirona ruh ustuvor bo‘ladi. Maktublar didaktik, sevgi, pand-nasihat, maqtov ma’nosida bo‘ladi. Bu tur gekzametr vazni bilan baytda yoziladi. Lotin tilida Goratsiy va Ovidiyning, fransuzchada Bualoning maktublari bu turga misol bo‘la oladi” [3,36]. Demak, bunda maktubni yo‘llovchi (adresat) va qabul qiluvchi (adresant) obrazi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, janr tabiatiga xos mazmun va shakli bilan bog‘liq bo‘lishi aniqdir. Ya’ni uning muhabbat, pand-nasihat mavzularida va gekzametr vaznida yozilganligi maktublarning spesifik xususiyatidir. M.L.Gasparov: “Maktubda aniq bir adresat bor...” deydi. Lekin tadqiqotchi Danilevskiyning ta’kidlashicha, adresat xayoliy, nomsiz bo‘lishi yoki matn mazmunidan kelib chiqishi mumkin [4,35]. Shu jihatga ko‘ra, maktubda adresant va adresat obrazi qatnashadi, deyish mumkin. Y.V. Dmitriyevning yozishicha, maktub maxsus estetik yoki tarbiyaviy-pragmatik funksiyalarni bajaradi va turli mazmuniy-hissiy lahzalarni o‘zida mujassamlashtirish xususiyatiga ega. [5,26] Bundan lirik maktubning yana bir spesifik xususiyati anglashiladi: uning tarbiyaviy-pragmatik vazifani bajarishi, qahramonning hissiy lahzalarini: sog‘inchu iztiroblari, muhabbati va nafratini ifoda etadi.

Adabiyotshunos Kruglovaning yozishicha, maktub janri adabiyotshunoslikda eng kanonlashmagan janrlardan biri hisoblanadi. U ko‘pincha falsafiy-nazariy, didaktik-publisistik, ishqiy yoki do‘stona xarakterdagi murojaat sifatida ta’riflanadi. “Kanonlashmagan” deganda olima, lirik maktubning o‘z maxsus she’riy shakliga emasligini nazarda tutgan. Ular istalgan vazn va istalgan shaklda yozilishi mumkin. Zero, ular shaklan she’r va nasrda, mazmunan falsafiy, didaktik-publisistik, ishqiy tarzda bo‘ladi. Olima yana bir jihatni qayd etadi: “Bunda adresatni aktuallashtirish (eksplitsatsiya) va konkretlashtirish (personalizatsiya) estetik singdirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Aynan shu holatda shaxsga yo‘naltirilgan matn – maxsus ifoda vositalari (murojaatlar, olmoshlar, fe’l shakllari, so‘roqlar, undov konstruksiyalar va boshqalar) tufayli muallif monologi bevosita qaratilgan eksplitsit adresatgagina emas, balki har qanday o‘quvchiga ham suggestiv ta’sir ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi” [6, 40]. M.Gasparovning fikricha, maktub she’riy maktub bo‘lib, uning rasmiy belgisi “muayyan adresatga murojaatning mavjudligi”dir. Bu murojaat esa “iltimos, tilak va shu kabi motivlar” xosdir”. M.Gasparov an’anaviy axloqiy-falsafiy yoki didaktik mazmundagi (an’ana Goratsiyga borib taqaladi) va “hikoya, pand-nasihat, satirik, ishqiy va h.k. ko‘p sonli maktublar”ni janr turlari sifatida ajratib ko‘rsatadi [2, 905].

Rus nazariyotchi olimi N.D.Tamarchenkoning fikricha, elegiya va maktub janriga idilliya ta’sir qilgan. Binobarin, rus she’riyatidagi idilliyada lirik qahramon uchun eng qadrli bo‘lgan vatani, uyi, ular bilan bog‘liq bo‘lgan tabiat: tog‘lar, dalalar va hokazolarning tasvirlanadi. Bu janrning spesifik xususiyati. Elegiya esa – qayg‘uli qo‘shiq, unda “har qanday his-tuyg‘u, o‘tkir, konfliktli rafos ruhi ustuvorlik qiladi”[7, 433]. Shu fikrlardan kelib chiqilsa, lirik maktubga idilliyaning ta’sirini – unda shaxsiy his-kechinmalar aks etishi, elegiyaning ta’sirini esa maktubda aks etadigan dardli kechinmalar tasviri bilan asoslash mumkin.

Natijalar va muhokama. Shu jihatdan lirik maktub janrining yozma adabiyotdagi shakllanish asoslari ikkita muhim manbaga borib taqaladi: 1. Jahon adabiyoti (antik davr, Uyg‘onish davri adabiyoti. 2. O‘zbek mumtoz adabiyoti.

1. Binobarin, she’riy maktub janridagi asarlarning elementlari antik epistolografiyada borib tutashadi. Jumladan, Horatsiyaning “Xatlari” e’tiborni tortadi. Bu maktublar ijodkorning o‘z hayoti to‘g‘risidagi fikrlar bilan birga ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mavzularni ham qamrab oladi. Shu xususiyati bilan memuarlarni yodga soladi. Muallifning o‘ziga xos ma’lumotlari “Pont bilan xatlari” da o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, uning adabiyotga bag‘ishlangan 3 ta maktubi borligi ma’lum. Bu asar “Pizomlarga xatlar” deb nomlangan. Ovidiy ham bu janrning yuzaga kelishiga muhim hissa qo‘shgan: “Men bu janrning asoschisiman” [8], – deydi. Nazariyotchi olim D.Quronov yozadi: “Antik Rimning yana bir mashhur shoiri – Kvint Goratsiy Flakkning (mil.av. 65-8 yy) “Poeziya ilmi” (Pizonlarga maktub) nomli asari she’riy yo‘lda yozilgan risola, aniqrog‘i, qo‘llanma bo‘lib, adabiy doiralarga yaqin bo‘lgan zodagonlar – Pizonlar xonadoniga yo‘llangan maktub shaklida yozilgan. Goratsiy ushbu maktubida Pizon va uning ikki o‘g‘liga poeziya oldiga qo‘yiladigan talablarni bir-bir tushuntirib boradi va shu asno o‘z davrining adabiy-nazariy qarashlarini muxtasar bayon qiladi”

[9,24]. Ko‘rinadiki, Goratsiyning maktubi adabiy-nazariy xarakterda bo‘lgan. Ya’ni shoir shu oilaga maktub yo‘llash bahona o‘zining she’r haqidagi qarashlarini bayon etgan. Buning lirik maktubning dastlabkisi deyilishiga sabab – uning she’riy yo‘lda bitilganligidir. Bu xatni Oybek o‘zbek tiliga o‘girgan:

Vataniga va do‘stiga nisbatan o‘z burchini kim
Idrok qilsa; otasini, qardoshini va mehmonni
Qanday sevmoq lozimligin bilsa, senat vazifasi,
Sudya ishi va urushga ketayotgan qo‘mondonning
Vazifasi nimalardir,- kimki idrok qilsa buni,
U, shubhasiz, har bir rolga loyiq obraz bera bilar... [9, 24].

Yuqoridagi satrlarda shoir Pizon va uning ikkita o‘g‘liga insonning Vatan va do‘stlar oldidagi burchini, yaqinlariga munosabatini, har bir kasb egasining vazifalarini tushuntirib beradi.

Men aqlli taqlidchiga shunday kengash berardim:
Urf-odat va hayotga qara, undan jonli so‘z ol!
Ba’zi joyi go‘zal, to‘g‘ri, lekin asl nafosatdan
Mahrum, kuchsiz va san’atsiz oddiy turmush asarlari
Tumtaroqli va bema’ni puch she’rlarga qaraganda,
Xalqni ko‘proq maftun qilar va yaxshiroq jalb etar [9, 24].

“Aqlli taqlidchi” bu o‘rinda shoirni – ijodkorni anglatadi. Chunki Aristotel ijodkorlarni “taqlidchilar” deydi [8]. Mazkur bandda Horatsiy shoirlikning sir-sinoatlarini ifoda etadi. Uning fikricha, “aqlli taqlidchi” – shoir she’r yozish, asar yaratish uchun urf-odatlarni, hayotni yaxshilab o‘rganishi, undan jonli so‘zlarni tanlashi kerak bo‘ladi. Shundagina bunday asarlar asl nafosatdan mahrum bo‘lgan, kuchsiz, bema’ni, puch she’rlardan ustun bo‘ladi va xalqni o‘ziga maftun etadi. Demak, bu fikrlar Horatsiyning she’rni qanday yozish kerakligi haqidagi adabiy-nazariy qarashlarini ifoda etgan. D.Quronov kuzatishlari ham buni tasdiqlaydi: “Goratsiy hayotdan oddiygina nusxa ko‘chirish tarafdori emas, aksincha, ijodda badiiy to‘qimaga ham keng o‘rin beradi. Unga ko‘ra, yozuvchi “yo rivoyatlarga ergashish va yo haqiqatga monand to‘qima” orqali asar yaratishi mumkin. Agar yozuvchi ijodiy fantaziyasi bilan ilgari ma’lum bo‘lmagan (ya’ni original) obraz yaratsa, uni boshdan oxirigacha o‘zligiga mos holda, ya’ni xarakter butunligini saqlagan holda harakatlantirishi kerak bo‘ladi” [9, 25].

Horatsiyning “Eks Ponto”, “Tristiya” to‘plamlarida xotiniga, qiziga, do‘stlariga va imperator Avgustga yo‘llangan maktublari aks etgan. Shu bilan birga, “Herodis” (“Qahramon ayollar”) to‘plamida ayollarning sevgi maktublari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular 21 xatni tashkil etgan. Senekaning xatlari badiiy koloritga ega bo‘lib, o‘quvchilar, zamonaviy va avlodlarga mo‘ljallangan alohida epistolyar janridagi adabiy asarlarga aylandi. Pliniy Kichik nasriy badiiy yozuvning alohida shaklini yaratadi, u mazmuni va shakli jihatidan epigramma, lirik she’r, elegiya, qisqa novella, pritse va boshqalarga yaqin.

Uyg‘onish davri fransuz adabiyotida Klimanmaro birinchi maktublarni yozgan. Fransiyada bu janr o‘zaro muloqot vositasi sifatida ijtimoiy mazmun kasb etgan. Uning mavzu doirasi chegaralanmagan. Hatto maktub deyilganda ko‘p holatlarda ikki kishi orasidagi suhbat ham tushunilgan. Aynan Bualo bu janrni adabiy muomalaga olib kirdi. Uning maktublarida Horatsiy xatlarining ruhi, mazmuni seziladi. Undan keyin Volter ijodida maktublar yetakchi janrga aylandi. U janrning avvalgi soddalikni qaytarib, unga beqiyos nafosat va zukkolik baxsh etdi. Uning xatlari yozuvchilarga, hukmdorlarga, do‘stlarga, dushmanlariga, jonsiz predmetlarga, u dunyoga (Rauf Parfida “U dunyoga – onamga maktub”) yo‘llangan. Fransuz adibi V.Gyugo maktublari ham g‘oyaviy-badiiy jihatidan o‘ziga xoslik kasb etgan [8].

Uyg‘onish davri ingliz adabiyotida bu janr yetakchi bo‘lgan. Ayniqsa, ingliz shoiri Aleksandr Poupning maktublari janrning mumtoz namunalari hisoblangan. Uning “Insoniyat haqida tajriba” (“Opit o cheloveke”) kitobidan she’riy xatlar o‘rin olgan. Uyg‘onish davri nemis adabiyotida maktub poetik bo‘yoqdorlik kasb egan adabiy janr sifaida namoyon bo‘lgan. Bu janrda Villand, F.Shiller, I.Gyote, Ryukerd va Gotshal kabilar peshqadamlik qilishgan. Italyan poziyasida esa G.Kiabrera lirik maktublar asoschisi hisoblanadi [8].

XVIII asr rus adabiyotida shu janrda murojaat qilmagan birorta bir ijodkor yo‘q. V.K. Trediakovskiy, Kantemir ijodida janr namunalari ko‘p uchraydi va ular, asosan, nasriy shaklda bitilgan. “Rus poeziyasidan Appolonga maktub” bu jihatdan ko‘p material bera oladi. XVIII asr rus adabiyotida she’riy maktublar keng tarqalgan. Bu fikrni M.V. Lomonosov, A.P. Sumarokov, M.M. Xeraskov xatlari

tasdiqlaydi. M.M.Xeraskov ijodida maktubning “o‘z-o‘ziga”, elegik va oddiy xabar, epigrammaviy, komik ko‘rinishlari mavjud. D.I.Fonvizinning “Xizmatkorlarim Shumilov, Vanka va Petrushkaga murojaatim” she’ri rus falsafiy adabiyotining qimmatli yodgorligidir. G.R. Derjavin maktublari janr taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

Yevropa she’riyatida maktubning gullagan davri XVII-XVIII asrlar klassitsizmi davriga to‘g‘ri keladi. S.Y.Artyomovaning yozishicha, bu janr namunalari Fransiyada N. Boile, Volter, Angliyada A. Papa, Germaniyada I. Gottsched, X. Wieland, F. Shiller, I.V. Gyotelar ijodida muhim o‘rin tutganligini, rus adabiyotida esa maktub janri XVIII-XIX asrlarda gullab-yashnaganligini, uning mumtoz namunalari A.D.Kantemir tomonidan yozilganligini ta’kidlaydi [10,164]. Ko‘rinadiki, maktubning taraqqiyoti Yevropada XVII-XVIII asrlar klassitsizm davri bilan bog‘liq. Olimaning kuzatishlariga ko‘ra, romantizm davrida maktub mazmunida o‘zgarishlar yuzaga kelgan: unda samimiyat ruhi, do‘stona tilaklar ruhi kuchaygan.

Adabiyotshunoslikda tarixiy-adabiy jarayonda muhim o‘rin tutgan she’riy maktub janri XIX asr adabiyoti materialida yetarlicha o‘rganilgan. Lirik maktub janrining tarixiy transformatsiyasi haqida qarashlar bayon etilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida bu janr ko‘proq “noma” termini bilan ifoda etilgan. Binobarin, “noma (fors. – xat, maktub) – 1) xat, maktub, farmon, rasmiy yozishma yoki yozilgan narsa; 2) adabiy janr; Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, o‘zbek va fors mumtoz adabiyotlarida yaratilgan, real yoki xayoliy to‘qima shaxsga asosan she’riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi; 3) biror tarixiy shaxs yoki asar qahramonining sarguzashtlari, safar taassurotlari, ichki kechinmalari nazm yoki nasrda bayon etilgan har qanday (badiiy, ilmiy, memuar va boshqalar) asar turi, 4) mazmunan murakkab, yirik epik asar; doston” [8]

Ko‘rinadiki, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi “noma” janrining 4 xil ma’nosi keltirilgan. Birinchi ma’nosi umuman kimgadir yo‘llangan xabar mazmunidagi xatni ifodalaydi. Ikkinchi ma’nosi esa o‘zbek mumtoz adabiyotidagi shu nomdagi lirik janrni bildiradi. Uchinchi ma’nosi aynan janriy tabiati poetikasi o‘rganilayotgan adabiy janr. Unda lirik qahramonning yaqinlariga: onasiga, singlisiga, yoriga, do‘stiga va hokazo kishilarga yo‘llagan his-kechinmalar aks etgan she’riy yoxud nasriy (“Muhabbatnoma”)shakldagi asar. To‘rtinchi ma’nosi esa “noma” deb nisbat beriladigan yirik epik asar (“Boburnoma”), doston “Shohnoma”, “Taashshuqnoma”)ni bildirib keladi.

“Adabiy turlar va janrlar” 3 tomligining 2-tomida bu janr “xat” termini bilan ta’riflangan: “Xat (maktub arabcha, xat) – biron joy yo biron atoqli kishiga yuborilgan she’riy xat, alohida lirik janr, epistolyar poeziya namunasi. Noma ham xat demakdir” [11,158].. Demak, bundagi ta’rif ham yuqoridagi 3-ma’noga mos keladi. Chunki she’riy xat lirik janr sifatida talqin etiladi va epistolyar poeziya namunasiga kiritilgan. Maktub mazmun jihatidan estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo‘nalishiga asoslanadigan janrlar [11, 149]. qatorida sanalgan. “Xorazmiy yozgan “Muhabbatnoma”, Sayid Ahmad yozgan “Taashshuqnoma”, Xo‘jandiy yozgan “Latofatnoma”, Yusuf Amiriy yozgan “Dahnoma” kabi asarlardan farq etadi. Navoiy ijodida maktub janri alohida o‘rin oldi, asosida murojaat, dolzarb masala va odamiylik turadi, bu janrda realizm bosqichi yanada hayotiyroq edi (Zavqiyning Furqatga maktubi, “Furqatning javobi”, Nodimning “Maktubi muhabbat uslub” asari). Hamzaning “Yigit va qiz maktublari” sevgining chinakam pokiza his-tuyg‘ulari, orzu-armonlari, kechinma va iztiroblari bayonidir. Hamzaning “Maktub” she’ri ham she’ri janrning munosib namunasidir” [11, 149]. Ushbu qarash esa lirik maktubning noma ko‘rinishida yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Biroq bu nomalarning hammmasi ham maktub mazmunida bo‘lmagan. Masalan, Sayid Ahmad yozgan “Taashshuqnoma”, Xo‘jandiy yozgan “Latofatnoma”, Yusuf Amiriy yozgan “Dahnoma” kabi asarlarida “noma” maktub emas, muayyan bir mazmun, ruhdagi asar sifatida kelgan. Alisher Navoiyning “Munshaot” asari xatlardan tashkil topgan esa-da, ular bugungi adabiy maktublarga mos keladi. Ulug‘ mutafakkirning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning Shiringa, Shirinning Farhodga maktublari aynan lirik maktub xususiyatlarini aks ettiradi. Hamzaning “Yigit va qiz maktublari” she’ri yangi o‘zbek she’riyatida janrni boshlab bergan asardir va ular mazmun jihatidan sevgi maktublariga muvofiq keladi.

“Maktub janri, ayniqsa, urush davrida shaxsiy munosabatlardan chiqib, jangovar ruhga ega bo‘ldi (Mirtemir, Salom xat; V. Sa’dulla. Do‘stlarga maktub). Ismoil To‘lakning “So‘nggi maktub” she’riy qahramonning otasiga yozgan xatidir. She’r hissiyot bilan to‘la, katta Farg‘ona kanalining qurilishi, yuqori paxta hosili yetishtirish munosabati bilan bitilgan xatlar bu janrning yangi ko‘rinishi va ancha rivoj

topganligiga guvohdir. Maktub janri poetikasi, xat janri o‘z xillari bilan bog‘liq holda o‘zgarib keldi. U o‘zbek adabiyotining milliy janrlaridan biridir” [11, 149].

Mazkur fikr lirik maktubning mazmunan o‘zgarib, xilma-xillashib borganligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, buni mazmunning ijtimoiylashuvida ko‘rish mumkin. Yuqorida sanalgan xatlar qatorida H.Olimjonning “Jangchi Tursun” balladasidagi o‘g‘ilni vatanparvarlikka undagan onaning maktubini ham kiritish mumkin. Qolaversa, Erkin Vohidov ijodining cho‘qqi asarlaridan biri – “Nido”da ham bolaning urushdagi otasiga yo‘llagan maktubi hissiy-emotsional pafosi bilan ajralib turadi. Yana bir jihatni ta’kidlash kerak: lirik maktub milliy janr sifatida e’tirof etilgan.

Adabiyotshunos D.Quronov badiiy asar haqida fikr yuritar ekan, yozadi: “adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya’ni ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozayapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday odamligi, u bilan qay yo‘sin muomala qilish kerakligini har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz yetkazmoqchi bo‘lgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta’sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz” [12, 50].

Olim shu o‘rinda maktubni ham muloqot asosida yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, maktub yozayotgan adresant uni kimga yozayotganligini bilishi kerak. Zero, adresat unga yuborilgan xabarni tushunishi, his qilishi kerak bo‘ladi. Olim fikrlarini davom ettirib, yozadi: “Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz – tasavvuringizdagi suhbatdosh bilan “xayolan gaplashasiz” va ayni shu suhbat(muloqot jarayoni) qog‘ozda muhrlanadi. Qog‘ozda muhrlangan “suhbat-muloqot”, maktub adaresat qo‘liga yetib borgach, yana jonlanadi. Endi siz adresat tasavvuridagi suhbatdoshsiz: real suhbatdoshga aylangan adresat sizning gaplaringizni “eshitadi”. Ma’lum bo‘ladiki, maktub, umuman, yozma nutq muddati kechiktirilgan muloqot, matn esa muloqotning amalga oshish vositasi ekan...” [12, 50]. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim maktubning spesifik xususiyatini ochib bergan: unda adresant va adresatning bo‘lishi, muloqotga kirishish, xayolan suhbatlashish, muloqot vositasi ekanligi kabi. Demak, his-tuyg‘u, kechinma mahsuli bo‘lgan, sog‘inch-hijron tuyg‘ularini ifoda etuvchi noma – lirik maktub Xorazmiyning “Muhabbatnoma”dan boshlangan. Unda yorga-suyukliga yo‘llangan 11 noma bor.

Sayid Ahmadning (XIV-XV asr) “Taashshuqnoma” (“Oshiqlar maktublari”, Navoiy ta’biricha, “Latofatnoma”) dostoni ham shu qatorda turadi. Bu asar Xorazmiy “Muhabbatnoma”si va Xo‘jandiy “Latofatnoma”siga tatabbu’ qilingan – o‘xshatma tarzida bitilgan. Nazira qonuniyatlariga ko‘ra, asar tuzilishi, maktublar soni (10 ta) jihatidan ham yuqoridagi asarlarga o‘xshash; masnaviy maktublar g‘azal va boshqa lirik janrlar bilan qorishiq. Sayid Ahmad dostonidagi maktublar turkiy tilda yozilgan.

Xulosa. Lirik maktub haqidagi nazariy qarashlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Maktub orqali inson muayyan bir xabarni yo‘llaydi. Shuning barobarida adresatning tuyg‘u-kechinmalari: iztiroblari, sog‘inchi, muhabbati ham ifoda etiladi.

2. Lirik maktub janridagi asarlarninig unsurlari antik epistolografiyada borib tutashadi. Horatsiyaning “Xatlari” she’riy yo‘lda bitilganligi buni tasdiqlab turadi.

3. Maktublar biografik, etik va didaktik asarlar strukturasidan o‘rin oladi, nasriy va she’riy shakllarda yoziladi.

4. Lirik maktubda adresant va adresat obrazi qatnashadi. Bu janrdagi asarlar tarbiyaviy-pragmatik vazifani bajaradi, qahramonning hissiy lahzalarini: sog‘inchu iztiroblari, muhabbati va nafratini ifoda etadi.

5. Lirik maktub o‘zining she’riy shakliga ega emas. Ular istalgan vazn va istalgan shaklda yozilishi mumkin. Binobarin, u she’riy shaklni boshqa lirik janrlardan – g‘azal, masnaviy va boshqalardan ijaraga olib turadi. Lirik maktub bu xususiyati bilan o‘zbek she’riyatidagi marsiya, chiston kabilarga yaqin turadi. Lirik maktublar mazmunan falsafiy, didaktik-publitsistik, ishqiy mavzularda yozilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Артёмова С. Ю. Лирическое послание в литературе XX века: Поэтика жанра. – Россия, Тверь., 2004. – 175 б.

2. Гаспаров М.Л. Послание. Краткая литературная энциклопедия. Т. 5. – М.: Сов. энциклопедия, 1968. – 905 б

3. В.К. Тредиаковский. Новый и краткий способ к сложению российских стихов с определениями до сего надлежащих званий // Тредиаковский В.К. Избранные произведения. – М.: Советский писатель, 1963. – Б. 36.

8. Фатеева Н.А. Интертекст в мире текстов. Контрапункт интертекстуальности. – М.: КомКнига, 2007. – 282 с.
9. Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. Фил. Фан. б. дисс. автореферати – Т., 2021. – 54 б.
10. Gérard GENETTE, Palimpsestes: la littérature au second degré, Paris, Éditions du Seuil, 1982. – 468 p.
11. Derrida J. The Law of Genre: On Narrative. Chicago: University of Chicago Press, 1981. – 270 p.
12. Hawkes T. Structuralism and Semiotics. Berkeley: University of California Press, 1977. – 192 p.

Norova Mexri Baxtiyorovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)
E-mail: mexrinorova2202@gmail.com

RAMZ-METAFORA-MAJOZ MUNOSABATI

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda simvolizm va simvol termin sifatida farqlanadi. Simvolizm adabiy oqim nomini bildirsa, simvol poetik ko‘chim sifatida talqin etiladi. Ayni choqda, bu tushunchalar bir-birini taqozo etadi. Chunki simvolizm asosida simvol yotadi. Ramzga nisbatan simvol termini sinonim sifatida ishlatiladi. U muayyan belgi asosida shakllanadi. Bu termin keng va tor ma’noda keladi. Ramzning keng ma’nosi boshqa fanlar, san’at doirasida kelishi, tor ma’nosi esa badiiy ijod bilan bog‘liq holda qo‘llanilishida ko‘rinadi. Ramz uchun fauna va flora olami, tabiat, borliqdagi narsa-predmetlar tanlanadi. Tanlangan obyekt mohiyatidan kelib chiqib, uning ramziy ma’nosi aniqlanadi. Natijada ramz ongda turli assosiatsiyalarni uyg‘otadi. Adabiyot va san’atda ramz bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan: 1. Ramziy bilishning birinchi bosqichi ongning mifologik darajasi (marosimlar) bilan bog‘liq. 2. Insonning tevarak-atrofdagi voqelik hodisalari, jarayonlari va hodisalarining ramziy aks ettirishi yozuv taraqqiyotining boshlanishiga to‘g‘ri keladi. 3. Jamiyat taraqqiyoti, madaniyat va sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi bilan ramzni falsafa tubida madaniy hodisa sifatida nazariy talqin qilish vaqti keldi.

Kalit so‘zlar: ramz, majoz, metafora, simvolizm, ramz turlari, poetik obraz, istiora.

Abstract. In literary studies, symbolism and symbol are distinguished as terms. While symbolism denotes the name of a literary movement, a symbol is interpreted as a poetic movement. At the same time, these concepts are mutually exclusive. Because symbolism is based on a symbol. The term symbol is used as a synonym for a symbol. It is formed on the basis of a specific sign. This term comes in a broad and narrow sense. The broad meaning of a symbol is seen in its use in other sciences and art, and the narrow meaning is seen in its use in connection with artistic creativity. The world of fauna and flora, nature, objects in existence are selected for a symbol. Based on the essence of the selected object, its symbolic meaning is determined. As a result, the symbol evokes various associations in the mind. In literature and art, the symbol has gone through several stages: 1. The first stage of symbolic cognition is associated with the mythological level of consciousness (rituals). 2. The symbolic reflection of the phenomena, processes and events of the surrounding reality of man coincides with the beginning of the development of writing. 3. With the development of society, the emergence of culture and civilization, the time has come for the theoretical interpretation of the symbol as a cultural phenomenon in the depths of philosophy.

Key words: symbol, figure of speech, metaphor, symbolism, types of symbols, poetic image, allegory.

Аннотация. В литературоведении различают термины «символизм» и «символ». В то время как символизм относится к названию литературного движения, символ трактуется как поэтическое движение. В то же время эти понятия являются взаимоисключающими. Потому что символизм основан на символах. Термин символ используется как синоним символа. Он формируется на основе определенного персонажа. Этот термин употребляется в широком и узком смысле. Широкое значение символа очевидно при его использовании в других дисциплинах и видах искусства, тогда как его узкое значение проявляется при его использовании в связи с художественным творчеством. В качестве символов выбран мир фауны и флоры, природа, существующие объекты. На основе сущности выбранного объекта определяется его символическое значение. В результате символ вызывает в сознании различные ассоциации. В литературе и искусстве символ прошел несколько стадий: 1. Первая стадия символического познания связана с мифологическим уровнем сознания (ритуалами). 2. Символическое изображение явлений, процессов и событий окружающей человека действительности восходит к началу развития письменности. 3. С развитием общества, возникновением культуры и цивилизации настало время теоретической интерпретации символа как культурного феномена, лежащего в основе философии.

Ключевые слова: символ, фигура речи, метафора, символизм, типы символов, поэтический образ, аллегория.

Kirish. Adabiyotshunoslikda ramzning bir nechta koʻrinishlari farqlanadi. Jumladan, 1. Universal ramzlar turli madaniyatlar, jamiyatlar va tarixiy davrlarda izchil va keng qoʻllanga birliklarni anglatadi. 2. Madaniy ramzlar ma'lum bir madaniyat yoki jamiyatda oʻziga xos ma'no va ahamiyatga ega boʻlgan obrazli tasvirdir. 3. Shaxsiy ramzlar san'at, adabiyot yoki har qanday ifoda shaklining muallifi yoki ijodkori uchun individual ma'noga ega boʻlgan birliklarni bildiradi. 4. Allegorik ramzlar mavhum gʻoyalar, axloqiy saboqlar yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydi, ular uchun, asosan, fauna olami tanlanadi. 5. Arxetipal simvollar turli madaniyatlar va davrlarda umume'tirof etilgan va tushunilgan ramzlardir. Bunday ramzlar insoniyat badiiy tafakkuri, miflar, folklor, din, orzu-intilishlarini ifoda etadi. 6.Kontekstli simvollar aniq kontekstga bevosita bogʻliq holda yuzaga keladi. 7. Siyosiy yoki ijtimoiy ramz adabiyot, san'at yoki boshqa ifoda shakllarida siyosiy mafkuralar, ijtimoiy hayot yoki jamiyat muammolarini aks ettiradi. 8. Tabiat va atrof-muhit ramzi. adabiyot, san'at va boshqa ifoda shakllarida chuqur ma'nolarni bildirish, his-tuygʻularni uygʻotishda tabiat, undagi flora va fauna dunyosi asos boʻlib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Adabiyotshunoslikda ramz bilan yondosh ilmiy hodisalar mavjudki, ularning bogʻliq va tafovutli xususiyatlari mavjud. Ramz-metafora, ramz-majoz tizimida bu hodisalarning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash mumkin boʻladi. Binobarin, istiora (metafora), majoz (allegoriya) shu qatorda turadi. Metafora va ramz orasidagi farq shundaki, ramzlar soʻzlashuv nutqida ishlatilmaydi, metafora esa keng qoʻllanadi. Ramzlar qisqa, muxtasar boʻladi. Majoz keng ma'noda koʻchimlarning umumiy nomini bildirib keladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda soʻzni oʻz ma'nosida emas, boshqa bir koʻchma ma'noda ishlatish, koʻchimning umumiy nomini bildiradi. Soʻzning koʻchma ma'nosi doim matn ichida, u bogʻlanib kelayotgan boshqa soʻz orqali anglashiladi.

Adabiyotda ramz oʻziga xos poetik vosita sifatida badiiy fikrni obrazli, emotsional-ekspressif ifodalash vazifasini bajaradi. She'riyatda ramzlar keng qoʻllaniladi. Ular orqali ifoda etilgan fikr chuqur hayotiy mazmun va falsafiy mohiyat kasb etadi. Ramz turli yondosh hodisalar bilan yonma-yon keladi. Ayniqsa, metafora va majoz bilan uygʻun belgilarga ega. Biroq ramz ulardan farqli ravishda kontekst doirasida ham, oʻz ma'nosida ham koʻchma ma'noda qoʻllaniladi. Metafora esa faqat koʻchma ma'no bildiradi. Majoz uchun hayvonot olami obyekt boʻlib xizmat qiladi.

Istiora (metafora), majoz (allegoriya) shu qatorda turadi. Ma'lumki, ramz arabcha soʻz boʻlib, imo, ishora, imlash degan ma'nolarni bildiradi. "Simvol" termini "ramz"ga sinonim sifatida ishlatiladi va koʻchim turlaridan biridir. Istiora ham tilshunoslikda metafora deyiladi va koʻchim turlaridan biridir. Adabiyotshunoslikda esa istiora deb yuritiladi va badiiy san'atlar qatorida turadi. Ramz faqat shartli ravishda va shu matn doirasida koʻchma ma'no kasb etuvchi soʻz va soʻz birikmasi boʻlib, obrazlilik turi hisoblanadi. Rus olimasi O.V.Voronushkaning yozishicha, ramz hodisani toʻliq tavsiflab bera olmaydi. U faqat yetakchi ma'noni bildiradi va bu ularni metaforaga yaqinlashtiradi, ammo ramzda metaforadagi kabi taqqoslash yoʻq…[12, 51] Shu oʻrinda olima ramz va istioraning farqini juda noziklik bilan anglaydi: ya'ni ramzning koʻchma ma'no bildirishi metaforaga oʻxshaydi, lekin unda metaforadagi kabi qiyoslash xususiyati yoʻq. Metafora toʻgʻridan-toʻgʻri taqqoslash, umumiy xususiyatni yoritish uchun bir narsani boshqasiga qiyoslashdan iborat. Ramzning koʻlami keng, u kattaroq gʻoya yoki tushunchalarni anglatadi. Masalan, kabutar tinchlik ramzi. Ikkalasi ham tilni boyitadi, lekin ulardan foydalanish va ta'sir qilish turlicha [12, 51].

Metafora va ramz orasidagi farq shundaki, ramzlar soʻzlashuv nutqida ishlatilmaydi, metafora esa keng qoʻllanadi. Chunki koʻp hollarda, soʻzlashuvda nutq tabiiy jarayonda yuzaga keladi, xususan, iboralarda buni kuzatish mumkin.

Metafora va ramz oʻrtasidagi farqlardan yana biri shundaki, ramzlar qisqa, muxtasar boʻladi. Masalan, qizil atirgul sevgi, burgut erkinlik ramzi boʻlib keladi. Belgi bitta shaxs yoki obyekt boʻlishi mumkin va uni kattaroq qism yoki hikoya ichiga kiritish mumkin. Metafora esa ancha batafsil ifoda etiladi. Misol uchun, "u kompaniyaning yorqin yulduzi edi", "uning oltin yuragi bor". Bunda "yorqin yulduz", "oltin yurak" birliklari metafora boʻlib, birinchisida shaxsni, ikkinchisida esa mustahkamlikni bildirib keladi. Shu jihatda metaforani bitta soʻz bilan almashtirib boʻladi, lekin ramzni almashtirib boʻlmaydi.

Simvol va metafora koʻpincha bir-birining oʻrnida ishlatiladigan ikkita adabiy vositadir. Ramz ijodiy gʻoyalar yoki poetik fikrni obrazli ifoda etuvchi vositadir. Masalan, yurak muhabbat ramzi boʻlib

keladi. Simvol she'riyatda poetik mazmunni chuqur ochib berishda qo'llaniladi. Metafora ikki narsani hech qanday grammatik vositalarsiz (so'z yoki qo'shimchalarsiz) qiyoslash usuli. Unda bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki narsa o'rtasidagi munosabatni yuzaga keltiradi, ular o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Masalan, "hayot – bu sayohat" metafora bo'lib, yashash tajribasi, hayot past-balandliklari sayohatga qiyoslangan. Yoki "Bo'ronli munosabatlar oxir-oqibat boshi berk ko'chaga kirdi". Bunda "bo'ronli munosabat" keskinlikka teng keladi. "Boshi berk ko'cha" esa ibora bo'lib, to'liq ko'chma ma'noda ishlatilgan. "Dunyo bir sahna" misolida "sahna" ko'chma ma'noda o'tib ketadigan, vaqtincha ma'nosiga teng keladi. Badiiy adabiyotda jonli tasvirlarni yaratish, obrazlilikni kuchaytirish va o'quvchilarga murakkab g'oyalarni tushuntirishda metaforalardan foydalaniladi.

Ramz va metaforaning o'xshashligi – *ikkalasi ham bir narsani ifodalash uchun ishlatiladi*, lekin ular o'zlarining yondashuvlarida farq qiladi [14]. Simvolizm g'oya yoki sifatni ifodalash uchun o'ziga xos ramzdan foydalanadi, metafora esa ikki narsa o'rtasidagi munosabatni hosil qilib, yangi nuqtai nazarni yaratadi.

Simvol va metafora kontekstda muhim rol o'ynaydi. Vaziyatga qarab, ma'lum bir xabar yoki fikrni yetkazishda biri ikkinchisidan samaraliroq bo'lishi mumkin. Turli xil kontekstlarning ba'zi misollari va simvolizm va metafora o'rtasidagi tanlov qanday o'zgarishi mumkin.

Emil Verxarnning fikricha, ramz sezgilar va his-tuyg'ularning sublimatsiyasi, u ko'rsatmaydi, lekin u tafsilotlarni, faktlarni belgilaydi, san'atning eng yuqori va eng ruhiy ko'rinishidir [15]. Bu qarashlar ham yuqoridagi fikrlarga uyg'un. Ramz she'riyatning, san'atning eng yuksak ko'rinishidir. I.A.Avdeyenko fikricha: "Metafora obyektning mohiyatini anglash, ramz esa dunyo mazmunining doimiy nurini belgilaydi" [14]. Olim bu o'rinda metafora va ramzning farqini ajratadi: metafora obyekt mohiyati bilan bog'liq bo'lsa, ramz esa dunyoning mazmunini ochib beradi.

Ramz va metafora turli madaniyatlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Yozuvchilar chalkashlik yoki huquqbuzarlikdan qochish uchun ushbu madaniy farqlardan xabardor bo'lishlari kerak. Misol uchun, oq rang G'arb madaniyatlarida poklik va begunohlik bilan bog'liq bo'lsa, ba'zi Sharq madaniyatlarida u o'lim va motam bilan bog'liq.

Ramz g'oya yoki tushunchani ifodalash uchun belgilardan foydalanish, metafora esa ma'lum bir mavzuni chuqurroq tushunish uchun ikkita farqli narsani taqqoslashdir [1, 16]. Ramzni aniqlash uchun belgi asos qilib olinadi. Istiorada esa ikki narsa, predmet, hodisaga qiyosan yondashiladi. Ramzning ma'nosi kontekstdan kelib chiqadi.

"Metafora til emas, bu til bilan ifodalangan g'oya, o'z navbatida biror narsani ifodalash uchun ramz vazifasini bajaradigan fikrdir" [15]. Metaforadagi ma'no ko'chishi ramzga yaqin. U orqali fikr, g'oyani ta'sirchan ifodalashga erishish mumkin. Ramzlar shoir qalamida madaniy, tarixiy yoki umuminsoniy ahamiyatga ega kuchli vositadir. Ular murakkab g'oyalarni o'quvchi tasavvurida aniqlik va obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Demak, ramzlar aniqlikka asoslanadi. Masalan, qizil gul Sharq va G'arbda muhabbat ramzi.

Ramz va metafora o'rtasidagi farqlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Ramzda metaforadagi kabi qiyoslash xususiyati yo'q. Metaforada esa taqqoslash xususiyati bor.

2. Ramzning ko'lami keng, u kattaroq g'oya yoki tushunchalarni anglatadi. Metaforada obrazlilik yuksak darajada ifoda etiladi.

3. Ramzlar qisqa, muxtasar bo'ladi. Metaforani bitta so'z bilan almashtirib bo'ladi, lekin ramzni almashtirib bo'lmaydi.

4. Ramz ijodiy g'oyalar yoki poetik fikrni obrazli ifoda etuvchi vositadir. Metafora ikki narsani hech qanday grammatik vositalarsiz (so'z yoki qo'shimchalarsiz) qiyoslash usulidir.

5. Ramzning ko'chma ma'no bildirishi metaforaga o'xshaydi, lekin unda belgi munosabati mavjud.

6. Metafora obyekt mohiyati bilan bog'liq bo'lsa, ramz esa dunyoning mazmunini ochib beradi. Ramzning ma'nosi kontekstdan kelib chiqadi.

Ramzning metafora bilan o'xshashaligi quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ramzning ko'chma ma'no bildirishi metaforaga o'xshaydi.

2. Ramz va metaforaning o'xshashligi – ikkalasi ham bir narsani ifodalash uchun ishlatishadi.

3. Simvol va metafora ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladigan ikkita adabiy vositadir.

4. Har ikkalasi obrazlilik turi hisoblanadi.

Ramz-majoz munosabati. Majoz – arabcha so‘z bo‘lib, ko‘chma ma’nodagi so‘z ma’nosini bildiradi. Majoz keng ma’noda ko‘chimlarning umumiy nomini bildirib keladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda so‘zni o‘z ma’nosida emas, boshqa bir ko‘chma ma’noda ishlatish, ko‘chimning umumiy nomi. So‘zning ko‘chma ma’nosi doim matn ichida, u bog‘lanib kelayotgan boshqa so‘z orqali anglashiladi. So‘zning kochma ma’noda ishlatilishiga uning o‘z ma’nosi bilan ko‘chma ma’nosi o‘rtasida biror bog‘liqlik, o‘xshashlik yoki aloqadorlik bovlishi shart qilib qo‘yiladi. Shu jihatdan qaralsa, istiora, metonimiya, sinekdoxa, ramz majozning turli asoslarga tayanuvchi turlaridir. Tor ma’noda esa allegoriyaga muvofiq keladi. Shu jihatdan majozni tor ma’noda hozirgi adabiyotshunoslikda ko‘chim turlaridan biri, ya’ni allegoriya sifatida qo‘llash keng ommalashgan. Ramz mohiyatan – ko‘chma ma’no bildirishi jihatidan majozga yaqin. Ularni quyidagicha farqlash mumkin:

Ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida ham ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Masalan:

Yana keldim mahzun go‘shaga,
Bunda bir nay yotibdi sinib,
Qo‘y, sig‘inma ortiq o‘shanga,
Qo‘y, sig‘inma, unga, sevgilim [7, 376].

“Singay nay” ramzdir. O‘z ma’nosida nay sinishi mumkin. Ko‘chma ma’noda esa lirik qahramonning yo‘qotilgan hislari, armonga aylangan orzulari ma’nosida ham tushunish mumkin. Demak, “singan nay” kontekst doirasidagina yuqoridagi ma’noni ifodalab kelmoqda. Adabiyotda an’anaviylashgan va universallashgan ramzlar bor. Masalan, qizil atirgul sevgining, oq atirgullar begunohlik va poklik ramzi bo‘lib keladi. Ilon yovuzlik va zulmatni anglatadi. Allegoriya esa deyarli ko‘chma ma’no bildirib keladi, Badiiy adabiyotda bunday usul masallarda kuzatiladi.

Xulosa. Demak, adabiyotshunoslikda bir tizimda turuvchi ramz, istiora va majozni birlashtirib turadigan xususiyat ko‘chma ma’no ifodalash bilan bog‘liq. Biroq bu ko‘chma ma’nolarni berish jihatidan bu uch hodisa spesifik xususiyat kasb etadi. Ramz keng tushuncha, unda qiyoslash xususiyati yo‘q. Metaforada esa bu jihat mavjud. Allegoriya ham ramz ichida keladi. Faqat uning uchun qushlar va hayvonlar obekt qilib tanlanadi.

Ko‘rinadiki, adabiyotda ramz o‘ziga xos poetik vosita sifatida poetik fikrni obrazli, emotsional-ekspressif ifodalash vazifasini bajarib keladi. She’riyatda ramzlar muhim o‘rin tutadi. Ular orqali ifoda etilgan fikr chuqur mazmun va falsafiy mohiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Авдеенко И. А. Метафора и символ. Тамбов: Грамота, 2013. № 3 (21): в 2-х ч. Ч. II. С. 16-18. ISSN 1997-2911. – С. 16-18.

2. Baldwin E. Symbolism. PoemAnalysis, https://poemanalysis.com/literarydevice/symbolism/.

3. Blok A.. The twelve. (Translated by Jon Stallworthy and Peter France) RuVerses. Retrieved. – August, 2023. – 24 p.

4. Collins. Collins English Dictionary. 14th ed. Glasgow: HarperCollins, 2023.-2336 p.

5. Karimova Sh K., Quvvatova D.X. Artistic Functions of Anaphora in Modern Uzbek Poetry. Journal of Positive School Psychology http://journalppw.com 2022, Vol. 6. – №5. – P. 6270-6274.

6. Минск З. Поэтика русского символизма. Санкт Петербург: Исскуство, 2004. – 56 с.

7. Парфи Р. Сакина. – T.: Muharrir, 2013. – 376 б.

8. Sodikova D. T. Glimpses to feminine literature during the dynasty of Bukhara emirate: all about a poetess muslikhabegim miskin and her literary heritage // актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир. – 2021. – P. 174-176.

9. Снежко Н.И. Символы-концепты в пространстве поэтического текста: Системообразующий аспект. Автореферат, кандидат филологических наук. – Краснодарь, 2006. – 23 с.

10. Urokova, N. Masnavi in modern uzbek prose. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences,1(3), 2022. – P. 63-65.

11. Yorievna, U.N. Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 2022. – P. 67-70

12. Воронушкина О. В. Аллегория и символ как средства актуализации скрытых смыслов. // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета, 2016. – С. 51.

13. Karamatova Z., Quvvatova D. Ode genre in uzbek poetry and its improvement in Chulpon's work. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I2.349 ISSN:1308-5581 Vol 14. Issue 02, 2022.

14. https://www.topos.ru/article/literaturnaya-kritika/roza-vetrov-v-more-poezii-poeticheskie-techeniya-modernizma

15. https://scepticalprophet.wordpress.com/2012/10/22/the-difference-between-metaphors-and-symbols

Farmonova Mohinur Nuriddin qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti (O‘zbekiston)
E-mail: farmonovam69@gmail.com

IQBOL MIRZO SHE’RLARIDA QO‘LLANGAN XALQ MAQOLLARINING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Maqolada shoir Iqbol Mirzo she’riyatidagi folklorga oid ayrim xususiyatlar aniqlanib, ulardagi o‘ziga xos jihatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlilga tortilgan. Shoirning folklor an’analaridan foydalanishdagi individual uslubi va mahorati haqida fikrlar bayon qilingan. Iqbol Mirzo she’rlarida qo‘llanilgan maqol, matal va naqllarning badiiy ahamiyati yoritilgan, ilmiy qimmatiga to‘xtalingan. Shoir she’rlarida maqollarning qo‘llanilishi ijodkor o‘y-kechinmalarining o‘quvchi qalbiga oson kirib borishiga, badiiy haqiqatni ta’minlashga, lirik qahramon holatining ta’sirli va ishonarli chiqishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: folklor, yozma adabiyot, maqol, matal va naql, lirik qahramon, aforizmlar.

Аннотация. В статье выявляются некоторые фольклорные черты в поэзии поэта Икбала Мирзо, а их специфические аспекты анализируются с научной и теоретической точки зрения. Высказываются мысли об индивидуальном стиле поэта и его мастерстве использования фольклорных традиций. Подчеркивается художественная значимость пословиц, поговорок и афоризмов, использованных в поэмах Икбола Мирзо, а также подчеркивается их научная ценность. Использование пословиц в стихотворениях поэта обусловлено тем, что они служат для легкого проникновения мыслей и чувств творца в сердце читателя, обеспечения художественной правды, действенной и убедительной передачи состояния лирического героя.

Ключевые слова: фольклор, письменная литература, пословица, поговорка и мудрое изречение, лирический герой, афоризмы.

Abstract. The article identifies some features of folklore in the poetry by the poet Iqbal Mirzo, and their specific aspects are analyzed scientifically and theoretically. The poet's individual style and skill in using folklore traditions are expressed. The artistic significance of proverbs, sayings and aphorisms used in the poems of Iqbal Mirzo is highlighted, and their scientific value is emphasized. The use of proverbs in the poet's poems is based on the fact that they serve to easily penetrate the thoughts and feelings of the creator into the reader's heart, to ensure artistic truth, and to effectively and convincingly convey the state of the lyrical hero.

Key words: folklore, written literature, proverb, saying, lyrical hero, aphorisms.

Kirish. Folklor va yozma adabiyot munosabati masalasida so‘z ketar ekan, folklorga xos tushunchalarning yozma adabiyotda istifoda etilishi masalasi turli nomlar bilan yuritiladi. Bu hodisani folklorizm atamasi bilan nomlagan olima L.Sharipova folklorizmlarni, avvalo, ikki guruhga bo‘ladi:

1. Oddiy folklorizmlar.
2. Murakkab folklorizmlar.

Folklorizmlarni o‘rganishda P.S.Vixodsev tajribalariga tayangan B.Sarimsoqov xalq maqollari, matallari, yumshoq iboralar, og‘zaki nutqqa xos ifoda hamda oborotlarning qo‘llanishini oddiy folklorizm, deb hisoblaydi. Ammo L.Sharipova fikricha, og‘zaki nutqqa xos ifoda va oborotlar oddiy folklorizm bo‘lolmaydi. Nazarimizda, folklor janri bo‘lgan maqol va matallar, shuningdek, iboralar oddiy folklorizm bo‘la oladi. Shu jihatdan, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov fikrlariga qo‘shilish mumkin.

Asosiy qism. Avvalo, xalq maqollarining yozma adabiyotda qo‘llanilishi masalasiga to‘xtalsak. Ma’lumki, she’riy asarlarda qo‘llangan maqollar irsoli masal san’atini yuzaga keltiradi. Shu sababdan ham she’riyatda maqollarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A. Husayniyning “Badoyi us-sanoyi”, Sh.Roziyning “Al-mo‘jam”, Y.Is’hoqovning “Navoiy poetikasi”, A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati”, A.Hojiahmedovning “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”, “Mumtoz badiiyat malohati”, O.Nosirov va O.Sobirovlarning hamkorlikdagi “Xalq ijodi xazinasi” kabi tadqiqotlari maqollarning yozma adabiyotda o‘zlashuvi masalasiga bag‘ishlangan. L.Sharipova “XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm” tadqiqotida maqol yoki matalning

yozma adabiyotda aynan qo‘llanishidan asl oddiy folklorizmning yuzaga kelishi, ularning qaysidir jihatdan o‘zgartirib qo‘llanishidan qayta ishlangan oddiy folklorizm yuzaga kelishi aytiladi.

Maqol, matal va iboralar xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘zlashib, folklorizmni yuzaga keltirsa, aforizmlar, aksincha, yozma adabiyot mahsuli bo‘la turib folklorlashib bormoqda. Masalan, Alisher Navoiyning “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” kabi hikmatlari bugungi kunda darsliklarda ham maqollar qatorida berilmoqda.

Natijalar va muhokama. Folklor materiallaridan har tomonlama unumli foydalanish iste’dodiga ega bo‘lgan shoir Iqbol Mirzo o‘z she’rlarida juda ko‘p o‘rinlarda maqollar va matallarni qo‘llaydi. Masalan:

Berganga bittasi ko‘pdir, birodar,
Olganga mingtasi kam ko‘rinadi [7, 41].

Haqiqatan, maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi hisoblanadi. Yuqoridagi she’riy parchada keltirilgan maqol insonlar orasidagi oldi-berdi munosabatlarida har ikki tomonning holatini to‘g‘ri ifodalashi bilan ahamiyatli. Inson psixologiyasida qoniqish hissi haqida fan mutaxassislari fikr bildirar ekan, odamlarda bu tuyg‘u juda nisbiy ekanligi xulosa qilinadi. Ya’ni odamzod erishgan narsasidan qoniqib to‘xtab qolmasdan, yana-da ko‘prog‘iga erishishni xohlaydi. Beradigan odam esa imkon qadar kamroq berishni xohlaydi, albatta. Ushbu maqol A.Qahhorning “O‘g‘ri hikoyasida ham keltirilgan bo‘lib, bosh qahramon Qobil boboning amaldor bilan oldi-berdi munosabatida qahramonlarning holatini yoritish jarayonida qo‘llangan.

“Tangri sizni…” nomli she’rda shoir lirik qahramoni yordan ayrilgani uchun isyon qilmayotganining sababini izohlash maqsadida xalq maqolidan foydalanadi:

Men ne isyon etayin –
Ekkanning o‘zi o‘rdi [7, 305].

Aslida bu maqol “Har kim ekkanin o‘rar” tarzida qo‘llanilib, kishi nima qilsa, o‘ziga shu qaytishi ma’nosini beradi. She’riy parchada lirik qahramon ko‘ngil qo‘ygan qizni unga tangri uchratgani, keyin esa o‘zi ularni ayirganini aytmoqchi bo‘ladi. Ya’ni “bergan ham, olgan ham o‘zi”, demoqchi shoir.

Har bir o‘zbek millat o‘g‘lonlarining mard, jasur va g‘ururli bo‘lishini istaydi. Yigit kishi uchun g‘urur va or-nomus masalasi har narsadan ustun turadi, hatto, hayotidan ham. Shu sababli, adabiyotning ham yozma, ham og‘zaki ijodi namunalarida bosh qahramon sifatida olingan yigitlarning asosiy xususiyatlari qatorida ularning mardliklari, g‘ururli, or-nomusli ekanliklari sanaladi. Shu ma’noda, o‘zbek folklorida bir nechta maqol va naqllarga ham duch kelamiz. Masalan, “Qizil yuzli yigitning qiz singlisi bo‘lmasin”, “Er yigitga ikki nomus – bir o‘lim”, “Eman daraxt egilgani – singani, Er yigitning egilgani – o‘lgani” kabi maqol va naqllar fikrimizning dalili bo‘la oladi. Sanab o‘tilganlardan so‘nggi maqolning ikkinchi qismi I.Mirzo she’rida aynan keltiriladi:

Er yigitning egilgani – o‘lgani [7, 335].

O‘zbek xalqi bolajonligi bilan ajralib turadi. Ko‘p bolali oilalar bugungi kunda ham bor. Urush yillarida turmush naqadar og‘ir bo‘lishiga qaramay, jang bo‘layotgan yurtlardan qochib kelgan bolalarni ham o‘z panohiga olgan bag‘rikeng o‘zbek xalqining tantiligiga dunyo xalqari tasanno aytadi. O‘zganing bolasiga bu qadar muruvvat ko‘rsata olgan xalq o‘z bolasini nechog‘li suyishini tasavvur qilish qiyin emas. Oldingi vaqtlarda serfarzandlik oddiy hol bo‘lib, har bir oilada o‘n nafar atrofida farzandlari bo‘lgan. Ota-ona esa ularni bir-biridan ustun qo‘ymay, barini barobar sevgan. Xalq orasidagi “O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa – qilig‘i” maqoli aynan serfarzand ota-ona tilidan aytilganga o‘xshaydi. Shoir I.Mirzo esa bu maqolni boshqacha ma’noda keltiradi, ya’ni endi maqoldagi katta raqamlar farzandni emas, oshiq yigit ko‘ngil bergan qizlar sonini ifodalashga xizmat qiladi:

O‘nta qizni sevgan bo‘lsam, o‘rni boshqa,
Qirqta bo‘lsa, qilig‘i xush barchasining [6, 165].

Shoirning lirik qahramoni uchun hayotida uchratib, ko‘ngil bergan har bir dilbar o‘zgacha bir olam, har biri ko‘ngilga yoqimli.

I.Mirzoning vatan mavzusidagi she’rlarida ham xalq maqol va naqllariga murojaat qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, quyidagi she’rda “Otang bozor, onang bozor”, “Bekorchidan xudo bezor” naqllari aynan keltirilgan:

Otang bozor, onang bozor deydilar,
Kimlar uchun bozor – mozor deydilar.,

Bekorchidan xudo bezor deydilar,
Avval keling, ko‘ring O‘zbekistonni! [14, 5]

Shoir chetdan turib, yurtimiz haqida asossiz uydirmalarni tarqatadigan kimsalarni kelib jannatmakon o‘lkamizni ko‘rishga da’vat qiladi. “Rost bilan yolg‘onning orasi to‘rt barmoq”, deganlariday, ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi.

Shoirning “Mendan soviyapti…” she’rida xalq og‘zaki ijodidan “Zorim bor-u – zo‘rim yo‘q” maqolini lirik qahramon kayfiyati, badiiy qiyofasini tasvirlash maqsadida quyidagicha o‘zgartiradi:

Zarim bor, zo‘rim bor, zorim bor,
Mendan soviyapti ko‘nglingiz [7, 45].

Ko‘ngil – muhabbat oshyoni. Muhabbat esa bebaho ne’matdir. Sevgi-muhabbatga kuch bilan, boylik bilan erishib bo‘lmaydi. Garchi lirik qahramonning zari bor bo‘lsa-da, zo‘ri, ya’ni kuch-qudrati bo‘lsa-da, hatto zorlansa-da, ma’shuqaning ko‘ngli sira ilimaydi. Xalq maqolidagi ifodani biroz o‘zgartirib qo‘llash ushbu she’riy parchaning ta’sir kuchini yana-da oshirishga xizmat qilgan.

Bilamizki, qiz bola sha’ni, qadr-qimmati o‘zbek xalqida juda yuqori e’tibor bilan qaraladigan masala hisoblanadi. Ammo hayotda shunday voqealar bo‘ladiki, sevishgan qalblar ota-ona rizosi, tenglik kabi bir qator muammolar sabab bir-biriga yetolmay, o‘zga bilan turmush qurishga majbur bo‘ladilar. Shunday vaziyatlarda qiz bolaning sha’ni masalasida xolis yondashish natijasida “O‘psa netar? Yuvsa ketar” naqli qo‘llaniladi. Iqbol Mirzoning “Bunaqasi ketmaydi” she’rida esa, shu naql keltirilib, lirik qahramonning bunga norozilik munosabati aks ettiriladi:

O‘psa, netar dedilar,
Yuvsa, ketar dedilar.
Har qandayin jarohat
Bir kun bitar dedilar.
Bunaqasi ketmaydi,
Gul yarasi bitmaydi [7, 91].

Aytganlariday, har qanday jarohat ham bir kun kelib bitishiga shoir ishonmaydi. Uning fikricha, dil yarasi bitmaydi.

Xalqimizda “Suv soyga oqadi, Boy boyga boqadi” degan gap bor. Iqbol Mirzoning “Meros” she’rida lirik qahramon uni qiynayotgan yo‘qchilik doimiy hol ekanligini shu maqolda aks etgan holatdan anglashiladigan davomiylik, muttasillik, odatiylik kabi qo‘shimcha ma’nolardan foydalanib tasvirlaydi:

Yomg‘ir loyga yoqqan zamonda,
Suvlar soyga oqqan zamonda,
Boylar boyga boqqan zamonda
Menga qarab kulgan yo‘qchilik… [7, 103]

Lirik qahramon hayotidagi yo‘qchilik haqiqatan ajdodlardan meros ekanini so‘nggi banddagi “…Odam Atodan Menga meros qolgan yo‘qchilik” ifodasi yana bir bor tasdiqlagan.

Boshqa bir to‘rtlikda ijodkorning hayotdagi ayrim toifa insonlarning erishgan mol-u dunyosi halol yo‘l bilan topilmaganiga tanqidiy munosabati ifodalangan.

Pul – qo‘lning kiridir, demish eskilar,
Qancha iflos bo‘lsang, shuncha boydirsan [7, 291].

Bunday qilmishi qing‘ir kimsalarning boylik orttirishi otlarini to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishlari natijasi ekani aytiladi. Hayotda to‘g‘rilik bilan biror narsaga erishish uchun kishining iymoni but bo‘lishi kerak. Haq yo‘li, albatta, mashaqqatli bo‘ladi. Biroq shu mashaqqatlarga bardoshli bo‘lib, e’tiqodidan qaytmagan insonlar ham ko‘ngil halovatiga, ham atrofdagilarning hurmat-u olqishlariga sazovor bo‘ladi. Buning aksi bo‘lganda, ya’ni o‘z manfaatlari yo‘lida egrilikdan toymaydigan kimsalar qanchalar boylik orttirmasin, el nazaridan qoladi. Shoir shu to‘rt qator she’rda bir maqoldan foydalangan holda o‘z shaxsiy qarashlarini bayon qiladi. Maqoldagi “qo‘lning kiri” birikmasi muallif nazarda tutgan qing‘ir ishli kimsalarga nisbatan “iflos” sifatini ishlatishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Shoirning muhabbat mavzusidagi she’rlaridan birida lirik qahramon ma’shuqaga murojaat qilib, oshiqning yuragiga nazar tashlab qo‘yishini so‘raydi:

Ey yor, nazar tashlab turgin yuragimga –
Qaramasang, toshoyna ham zanglar ekan [7, 205].

Ko‘ngilni ko‘zguga qiyoslash nafaqat folklor, balki mumtoz adabiyotda ham uchraydigan holat. Negaki, yor aksi ko‘ngilda jilvalanadi. Mumtoz asarlarda, tasavvuf adabiyotida ko‘ngil ma’nosini ramziy ifodalash uchun jom, qadah, kosa kabi istilohlar ham qo‘llaniladi. Ammo uni oynaga qiyoslash ham ko‘p uchraydi. Bunda ko‘ngilning ishqni akslantirish vazifasiga urg‘u berish maqsadi ayonlashadi. Uni aynan qimmatbaho toshoynaga mengzashda ham ma’no bir talay. Avvalo, oynaning folklor asarlarida ifodalagan ramziy ma’nosiga diqqat qilsak, uning xayrli tilak, ezgu niyat hamda amallar ramzi ekanini ko‘ramiz. “Xalq oynani qotirilgan suv deb biladi. Mavjud marosimlar, irim-odatlar, jumladan, folklordagi oyna magik-ramziy va badiiy estetik ma’nolarining ildizi ushbu dunyoqarashdan suv ichadi” [10, 107], – deb yozadi folklorshunos Sh.Turdimov. Marosim folklorida oyna detali bilan bog‘liq bir qator odatlarni sanash mumkin. Masalan, bola beshigining bosh tomoniga oyna qo‘yish, kelin sarposi ustida oyna uzatish, chimildiqda kelin-kuyovning bir-birlariga oynadan nazar tashlashlari kabi bir qancha irim-odatlar mavjud. Shu bilan birga, oyna juda nozik buyum. Osongina sinib ketishi mumkin. Shu jihatdan ham uni ko‘ngilga qiyoslash o‘zini oqlaydi. Shuningdek, turkiy xalqlarda singan oynaga qarash baxtsizlikka sabab bo‘ladi, deb ishonilgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi” degan maqol bor. Ushbu maqolda insonning farzandlari yoxud do‘stlari ko‘p bo‘lsa, hayotning tashvishli kunlarida yelkadoshlik qilishi haqida aytilgan. Biroq I.Mirzo ushbu maqolni quyidagicha qo‘llaydi:

Har kimsa o‘zini odam sanaydi,
O‘zining yukiga nor bo‘lib o‘tar [7, 185].

She’riy parchada “Har bir inson o‘z tashvishini o‘zi yeydi”, degan fikr ilgari surilgan. Bu esa xalq maqolida ifodalangan birdamlik, hamdardlik tushunchalarining aksini namoyon qiladi.

Shoir I.Mirzoning ijtimoiy-falsafiy ruhdagi she’rlaridan birida yana bir hayotiy haqiqat o‘z ifodasini topgan. Goho hayotda bir narsaga erishish uchun biridan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Biroq buni qabul qilmay, “besh qo‘lini og‘ziga tiquvchi” kishilar hammasidan quruq qolishi hech gap emas. Shoir xalqdagi “Ikki qayiq boshini tutgan g‘arq bo‘ladi” naqlining o‘zgacha ifodasi orqali hayotning shu jihatlari xususida qarashlarini bayon qilgan:

Ikki qayiq boshin tutgan bo‘lar nobud:
Birisining ismi – beshik, biri – tobut [7, 197].

Bunda olam va uning yaxlitligi masalasi o‘rtaga chiqqan. Shoir she’rlarida qo‘llangan ko‘plab maqollar shakl va mazmun jihatdan folklordagi kabi ishlatilgan bo‘lsa, ayrimlarining aksincha ishlatilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Zar qadrini zargar biladi” maqoli o‘z ma’nosida molining qiymatini biluvchi zargar haqida aytilsa, shoir, buning aksicha, “zar qadriga yetmagan zargar” haqida yozadi:

Zar qadriga yetmagan
Zargar sotdi qizini.
Bir puldorning qo‘yniga
Shartta otdi qizini [7, 271].

Demak, qizining qadriga yetmagan zargar ota uni majburan bir puldorga uzatadi. Vaholangki, qancha boyligi bo‘lmasin, qizning qadrini pul bilan o‘lchash aqldan emas. She’riy parchada qizining ko‘ngliga qarab o‘tirmay, o‘zi ma’qul ko‘rgan odamga uzatgan ota obrazi tasviri xalq qo‘shiqlaridagi ota obraziga yaqin turadi (“Olma deb otgan otam, Behi deb sotgan otam”).

“Mevasini ye, bog‘ini surishtirma” maqoli nutqda faol maqollar sirasiga kiradi. Shoir bu maqolning o‘zgartirilgan shakli orqali vatan qadriga yetishga, uning bugungi ravnaqi uchun berilgan qurbonliklarni bir yodga olishga chorlab qo‘yadi:

Mevasin yeb, bog‘ini ham so‘rab qo‘ygin,
…Oydan tushgan emas, ko‘kdan tushgan emas [15, 133].

Vatan ozodligi, uning ravnaqi uchun ajdodlarimiz asrlar davomida olib borgan mardonavor kurashlari, ko‘rsatgan qahramonliklari, bergan ming-minglab qurbonlari haqida bilish, bugungi farovon hayotning qadriga yetib, uni kelajak avlodga meros qoldirish shu yurt farzandlarining burchi sanaladi. Shoir o‘z yurti, kelajak avlodlar oldida shunday mas’uliyatni his qilgan holda boshqalarni ham erishilgan yutuqlar qadriga yetishga chorlaydi.

Shoshqaloq insonlarga nisbatan nasihat tariqasida ishlatiladigan “Sabr qilsang, g‘o‘radan halvo bitar” maqoli ko‘p ishlatiladi. Ammo shoir hayotda qancha kutsa ham, o‘zgarishiga ishonchi bo‘lmagan vaziyatlarga nisbatan shunday misralar bitadi:

Afsuski, halvoga do‘nmas g‘o‘ralar,
Toychoqqa yo‘l bermas qari yo‘rg‘alar [7, 261].

Yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlovchi, ularga to‘g‘ri maslahatlar berib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashuvchi chin ma’nodagi ustozlar hamisha hurmat-e’tiborga loyiqdirlar. Biroq ba’zi insonlar izlaridan kelayotgan yoshlarga ibrat bo‘lish, ularning qo‘llaridan tutib, yuqori marralarni egallashida ko‘mak berish o‘rniga ularning oyog‘idan chalishga, yo‘lini to‘sishga urinadilar. Shoir hayotda uchraydigan shunday insonlarga nisbatan “qari yo‘rg‘a” tashbehini ishlatadi.

O‘zboshimcha, boshqalar bilan hisoblashmay, faqat shaxsiy manfaati yo‘lida harakat qiluvchi insonlarga nisbatan ishlatiladigan “Shahar bedarvoza emas” naqlini ham shoir shaklan o‘zgartirib qo‘llaydi:

Shaharning qiblasi yo‘qdir sig‘insam,
Bosh ursam shaharning darvozasi yo‘q [6, 113].

Ijod ahli orasida “Shoirlar qishloqlarda tug‘ilib, shaharlarda o‘ladilar” degan gap bor. I.Mirzo ham so‘lim tabiatli vodiy farzandi o‘laroq har fursatda voyaga yetgan zaminini sog‘inadi, shahar muhiti bilan solishtiradi.

Muhabbat mavzusida yozgan she’rida ayriliqning vaqtincha ekaniga, garchi bu imkonsizday tuyulsa-da, yoriga yetishishiga ishonchni ifodalash uchun yana bir xalq maqoli (“Tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi, Odam odam bilan uchrashadi”)ni o‘zgartirib, qayta ishlaydi:

Bir kun kelib ayriliq adog‘ bo‘ladi,
Tog‘ni quchib, ko‘z yosh to‘kkan tog‘ bo‘ladi [7, 23].

Taqdir taqozosi bilan yo‘llari ayro tushgan oshiq-ma’shuqlar uchun zamonlar o‘tsa-da, bir bor ko‘rishish, qayta topishish go‘yo imkonsizday tuyulgan bir vaziyatda bu orzuning amalga oshishiga ishonch xuddi ikki tog‘ning uchrashishiga qiyoslangan. Bunda xalq maqolini shaklan va mazmunan o‘zgartirib qo‘llash kitobxon uchun hodisa mohiyatini chuqurroq his qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shoir she’rlari tarkibidagi maqol, naql va iboralar ham ijodkorning o‘ziga xos uslubi va mahorati hosilasi o‘laroq yangi ma’nolar kasb etgan. She’rda qo‘llangan maqol va iboralarning folklordagi shakli va qo‘llanish vaziyatidan farqli jihatlarni ham namoyon qilgani alohida xususiyat sanaladi. Ba’zi she’rlarda maqol va iboralar vositasida turli badiiy san’atlar yuzaga kelganini kuzatish mumkin. Shoir maqollarni qay shaklda qo‘llamasin, ular ijodkor o‘y-kechinmalarining o‘quvchi qalbiga oson kirib borishiga, badiiy haqiqatni ta’minlashga, lirik qahramon holatining ta’sirli va ishonarli chiqishiga xizmat qilganini ta’kidlash zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Farmonova M.N. She’riyat – ruhiyat ko‘zgusi // Pedagogical sciences and teaching methods. – Copenhagen: Science Edition, 2022. – P. 240-243.

2. Farmonova M.N. Iqbol Mirzo she’riyatida xalq qo‘shiqlariga xos xususiyatlar // Innovative development in educational activities, 2023. – P. 497-501.

3. Farmonova M.N. Iqbol Mirzo she’riyatida marsiya janri namunalari tahlili // World of Science, 2023. – P. 190-193.

4. Farmonova M.N. Iqbol mirzo ijodida ertak janri stilizatsiyasi // Tafakkur va talqin, 2023. – B. 760-764.

5. Farmonova M.N. Iqbol Mirzo she’riyatida xalqona ohanglar jilosi // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. Zenodo, 2024. – P. 42-47.

6. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. – T., 2018. – 284 b.

7. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – T.: Sharq, 2007. – 368 b.

8. O‘roqova, N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 193-199.

9. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(5 Special Issue 3). – P. 396-399.

10.Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – T.: Fan, 2020. – 192 b.

11.Yormatov I. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar // O‘zbek adabiyoti, 1984. – №3. – B.28-35.

12. Sharipova L. She’riyat va folklor. – T.: Navro‘z, 2019. – 124 b.

13. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – T.: Fan, 2011. – 154 b.

14. Иқбол Мирзо. Агар жаннат кўкда бўлса... – Т.: Шарқ, 2010. – 44 б.

15. Мирзо, Иқбол. Айтгил, дўстим нима қилдик Ватан учун?! – Т.: O‘zbekiston, 2014. – 162 б.

Latipova Sayyora Tohir qizi,
Buxoro davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi (O‘zbekiston)
E-mail: sayyoralatipova97@gmail.com

JO‘RA FOZIL IJODIDA ZAMON IFODASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvchi Jo‘ra Fozil ijodi haqida umumiy ma’lumot berilgan. Adibning ijod yo‘li, shaxsiyati, o‘ziga xos uslubi yoritilgan, asarlarida tarixiy mavzuning o‘rni, tarixiy qissalari va hikoyalarida ifoda topgan zamon tasviri xususida fikr yuritilgan. Makon va zamon uyg‘unligi natijasida badiiyatning yorqin namunasi yaratilishi o‘z tasdig‘ini topgan. Shuningdek, adibning so‘z qo‘llash mahorati tadqiq etilib, muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy qissa, xarakter, hikoya, tarixiy shaxs, xronotop, roman zamon tasviri.

Аннотация. В данной статье представлены общие сведения о творчестве писателя Жура Фазиля. Освещены творческий путь, личность и неповторимый стиль автора, обсуждается роль исторической темы в его произведениях, а также образ времени, выраженный в его исторических повестях и романах. В результате гармонии пространства и времени подтверждено создание яркого образца искусства. Также было изучено умение писателя пользоваться словами и сделаны определенные научно-теоретические выводы.

Ключевые слова: историческое повествование, персонаж, повесть, историческое лицо, хронотоп, романное изображение времени.

Abstract. This article provides general information about the work of the writer Jora Fozil. The author's creative path, personality, and unique style are highlighted and the role of historical themes in his works, historical stories, and the depiction of the time expressed in his stories are discussed. The creation of a vivid example of art as a result of the harmony of space and time has been confirmed. The writer's mastery of word usage is also studied, and certain scientific and theoretical conclusions are drawn.

Key words: historical story, character, story, historical figure, chronotope, novel depiction of time.

Kirish. Jo‘ra Fozil Buxoro adabiy muhitining faol ijodkorlaridan biri xisoblanadi. Zahmatkash adib o‘z ijodini bugungi davrning dolzarb muammolarini yoritishga bag‘ishlagan. Kitobxon uning ijodini o‘qib-o‘rganish orqali unda o‘z badiiy muammolarni idrok etishi mumkin. Jo‘ra Fozil asosan o‘zi bilgan, bevosita guvohi bo‘lgan voqealar haqida yozadi.. Yozuvchi asosan o‘zi yashab turgan davr hayotini har tomonlama aks ettirishga harakat qilgan.

Yozuvchi nasrning barcha janrlarida ijod qilgan va hanuz ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda. Adibning roman, qissa, hikoya, esse, ocherk va maqolalarda shaxsiyati, dunyoqarashi, orzu-maqsadlari aks etganiga guvoh bo‘lamiz. Negaki Jo‘ra Fozil yurak dardlari, qalb kechinmalarini o‘z ijod namunalarida bevosita yoritgan. Bu o‘rinda aytish lozimki, ushbu qalab sog‘ibining serqirra ijodi adabiyotshunosligimida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shunga qaramay, ayrim ishlarda uning ijodliga oid badiiyat namunalari tahlil va tadqiq etilgan [5, 10-13].

Jo‘ra Fozilning bugungi kunga qadar 150 dan ortiq hikoyasi, 6 ta qissa, 3 ta romani, esse, ko‘plab maqola va ocherklari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati zamonaviy mavzularga bag‘ishlangan. Nosirning tarixiy mavzuda yaratilgan asarlari ko‘p bo‘lmasa-da, ularda Buxoroning bir necha ming yillik tarixi yoritilgan.

Uning asarlari respublikamizning nufuzli adabiy jurnal va gazetalarida chop etilgan, mavqeli nashriyotlar tomonidan kitoblari chop etilgan. Bu albatta ushbu qalam navkarining istedodi mamlakat miqyosida tan olinganligiga dalil bo‘lib hisoblanadi.

Bu ijodkor asarlarini o‘qiganimizda, uning nasr olamida o‘z so‘zi, o‘z qarashlari, hayot va insonga bo‘lgan o‘ziga xos munosabati borligiga ishonch hosil qilamiz.

Asosiy qism. Nosirning nafaqat tarixiy mavzudagi, shuningdek, aksariyat asarlari muqaddimasida zamon tasviri bor. Uning “Sohildagi uy” nomli hikoyasi quyidagi jumlalar bilan boshlanadi: “Qosh qoraymoqda. Bahorning izg‘irin aralash shamoli to‘qayzorda hushtak chalar, bo‘tana to‘lqinlar pishqirib, qirg‘oqqa bezovta bosh urardi. Sohildagi mo‘jazgina Gugurtli qishlog‘i tun qa’riga

sekin asta g‘arq bo‘lmoqda, ismi-jismiga monand gugurt qutisiday tizilgan uylarda birin-ketin chiroqlar porlay boshlagan, faqat tik qirg‘oqdagi chog‘roqqina uy derazalarida nur ko‘rinmasdi”[3,236]. Mazkur parchadan bilish mumkinki, bahor fasli. “Qosh qoraymoqda” jumlasi esa kunning oxiri ya’ni kech tushayotganligini bildiradi. Bu odatiy vaqt. Biroq yozuvchi aksariyat hikoya, qissalarida asar boshlanmasini o‘zgacha tarzda berishining guvohi bo‘lamiz: adib voqealar bo‘lgan vaqtni ko‘rsatishda avvalgi oy nomlarini qo‘llaydi. Masalan, “G‘oziyon zindoni” nomli hikoyasi “…1937-yil qavs oyi o‘rtalari.Qor aralash yomg‘ir yog‘ar, huvillagan bog‘larni makon tutgan qora zog‘lar ho‘l qanotlarini og‘ir silkitib, shox-dan shoxga uchib o‘tishar, poyonsiz dalalar chetidagi yalang‘och tut daraxtlari bor-budidan mosuvo odamlardek nochor mung‘aygan…” kabi jumlalar bilan boshlangan. Mazkur tabiat tasvirlari asar qahramonlarining ruhiyati va holatidan darak beradi, kitobxonga esa bir fojia bo‘lishi haqida xabar beradi.

Yozuvchi o‘z odatiga ko‘ra mazkur asardagi voqealar bo‘lib o‘tgan vaqtni eski oy hisobi bo‘yicha beradi. Qavs oyining bugungi kundagi aniq davri mavjud.Chunki bu asosan hijriy-qamariy taqvimga tegishli bo‘lgan oy. U milodiy taqvim bilan hisoblanganda hozirda 22-noyabr-21-dekabr oylariga to‘g‘ri keladi. Qamariy oy bilan bugungi kunda qo‘llaniladigan shamsiy oylarning vaqti bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Sababi, hijriy taqvimning yil davomiyligi milodiy taqvimga nisbatan qisqaroq bo‘ladi.

Hikoyadagi voqealar bo‘lib o‘tgan davrda qavs kuzning so‘nggi oyi,Shunga qaramay u qishdan ham darak berib turadi. Bunday xulosaga kelishning sababi asarda qor aralash yomg‘ir yog‘ishi, o‘z yaproqlaridan ayrilgan, yalang‘och tut daraxti tasvirlarining mavjudligidadir .

Bu kabi vaqtning eski oyhisobi bo‘yicha berilishi nosir ijodida juda ko‘p uchraydi. “Buxoroyi sharif elchilari”asarining boshlanmasi quyidagi mumlalar bilan boshlanadi: “1714-yil. Savr oyining o‘rtalari. Sankt-Peterburg. Bahor ancha qarib qolgan bo‘lsa-da, havo sovuq, osmonda qo‘rg‘oshinrang og‘ir bulutlar suzib yuribdi. Daryo tomondan namchil shamol esadi. Oqshom cho‘kayotir” [1, 168]. Savr oyi bugungi kunda 20-apreldan 20-mayga qadar bo‘lgan vaqtni bildiradi. Shu sababdan yozuvchi vaqtni izohlab, “bahor ancha qarib qolgan” jumlasi qo‘llab, bu faslning nihoyasiga yetayotganiga ishora qiladi. “To‘y” sarlavhali hikoyaning boshlanmasi quyidagi jumlalar bilan boshlanadi: “1960-yil. Hut oyining o‘rtalari.

Ulkan qora zog‘lar ship-shiydon, kimsasiz bog‘larni makon tutgan, ikki kundirki, sharros yomg‘ir quyar, uning shirpayvand o‘rik danagidek yirik tomchilari ko‘lmaklarda “chuchvara qaynatar”, qishloqning barcha ariqlari to‘lib oqardi. Koinot bolasini hafsala bilan cho‘miltirayotgan yosh onaga o‘xshab ketardi” [2, 90]. Mazkur asarda ham nosir odatdagidek, vaqt berilgandan so‘ng uning izohini ham berib o‘tadi. Hut 19-fevraldan 20-martga qadar bo‘lgan davrni ifodalaydi. Ayonki, bahor fasli seryomg‘ir, ayni shu vaqtlarda qishloq aholisi yerlar unumdor bo‘lishi uchun suv berishadi. Yozuvchi shularga zimdan ishora qilgan.

1714-yil, sunbula. Choshgoh. Kuzak quyoshi gavjum bozor-u rastalar, timlar, toq-u gumbazlar uzra nur sochadi, niliy koshinlar yog‘dusidan tovlanayotgan Buxoroyi sharifni yaxshiroq tomosha qilish uchun tobora balandlaydi [1, 175].

Peterburg. Moyka. Sunbula oxirlayozgan, anhorda qora ko‘kimtir suv sim-sim oqib yotibdi…
Xivaning Ichan qal’a-yu Dishan qal’asida hayot qaynaydi. 1717-yil, asad oyining oxirgi kunlari… [1, 191].
1780-yil dalv oyida amir Doniyolbiy farmoni bilan Ernazar Maqsud Buxoro amirligining ham Rossiyadagi, ham Turk sultonligidagi favqulodda va muxtor elchisi etib tayinlandi.

Ernazar Maqsud eng birinchi navbatda Doniyolbiyning turk sultoni Abdulhamid I ga maktubini topshirishi lozim edi. Shu maqsadda u 1780-yil hamal oyida yana olis Neva sohillariga yetib keldi…[1, 263]

“Buxoroyi sharif elchilari” asaridan olingan mazkur parchalarda qo‘llanilgan sunbula oyi bugungi kunda 23-avgustdan 22-sentyabrgacha, asad oyi esa 23-iyuldan 22-avgustgacha, dalv 20-yanvardan 18-fevralgacha, hamal esa 21-martdan 19-aprelgacha bo‘lgan vaqtni ifodalaydi. Bu kabi vaqtning eski hisob bo‘yicha berilishi adibning “Kitob o‘qimaydigan qiz” (mezon), “Uyqudagi dunyo” (sunbula), “Savr yomg‘irlari” (savr), “Eh,siz,sovchilar!..”(saraton), “Qizil quyun”da (javzo) singari asarlarida ham uchraydi.

Natijalar va muhokama. Ijodkordagi kitobxonni diqqatini tortadigan yana bir o‘ziga xoslik shuki, uning asarlaridagi voqea-hodisalarning kulminatsion nuqtalari asosan kuz faslida bo‘lib o‘tadi.

“Kitob sotayotgan odam” nomli hikoyada cholning kuzda vafot etishi, yana bir asari qahramoni Jamolning eng yaqin do‘sti kuzning so‘nggi kunida dunyodan ko‘z yumishi kabilar fikrimizga dalildir. Bundan tashqari, ijodkor aksar asarlarida kuz so‘zi o‘rnida Buxoro shevalarida mavjud “tiramoh” lug‘aviy birligini qo‘llaydi. Hatto adibning “Tiramoh armonlari” sarlavhali asari ham bor. Bundan tashqari, asarlarda tabiatning qaysi fasli tasvirlanmasin, ularning har birida yomg‘ir yog‘ish tasviri mavjud, sababi, yomg‘irga adabiyotda asosan, jismoniy hamda ruhiy poklanish ramzi sifatida qaraladi. Jo‘ra Fozil ijodida barcha tabiat hodisalari teran falsafiy ma’no aks etadi. Yomg‘ir inson qalbini tozalovchi, unga ma’nan kuch bag‘ishlovchi, yangi umid va ishonch beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ba’zi o‘rinlarda yomg‘ir alam, qayg‘u, iztirob alomati sifatida ham ifodalangan. Bu tabiat mo‘jizasining yaxshi va yomon xotiralarni eslatish xususiyati mavjud.

Jo‘ra Fozil kuz faslini nihoyatda yaxshi ko‘radi. Uning fikricha bu fasl inson qalbiga sokinlik, xotirjamlik baxsh etish qudratiga ega. Bu faslning havosi ham o‘zgacha, na issiq va na sovuq. Bundan tashqari, boshqa fasllarga nisbatan kuz mukammalroq va jozibaliroqdir.

Jo‘ra Fozilning barcha asarlarida, xususan, “Buxoroyi sharif elchilari”da kunning qismlarini qo‘llashga ham alohida e’tibor qaratilgan, tun, tong, shom, tush kabilar asarlarda ramziy ma’nolarga ega holda qo‘llaniladi. Tunning o‘zbek adabiyotida bir qancha ma’no va ramzlari mavjud. U, odatda, inson ruhiyatidagi muammolar, o‘zgarishlarni ifodalaydi. Tun faqat qorong‘ulikdan iborat bo‘lganligi bois, barcha razilliklar, qabohatlar, aksariyat hollarda aynan tunda sodir bo‘ladi. U insonda qo‘rquv va shubha uyg‘otadi hamda qiyinchiliklarga qarshi kurashish ramzi hamdir.

Tong esa yangi kunning boshlanishi, yangilanish, umid, hayotning yangi bosqichiga ko‘tarilish, ayni shu paytni musaffolik ramzi sifatida talqin qilinadi. Mazkur vaqt tabiatning naqadar betakorligi, go‘zaligini ham o‘zida aks ettiradi. Buxoroning mashhur elchisi Ernazar Maqsudning betoblik holatini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: “Ernazarbek tuni bilan isitmada yonib, alahlab chiqdi. U ovqatga ham qo‘l urmas, nuqul choy so‘rar, “yuragim yonadur, yuragim…” derdi.

Tongga yaqin ko‘zi ilinib biroz uxladi.

Bek kun yoyilganda uyg‘onib, do‘stlari ko‘magida qo‘l-betini yuvdi. So‘ngra bir necha qoshiq sho‘rva ichdi…

Kechga tomon Ernazarbeking ahvoli og‘irlashib, u qisqa-qisqa, yelkasi bilan nafas ola boshladi…” [1, 275] Mazkur parchada tun zulmatida elchining ahvoli og‘ilashib, tongda, kun kirganida biroz bo‘lsa-da yaxshilanganligi tasvirlangan. Ko‘rinyaptiki, qahramon holati ifodasida vaqt ifodasi muhim badiiy-poetik ahamiyatga ega. Biroq, aytish joizki, qora rang doim yomonlik ramzi, oq rang esa hamisha poklik, ezgulik ramzi bo‘lmaganidek, tong ham har vaqt musaffolik, qora esa zulmat ramzi hisoblanmaydi. Mashhur elchi kunduz chog‘ida vafot etadi. Yozuvchining “Sog‘inch tuni” nomli hikoyasida qish fasli bo‘lsa-da, tun nihoyatda iliq deya ta’riflanadi. Qish tunining iliqligi asar qahramoni bo‘lmish Samad ko‘nglidagi nozik kechinmalariga monand tasvirlangan deyish mumkin. Negaki, hikoya qahramonini qalbida onasiga bo‘lgan sog‘inch, atrofdagi do‘st-birodar, oila a’zolariga nisbatan mehr-shafqat, hurmat jo edi.

Jo‘ra Fozil “Buxoroyi sharif elchilari” nomli tarixiy qissada (keyinchalik roman janrida qayta nashr etilgan) voqealar bo‘lib o‘tgan fasllarni tanlashga ham anchagina e’tibor qaratganligining guvohi bo‘lamiz. Chunki fasllar inson ruhiyati bilan bevosita aloqadordir. Aksariyat holatlarda insonning tuyg‘u va kechinmalari, alam-iztiroblari tabiat bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Masalan: bahor fasli hayotning boshlanishi, kelajakka ishonch, umid va yangilanish timsolidir. Inson hayotining eng gullagan davri ham bahorga qiyos etiladi. Kuz keksalik, so‘lg‘inlik, o‘tkinchi dunyo, hayotning shomini ifodalaydi. Qish esa ayriliq, yolg‘izlik, og‘ir sinovlar, sovuqlik, hayotning xuftonini bildiradi. Shamol, yomg‘ir, bo‘ron, quyosh botishi, qor yog‘ishi, dovul, momoqaldiroq, daraxtarning shovullashi kabi tabiat hodisalari ham ichki kechinmalarga ohangdosh tasvirlanadi.

Ushbu qissadagi elchilik safarlari asosan kech kuzda boshlanib, erta bahorda nihoyasiga yetgan va ko‘zlangan maqsadga erishilgan. Badiiy matnning kuzda boshlanib, bahorda tugashining o‘z ramziy ma’nosi bor, albatta.

“Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya 1714-yil 7-noyabrda Astraxandan Gurev shaharchasiga qarab yo‘lga chiqdi…

1715-yil bahori seryomg‘ir bo‘lsa-da, iliq edi. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi yana yo‘lga chiqdi va 25-aprelda Gurev shaharchasiga, so‘ngra Xazar dengizining sharqiy qirg‘og‘idagi

To‘pqo‘rg‘onga yetib keldi” [1,186]. Ko‘rinib turibdiki, kuzda boshlangan ekspeditsiya bahorda manzilga kelgan.

Rossiyadagi voqealarni, makonlarni tasvirlashda yozuvchi yoz faslidan mahorat bilan foydalana olgan. Tabiat shaydosi bo‘lgan adib yoz yomg‘irlarining betakrorligiga e’tibor qaratadi. Negaki, bizning mamlakatda iqlimning issiqligi va quruqligi sababli bu faslda deyarli yomg‘ir yog‘maydi. Yoz yomg‘irining naqadar ajoyibligini adib o‘zga mamlakatdagi tabiat hodisalari misolida kitobxonga ko‘rsata olgan. Jo‘ra Fozil Rossiya hududiga bir necha borsayohat qilgan, u yerdagi iqlimni, tabiatni guvohi bo‘lganligi sababli go‘zal tasvirlar yarata olgan.

Bundan tashqari, yozuvchi makon tasvirida zamonni tanlashda ham o‘zining tasvirlash mahoratini yaqqol ko‘rsata olgan. “Tiramoh za’faron etagini sudrab, Oltoy cho‘llariga tashrif buyurdi. Qovjiragan o‘t-o‘lanlar shamol bilan o‘chakishib, o‘zlarining hazin qo‘shiqlarini boshladilar. Poyonsiz sahro sokin tuyulsa-da, samo havotirga to‘la, olis-olislardan otlarning bezovta kishnashi eshitilar, past-baland qirlar ortida allaqanday sir yashirin edi go‘yo” [1, 4] mazkur parchadan ko‘rinib turibdiki, cho‘l, sahro tasviri go‘zaltarzda namoyon bo‘lishida kuz fasli (zamon)ning o‘rni beqiyos. Yozuvchi o‘z ijodida cho‘llarning tasvirini ko‘p o‘rinlarda qo‘llagan. Ayni shu makonning tasvirlanishida fasllar alohida o‘rin tutadi. Bahorda cho‘lning ko‘k libos kiyishi, kuzda o‘t-giyohlarning qovjirashi fikrimizni tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, adabiyotda xronotop, ayniqsa, uning tarkibidagi zamon tasviri muhim o‘rin tutadi. Vaqtning qahramon ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma’naviyatiga ma’lum ma’noda ta’siri mavjudligi yuqoridagi tahlillarda bayon etildi. Zamon va makon uyg‘un holda tasvirlanishi go‘zal badiiyat namunasining yaralishiga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Fozilov J. Ayriliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: – T.: Sharq, 2006. – 168 b.
2. Fozilov J. Xongulning sarguzashtlari: qissalar, hikoyalar. – T.: Sharq, 2018. – 90 b.
3. Fozil J. Biz lola termagan bahor. Roman, qissa, hikoyalar. – Buxoro, 2010. – 320 b.
4. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2017. – 320 b.
5. Murodov G‘. Yo‘lovchi // Yoshlik, 5-son. – B. 10-13.
6. Latipova, S. (2024). Tarixiy romanda darvesh obrazi (yozuvchi Jo‘ra Fozilning “Ayriliq ostonasi” romani asosida). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 58-61.

Xayrullayeva Larisa Erkin qizi,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: larissakhayrullaeva19@gmail.com

“GARRI POTTER” VA “SARIQ DEVNI MINIB” ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy vazifasi jahon adabiyoti xaritasining rang-barang milliy manzaralarini ilmiy-ijodiy talqin etishdan iborat. Milliy adabiyotlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish asosidagina jahon adabiyoti rivojining asosiu mezonlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, qiyosiy adabiyotshunoslik bizga ham o‘zbek adabiyotini, ham jahon adabiyotini o‘rganish uchun nihoyatda zarur. Maqolada o‘zbek yozuvchisi X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, J.Roulingning “Garri Potter” romanlar turkumidagi I va II jildlari (“Garri Potter va falsafa toshi” va “Garri Potter va maxfiy xona”) asarlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, fantastika, Garri Potter, Hoshimjon, badiiy obraz, talqin, qiyosiy-tipologik tahlil.

Аннотация. Основная задача сравнительного литературоведения – научное и творческое осмысление многообразных национальных ландшафтов литературной карты мира. Только на основе сравнительного изучения национальных литератур можно определить основы, критерии и закономерности развития мировой литературы. С этой точки зрения сравнительное литературоведение крайне необходимо нам для изучения как узбекской литературы, так и мировой литературы. В статье представлен сравнительно-типологический анализ произведений узбекского писателя Х.Тохтабоев “Верхом на желтом великане”, а также романы Дж. Роулинг о Гарри Поттере, тома I и II (“Гарри Поттер и философский камень” и “Гарри Поттер и Тайная комната”).

Ключевые слова: детская литература, художественная литература, Гарри Поттер, Хошимджон, художественный образ, интерпретация, сравнительно-типологический анализ.

Abstract. The main task of comparative literature is the scientific and creative understanding of the diverse national landscapes of the literary map of the world. Only on the basis of a comparative study of national literatures can we determine the foundations, criteria and patterns of development of world literature. From this point of view, comparative literature is extremely necessary for us to study both Uzbek literature and world literature. The article presents a comparative typological analysis of the works of the Uzbek writer H.Tokhtaboyev, “Riding the Yellow Giant”, as well as the novels of J. Rowling about Harry Potter, volumes I and II ("Harry Potter and the Philosopher's Stone" and "Harry Potter and the Chamber of Secrets”).

Key words: children's literature, fiction, Harry Potter, Hoshimjon, artistic image, interpretation, comparative typological analysis.

Kirish. Badiiylikning muhim shartlaridan biri adabiy asarda mazmun bilan shaklining uyg‘unligidir. Faqat haqqoniy g‘oyani mujassamlashtirgan asargina, agar shakli g‘oyasiga mutlaqo mos kelsa, badiiy bo‘ladi. Adabiyot asarida mazmun bilan shaklning bir-biriga mosligi yozuvchi mahoratining dalilidir. Badiiylikning shartlaridan biri asar mazmuni va shaklining aniqligi, muallif g‘oyasining badiiy vositalar orqali aniq va ravshan ifoda etilishidir [3, 150].

XXI asr boshlarida o‘z faoliyati va asarlari bilan butun ommaning diqqatini tortgan angliyalik adiba Joanna Rouling ijodi va hayotiy biografiyasi adib bilan zamon nuqtayi nazaridan deyarli ketma-ket yashagan, ijtimoiy kelib chiqishi, hayot yo‘li, qiyinchiliklari ma’lum ma’noda yaqin bo‘lgan o‘zbek adabiyoti namoyondasi Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarini qiyosiy adabiyotshunoslik jihatdan ko‘rib chiqib taqqoslashga harakat qilamiz. Har ikki asarni bolalarga bag‘ishlanganligi, fantastika va sehr-joduga oidligi birlashtirib tursa, bu asarlarning farqli jihatlari esa bir-biridan tubdan farq qiladigan xalq va elatga mansubligi, biri real hayotga asoslangan bo‘lsa uana biri to‘laligicha xayolot mahsuli ekanligi ajratib turadi.

Asosiy qism. “Garri Potter va hikmatlar toshi” asari britaniyalik yozuvchi J.K.Roulingning mashhur “Garri Potter” turkumidagi birinchi to‘plamidir. Kitoblarning barchasi yosh sehrgar Garri Potter va uning do‘stlari Ron Uizli, Germiona Grenjerlarning Xogvarts jodugarlik va sehrgarlik maktabidagi sarguzashtlari asosida yaratilgan. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari esa Hoshimjonning sarguzashtlariga bag‘ishlangan bo‘lib, yosh bo‘lishiga qaramay, agronom bo‘lish uchun hamma narsaga tayyorligi hamda sehrli qalpoqcha bilan qilgan sayohatlari, achchiq kulgu ostiga olingan.

“Garri Potter” va “Sariq devni minib” asarlari ingliz bolalar adabiyoti hamda o‘zbek bolalar adabiyotida juda katta shuhrat qozongan asarlardandir. Bu ikkala asar nafaqat ikki xalq orasida, balki dunyo miqyosidagi “bestseller” badiiy adabiyot namunalaridandir. “Garri Potter” seriyasi, J.K.Rouling tomonidan yozilgan bo‘lib, barcha voqea-hodisalar sehr va fantastika dunyosida bo‘lib o‘tadi. “Sariq devni minib” esa, Xudoyberdi To‘xtaboyev tomonidan yozilgan va o‘zbek bolalar adabiyotining durdonalaridan biri hisoblanadi. Bu asar bolalikning sodda va samimiy, quvnoq va zavqli onlarini tasvirlaydi. Asar qahramonlari sarguzashtlarga boy hayot kechiradi va bu jihatdan zamonaviy “Garri Potter”ga qiyoslanishi mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida tanqidchi olimlardan biri Abdug‘ofur Rasulov o‘zining “G‘aroyib saltanat” nomli maqolasida, “X.To‘xtaboyev yaratgan Hoshimjon Ro‘ziyev – realistik tasvir samarasi. Yozuvchi asosiy qahramon xarakterini yaratish uchun ko‘p izlanganligi, Hoshimjonni ming chig‘iriqdan o‘tkazib kitobxonga ma’qul qilgannini sezish qiyin emasligi haqida yozadi [5, 46].

Garri Potter haqidagi kitoblar yuksak san’atkorlik bilan yozilmagan. Ammo yozuvchi voqealar aro bog‘liqlik, o‘sish va rivojlanishga alohida e’tibor qaratadi. Bolalar adabiyotida shiddat-dinamika muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh kitobxon hamisha hayajonda bo‘lishi, yangi g‘aroyib voqea-hodisa bilan uchrashuvga tayyor turishi kerak….

Xullas, Garri Potter haqidagi yetti kitobda jahon sehrgarligi nozikliklari jamlangan. Uni bashar bolalari qiziqib o‘qishmoqda. Ammo bu asarda milliy ruh, mahalliy kolorit sezilmaydi. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida sehrgarlik anjomlari sehr yo‘sinlari milliy betakrorlikda, o‘zbekona muhitda aks ettiriladi. Ikkinchidan, X.To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha”, “Sariq devni minib” asarlari yaratilganda jahon adabiyotida Hoshimjon singari sehrli qalpoqchaga ega, o‘ta qaltis muammolarni zumda hal qilib tashlaydigan qahramon yo‘q edi” [2].

Bu fikrlardan anglashiladiki, X.To‘xtaboyev adabiyotga olib kirgan sehrli olam, sehrli anjomlar bu asar yozilganda, boshqa adiblar tomonidan qo‘llanilmagan edi. Shu bilan birga, asar o‘zbek bolajonlariga xos qiziquvchanlik, sho‘xlik va uddaburonlik bilan sug‘orilgan edi.

Natijalar va muhokama. “Garri Patter” fantastika va sehrga asoslangan bo‘lsa, “Sariq devni minib” romani realistik va sarguzashtlarga boy. Asar bosh qahramonlari, Garri Potter sehrgar bola bo‘lib, Hoshimjon va uning do‘stlari esa oddiy bolalardan edi hamda ularning sarguzashtlari realistik voqealarga asoslangani bilan ajralib turishini ta’kidlash lozim. Har ikkala asarning boshlanishini tahlil qiladigan bo‘lsak, mushtarak va farqli tomonlarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

J.K.Rouling romanlar turkumining I qismi, ya’ni “Garri Potter va falsafa toshi” asari, bosh qahramon Garrining ota-onasi yovuz kuchlar tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng, sehrgarlik maktabining professorlari Dambldor, missis Makgonagall, Xagrid tomonidan Potterlar oilasining yakka-yu yagona qarindoshi bo‘lmish xolasi va uning oilasiga, ya’ni Dursllar xonadoniga tashlab ketilish voqealaridan boshlanadi.

“– Odamlarning aytishicha, – jiddiy ohangda davom etdi professor Makgonagall, – o‘tgan kecha Voldemort Potterlarni o‘ldirish maqsadida Godrik jarligiga borgan. O‘sha mish-mish gaplarga qaraganda, Lili va Jeyms Potter… ular… ular halok bo‘lishgan.

Dambldor g‘amgin bosh irg‘idi.

Shu gap… rostmi? – yig‘lamsiradi professor Makgonagall, – shuncha qilmishlarni qilgan… qanchadan qancha odamlarning yostig‘ini quritgan… mushtdek bolani o‘ldira olmabdimi? Uning sehr-jodusi ayni shu yo‘sinda barham topishi … bo‘lishi mumkin emas. Qanday qilib, (“Muqaddas falak haqqi”), Garri omon qolgan [3, 20].

Shu tariqa o‘zining sehrgarligidan, ota-onasining magik olamda juda ham mashhurligidan bexabar bo‘lgan Garri ne mashaqqatlar bilan afsungarlik maktabidan kelgan xatni Xagrid yordamida o‘qish baxtiga muuassar bo‘ladi, chunki shu paytgacha kelayotgan barcha maktublar uning yaqin qarindoshlari

tomonidan yo‘q qilinib, umuman berilmagan edi. Garri bir tomondan hayotining yangi bosqichi boshlanayotganligidan, ikkinchi tomondan esa o‘zining tarixi butunlay sir tutilganidan hayratda qolgandi.

“– Kimman, men? – so‘radi Garri, og‘zi lang ochilib.

– Sehrgarsan, tushundingmi, Sehrgar! – dedi davangir divanga battar ezib joylashib. – Muhimi, nihoyatda zo‘r sehrgarsan, mashq qilsang, albatta. Ota-onasi zo‘r bo‘lgan bola yomon bo‘larmidi? Xo‘p kerakli gap aytildi… Ana endi mana bu xatni o‘qiydigan fursat yetdi, – dedi Xagrid bolaga sarg‘ish konvert uzatib” [3, 61].

Shunday qilib, Garri Potterning “Xogvarts” Sehrgarlik va afsungarlik san’ati maktabidagi qiziqarli hayoti boshlanadi va ajoyib do‘stlari Ron, Germionalar bilan tanishib, do‘stlik qanday bo‘lishi, kerak bo‘lganda do‘stlar bir-birini qanday himoya qilish kerakligini tushunib yetadi.

O‘zbek bolalar adabiyotining ilk fantastik asarlaridan biri bo‘lmish “Sariq devni minib”da bolalikning beg‘ubor sarguzashtlari, zavqli va quvonchli onlari tasvirlangan. Bu asarni faqatgina bolalarga tegishli deb bo‘lmaydi, chunki o‘rta yoshli badiiy asar o‘quvchilari uchun ham bu asar juda qiziqarli sanaladi. Asar Hoshimjonning o‘zini tanishtirishidan boshlanadi:

“Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz. Familyam – Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorchining o‘g‘liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho‘lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o‘sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba’zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg‘a-salomlar olib keladi. Sovg‘aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi…

Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o‘quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho‘x bolalarga o‘xshab, kunbo‘yi ko‘cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko‘cha changitib yurgandan ko‘ra komandaga bo‘linib olib, to‘p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaudigan joyga borib olib chillak o‘ynagan ming marta yaxshi” [6, 4].

Ko‘rinadiki, qahramonimiz tengdoshlariga nisbatan sho‘xroq yoshiga mos ravishda oyinqaroq, to‘pori, o‘zining bilganidan qolmaydigan o‘smirlardan, lekin o‘ta mehribon… Ayniqsa singillarini juda ham yaxshi ko‘radigan aka timsolida tasvirlangan. Asarda Hoshimjonning maktabdagi va qishloqdagi sarguzashtlari juda qiziqarli yoritib berilgan. Unga buvisidan eshitgan ertaklari, undagi allaqanday qalpoqcha haqida aytilgan o‘ydirmalar qattiq ta’sir qiladi va tun-u kun o‘sha oppoq qalpoqchani qidirib topish payida bo‘ladi. “Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo‘lgach, oyim aytyapti deb, qo‘shnimizdan ikkita nonni qarzga oldim-da, qorong‘i tushishi bilan o‘sha hovli tomon yo‘l oldim. Tashlandiq uydan xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi burchakka qaramang, ajinami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib menga baqrayib turganga o‘xshaydi” [6, 12]. Hoshimjon, nihoyat, Sehrli qalpoqchani topishga muvaffaq bo‘ladi. Qanday qiyinchiliklar bilan orzusidagi qalpoqchani topganligini yuqoridagilardan bilib olsak bo‘ladi. Shundan so‘ng Hoshimjonning sehrli qalpoqcha bilan dunyo bo‘ylab qiziqarli sarguzashtlari boshlanadi. U yangi topgan do‘sti bilan osongina biror kasb egasi bo‘lish payida boshi oqqan tomonga sayohatga otlanadi.

Bolani qadim-qadimdan podshoga o‘xshatadilar. Bolalik uy bozorligini, u bilan hayot zavq-u shavqqa, baxtga to‘laligini aytmasdan ilojimiz yo‘q. Bola – quvonch, bola – buyuk ne’mat, bola– oilasidagi kichik quyosh misolidir. Xuddi shuningdek, bolalarga bag‘ishlangan adabiyot uning o‘zidek o‘zgachadir. Bolalar adabiyotida yozuvchi anchagina erkin bo‘ladi, qirq qulochli qanotlar-u, uchar gilamlar, gapiradigan quduqlar-u xumlar, bularning barchasi bolalar adabiyotida fantaziya kengligiga qarab istagancha tasvirlanadi. Aslida bunday asarlar til, millat, elat tanlamaydi, yurtlardan-yurtlarga ko‘chib yuradilar, o‘nlab tillarga tarjima qilinib, millonlab qalblarni zabt etadilar. Garri Potterning va Hoshimjonning sarguzashtlari ham xuddi shular jumlasidandir. Ularning sayohatlari asar boshlanishidan boshlab, o‘quvchi ko‘z o‘ngida musavvir chizgan tasvirday gavdalanib turadi. Bu esa har ikkala yozuvchining mahoratidan dalolatdir.

X.To‘xtaboyev Hoshimjonning hayoliy va qishloqdagi sarguzshtlarini shunday mahorat bilan tasvirlaganki, qahramonimiz asar boshidayoq o‘zini tanishtirganida uning sarguzashtga o‘chligini anglashimiz qiyin emas. Yozuvchi asarni shunchaki to‘qib, fantaziya erkinligida yozgan deb bo‘lmaydi, adib bu asarni yozish uchun anchagina izlanganini, voqealar va qahramonlar aro moslikni yaratish yo‘llarini uzoq o‘ylaganini intervyularidan birida aytib o‘tadi. Masalan, asar qahramonlaridan biri, Hoshimjonning do‘sti Mirobiddinxo‘ja obrazining yaratilishi, uning oilasidagi folbinlik, ya’ni onasining

folbinligi, odamlarni sariq dev bilan qo‘rqitib laqqilatish sahnalari va bu ishlar sho‘x qahramonimiz Hoshimjon tomonidan fosh etilishi, bularning barchasidagi mantiqiy bog‘lanishi bilan xalqimiz orasidagi ayyorlik, yolg‘onchlik, folbinlik illatlarini qoralaganini ko‘rishimiz mumkin. Hoshimjonning uyidan qochib ketishi, soxta hayot qiyinchiliklarini bosib o‘tganligi roman ichra alohida qissadir. Quddus Muhammadiy “Nimaiki qilsang tilak, bariga o‘qish kerak” deb aytgan gapini o‘ziga moslashtirib, “Nimaiki qilsang tilak, barchasiga sehrli qalpoqcha kerak” deb sehrli qalpoqchasi bilan sayohatga otlanadi. Avvaliga Hoshimjon Polvontog‘a ishonchiga kirib, savxoz direktori Akbar Nosirov bilan uchrashib uni ham agranomligiga ishontirib savxozda yoshgina agronom bo‘lib ishlay boshlaydi. Hoshimjon shoir bo‘lishni, undan keyin sayyohlikni orzu qiladi. Lekin bu kasblarning ham qiyinchiligi boshiga tushib, har safar sharmanda bo‘lib qalpoqchasini kiyib keyingi sayohatga otlanaveradi. Bu kasblardan keyin qahramonimiz muhandis bo‘lishni istab qoladi. Bir qator qiyinchiliklardan keyin nihoyat qahramonimiz uyiga qaytadi va o‘zgarishga ahd qiladi, qaytganidan quvongan ota-onasiga yaxshi o‘qishga va’da beradi. Xudoyberdi To‘xtaboyev Hoshimjon orqali har bir kasbning o‘ziga yarasha qiyinchiligi borligini, hayotda hech bir yutuqqa osonlikcha, yolg‘on-yashiq bilan erishib bo‘lmasligini ko‘rsatib beradi. Garri Potter haqidagi kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati nimada? Avvalo, Garri Potterga bog‘liq butun voqea-hodisalar katta bir maktabda tasvirlanadi. Faqatgina, asar boshlanishida, uning tug‘ilishidan to sehrgarlik maktabi yoshiga yetgunicha magllar oilasida bo‘lishi har qanday sehrdan xoli ravishda ko‘rsatiladi. Bu maktabga asosan, voqea qahramonlari – sehrgar o‘qituvchilar, bo‘lajak yosh afsungarlar, bir-biriga qarshi kurashadigan raqib o‘quvchilar, har biri o‘z uslubi, sehrgarlik tarixiga ega ustozlar yig‘ilgan. Sehrgarlik maktabida o‘quvchilar turli afsunlardan saboq oladilar va amalda sinab ko‘radilar. Asardagi “kvidish” o‘yiniga alohida to‘xtalishni joiz bildim. Bu o‘yinda o‘zaro raqib jamoa “uchar supurgi”larda “uchar koptok”ni quvib yetish uchun kurashadilar. Afsungarlik maktabida ma’lum “vazifasiz” obraz, narsa, kiyim, ko‘rshapalak, boyo‘g‘li, katta-katta itlar, zaharli hasharotlar, sehrli qulf-kalitlar berilmagan. Har bir jism, vujud, yoki maxluq bizga tanish tomonlaridan tashqari yana bir qancha belgi, fazilat va vazifalari bilan bizga ko‘rinish beradi. “Xogvars” maktabida betaraflikka, sustkashlikka o‘rin yo‘q. Barcha o‘zining vazifasini juda yaxshi biladi va sidqidildan bajaradi. Bu maktabdagi ayrim sehrgarlik o‘qituvchilari Garri ota-onasining azaliy raqiblaridir, bu o‘qituvchilar Garri Potterni yo‘q qilish uchun jon-jahdlari bilan kurashadilar. Garrining do‘stlari Germiona va Ron doimiy ravishda, har qanday xavf-xatar paydo bo‘lganda, qahramonimizga yordam qo‘lini cho‘zadilar. Bu bilan Adib Joanna Rouling ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasini va haqiqiy do‘stlik har qanday sinov va qiyinchiliklarga dosh berishini ko‘rsatib bergan desak xato bo‘lmaydi. “Sariq devni minib” va “Garri Potter” asarlarining yana bir o‘xshash jihati shundaki, bosh qahramonlarimizning yoshi. Har ikkala asar bosh qahramonlari bilan tanishganimizda, ularning Hoshimjon ham Garri Potter ham boshlang‘ich sinfni tugatib, yuqori sinfga borishlarini bilsak bo‘ladi.

Xulosa. Dunyo adabiyotida bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan asosiy farqi shundaki, asarning oxiri yaxshilik bilan yakun topishi, salbiy qahramonlar bo‘lsa, ularning asar so‘ngida ijobiy xarakterda tasvirlanishidadir. Xuddi shu kabi xislatlarni o‘zida jamlagan “Sariq devni minib” va “Garri Potter va afsonaviy tosh”, “Garri Potter va maxfiy xona” asarlarida ham yovuzlik ustidan ezgulik g‘alabasi tasvirlanadi. Adib X.To‘xtaboyev Hoshimjon obrazi orqali soxta Sariq devni Sehrli qalpoqchasi bilan fosh qilib, xalqimizda keng tarqalgan folbinlik illatini qoralaydi hamda insonlarni bunday narsalarga ishonmaslikka chaqiradi. Yozuvchi Joanna Roulingning Garri Potter romanlar seriyasida ham azaliy kurash bo‘lgan yovuzlik va ezgulik kurashi berilgan. Romanlar to‘plamining har birida Garrining yovuz kuchlar ustidan g‘alabasi katta mahorat bilan tasvirlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Axmedova Sh. Hozirgi adabiy jarayonni o‘qitish texnologiyalari. Darslik. – T., 2022. – 286 b.
2. Rouling J.K. Garri Potter va afsonaviy tosh. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasi) – T.: Zukko kitobxon, 2021. – 398 b.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 340 b.
4. Rasulov A. G‘aroyib saltanat //Jahon adabiyoti, 2008. – №6. – B.76-85.
5. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. –T.: “Global books”, 2021. – 268 b.
6. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-garoyib-saltanat

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi,
Buxoro davlat universiteti
magistranti (O‘zbekiston)
E-mail: ***nargizaxayriyeva909@gmail.com***

O‘TKIR HOSHIMOV NASRINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning nasriy asarlari XX asr o‘zbek adabiyotining alohida sahifalarini tashkil etadi. U butun umrini, ijodini jamiyat ravnaqiga, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga bag‘ishlagan. Odamlarning muammo, quvonch va dardlarini o‘z asarlarida badiiy talqin qilib, yangi o‘zbek adabiyoti, xususan, nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Adibga e’zoz va ehtirom ifodasi o‘laroq qator tadqiqotlar dunyo yuzini ko‘rmoqda. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov ijodining o‘ziga xos qirralari haqida so‘z borgan. Adib asarlarida o‘zbekona ruh tarovati, shuningdek, obrazlarning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishiga diqqat qaratilgan. O‘zbekona xatti-harakatlar, turli tasvirlar vositasida yaratilgan portretda milliy koloritning tajassumi tahlil va talqin qilingan. Ayni chog‘da, muallifning so‘z qo‘llash mahorati, individual uslubiga xos ayrim jihatlari ochiqlangan. Ijodkor qalamiga mansub katta-kichik nasr namunalarining boshqa asarlarga o‘xshash va farqli tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nasr, obraz, muallif mahorati, roman, qissa, hikoya, personaj, xarakter, motiv.

Аннотация. Прозаические произведения народного писателя Узбекистана Уткира Хошимова составляют отдельные страницы узбекской литературы XX века. Всю свою жизнь и творчество он посвятил процветанию общества и духовному развитию нашего народа. Художественно осмысливая в своих произведениях проблемы, радости и печали народа, он внёс большой вклад в развитие новой узбекской литературы, особенно прозы. Появляется ряд исследований, выражающих уважение и восхищение писателем. В статье рассматриваются уникальные аспекты творчества Уткира Хошимова. В своих произведениях писатель подчеркивает свежесть узбекского духа, а также неповторимость облика героев. Воплощение национального колорита анализируется и интерпретируется в портрете, созданном посредством узбекского образа действий и различных образов. При этом раскрываются некоторые аспекты лексики и индивидуального стиля автора. Подчеркиваются сходства и различия больших и малых прозаических образцов автора с другими произведениями.

Ключевые слова: проза, образ, авторское мастерство, роман, рассказ, повествование, персонаж, мотив.

Abstract. The prose works of the people's writer of Uzbekistan, Otkir Hoshimov, constitute separate pages of Uzbek literature of the 20th century. He devoted his entire life and creativity to the prosperity of society and the raising of the spirituality of our people. By artistically interpreting the problems, joys, and sorrows of the people in his works, he made a great contribution to the development of new Uzbek literature, in particular prose. As an expression of respect and honor to the writer, a number of studies are being published worldwide. This article discusses the unique aspects of Otkir Hoshimov's work. Attention is paid to the freshness of the Uzbek spirit in the writer's works, as well as the unique appearance of the characters. Uzbek actions, the embodiment of national color in the portrait created using various images are analyzed and interpreted. At the same time, some aspects of the author's mastery of word usage and individual style are revealed. The similarities and differences between the author's large and small prose samples and other works are highlighted.

Key words: prose, image, author’s skill, novel, story, narrative, character, motive.

Kirish. Adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov “Buyuk adibning barhayot merosi” [1, 2] maqolasida adib tavalludining 80 yilligi munosabati bilan mamalakatimizda O‘tkir Hoshimov xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlar haqida, adibning o‘lmas badiiy merosi to‘g‘risida fikr yuritadi. Darhaqiqat, O‘tkir Hoshimov o‘zidan unutilmas meros, tuganmas xazina qoldirgan nomi ham asarlari kabi hamisha barhayot ijodkordir. O‘tkir Hoshimov ijodi, faoliyati va hayoti mustaqillikkacha ham, undan keyin ham tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Nafaqat keksa avlod vakillari, balki yoshlar orasida ham adib ijodiga qiziquvchilar bisyor. Binobarin, bir qator yosh tadqiqotchilar uchun

yozuvchi asarlari, uning hayoti va faoliyati muhim manbadir. Chunonchi, “Sakkizinchi mo‘jiza: O‘tkir Hoshimovning kitobi va o‘zi to‘g‘risida” [2], “Sujet, obraz, uslub xususiyatlari (“Tushda kechgan umrlar” romani misolida” [3], “Olam – bola nigohida (O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” va amerikalik Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Volknerning “Men o‘lgan kunda” asarlari rivoyasi haqida”) [4], “Yetuk publitsist edi (Shoir, adib O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi)” [5] asarlari shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Adabiyotning uch muhim xususiyatidan biri ham aynan insonshunoslikdir. Qolgan ikkitasi esa badiiy adabiyotning ta’sirchanligi hamda obrazliligi sanaladi. Biz tahlilga olgan muhim jihatdan biri obraz ekan, uni tanlash yoki yaratish muallif mahorati, tajribasi hamda iste’dodini namoyon etishda o‘ziga xos ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimov nasrida obraz, personaj, xarakter va tip singari asar sujeti va kompozitsiyasini harakatga keltiruvchi asoslar voqea bilan yaxlitlikda ajib san’at asarini yuzaga chiqargan. Xususan, turli surat hamda siyratdagi obrazlar adib asarlarida o‘zbekona milliylikkka yo‘g‘rilib, milliy kolorit ifodachisi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Binobarin, milliylik har bir ijodkor qalamida turli rangga kiradi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida yaylov, qir-u adir, tog‘, keng dalalar orqali milliylik nafasi sezilsa, Tog‘ay Murod qissa va romanlarida sheva elementlari; inson, hayvon, tabiat tasviri hamohangligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘tkir Hoshimov ijodida esa ko‘p hollarda portert tasvirida milliylik unsurlari yetakchilik qiladi.

Natijalar va muhokama. Adib hayoti, ijodi hamda faoliyatini sinchiklab o‘rgangan munaqqid Abdug‘afur Rasulov O‘tkir Hoshimovning obraz yaratishda uning Do‘mbiravotligi yaqqol sezilib turishini ta’kidlaydi: “Qisqasi, O‘tkir Hoshimov asarlarida ismi toq aytiladigan qahramon-u personajlarning o‘zi kam. To‘rtta Do‘mbiravotlik jam bo‘lsa, uchtasi birdan xaxolab yuboradi, bittasi qip-qizarib jo‘ralarini so‘ka boshlaydi. Bilingki, qip-qizarib ketganning “e’zozli” laqabi nazokat bilan suhbatga “yedirib” yuborilgan. “Sichqon” deysizmi, “cho‘pqo‘ymas”, “danak” deysizmi, “katak”, “kepak”, “qovoq”, “tovoq” deysizmi hammasi topiladi Do‘mbiravotda” [6, 35]. Binobarin, yozuvchi qalamiga mansub deyarli barcha janrdagi asarlarda kishi nomlarida erkalash qo‘shimchalari mavjud. Shuningdek, laqab orqali murojaat qilingan, qisqartirilgan ism yo bir sifatlovchi yoki izohlovchi bilan aytilgan o‘rinlar mavjud. Xususan, Sepkilli xola, Acha xola, Ilhom samovarchi, Dalavoy nalug, Ermon buva, Mahmud bukur, Odilxo‘ja, Muborak chevar, Husan duma, Rashid abzi (cho‘loq), Umar zakunchi kabilar shular jumlasidandir. “Dunyoning ishlari” qissasida Toyir – Toy, Valentin – o‘zbekcha Vali, Baxtiyor – Baxti, Nilufar – Nilu deyilishida yuqoridagi holatlarni kuzatamiz. Bundan tashqari, “Tushda kechgan umrlar”da Barnoshka – Barno (kotiba qiz), Dilnoza – Dilnoz (Shahnozaning singlisi) Dilfuza – Dilya (Shahnozaning dugonasi); “Ikki eshik orasi” da Bashorat – Bashor, Munavvar – Minavar; “O‘zbeklar” hikoyasida Iskandarning xotini Gulnora – Gulya kabi qisqartma ismlar; ismi noma’lum, ammo hamma uchun mahallaning “shayx” i bo‘lib qolgan personaj ham uchraydi. Hajviy hikoyalarda antiqa laqablar topiladi. Masalan, “Telpak” hikoyasi qahramonlari loyiha institutining “uch og‘a-ini botirlar” i Bobur – “Po‘nchik”, Botir – “tarasha”, Baxrom – churuk papka” ... Bu kabi laqab, qisqartma ismlar yozuvchi asarlarining deyarli barchasida uchraydi.

Asarlarda o‘zbeklarga xos qadriyat hamda urf-odatlarni yaxshi biluvchi, unga amal qiluvchi rus millatiga mansub Klava xola; Soat G‘aniyevichning bor-budini shilib, o‘ynashi Volodya bilan ketgan “umr yo‘ldoshi” Natasha; o‘zi o‘zbek, ammo ismi boshqa – Mauzer, Mels singari obrazlar milliylik kasb etgan qahramonlar bilan qarama-qarshi qo‘yiladi.

Adib ijodida onalar obrazi asosiy markazda turadi. Chunonchi, “Dunyoning ishlari” qissasida Hakima aya, Poshsha xola, Valining onasi Zebi xola, Toyning onasi Niso xola, kelinoyi obrazlari yetakchi hisoblanadi. “Ikki eshik orasi”da “Qora amma”, Robiyaning erta xazon bo‘lgan kasalmand onasi, Kimsanning ko‘zi oldida uzoq qiynoqdan so‘ng jon bergan mushtipar ona, o‘gayligini bildirmagan Robiya, bolaparvar va mehribon Bashor opa – bularning barchasi mushtipar onalar, mushfiq ayollarning turfa qiyofalari, aslida. “Nur borki, soya bor” romanida ham ayol obrazlari turli rakurslarda namoyon bo‘ladi. Toshkentda ishlaydigan o‘g‘li Sherzodning duoyi jonini qiladigan, yo‘llariga hamisha mushtoq ona ham shulardan biri. Qolaversa, ismi taqdiriga aylangan Qurbonoy xola, qizi Umida, eri (Soat G‘aniyevich) yetkazgan ozorlar sababli dunyodan erta ketgan Nazira singari obrazlar asarning jonli kartinasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan. O‘.Hoshimov asarlarida onalar obrazi turli ko‘rinish, yosh va xarakterda tasvirlangan. Real hayotda millionlab, milliardlab xilma-xillik kuzatilsa-da, ularda yagona mushtaraklik mavjud: bu – bag‘rikenglik.

Adib ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri turli asarlarida bir xil nomlarning qo‘llanishidir. Jumladan, Sherzod – “Nur borki, soya bor” asari bosh qahramoni hamda “Ikki eshik orasida”gi Muzaffarning sevgi borasidagi raqibi; Abduvohid – “Nur borki, soya bor” romani yetakchi personajlaridan biri, Sherzodning do‘sti hamda “Dunyoning ishlari” qissasida bosh qahramon, ya’ni muallifning yoshlikdagi qadrdoni; “Dunyoning ishlari” dagi “Qarz” hikoyasida qo‘shni qizaloq hamda “Ikki eshik orasi” dagi Omonnning qizi Nilufar (Nilu) ismli qahramonlar fikrimizni quvvatlaydi.

O‘.Hoshimov asarlarida ko‘plab folklor namunalaridan foydalanilgan. Bunda, ayniqsa, o‘zbek xalq bolalar o‘yinlari diqqatga sazovor. “Dunyoning ishlari” qissasida “Oshxo‘ram kaptar”, “Zuv-zuv”, soqqa; “Ikki eshik orasi”da “soqqa quvar”, varrak uchirish kabi xalqona o‘yinlar mavjudki, ular Muzaffarga yoshligini eslatib turadi. Romanda Muzaffar o‘rtog‘i Abduvalini, u orqali soqqa quvar o‘yinini, o‘rtog‘ining otasi sartarosh “Tuya” amakini xotirlaydi.

Bir qator kasb egalari: o‘qituvchi (“Bahor qaytmaydi” qissasida Muqaddamning otasi, “Ikki eshik orasi”da Samadov; “Sirli yulduz” qissasida astronomiya va geografiya fani o‘qituvchisi Omonulla Rustamov, uni yoqtirmaydigan hasadgo‘y domla Hamroyev; “Shamol esaveradi” qissasida oliy ta’lim jonkuyarlaridan G‘ulom Saidovich, Yunusov, Tal’at; “Qalbingga quloq sol” qissasida Iskandarov, Mahmuda Aliyevna; “Ikki eshik orasi”da yosh muallim Mo‘tabar opa), bo‘lajak muhandis (“Ikki eshik orasi”da Munavvar, Muzaffar), rejissor (“Bahor qaytmaydi” qissasida Zufar Hodiyevich, “Nur borki, soya bor”), qo‘shiqchi (Alimardon), suxandon (Anvar), institut xodimasi (E’tibor), hamshira (Muqaddam) agronom (Kabir), muxbir (“Shamol esaveradi” qissasida Nuriddinov), aktrisa (“Nur borki, soya bor” romanida Zuhra), shuningdek, injener (“Tushda kechgan umrlar”da Qurbonoy xolaning qaynonasi), olim (“Tushda kechgan umrlar”da Qurbonoy xolaning qaynotasi, ateist), shifokor (“Nur borki, soya bor”da Azimjon aka, “Quyosh tarozisi”ida Murodjon), jurnalist (“Nur borki, soya bor” romanida Sherzod, Rustam), tergovchi (“Tushda kechgan umrlar”da Soat G‘aniyevich), qishloqdagi jensovet (xotin-qizlar) raisi (Hanifa Salomatovna), bog‘bon, dehqon, samovarchi, oshpaz (“Dunyoning ishlari”da Toy – Toyir), choyxonachi (Ilhom), sartarosh (Naim), chevar (“Ikki eshik orasi”da Xolposh aya), talaba (“Quyosh tarozisi”da Nasiba; “Tushda kechgan umrlar”da Rustam, Shahnoza, Dilya; “Shamol esaveradi” qissasida Mansur, Gavhar, Zulayho, Abduxalil; “Qalbingga quloq sol” qissasida Yodgor, Charos, Zoyirjon, Hikmatilla, Nargiza, Nafisa; maktab o‘quvchisi Dilshod, Dilfuza; “Sirli yulduz” qissasida Toshpo‘lat, Soliya, Abdulla, Sharifa, Ahmad, Mamat, Aziza, Feruza kabi talay yoshlar) obrazi asar sujetining siljishida, qolaversa, yozuvchi badiiy maqsadining amalga oshishida muhim vazifa bajargan.

“Tomsuvoq” hikoyasida muallifning obraz tanlash mahorati kasbiy yo‘nalishda ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilganini sezish mumkin. Chunonchi, katta epik asardan tortib kichik janrlargacha murabbiylik kasbi ulug‘langan. Uning mashaqqatli tomonlari, kasb mas’uliyati to‘g‘risidagi fikrlar voqealar silsilasida asoslab berilgan. “Ikki eshik orasi” romanidagi Robiyaning otasi muallim bo‘lib, odamlar uni bilimli, ko‘pni ko‘rgan deya hurmat qilishadi. “Jintepa” hikoyasidagi biologiyadan dars beruvchi “insoniyat maymundan tarqalgan” degan farazini qo‘ymaydigan murabbiy ham, zaryadlarning xususiyatlarini aytib bolalarni tinchlantirgan fizika o‘qituvchisi Ismoil aka ham, “Tomsuvoq” dagi kabi o‘quvchilari bilan hashar qilgan, ammo onasining gapini ikki qilmay xalqning haqidan qo‘rqadigan ustoz ham XX asr muallimining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Oliy ta’limda ham ustoz, aspirant, professor, akademik nomi bot-bot tilga olinadi. Xususan, “Nur borki, soya bor” romanida Sayfiddin Soqiyevich, o‘g‘li Sirojiddin Sayfiyevich, Sayfiddinning ilmiy “homiysi” – “domla”; ularga qarshi o‘laroq haqiqiy ustoz qiyofasida gavdalangan Valiyev kabi nohaqlikka chiday olmay “tagi bo‘sh” “fan odamlari”ga tarsaki tushirishdan ham tap tortmaydigan ta’lim fidoyilari ham bor.

Adib asarlarining deyarli barchasida talaba, o‘quvchi yoki o‘qituvchi obrazi mavjud. Ayniqsa, qissalarda maktab o‘quvchisi va oliy o‘quv yurti talabalari bosh va epizodik obrazlar tarzida gavdalantiriladi. Ayni chog‘da, “Dunyoning ishlari” qissasida muallif va uning tengdoshlari, qo‘shnisi – erkin fikrli talaba; “Bahor qaytmaydi” da Alimardon, Anvar, Muqaddam, Kabir, Lobar, Mutal jamiyat rivojiga hissa qo‘shayotgan ishchi-yoshlar sifatida tasvirlanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida tush ilohiylik kasb etib, asar qahramonlarining taqdiriga ishora qiladi. Xususan, Alpomish, Barchinoy va Qorajonlarning tushlari ularning taqdirlarida yangi o‘zgarishlarga, kelajakka qaratilgan belgi bo‘lib xizmat qiladi. “Kuntug‘mish” dostonida ham Xolbeka hamda Kuntug‘mish tush vositasida bir-birlarini taniydilar, tavakkal qilib qismatlari bilan yuzlashadilar. Tushga oid ushbu ishoratlar ularning hayotida tub burilishlarga sabab bo‘ladi. Kuzatishlarga ko‘ra,

O‘.Hoshimov asarlarida ham tush motivi muhim o‘rin egallaydi. Chunonchi, “Qalbingga quloq sol” qissasida Yodgor tush ko‘radi. Unda Kelesdagi hovlisi, anhor, Oqila buvi bo‘lib gavdalangan Charosni ko‘radi. “Tushda kechgan umrlar”da Rustamning tushlari uni Shahnoza bilan bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shahnoza ham bir necha marta Rustamni tushlarida ko‘rgan, Rustamning jarga qulab ketishi, Shahnozaning uni ushlab qololmagani tasviri orqali avval uning boshiga tushgan qiyinchilik, sinovlar va kelajakdagi baxtsizliklariga, keyinchalik sirli o‘limiga ishora sifatida baho berish mumkin. “Dunyoning ishlari” qissasida esa muallifning bolalik xotiralari, onasi to‘g‘risidagi o‘y-xayollar tushlarida ham bo‘y ko‘rsatadi. Chunonchi, qissadagi “Tush” qisqa hikoyasida muallif onasini qo‘lida chiroq ko‘tarib uni kutib turgan holda ko‘radi. Onasi vafot etgach, hech kim unga bunday marhamat ko‘rsatmaganini afsus bilan tilga oladi.

Joy nomlari, suv havzalari, turli xil geografik obyektlar adib asarlarining deyarli barchasida takrorlanib turadi. Chunonchi, “Bahor qaytmaydi” qissasida “Bo‘ston” Alimardon hamda Anvarning ona qishlog‘i, “Cho‘l havosi”da “Bo‘ston” sovxozi Mirzacho‘lning obod qilinayotgan manzilidir. Joy nomlari bilan aloqador afsona va rivoyatlar badiiy adabiyotda ko‘plab topiladi. Ularning ayrimlari tarixiy haqiqat, boshqalari badiiy to‘qima yoki har ikki asosga qurilgan bo‘ladi. Adibning ustozi, sevimli yozuvchimiz Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi datlabki qismi “Qirq besh kun”da ham Kuyganyor qishlog‘i bilan bog‘liq afsona aytiladi. Unga ko‘ra, bir qipchoq yigiti oqyorlik Oyjamol degan qizga oshiq bo‘lib ishqida kuyib-yonadi. Yigit qipchoq urug‘idan bo‘lganidan qizning ota-onasi rozilik bermaydi. Yigit esa qiz ishqida o‘zini yondiradi. Shundan so‘ng bu yerning nomi o‘sha kuygan yigit tufayli Kuyganyor deb atalgan ekan.

Yozuvchi asarlarining bir nechtasida bir xil toponimlarning qo‘llanishi asar voqealarini yanada hayotiy va haqqoniy chiqishiga muhim hissa qo‘shadi. Ayniqsa, adib tug‘ilgan shahar, qishloq, o‘sha atrofda joylashgan boshqa geografik obyektlar: jarlik, tepalik, suv havzalari (daryo, ko‘l, soy, buloq…) XX asrda ham, hozir ham mavjudligi asarni yanada o‘qishli, ishonchli va ta’sirli bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. “Ikki eshik orasi” romani hamda “Bahor qaytmaydi” qissasida Qonqusning sujet rivojida tutgan roli katta. Oynatog‘ – Muqaddam kelin bo‘lgan joy. Asarda Yangi mahalla ko‘p bora tilga olinadi. Bu joy Alimardon, Anvar va Muqaddamga begona emas. Bu, bizningcha, yoshlar hayoti, yangi turmush va yangi hayotga ishora beradi. Bunda yangi hayot ostonasida turgan yangi oilaning yangi mahallada istiqomat qilishi mushtaraklikni yuzaga chiqargan.

“Nur borki soya bor” romani voqealari, asosan, Toshkentda, keyin Farg‘onada ro‘y beradi. Asar bosh qahramoni Sherzod asli farg‘onalik oddiy qishloq yigiti. “Ikki eshik orasi”da Toshkent shahri va viloyati, Qo‘qon manzaralari mavjud. Shuningdek, urush borayotgan qonli tuproqlar, rus yerlari tasvirlarini uchratamiz. Aytish joizki, adib asarlarida, ayniqsa, o‘zi tug‘ilgan mavze – Do‘mbirobod (Do‘mbiravot – “Dunyoning ishlari”dagi “Ikki afsona” hikoyasida Do‘mbiravot mavzesi), Qonqus anhori va unda cho‘kib ketishiga sal qolgan Vali haqida so‘z boradi. Qonqus arig‘i (“Bahor qaytmaydi”, “Ikki eshik orasi”), Alvasti ko‘prik, No‘g‘ayqo‘rg‘on, Ko‘tarma (“Ikki eshik orasi”), Qa’ni, Bo‘rijar (“Oq bulut, oppoq bulut”) kabi joy nomlari adib ijodida ko‘p bor takrorlanadi.

“Dunyoning ishlari” qissasida “Ermon buvaning tilagi” hikoyasi tarkibida paxtaning jannatdan tushganligi to‘g‘risida Ermon buvaning cho‘pchagi, “Haqqush” hikoyasida ikki aka-uka haqidagi afsona, “Bahor qaytmaydi” qissasida Qonqus arig‘i tarixi bilan bog‘liq afsona, “Shamol esaveradi”da Xirmontepa etagidagi Bog‘ishamol qishlog‘i tarixi asar voqealarini reallashtirishda muhim jihat sanaladi.

“Cho‘l havosi”da tong yulduzi haqida gap boradi. Botirning Ziyodaga yozgan birinchi maktubida bu yulduzni cho‘pon yigit sevgan qizi – yurt malikasi uchun yerga olib tushgani, bunda onasining soch tolalaridan to‘qilgan arqondan foydalanib ko‘p mashaqqat chekkani aytiladi. Ammo u bevafo qiz boshqa yigitga turmushga chiqib ketgani, bundan cho‘pon yigit ranjib yulduzni yana tepaga chiqarib qo‘ygani, yulduz ham qizdan xafalanib, malika uyquga ketishi bilan cho‘g‘dek porlab, uyg‘onishi bilan so‘nib qolishi haqida afsona keltiriladi.

“Dunyoning ishlari” qissasida ham cho‘pchaklar mavjudki, ular onasi tomonidan hikoya qilinadi. Muallif ushbu cho‘pchaklarni afsona deb ataydi: “Haqiqat havoga o‘xshaydi. Nafas olib turasiz-u o‘zini ko‘rmaysiz. O‘ylab qarasam, oyim go‘dakligimda qayta-qayta aytib bergan mana shu ikki afsona hayotdek oddiy, hayotdek chuqur haqiqat ekan” [7, 17]. “Ikki afsona” hikoyasida sahardan dunyoni yoritib, yer yuzidagi jamiki iflosliklarni ko‘rishni xohlamaygina oftob chiqarkan. Alloh yer yuzini shu iflosliklardan tozalaydigan odamlar bor, deya oftobni ovutarkan. Dono onasi tomonidan o‘ylab topilgan

bu choʻpchak dunyoni turli yomonliklardan tozalash muqaddas ish ekanligini jajji qalbga anglatish uchun edi. Zero, qayernidir toza tutish, ozoda saqlash – savobli ish, xuddiki Ka'bani obod qilgan kabi. Obkash toʻgʻrisidagi choʻpchakda esa onasini xafa qilib qoʻygan yigitning obkash kampirga yordam bermoqchi boʻlgani haqida gap boradi. Ammo kampir yigitga birovning koʻnglini ovlashdan oldin oʻz onasining koʻnglini ogʻritmaslikni oʻrganishi lozimligini ta'kidlaydi. Demak, eng avvalo, inson oʻz yaqinlarini sevishi kerakligi, soʻng qolganlarni ham yaxshi koʻra olishi gʻoyasiga asarda alohida urgʻu qaratiladi.

"Ikki eshik orasi" romanida "Qurbonoy xola ertaklaridan" deb nomlangan ikkita qism bor. Ular ikki oʻrinda, asosan, Qurbonoy xola bilan bogʻliq, asar voqealari, sujetga mos tarzda keltiriladi:

Qadim zamonlarda podshoning bir tilab olingan yolgʻiz oʻgʻli yiqilib, boshi yoriladi. Shunda shoh oʻgʻlining peshonasida "Nikoh kuni boʻri yeydi" degan yozuvni koʻradi. Shahzoda tuzaladi, ammo podshoning xavotiri tarqamay mamlakatdagi barcha boʻrilarni oʻldirtiradi. Yillar oʻtib shahzoda voyaga yetib goʻzal bir qizga uylanadi. Nikoh kuni podsho oʻzi boshchiligida oʻgʻlini qoʻriqlaydi, ammo oʻsha kelin shahzodani boʻgʻizlaydi. Podsho qilich koʻtarib sababini soʻraganda kelinchak bilmay qolganini, unga osmondan "sen boʻrisan, yoningdagi qoʻzichoq, uni yeyishing kerak" deyilganini aytadi. Qissadan hissa shuki, har yaratiq peshonasida yozilganidan, qismatidan qochib qutulolmasligi ta'kidlangan. Zero, Lavhul Mahfuzda hammasi yozib qoʻyilgan, qalam esa qurigan. Romanda ushbu ertak Qurbonoy xolaning boshidan oʻtganlariga, umuman olganda, harakatdagi sujetga mansub boshqa obrazlar taqdiriga bevosita ishora qiladi. Qurbonoy xolaning ikkinchi ertagidan esa, insonning qilgan yaxshi yoki yomon amali, albatta, oʻziga qaytishi, qaytar dunyo ekanligi anglashiladi. Ertakda Haj safaridan qaytayotgan otani nogoh paydo boʻlib qolgan oʻgʻil tarsakilab yuboradi. Atrofdagilar hayron boʻlishadi, oʻz otasini urgan oʻgʻildan gʻazablanishadi… Ammo chol na oʻzida, na farzandida gunoh yoʻqligi, cholning otasi bir paytlar buvasini urganini eslaydi. Demak, bizdan oldin oʻtgan yaqinlarimiz, ota-bobolarimizning qilgan ezgu yo yomon amallari uchun ham javobgarlik borligi tayin, dunyoyi dun aylanib boshimizga turli savdolar solishi ehtimoli yuqori. Qurbonoy xola bu ertakni oʻlib-oʻlolmay, yashab-yasholmay yolgʻiz, qarovsiz qolgan Soat Gʻaniyevichni koʻrganda eslaydi. Yuqorida keltirilgan ertak asar mazmuni, voqealar rivojida ham muhim oʻringa ega. Nafaqat ushbu romanda, boshqa qissa va hikoyalarida ham qator afsona, rivoyat va ertaklar mavjud. Chunonchi, "Dunyoning ishlari"da obkash, oftob, haqqush haqidagi; "Ermon buvaning tilagi" da paxta; "Choʻl havosi" qissasida choʻpon yigit toʻgʻrisidagi xalq ogʻzaki ijodi, badiiy toʻqima va tarixiy haqiqatga asoslangan afsona yoki rivoyat, ertaklarni uchratamiz. Shuningdek, Soat Gʻaniyevich tilidan hikoya qilingan Stalinning tishini davolamoqchi boʻlgan doktor, 1938-yil nohaq qatagʻonga uchragan adabiyotshunos olim haqidagi voqea esa XX asrdagi qatagʻonning tahlikali va vahshiyona siyosatini, Soat ismli manfur kimsa shaxsini ochishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytish kerakki, Oʻtkir Hoshimov oʻz asarlari bilan oʻzbek nasriga yangi mazmun, yangi ohang olib kirgan adiblardan biridir. E'tiborlisi shundaki, adib asarlarida milliy ruh yuqori pafosda namoyon boʻladi. Uning obraz tanlashi, kishi ismlarini qisqartirib qoʻllashi, ayrimlarini laqab bilan atashi, bir xil nomlangan toponim va atoqli otlardan foydalanishida xalqning qadimiy an'analari boʻy koʻrsatadi. Folklorga oid tush motivi hamda xalq afsona va rivoyatlarini asar matnida keltirishi tarixiy ildizlarimizni chuqur anglashi va anglatishga urinishidan dalolat beradi. Adib ijodida mavzu va gʻoya, qahramonlar taqdiridagi keskinliklar, tub burilishlar, ziddiyatli vaziyatlar va takrorlanmas konfliktlar asar janridan qat'iy nazar, uning yanada oʻqishli va hayotiy boʻlishini ta'minlaydi. Ayniqsa, har bir obrazni oʻziga xos, individual yondashuv bilan boshqalarga oʻxshamaydigan, bir soʻz bilan aytganda, original tarzda yaratilgani fikrimizni dalillaydi. Shuning uchun ham ijodkor uslubini sevuvchi, asarlarini suyib mutolaa qiluvchilar har yoshda, har sohada topiladi. Zero, Oʻtkir Hoshimov asarlaridagi oʻzbekning oʻzligini anglatib turadigan milliy ruh, milliy va betakror obrazlarga singdirilgan oʻlmas gʻoya va mavzular hamisha barhayotdir.

ADABIYOTLAR:

1. Gʻofurov I. Buyuk adibning barhayot merosi. Oʻzbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi Oʻtkir Hoshimov tavalludining 80 yilligi //Yangi Oʻzbekiston, 2020. – 3-dek.

2. Achilova E. Sujet, obraz, uslub xususiyatlari: "Tushda kechgan umrlar" romani misolida // Til va adabiyot ta'limi, 2022. – №3. – B. 26-27.

3. Sakkizinchi mo‘jiza: O‘tkir Hoshimovning kitobi va o‘zi to‘g‘risida // Hoshimov O‘// “Axborot kutubxona texnologiyalari” jurnali, 2009. – №1. – B. 41-44.

4. Olam – bola nigohida: [O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” va amerikalik Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Volknerning “Men o‘lgan kunda” asarlari rivoyasi haqida]. M. Sharafiddinova // Jahon adabiyoti, 2021. – iyul. – №9. – B. 184-189.

5. Yetuk publitsist edi: [Shoir, adib Otkir Hoshimovning hayoti va ijodi] // Hurriyat, 2013. – 29-may, – №22. – B. 4.

5. Hoshimov O‘. O‘zbeklar: Hikoyalar, o‘ylar, hajviyalar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 218 b.

6. Rasulov A. Ardoqli adib: O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T.: Sharq, 2001. – 128 b.

7. Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar: II jild: qissalar, hikoyalar, hajviyalar, o‘ylar. – T.: Sharq, 2009. – 448 b.

8. Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov. Qo‘rquv saltanati. //Sharq yulduzi, 1989. – №4. – 38 b.

9. Suvanov Z. Qahramon va muallif ruhiyatidagi mushtaraklik. //O‘zbek tili va adabiyoti, 2019. – №2. – B.79-84.

10. Muhamedjanova G. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima. // Til va adabiyot ta’limi, 2021. – №9. – B. 27.

11. Uliyeva S. Badiiy obraz yaratishda grammatik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi, 2022. – №12. – B. 19-21.

12. Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi. – T.: Qaldirg‘och, 2018. – 248 b.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Kilichev Bayramali Ergashovich
Doctor of Philology (DSc), Professor,
Bukhara State University,
E-mail: b.e.kilichev@buxdu.uz

ABOUT NAMES RELATED TO WATER

Annotatsiya. Buxoro hududida qadimgi toponimlar koʻpchilikni tashkil etadi. Bu viloyatning qadimiy tarixi bilan uzviy bogʻliqdir. Viloyat toponimlarining katta bir qismi gidrotoponimlar – suv nomlari asosida shakllangan toponimlardan iboratdir. Gidrotoponimlar hududning tabiiy-geografik, relef xususiyatlaridan kelib chiqib shakllangan. Ularning tarkibida daryo, kanal, ariq, koʻl, kollektor kabi gidrotoponim turlari asosiy oʻrin tutadi.

Kalit soʻzlar: Buxoro, viloyat, toponim, toponimiya, gidronim, gidrotoponimiya, daryo, kanal, koʻl, ariq, kollektor, suv havzasi.

Аннотация. На территории Бухары представлено большое количество древних топонимов. Они неразрывно связано с древней историей региона. Большую часть региональных топонимов составляют гидротопонимы – топонимы, образованные на основе названий воды. Гидротопонимы формируются с учетом природно-географических и рельефных особенностей местности. В их составе основное место занимают такие гидротопонимы, как река, канал, арык, озеро, коллектор.

Ключевые слова: Бухара, регион, топоним, топонимия, гидроним, гидротопонимия, река, канал, озеро, ров, коллектор, водохранилище.

Abstract. The majority of toponyms on the territory of Bukhara are ancient toponyms. They are inextricably associated with the ancient history of the region. Most of the regional toponyms are hydrotoponyms – toponyms formed on the basis of the names of water. Hydrotoponyms are formed taking into account the natural geographic and relief features of the area. In their composition, the main place is occupied by such hydrotoponyms as river, canal, ditch, lake, and collector.

Key words: Bukhara, region, toponym, toponymy, hydronym, hydrotoponymy, river, canal, lake, ditch, collector, reservoir.

Introduction. In toponymy, water and related names are ranked after oikonomia. It is important to collect, systematize, and study their forms and manifestations in certain regions by dividing them into thematic groups. Bukhara region is a geographical object belonging to the desert zone. Therefore, water related concepts have always been valued in its territory. People used water only for consumption and irrigation. The main watercourses in the region were the Amu Darya, Zarafshan rivers, and the ditches and canals that branched off from them. Throughout history, people have felt the need for new place names due to the development of new lands and the increase in the number of settlements and have established them. Many newly emerging geographical objects have been given names related to water. Such names are called hydrotoponyms in the science of toponymy. In this data, we will analyze the hydrotoponyms of the Bukhara region, dividing them into thematic groups.

The main part. Water and its related nouns are also divided into certain lexical and semantic groups. In the region, there are 25 streams, 8 springs, 3 rivers, 15 canals, 46 collectors, 12 lakes, 16 wells, 11 reservoirs, 5 water outlets, and 4 ponds, making a total of 145 hydronyms.

The main hydronyms of the region are the Amu Darya and Zarafshan rivers. From the distant past until the 1970s, the Zarafshan River supplied the region with water. After that, the Amu-Bukhara canal system became the main one for the region's water supply.

In the past, the Zarafshan River passed through the territory of the present-day Gijduvan, Vobkent, Romitan, Zhondor, Karakul and Alat districts of the region and flowed into the Amu Darya. Therefore, this hydronym has a special place in the life of the region.

Zarafshan is mentioned in historical sources under such names as Politimet, Namiq, Rudi Mosaf, Haram Kom, Rudizharg, Somjan, Wadiy us-sugd, Nahr ul-Bukhara, Daryoyi Kohak. Since the 18th century, it has been called Zarafshan [3, 66; 4; 5].

E.Murzayev, speaking about the folk etymology of Zarafshon, defined it as zar – gold, afshon – scatterer – gold scatterer [7, 246].

Abu Bakr Muhammad Narshahi in his work "History of Bukhara" talked about the city of Baykand (now the ruins of Poykent), and says that *Haromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi; bularni "Borgini farox" – keng havz deydilar va Qaroko'l deb ataydilar* (Author's translation: Haromkom water comes to Baykand. Baykand is surrounded by reed beds and large water rings; they are called *"Borgini farox"* – a wide basin and are called Karakul). In our opinion, the Haromkom mentioned by Narshahi should be the Zarafshon River. Because the river passes through the Zhondor district and passes through the part of the Karakul district where the ruins of Poykent are now located.

Abu Tohirkhodja Samarkandi said, *"Zarafshon daryosikim, uni Ko'hak daryosi deb yuritadilar, boshlab kunchiqar tog'laridan chiqib, unga Iskandar bulog'i – Iskandar ko'lining suvi va Maschoh tog'laridan chiqadigan buloqlar qo'shiladi. Boshqa suvlar va buloqlar bilan birikib, daryo bo'lib Buxoro va Qorako'lgacha yetib boradi.* (Author's translation: "The Zarafshan River, which is called the Kohak River, originates from the Kunchikar Mountains, and is joined by the Iskandar Spring – the water of Lake Iskandar and springs flowing from the Maschoh Mountains. It merges with other waters and springs, becoming a river and reaching Bukhara and Karakul") [1, 25].

The Amu Darya River also has a special place in the hydronymy of the Bukhara region. The current water supply of the region is directly related to the Amu Darya River.

Notes on the Amu Darya River are found in ancient Greek, Chinese and Turkic written monuments. The first written information is recorded in Greek sources under the name Oxus (Oxos). Oxus was formed based on the Greek pronunciation of the local word "okuz" – river.

Y. Gulyamov noted in his work that Okuz is the local Sak-Massaget name of the Amu Darya, which was preserved until the very end of the Middle Ages [9, 37].

V.V. Bartold's book "To the History of Irrigation of Turkestan" discusses another name for the Amu Darya, Jaykhun, and shows that it arose on the basis of the Arabic form of the name Gihon in the Torah [2, 71].

The name of the river is associated with the former name of the present city of Chorjoi, Amuya.

This idea was also supported by H. Hasanov, who named some parts of the river as the Jaryab, Balkh, Termez, Kolif, Urgench, and Khorezm rivers. In particular, in its middle reaches, it was called the Omui River near the city of Omul, Omulya (from the 15th century, Charjoi), and was shortened to Omul (the original meaning of this word is not clear, perhaps it refers to the people named Amurd) [3, 13; 14, 46].

So, the name Amu Darya was formed based on the toponym Amuya.

There are 25 named streams in the region. Streams are considered the main water supply network after rivers in the regions.

In sources the word "ariq" is interpreted differently. For example, V.V. Radlov in his dictionary interpreted it as a channel dug to bring water. In the dictionary of E.V.Sevortyan, the root of the word "ariq", arig is *ar*, which means stream, argi – a tributary of a river, arkyn – a river basin, river bed, arin – water, arna – channel, etc. It is shown that it has meanings related to hydronymic units [8, 269; 9, 188].

S.Qarayev interpreted "ariq" (ar – the root of the verb to flow in ancient Iranian languages, that is, "water") as a waterway. Currently, the word "ariq" means: 1) an artificially created waterway, a stream and the water in it; 2) a special waterway dug in a cultivated area for planting and irrigation; a furrow [11, 61].

The names of the streams in the region can be divided into the following semantic groups:

– names related to toponyms: *Romitanariq, Pirmastariq, Eski Shofirkon arig'i, Zirabodariq, Saribozorariq, Tayqirariq, Vahmariq, Mug'iyon arig'i*;

– names related to ethnonyms: *Uygurariq, Ilonliariq*;

– names involving a hydronymic unit: *Soyinkul, Khujaariq, Yomonjar, Kaynarud.*

There are 8 names in the hydronymic system of the region that represent springs. These are Chashma (Bukhara d.), Batyrkhan buloq (Gijduvan d.), Boshogitma (Gijduvan d.), Qamishbulok (Gijduvan d.), Qaryogdi (Gijduvan d.), Pirali (Gijduvan d.), Toskey (Peshku d.).

The names of the springs arose on the basis of anthroponyms (Batyrkhan buloq, Koryogdi), toponyms (Ogitma, Pirali), and units expressing the geographical identity of the area (Qamishbuloq).

In regional hydronymy, there are 46 collectors. A collector (in land reclamation) is an open channel or drainage pipe that receives water from the water-collecting part of the drainage network and discharges it from the land being reclaimed [12-4, 658].

The "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" interprets six meanings of the word collector. The dictionary defines it as a drainage pipe or open channel that serves to collect (sewage) water coming from the water collection section of a drainage network and drain it away from the area being drained; the interpretation as a large ditch that collects sewage water corresponds to the essence of the word collector as a hydronymic unit [13, 398].

The collector system is generally typical for the Bukhara region, which is associated with the land reclamation properties of the land. Due to the relatively high level of groundwater, the collector system is widely used in the region. The names of collectors in the region can be grouped as follows:

– names associated with personal names: Abdullakhan (Peshku d.), Sakovich collector (Bukhara d.), Amir Temur collector (Bukhara d.), Okhunbobev collector (Romitan d.), Bahouddin (Kogon d.).

The Abdullakhan collector was historically called the "Abdullakhan zakashi". This hydrosystem was built by the Bukhara Khan Abdullakhan II, who lived in 1534-1598. The "Sakovich zakashi" is named after the person who built this hydrosystem. However, it is worth noting that it is inappropriate to use the names of the great mystic Bahouddin Nakshband or the great commander Amir Temur in relation to the collector – zakashi;

– names related to toponyms: Arabkhona zahkashi, Navmetan zahkashi, Muchavuz, Sufikorgar (Bukhara d.), Vabkent, Khayrobod (Vabkent d.), Torob, Khumdonak (Zhondor d.), Korak (Kogon), Alat (Alat d.), Zandani, Pirmast, Naqib (Peshku d.), Piyozkor, Saroydeycha (Romitan d.), Karakul zahkashi (Bukhara d., Karakul d.). These names were applied to hydroelectric facilities built through or near settlements;

– names associated with a specific sign: Kalta zahkash, Chaqmoq zahkash (Bukhara district), Central Bukhara (Vabkent district), Katta zovur (Kogon district), Shurkashon, Central Alat (Alat district), Network collector (Romitan district), Main drainage collector (Karavulbazar district), Main Bukhara collector, Karakul main collector (Karakul district);

– names associated with the location: Western Torob (Zhondor district), Southern collector (Kogon district), Southern connecting collector, Western Karakul (Alat district), Northern (Peshku district), Northern Bukhara (Romitan district).

The hydronymic system of the region has identified 12 lakes. A lake is a natural body of water surrounded by water, consisting of a deep, closed area, but sometimes it is also created artificially [13, 453]. The naming of lakes can be grouped as follows:

– named based on toponyms: Khojasayot Lake (Alat district);

– named based on hydronyms: Dengizkul (Alat district), Oyakogitma Lake (Gijduvan district), Zarafshon Lake (Zhondor district);

– named based on phytonyms: Zhiydakoul (Alat district);

– named based on oronyms: Zamonbabo Lake (Karakul district), Karakir Lake (Peshku district);

– named after a sign: Karongikol (Alat region), Shurkul (Karakul region), Madankul (Karakul region), Shurkok Lake (Karakul region).

The oldest lake name in the region is Dengizkul. In the Middle Ages, this lake in the Alat district was called "Borgini farokh", that is, "Big Lake". In written sources of the 10th century, Dengizkul was called "Karakul", "Bukhairai Somjan" ("Lake of Somjan"). On the map of Central Asia drawn by the Arab geographer Ibn Havkal, it is shown as "Bahr ul-Bukhara" ("Sea of Bukhara") [12-3, 257].

Muhammad Narshahi wrote about this lake that "it is twenty farsakhs (140-160 km) wide, and the excess water of the Bukhara River is collected in this lake, there are many aquatic animals in it, and in all of Khorasan there are no birds and fish caught in such quantities as here" [1, 25].

Canals in the hydrosystem are also artificial water structures. A canal (lat. canalis – pipe, channel; water path) is a specially dug waterway to supply water to cultivated areas and collect and drain excess water [13, 313].

To solve the problem of water supply in the region, a system of 15 named canals has been established. These names are grouped as follows:

– toponymic: Kamot Canal (Vobkent district), Jilvan Canal (Peshku district), Sayot Canal (Karakul district), Mingchinor Canal (Shafirkon district);

– anthroponymic: Karyakin Canal (Bukhara district), Amu-Bukhara Canal named after Sharof Rashidov (Vabkent district), Okhunberdi Canal (Kogon district);

– hydronymic: Shohrud (Bukhara district), Moxon Canal, Kuyimozor Canal (Zhondor district), Shurkul Return Canal (Gijduvan district), Karovulbazar Main Canal (Karovulbazar district).

Conclusion. As noted, the Bukhara region is located in the steppe and steppe zone. The main aspects of its lifestyle are directly related to water sources. Therefore, many names related to water – hydrotoponyms – are found in the districts of the region. The main part of the studied material is a ditch, canal, collector, lake, well, river, etc. Most of them are formed from the name of the place, the name of the person who created this source, or the name of the ethnic group of the population of that area. They should be valued as names with a long history and preserved as national treasures.

REFERENCES:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Наршахий Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966. – 64 б.
2. Бартольд В.В. К истории орашения Туркестана. – СПб, 1914. – 372.
3. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. – 176 б.
4. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work/ Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92-95.
5. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym/ Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May, 2022.
6. Kilichev B.E., Shabonova G. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. – №18. (2023).
7. Мурзаев М. Средная Азия. –М., 1957. – 378 с.
8. Радлов В.В. Опытъ словаря тюркскихъ наречий. Том 1. Гласные. – СПб, 1893. – 510 б.
9. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласных. –М.: Наука, 1974. – 362 б.
10. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т., 1959. – 116 б.
11. Qorayev S. Toponimika. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилдли. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
14. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. –Т.: Фан, 1965. – 346 б.
15. Бартольд В.В. К истории орашения Туркестана. – СПб, 1914. – 280 б.

Toirova Guli Ibragimovna,
BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)
(O‘zbekiston)
E-mail: tugulijon@mail.ru
Hayitova Niginabonu Hamroyevna,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi
(O‘zbekiston)
E-mail: hayitovaniginabonu@gmail.com

MEDIADISKURSDA XAYRLASHUVNING SEMIOTIK TAHLILI

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda nutqiy janr masalalari keng tahlil etilmoqda. Natijada salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik kabi utqiy muloqot ko‘rinishlariga ham urg‘u berish zarurati paydo bo‘ldi. Nutqiy muloqotni yakunlash – xayrlashuv nutqiy akti – nutq odobining alohida kommunikativ darajasidir. Murakkab, ammo eng zarur va samarali elementlardan biri bo‘lgan xayrlashuv sof pragmatik xarakterdaligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbek suhbat odobi bo‘yicha xayrlashuv akti diskurs ishtirokchilarining muloqot mazmunidan kelib chiqib, bir-birlariga ezgu tilaklarini tilash, qayta muloqotga tilakdoshliklarini ifodalashlaridan iborat. Mazkur maqolada mediadiskursda xayrlashish hodisasi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, radio va televideniyadagi xayrlashish usullari o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Mediadiskursdagi xayrlashishning kommunikativ funksiyalari hamda uning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mediadiskurs, xayrlashish, kommunikativ akt, radio, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация. В современных лингвистических исследованиях широко анализируются вопросы речевого жанра. В результате возникла необходимость подчеркнуть формальные формы общения, такие как приветствия, прощания и благодарности. Завершение речевого общения – речевой акт прощания – представляет собой отдельный коммуникативный уровень речевого этикета. Сложный, но один из самых необходимых и эффективных элементов прощания, он примечателен своей чисто прагматической природой. Согласно узбекскому разговорному этикету, акт прощания заключается в том, что участники беседы желают друг другу всего наилучшего, исходя из содержания разговора, и выражают желание продолжить общение. В статье анализируется феномен прощания в медиадискурсе. Будут изучены способы прощания в социальных сетях, на радио и телевидении, а также подчеркнуты их сходства и различия. Выделены коммуникативные функции прощания в медиадискурсе и его социокультурные особенности.

Ключевые слова: медиадискурс, прощание, коммуникативный акт, радио, телевидение, социальные сети.

Abstract. In modern linguistic research the issues of speech genre are widely analyzed. As a result, there is a need to emphasize such forms of communication as greeting, farewell, and gratitude. The conclusion of speech communication - the speech act of farewell - is a separate communicative level of speech etiquette. Farewell, which is a complex but one of the most necessary and effective elements, is significant for its purely pragmatic nature. According to Uzbek conversational etiquette, the act of farewell consists of the participants of the discourse expressing their best wishes to each other, based on the content of the communication, and their desire for further communication. This article analyzes the phenomenon of farewell in media discourse. The methods of farewell in social networks, radio and television are studied, and their similarities and differences are shown. The communicative functions of farewell in media discourse and its socio-cultural characteristics are highlighted.

Key words: media discourse, farewell, communicative act, radio, television, social networks.

Kirish. Mediadiskurs – bu ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayoni bo‘lib, unda turli lingvistik va ijtimoiy omillar ta’sir qiladi. Har qanday muloqotda xayrlashish

muhim kommunikativ aktlardan biri sanaladi, chunki u suhbatni yakunlashning madaniy va lingvistik qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda xayrlashish usullari ommaviy kommunikatsiya vositalarining turiga qarab farqlanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va norasmiy xayrlashish shakllari keng tarqalgan bo‘lsa, radio va televideniyada bu jarayon rasmiy va ssenariy asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada turli platformalarda xayrlashish usullari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Mediadiskurs – bu ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayoni bo‘lib, unda lingvistik, ijtimoiy va madaniy omillar bir-biriga ta’sir qiladi. U matn, tovush va tasvirlar orqali axborot yetkazishni o‘z ichiga oladi. Mediadiskursda til vositalari orqali nafaqat ma’lumot uzatiladi, balki muayyan maqsad va vazifalar ham amalga oshiriladi, masalan, auditoriyani ma’lum bir yo‘nalishda o‘ylashga undash yoki ularning hissiyotlariga ta’sir qilish.

Natijalar va muhokama. Mediadiskurs turlariga yangiliklar, ko‘ngilochar dasturlar, reklama, tahliliy maqolalar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va boshqa ommaviy axborot vositalaridagi muloqot shakllari kiradi. Har bir tur o‘ziga xos kommunikativ funksiyalarga ega va maxsus lingvistik uslublar bilan ajralib turadi. Masalan, yangiliklarda rasmiy va neytral uslub ishlatilsa, ko‘ngilochar dasturlarda norasmiy va samimiy ohangdan foydalaniladi. Mediadiskurs auditoriya bilan o‘zaro aloqani tashkil etadi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, u axborotning qabul qilinishi va tushunilishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki turli kontekstlar va madaniy omillar nutq mazmunini o‘zgartirishi yoki uni kengroq talqin qilishga imkon beradi.

Muloqotni yakunlash, ya’ni xayrlashish mazmunan urfiy-odatiy xarakterda bo‘ladi, uning asosiy vazifasi muloqotni, diskursni yakunlashdan iborat. O‘zbek milliy suhbat odobiga ko‘ra, muloqotni yakunlash jarayoni suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiy munosabatni aks ettirib, ularning muloqotdan mamnunligi haqida ma’lumot berish bilan birga, o‘zaro ezgu tilaklarini bildirish va kelgusidagi aloqalarga hozirliklarini namoyon qiladi. Bunday nutqiy tuzilmalar odatda “Xayr”, “Sog‘-omon bo‘ling!”, “Uchrashuvdan mamnun bo‘ldim”, “Ollohga omonatsiz!”, “Kelib turing!” yoki “Uzoqlashib ketmang!” kabi birliklarda aks etadi.

Muloqotni yakunlash tashabbusi odatda mehmon, yoshi kichik yoki ijtimoiy maqomi pastroq shaxs tomonidan ilgari surilishi mumkin. Bunday holatda tashabbuskor, albatta, muloqotni yakunlash uchun uzr aytib, mezbonni band qilgani yoki uning vaqtini olgani uchun afsus bildirishi lozim. Shuningdek, suhbatdan mamnunligini ta’kidlab, mezbonga nisbatan hurmat va minnatdorlikni namoyon etadi. Mediadiskursda esa xayrlashish bir qancha pragmalingvistik xususiyatlarga ega. Quyida ushbu xususiyatlarni tahlil etamiz.

1. Ijtimoiy tarmoqlarda xayrlashish:

Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, X(Twitter) va boshqalar) odamlarning muloqot qilish uslubiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bu o‘rinda ijtimoiy tarmoqlarning til va uslub xususiyatlarini o‘rganishda multimodal diskurs tahliliga asoslanadi [1]. Ushbu platformalarda xayrlashish quyidagi shakllarda kuzatiladi:

Yozma xabarlar: “*Xayr”, “Ko‘rishguncha”, “Salomat bo‘ling”, “Bay*” kabi qisqa va norasmiy jumlalar.

Emoji va stikerlar: 😊👋🙋.

Video yoki ovozli xabarlar: Ko‘pincha oddiy so‘zlar bilan yakunlanadi, masalan, “*Hammasi uchun rahmat, keyin gaplashamiz!”.*

Post va izohlarda xayrlashish: “*Do‘stlar, buguncha shu!”, “Keyingi postda ko‘rishguncha!”.*

Ijtimoiy tarmoqlardagi xayrlashish shaxsiy uslub va kontekstga bog‘liq bo‘lib, rasmiy yoki norasmiy shaklda bo‘lishi mumkin.

2. Radiodiskursda xayrlashish:

Radioeshittirishlar odatda jonli efirda yoki yozib olingan dasturlar shaklida olib boriladi [3]. Radioda xayrlashish quyidagicha kechadi:

Formal uslublar: “*E’tiboringiz uchun rahmat, keyingi eshittirishda ko‘rishguncha*!”, “*Siz bilan men – (DJ ismi), yaxshi kun tilayman!*”(Buxoro radiosi eshittirishlaridan).

Norasmiy uslublar (ko‘proq ko‘ngilochar dasturlarda*): “Bugun ham zo‘r efir bo‘ldi, keyingi safargacha!”.*

Obunachilar yoki tinglovchilar bilan xayrlashish: *“Tinglaganingiz uchun minnatdorchilik bildiraman, salomat bo‘ling!”.*

Radioda xayrlashish eshittirish janriga bog‘liq. Yangilik dasturlarida rasmiy va standart xayrlashish ishlatilsa, musiqiy yoki interaktiv dasturlarda erkinroq usullar qo‘llaniladi.

3. Televideniyeda xayrlashish:

Televideniye vizual va audio vositalarni o‘zida birlashtirganligi sababli, xayrlashish jarayoni tinglovchi va tomoshabinga bir xil darajada ta’sir qiladi [4]. Telediskursda xayrlashish quyidagi shakllarda bo‘ladi:

Yangilik dasturlarida: “*Ko‘rishguncha, xayr!”, “Siz bilan (ism) edik, keyingi sonlarda uchrashguncha!*”(“Zamon” informatsion dasturidan. 2025-yil 8-fevral sonidan).

Ko‘ngilochar shoular: *“Ajoyib vaqt o‘tkazdik, siz bilan tez orada ko‘rishamiz*!”(“Assalom O‘zbekiston” telekōrsatuvidan. 225-yil 20-yanvar sonidan).

Intervyu yoki talk-shoularda: *“Bugungi mehmonimizga rahmat, keyingi dasturlarimizni kuzatishda davom eting!”*(“Ertalabdan salom” tongi dasturidan. 2025-yil 5-fevral sonidan).

Juda rasmiy chiqishlar: Prezident yoki hukumat vakillari chiqishlarida xayrlashish an’anaviy va rasmiy bo‘ladi, masalan, *“Diqqat bilan tinglaganingiz uchun rahmat, sog‘-omon bo‘ling!*”(“Axborot 24” dasturidan. 2021-yil 3-mart soni.).

Mediadiskursda xayrlashishning o‘xshash jihatlari:

1. Muloqot yakuniy qismi sifatida muhim rol o‘ynashi – Ijtimoiy tarmoqlar, radio va televideniyada xayrlashish suhbat yoki eshittirishning tugashini bildiradi [5].

2. Auditoriya bilan bog‘lanish vositasi – Har qanday media turi auditoriya bilan aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi. Xayrlashish esa ushbu aloqani madaniy va etik me’yorlarga muvofiq tarzda yakunlash imkonini beradi.

3. Muayyan shakllarga ega bo‘lishi – Har bir platformada xayrlashish ma’lum til birliklari va ifoda shakllari orqali amalga oshiriladi.

4. Emotsional ohangga ega bo‘lishi – xayrlashish auditoriyaga ta’sir etuvchi ohang bilan ifodalanadi. Masalan, radio va televideniyada energiyali yoki samimiy ohang ishlatilishi mumkin, ijtimoiy tarmoqlarda esa emoji va norasmiy uslublar qo‘llanadi.

Ularning farqli jihatlari:

1. Rasmiylik darajasi – Ijtimoiy tarmoqlarda xayrlashish odatda norasmiy shaklda bo‘lsa, radio va televideniyada u rasmiyroq tus oladi. Yangilik dasturlarida rasmiy xayrlashish, ko‘ngilochar dasturlarda esa erkinroq uslublar ishlatiladi [6].

2. Xayrlashish vositasi – Ijtimoiy tarmoqlarda matn, emoji yoki ovozli xabarlar orqali xayrlashish mumkin. Radioda faqat ovoz orqali xayrlashish amalga oshiriladi, televideniyada esa ovoz bilan birga vizual ifodalar (mimikalar, qo‘l silkitish va h.k.) ham qo‘llaniladi.

3. Jonli ta’sir darajasi – Radioda va televideniyada xayrlashish real vaqtda yoki oldindan yozib olingan holda amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa xayrlashish real vaqtda yoki yozma shaklda kechishi mumkin.

4. Auditoriya turi va ta’siri – Ijtimoiy tarmoqlardagi xayrlashish shaxsiy va interaktiv bo‘lishi mumkin, chunki foydalanuvchilar fikr bildirish va javob qaytarish imkoniyatiga ega. Radioda va televideniyada esa xayrlashish bir tomonlama bo‘lib, asosan tinglovchi yoki tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi.

Umuman olganda, mediadiskursda xayrlashish vositalarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, har bir platformada o‘ziga xos shaklga ega. Shunga qaramay, uning asosiy kommunikativ funksiyasi har doim bir xil – muloqotni odob doirasida yakunlash va auditoriya bilan aloqani muayyan ohangda tugatish. Ijtimoiy tarmoqlarda xayrlashishda turli emojilar qo‘llaniladi va ularning har biri ma’lum bir ma’noga ega. Quyida eng ko‘p ishlatiladigan xayrlashish emojilari va ularning ma’nolari keltirilgan:

1. 👋 (Qo‘l silkitish) – Eng keng tarqalgan xayrlashish emojisi bo‘lib, “Xayr”, “Ko‘rishguncha”, “Salom va xayr” ma’nolarini anglatadi.

2. 😊 (Tabassum qilgan yuz) – Iliq va samimiy xayrlashish uchun ishlatiladi. “Salomat bo‘ling”, “Yaxshi kunlar” kabi ma’noni bildirishi mumkin.

3. 🙋, (Qo‘l ko‘targan odam) – Rasmiyroq yoki tantanali xayrlashishda ishlatiladi, masalan, “Buguncha xayr, do‘stlar!” kontekstida.

4. 😁 (Bag‘riga bosayotgan yuz) – Iliq va samimiy xayrlashuv ifodasi. Do‘stona va yaqin insonlar orasida ishlatiladi.

5. ✌ (V belgisi) – “Ko‘rishguncha” yoki “Omad” ma’nosida ishlatiladi, ayniqsa yoshlar orasida mashhur.

6. 👊 (Musht bilan zarb) – Do‘stona xayrlashish, ya’ni “Salomat bo‘ling”, “Keyinroq ko‘rishamiz” ma’nolarida.

7. 😢 (Yig‘layotgan yuz) – Hissiy jihatdan og‘ir xayrlashishda ishlatiladi, masalan, uzoq vaqt ko‘rishmaslik yoki xayrlashuvga afsus bildirish holatida.

8. 🙏 (Duo qilayotgan qo‘llar) – “Rahmat”, “Salomat bo‘ling”, “Omad” kabi minnatdorlik va ezgu tilaklarni bildiruvchi emoji.

9. 💝 (Yurak) – Iliq va samimiy xayrlashish uchun ishlatiladi, ayniqsa yaqin insonlar o‘rtasida.

10. 🚀 (Raketa) – Dinamik va motivatsion xayrlashish uchun qo‘llanadi, masalan, “Katta muvaffaqiyatlar sari, xayr!” kabi kontekstda.

Emoji tanlovi kontekst va suhbatdoshlarga bog‘liq bo‘lib, ularning ohangi xayrlashish uslubini belgilaydi. Norasmiy muloqotda emoji ko‘proq ishlatilsa, rasmiy yoki jiddiy suhbatlarda emojilardan kamroq foydalaniladi. Chunki bunday suhbatlarda yozma nutqning an’anaviy me’yorlariga ko‘proq rioya qilinadi. Biroq, agar rasmiy xayrlashish paytida emoji ishlatilsa, quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. 🙏 (Duo qilayotgan qo‘llar) – Minnatdorchilik bildirish va hurmat ifodalash uchun ishlatiladi, masalan: "E’tiboringiz uchun rahmat! 🙏"

2. ✅ (Yashil tasdiq belgisi) – Suhbat yoki uchrashuv muvaffaqiyatli tugaganini ko‘rsatish uchun.

3. 📌 (Qizil qistirg‘ich) – Muhim xulosalar yoki eslatmalar bilan xayrlashish kontekstida ishlatilishi mumkin.

4. 📞 (Telefon) – Agar kelajakda muloqotni davom ettirish kerak bo‘lsa:
"Keyingi suhbatda uchrashguncha! 📞"

5. 📆 (Kalendar) – Kelajakdagi uchrashuv yoki rejalashtirilgan muloqotni bildiradi: "Yangi loyihada ko‘rishguncha! 📆"

6. 🤝 (Qo‘l berish) – Ishbilarmonlik muloqotida xayrlashish uchun mos emoji, masalan: "Siz bilan ishlash yoqimli bo‘ldi! 🤝"

7. 💼 (Portfel) – Ish yoki biznes bilan bog‘liq rasmiy muloqotda ishlatilishi mumkin.

8. ✉ (Xat yoki e-mail belgisi) – Keyingi muloqot elektron pochta orqali davom etishini bildirishi mumkin.

Rasmiy suhbatda emoji ishlatilsa, ular kam va ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak. Haddan tashqari norasmiy yoki hissiy belgilar (masalan, 😂, ♡, 😢) rasmiylik darajasiga mos kelmaydi.

Mediadiskurs – bu media orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli bo‘lib, uning lingvistik va pragmatik xususiyatlari bor. Xayrlashish har qanday kommunikatsiya jarayonining muhim qismi bo‘lib, media kontekstida auditoriya bilan bog‘lanishni mantiqiy yakunlashga xizmat qiladi[9]. Mediadiskursdagi xayrlashish axborotni yetkazish, ta’sir ko‘rsatish va auditoriya bilan aloqani saqlash kabi funksiyalarga ega.

Mediadiskursda xayrlashish nafaqat lingvistik birliklar, balki nutq aktlarining pragmatik jihatlari orqali ham shakllanadi. Masalan:

Direktiv nutq aktlari – “*Biz bilan qoling!”, “Yangi dasturlarimizni kuzatib boring*!” kabi auditoriyani harakatga undaydigan xayrlashish shakllari.

Ekspressiv nutq aktlari – “*Sizga rahmat!”, “Hurmat bilan, (ishtirokchi ismi)*” kabi minnatdorchilik bildiruvchi usullar.

Fatik nutq aktlari – *“Sog‘ bo‘ling!”, “Keyingi ko‘rsatuvlarda uchrashguncha*!” kabi suhbat davomiyligini ta’minlovchi iboralar.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan xayrlashish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda: Xayrlashish dinamik, qisqa va vizual ifodalarga boy bo‘lib, emoji va multimedia vositalari bilan boyitiladi.

Radioda: Ovozaning intonatsiyasi va nutq ohangi muhim rol o‘ynaydi. Jonli efirda xayrlashish tinglovchiga iliq va samimiy ohangda taqdim etiladi.

Televideniyeda: Vizual va audio vositalar birgalikda qo‘llanadi. Jurnalist yoki boshlovchi tanasi orqali ham (masalan, qo‘l silkitish, tabassum) xayrlashish amalga oshiriladi.

Xayrlashish shakllari har bir madaniyatga qarab farqlanadi. Masalan, G‘arb mamlakatlarida “See you soon” yoki “Take care” kabi iboralar keng tarqalgan bo‘lsa, Sharqiy madaniyatlarda “Sizga sog‘liq va baxt tilayman” kabi duolar shaklida xayrlashish keng qo‘llanadi. O‘zbek ommaviy axborot vositalarida esa odatda hurmat ifodalovchi xayrlashish shakllari ishlatiladi, masalan: *“Siz bilan men – (DJ yoki boshlovchi ismi), keyingi uchrashuvlarda ko‘rishguncha!”, “E’tiboringiz uchun rahmat, sog‘-omon bo‘ling!”.*

Xayrlashish auditoriya bilan bog‘liqlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi. Iliq va samimiy xayrlashish tomoshabin yoki tinglovchida ijobiy taassurot qoldiradi. Ayniqsa, radio va televideniyada boshlovchining ovoz ohangi, mimikalari va tanasining harakati muhim ahamiyatga ega [7].

Kelajakda media sohasidagi texnologik o‘zgarishlar bilan xayrlashish shakllari ham rivojlanib boradi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan virtual boshlovchilar va interaktiv media formatlari paydo bo‘lishi bilan xayrlashish yanada shaxsiylashtirilgan va individual xususiyat kasb etishi mumkin. Masalan, sun’iy intellekt foydalanuvchining ismini aytib, maxsus xayrlashish usulini yaratishi mumkin.

Xulosa. Xayrlashuv aloqalarni tugatishi bilan bir qatorda, kelgusidagi uchrashuvlar uchun imkoniyatlarni saqlab qolishga yordam beradi. Ushbu nutqiy akt jarayonida so‘zlovchi tomonidan bildirilgan tashabbus tinglovchidan mos javobni talab qiladi, mazkur holat uning muloqot doirasida majburiylik jihatini aks ettiradi. Barcha davlatlar madaniyatida xayrlashish muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Insonlar muloqot oxirida bir-birlariga xushmuomala bo‘lish uchun xayrlashish iboralaridan foydalanadi. Jumladan, o‘zbek madaniyatida ham rasmiy xayrlashish vaqtida qo‘l berish keng tarqalgan. Bu harakat hurmat va samarali muloqot tugaganini bildirish uchun qo‘llaniladi. Muloqot rasmiy yoki norasmiy ekanligiga qarab xayrlashish iboralari tanlanadi. Intonatsiya xayrlashishda muhim o‘rin tutadi, tabassum bilan xayrlashish do‘stona munosabatni ifodalaydi, xayrlashuv iboralari insonning kayfiyati yoki muloqot mazmuniga qarab tanlanadi. Mediadiskursda ham xayrlashish muhim kommunikativ akt hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda xayrlashish ko‘proq norasmiy va interaktiv bo‘lsa, radio va televideniyada rasmiyroq tus oladi. Har bir media turida xayrlashish usullari uning texnologik va madaniy xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev O. Nutq madaniyati va ommaviy kommunikatsiya. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018. – 210 b.

2. Абдукодирова Ш., Тоирова Г. Ramziy-majoziy ma’no asosida axborot yetkazish //in Library, 2024. – №1. – С. 138-141.

3. Bell A. The Language of News Media, 1991. – 304 p.

4. Boltayevich E. B. et al. Formation of LMS Class Diagram //International Conference on Artificial Intelligence and Smart Energy. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – С. 493-509.

5. Boltayevich E. B. et al. Formation of LMS Class Diagram //International Conference on Artificial Intelligence and Smart Energy. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – С. 493-509.

6. Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995 . – 214 p.

7. Hamroyeva N. Xayrlashuv nutqiy aktining kognopragmativ yondashuv asosida tahlili // Til va adabiyot.uz., 2024. –№14. – B. 22.

8. Ibragimovna T. G., Rakhmatovna F. Z. Antonyms in agricultural terms //Miasto Przyszłości, 2023.– С. 284-289.

9. Jo‘rayev M. Mediamuloqot lingvistikasi. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 192 b.

10. Kress G., van Leeuwen T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. – London: Arnold Publishers, 2001. – 338 b.
11. Mengliyev B. The necessity of Pareto principle in environmental studies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – P. 587-598.
12. Qosimov N. Lingvistik pragmatika asoslari. – T.: Fan, 2017. – 180 b.
13. Ravshanovna D. R., Ibragimovna T. G. Pirimqul Qodirovning “Humoyun va Akbar” tarixiy romanida qo‘llangan noverbal muloqotning kinestik vositalari //Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal, 2024. – T. 1. – №1.
13. Wodak R., Meyer M. Methods of Critical Discourse Analysis, 2016. – P. 198. https://www.researchgate.net/publication/ 261773565
14. https://notiq.uz/archives/5077

Bobokalonov Polatshoh Ramazonovich,
Doctoral student at Asia International
University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
(Uzbekistan)

INTEGRATION OF THE LANGUAGE PERSON INTO A CHARISMATIC PERSON

Аннотация. Jahon tilshunosligining keyingi rivojlanishida muloqot, nutq, strukturaviy tadqiqotlar va neyropsixolingvistikaning qiyosiy tipologik, semiotik, personnogik, lingvopragmatik, lingvomadaniy va lingvopsixologik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Til shaxsi va nutq madaniyati muammolari bilan azaldan faylasuflar, tilshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, hatto shifokorlar ham qiziqib kelgan. Mazkur maqolada neyropsixolingvistika surat va maxrajidan o‘rin olgan xarizmatik insonning xususiyatlari, uning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi yuzasidan ilmiy-nazariy ma’lumotlar jamlangan.

Kalit so‘zlar: semiotik, personnogik, lingvopragmatik, lingvokulturaviy, so‘z gaplar, kommunikativ nutq, lingvistik shaxs, xarizmatik shaxs, lingvopragmatizm, lingvodidaktik, lingvokulturologiya, lingvokognitiv, kommunikativ nutq, neyropsixolingvistik.

Аннотация. В дальнейшем развитии мирового языкознания актуальное значение приобретает изучение сравнительно-типологических, семиотических, персоногических, лингвопрагматических, лингвокультурных и лингвопсихологических особенностей общения, речи, структурные исследования и нейропсихолингвистика. Проблемы языковой личности и культуры речи с древнейших времен интересовали философов, лингвистов, социологов, психологов и даже врачей. В данной статье собраны научно-теоретические сведения о характеристиках харизматического человека, его месте и положении в обществе, взятые из образа и знаменателя нейропсихолингвистики.

Ключевые слова: семиотика, персоногика, лингвопрагматика, лингвокультурология, высказывания, коммуникативная речь, языковая личность, харизматическая личность, лингвопрагматизм, лингводидактика, лингвокогнитивная, коммуникативная речь, нейропсихолингвистика.

Abstract. In the further development of world linguistics, the study of comparative typological, semiotic, personnogical, linguopragmatic, linguocultural and linguopsychological characteristics of communication, speech, structural studies and neuropsycholinguistics are of urgent importance. The problems of linguistic personality and speech culture have long been of interest by philosophers, linguists, sociologists, psychologists, and even doctors. This article summarizes scientific and theoretical data on the characteristics of a charismatic person, his place and status in society, which are included in the definition and denominator of neuropsycholinguistics.

Key words: semiotic, personnogic, lingvopragmatic, lingvocultural, word-sentences, communicative speech, linguistic person, charismatic person, linguopragmatism, linguodidactic, linguoculturology, linguocognitive, communicative discourse, neuropsycholinguistic.

Introduction. The research work is the differentiation of semantic-functional sentences and determination of communicative neuropsycholinguistic features. The tasks of the research work: studying the “theory of knowing the world” which is the responsibility of linguistics from the point of view of socio-philosophy, the law of general dialectics, in terms of linguo-communicative, linguo-didactic and neuro-psycho-linguistic commonality; clarification of linguistic personality [LP] ability in communicological, cognitive psychological, semiotic, structural, personological, communicative discourse, neuropsychological relation; summarizing semantic-functionally formed sentences [SFFS] as a segment of a multifaceted speech derivative by studying the general theoretical issues of communicology: synthesizing the social stratification of communicative speech, developing and recommending the means of establishing communication, its appellative presentation formulas; within the framework of the European Union standard, it consists of preparing motivational instructions for transferring the theory of communicative speech into discourse practice.

General concept and the most important problem of the word sentences: to distinguish between semantically and functionally formed word sentences and to identify communicative neuropsycholinguistic features; creation of a system of speech formulas by determining the differentiation of the semantic-functional formation of word-sentences and communicative speech, the ways of a linguistic personality in the center of discursive communication from a neuropsycholinguistic point of view on the integration of a person's charismatic mind [12, 20; 21, 23]; substantiation of the differential development of semiotics, structuring, communicative discourse with Western linguistics and the teachings of Ferdinand de Saussure [16; 18; 19]; from the point of view of the theory of the world, philosophical and social dialectics, linguo-communicative, linguodidactic and neuropsycholinguistic community, communicative, cognitive-psychological state of a linguistic personality, neural structure of the nervous system, complications of cerebral palsy [3; 9; 10]; to direct speech, speech act, speech genre, speech strategy and speech tactics based on communicative communication to communicative etiquette of a charismatic personality, standing in the stamp of a linguistic personality [17; 18; 19]; scientific substantiation of the creation of formal and informal texts of the dynamics of location, illocation, perlocation speech movements used in communication as a segment of a multifaceted speech work of semantically-functionally formed word-sentences [6; 8; 9]; study and generalization of general issues of communication, social stratification of communicative speech, communicative means of communication, recommendation of formulas for its attractiveness.

The main part of the topic. Differentiation of semantically-functionally formed word-sentences in French and Uzbek languages and neuropsycholinguistic, communicative, semantic-pragmatic features. Sources of evidence: scientific and artistic works, theoretical views and methods. This covered the following issues:

Separation of semantically-functionally formed word-sentences and the study of lexico-semantic, structural types of communicative neuropsycholinguistic speech products, their linguodidactic, linguopragmatic, neuropsychological features associated with their expression for enrichment, methodological manuals will be created;

The results of the study will serve as a source for enriching the linguo-psychological and linguo-didactic features of international diplomacy and speech culture, which are part of our national values, educating the younger generation and expanding the communicative speech capabilities of the individual.

Interpretation of the topic. The role of communicative speech is important in integrating a linguistic person into a charismatic person through speech, and we aim to focus on the following issues [1]. In world linguistics, the identification of factors that form communicative communication, the definition of the principles of communicative communication, the creation of a convenient language learning system, as well as models of interpersonal relations, the identification of a complex of linguistic mechanisms that form a linguistic personality, have not lost their significance and relevance for many years. In particular, the differentiation of semantic-functional formalized word-sentences and communicative neuropsycholinguistic features was not subject to separate study according to the underlined parameters.

The syntactic model of Saussure is the “value of cause and effect” of his follower R. Godel, the semiological and syntactic ideas of L. Tesnier, the pragmalinguistic study of discursive problems by H. P. Gray and his followers gave rise to the theory of linguistic typology by Charles Bally. The founders of the school of semiotics M. Yu. Lotman, G. Developed by V. Drach. L. Helmslev, J. Mann, E. Cassirer, K. Geerts, E. Husserl, G. Icks. von Wright, L. Wittgenstein, M. M. Baktin, G. Frege, M. Foucault, K. Levi-Strauss, Yu. Borev, K. Appel, V. Iser and others, studied the dialectics of sign and content. The role of Pierce's methods of deduction, induction and abduction in the formation of semiotics as a science, in contrast to Lotman's dyadic concept, Frege fixed the triad in Sigmund Freud's concept of the unconscious, the parcelling phenomenon in the syntactic structure of the text.

The relevance and necessity of the work is to integrate the study of a language into a charismatic personality, bringing scientific clarity to the semantic-functionally formed word-sentences and their surrounding issues, which always contributes to the establishment of communicative discourse when studying the problem of a linguistic personality in the base of psychology, neurology and communication. Based on these, the hypertriad of our research was created as follows:



On the ground of semantically-functionally formed sentences learned fact:

16) diniy tushunchalar. Alhamdulilloh, huvalboriy, astag‘firulloh, inshoalloh, namoz, pir, xuftan namozi, tasbih, Ollohu akbar, shariat, Subhonolloh, fotiha, nauzanbilloh, tarobih kabi so‘zlar diniy muhitda ishlatilgan.

Ushbu tasniflar asosida shuni ta’kidlash joizki, norasmiy diplomatik leksik birliklar jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir etib, xalq diplomatiyasi, ijtimoiy hayot va madaniy aloqalarning ajralmas qismiga aylangan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan diplomatik leksik birliklarni tadqiq qilish jarayonida yuqoridagi rasmiylik va norasmiylik nuqtai nazaridan tematik tasnifimiz bo‘yicha XIX asrga xos bo‘lgan 138 ta rasmiy va 287 ta norasmiy so‘z va so‘z birikmalari aniqlandi.

Xulosa. Badiiy adabiyotda diplomatik leksikaning aks etishi nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik jihatdan ham qiziqarli tadqiqot sohasidir. Zero, diplomatik tilning badiiy asarlarda qanday ifodalanganini aniqlash, xalqaro munosabatlar madaniyatini tushunishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ushbu mavzu hali ham chuqur tadqiqot va izlanishlarni talab qiluvchi dolzarb yo‘nalishlardandir. Roman asliyatidagi rasmiy va norasmiy muloqotda qo‘llanilgan diplomatik leksik birliklarning tadqiq qilinishi XIX asr oxirida xonlik, beklik doirasidagi diplomatik munosabatlar, rasmiy va norasmiy muloqot etiketi hamda oddiy xalqning o‘zaro norasmiy munosabatida diplomatik elementlarning qay darajada ifodalanganligiga muayyan ma’noda baho berishga asos bo‘la oladi. Izlanishlar doirasida romanda qo‘llanilgan rasmiy va norasmiy diplomatik leksik birliklarning asliyati, qo‘llanilishi jihatidan ma’lum va muayyan ma’noda bugungi kun adabiy tiliga tabdilida fonetik, morfologok va semantik o‘zgarishlarga uchraganligi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Насер Фалих Мохсин Насер. Дипломатическая терминология русского языка и ее семантизация в учебном двуязычном словаре: Автореф. дисс. кан. фил. н. – Воронеж, 2013. – 24 с.

2. Саидов Х.А. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках: диссертация доктора филологических наук. – Душанбе, 2013. – 366 с.

3. Ха Н.У. Дипломатик нутқ лексикаси. Филол.фан.бўйича фалс. док. (PhD) дисс. – Чирчиқ, 2021. – 141 b.

4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – T.: Yangi asr, 2019. – 368 b.

5. Temirova D., Yuldasheva S. Badiiy adabiyotlar targ‘iboti va ularning inson hayotidagi o‘rni. To‘plam. – Farg‘ona, 2021. – B. 192-202.

6. https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asarlarning-inson-ruhiyatiga-ta-siri/viewer.

Bozorov Zayniddin Ashirovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
O‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrasi
dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
(O‘zbekiston)
E-mail: ***bozorov.zayniddin@bsmi.uz***

“SOG‘LIK” TUSHUNCHASI ORQALI IFODALANGAN O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI

Annotatsiya. Qadimgi turkiy qabilalar o‘rtasida maqol va matallar juda mashhur bo‘lgan. Chunki ularda xalqning ming yillik an’analari o‘z tajassumini topgan bo‘ladi. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollar va uning madaniyatimiz tarixida tutgan ahamiyati yoritilgan. Ma’lumki, o‘zbek lingvomadaniyatida sog‘lik va salomatlik tushunchalari yetakchilik qiladi. Xususan, o‘zbek xalq maqollari orasida ham bu kabi namunalarning talaygina ekanligi qator misollar yordamida ochiqlangan. Shuningdek, salomatlik tushunchalari tavsiflanib, uning turlari o‘zbek xalq maqollari asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: sog‘lik, maqol, matal, idioma, frazeologik birliklar, frazeologiya, paremiologiya, lingvistika, til va jamiyat, lingvokulturologiya, salomatlik, Kalyu nazariyasi.

Аннотация. Пословицы и поговорки были очень популярны среди древних тюркских племен. Потому что они олицетворяют тысячелетние традиции народа. В данной статье рассматриваются пословицы, являющиеся образцами узбекского народного устного творчества, и их значение в истории нашей культуры. Известно, что в узбекской лингвокультуре доминируют понятия здоровья и благополучия. В частности, на ряде примеров поясняется, что таких примеров среди узбекских народных пословиц достаточно много. Также описываются понятия здоровья и благополучия обосновываются его типы на основе узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: здоровье, пословица, поговорка, идиома, фразеологизмы, фразеология, паремиология, лингвистика, язык и общество, лингвокультурология, здоровье, теория Калю.

Abstract. Proverbs and sayings were very popular among the ancient Turkic tribes. Because they embodied the thousand-year-old traditions of the people. This article discusses proverbs, which are examples of Uzbek folk oral art, and their significance in the history of our culture. As it is known, the concepts of health and wellness are dominant in Uzbek linguistic culture. In particular, the fact that there are many such examples among Uzbek folk proverbs is explained using a number of examples. Also, the concepts of health are described and its types are substantiated on the basis of Uzbek folk proverbs.

Key words: health, proverb, matal, idiom, phraseological units, phraseology, paremiology, linguistics, language and society, linguoculturology, health, Kalyu theory.

Kirish. Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan janr sanaladi.

“Maqol” arabcha “so‘z” degan ma’noni bildiradi. Uni “otalar so‘zi” ham deydilar. Maqol ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan eskirmay, unutilmay ishlatilib, uzoq yillar davomida ko‘rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so‘zlardir.

Maqollar asrlik tajribalarni avloddan avlodga yetkazuvchi ana shunday bebaho meros hisoblanadi. Tafakkurning bunday durdonalarini xalqimiz asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, sayqal berib turli zamon evrilishlaridan eson-omon olib o‘tgan. Maqollar hanuzga qadar bugungi avlod uchun ibrat, dasturulamal va estetik bahra manbai bo‘lib kelmoqda.

Xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosalarning badiiy ifodasi bo‘lmish maqollar garchi bir-ikki lo‘nda jumlali yo misrali bo‘lsa-da, ularning har biriga butun-butun kitoblarga yetadigan fikr va tuyg‘u jo qilingan.

Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lishi lozim. Kimki maqollarni ko‘p ishlatsa, uning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar. Shuning uchun maqollar badiiy adabiyotda ham, so‘zlashuvda ham ko‘p ishlatiladi. Maqollar yordamida katta fikrni oz shaklda, obrazli ifoda etish mumkin va qulay.

Shunday asarlar borki, boshidan oxirigacha maqol bilan yozilgan. Masalan, Gulxaniyning “Zarbulmasal” deb nomlangan asarida 400 dan ortiq maqol ishlatilgan.

Xalq maqollari – boyligimiz. Ne-ne daholar, buyuk siymolar yurti bo‘lmish bu zaminning har qadamida bir hikmat, bir ma’no yashirin. Maqollar ajdodlarimizning bizga qoldirgan xazinalaridir. Ularni turli soha egalari: xoh u o‘qituvchi, shifokor, muhandis, haydovchi-yu uy bekasi bo‘lsin, kerakli o‘rinlarda foydalanishsa, har bir gapirgan gaplarining salmog‘i oshadi, sermazmun, ta’sirchan, keskir bo‘ladi.

Asosiy qism. Maqollarda xalqning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, fe’l-atvori, ruhiyati, umuman olganda, butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra, maqollar mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. Masalan, vatan, mehnat, do‘stlik, botirlik, saxovat, adolat, salomatlik, tozalik va boshqalar haqida.

Maqollar birdaniga shu shaklga kirmagan, balki katta muddatlarda tarashlangan, boyitilgan, o‘zgartirilgan va nihoyat quyma shaklga kirgan. Bu mo‘jaz badiiy matnlarda har bir so‘z, obraz katta ma’no tashiydi. Maqollar tarkibida biror so‘z behuda ishtirok etmaydi. Ularda har bir so‘zning o‘z o‘rni, ma’lum ma’noda o‘z vazifasi bor. Ya’ni maqol tarkibida aynan bir so‘z muayyan sujetni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan:

Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar.
Bosh armoni bo‘lmasa,
Mol armoni armonmas,

kabi purhikmat misralarni o‘qir ekanmiz, maqollarda badiiy mohiyatni yuzaga keltirish, asosiy mazmunni tashish uchun xizmat qilayotgan so‘z “bosh” ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu ikki maqolning ma’nolari bir-biriga yaqin. Ikkalasida ham sog‘likning boylikdan ustun ekanligi aks ettirilgan. Mana shu jihatiga ko‘ra, ular ma’noviy umumiylik hosil qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, asosiy ma’no “bosh” so‘zi orqali ifodalangan. Bu maqollarda “sog‘lik” so‘zining “bosh” bilan almashinganligi oddiy tasodif emas. Buning zamirida ham xalqimizning uzoq yillik tajribalari, ilm-ziyosi va ma’rifat otashining yolqinlari ko‘zga tashlanadi; ayni paytda bu so‘z ma’nosi ko‘chishining o‘ziga xos murakkab turi – metonimiyadir.

Maqol ibratli so‘zdir. U fikrning tushunarli bo‘lishini osonlashtiradi, unga o‘zgacha jilo baxsh etadi. Fikrni yorqin, ta’sirchan, sermazmun qiladi.

**Bola sog‘ligi – ona boyligi.*
**Mol ketsin, pul ketsin,*
Eson-sog‘likka ne yetsin.
**Och bo‘l, yalang‘och bo‘l, salomat bo‘l.*
**Omon bo‘lsang, olam seniki.*
**Sog‘lik – umrning garovi.*

Darhaqiqat, sog‘lik har qanday boylikdan a’lo, uning bahosi bebaho. Usiz dunyo-dunyo oltin, kumush, gavharlarning zarracha ham qiymati yo‘q. Zotan, sog‘likni hech qanday narsaga qiyoslab bo‘lmaydi. Shu sabab ham xalqimiz maqollarida bu mavzu yetakchilik qiladi.

**Boylikning boshi – sog‘lik.*
**Salomatlik – tuman boylik.*
**Sog‘likda xo‘rlik yo‘q.*
**Sog‘ yurak – tog‘ yurak.*

Sog‘ tanda sog‘lom aql deydi dono xalqimiz. Inson tanining sog‘ligi eng katta boyliklaridan biri hisoblanadi. Odamning eng asosiy tana a’zosi bo‘lmish yurak – hamma uchun o‘ta ahamiyatli.

**Tan salomati – jon rohati.*
**Sog‘liging – boyliging.*
**Sog‘lik umrning garovi.*
**Sog‘ aql – bol aql.*
Sog‘lom tanda – sog‘ aql.

Natijalar va muhokama. P.I.Kalyu “Salomatlik tushunchasining asosiy xususiyatlari va sog‘liqni saqlashni qayta tuzishning ayrim masalalari: batafsil ma’lumot” nomli tadqiqotida dunyoning turli mamlakatlarida, turli davrlarda va turli ilmiy me’yorlar tomonidan tuzilgan salomatlikning 79 ta’rifini ko‘rib chiqdi. Ta’riflar orasida quyidagilar uchraydi:

1. Sog‘lik – organizmning barcha darajalarda normal faoliyat ko‘rsatishi, shaxsiy yashab qolish va nasl qoldirishga imkon beradigan biologik jarayonlarning normal kechishi.

2. Organizm va uning funksiyalarining atrof muhit bilan dinamik muvozanati.

3. Ijtimoiy faoliyatda va jamoat foydali ishlarida qatnashish, asosiy ijtimoiy funktsiyalarni to‘liq bajarish qobiliyati.

4. Kasalliklar, kasal holatlar va o‘zgarishlar bo‘lmasligi.

5. Organizmning doimo o‘zgarib turadigan atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati.

Kalyu nazariyasiga ko‘ra, barcha mumkin bo‘lgan salomatlikning barcha tavsiflari quyidagi tushunchalarga tenglashtirilishi mumkin:

1. Tibbiy model – tibbiy belgilar va xususiyatlarni o‘z ichiga olgan ta’riflar uchun; salomatlik kasallik va uning alomatlari yo‘qligi sifatida.

2. Biotibbiy model – organik buzilishlar va nosog‘lomlikning sub’yektiv hissiyotlari yo‘qligi.

3. Bioijtimoiy (biosotsial) model – ijtimoiy belgilar birinchi o‘ringa qo‘yiladigan tibbiy va ijtimoiy belgilar birgalikda qaralishi qo‘shiladi.

Qiymat – ijtimoiy model – qiymat sifatida insonning salomatligi qaraladi; JSSTning ta’rifi aynan shu modelga to‘g‘ri keladi.

Sog‘lik bu insonning birinchi muhim ehtiyoji bo‘lib, uning ishga yaroqliligini, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Sog‘lom va ma’naviy rivojlangan kishi, shubhasiz, baxtlidir. U o‘zini yaxshi his etadi, o‘z ishidan qoniqadi, yoshlikning so‘nmas hissiyoti va ichki go‘zalligi ila ilm olishga intiladi.

Sog‘lom turmush tarzi qoidalari inson sog‘ligini ta’minlash uchun xizmat qiladi, kasalliklarning boshlang‘ich profilaktikasi, sog‘likning muhim omili sifatida tan olinadi. Sog‘lom turmush tarzining eng ustuvor yo‘nalishi – bu harakatlar tartibidir. Uning asosini to‘g‘ri ovqatlanish hamda tizimli jismoniy mashqlar, sport bilan shug‘ullanish tashkil etadi. Sport bilan doimiy shug‘ullanish, jismoniy harakatlar inson organizmidagi ish faoliyatini yaxshilaydi. Ayniqsa, bosh miya faoliyati hamda qon aylanish sistemasi uchun jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish juda muhim.

Psixologo-pedagogik yo‘nalishda sog‘lom turmush tarzi kishi ongi, psixologiyasi va motivatsiyasi nuqtayi nazaridan qaraladi. Boshqa nuqtayi nazarlar ham mavjud (masalan, tibbiy–biologik), lekin ular o‘rtasida keskin farq chegarasi mavjud emas, chunki ular bitta muammo – individuum salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.

Sog‘lom turmush tarzi inson hayotining turli jihatlari rivojlanishiga, uzoq umr ko‘rish va ijtimoiy vazifalarini to‘laqonli bajarish, mehnat, jamoaviy, oila–ro‘zg‘or kabi hayot kechirish shakllarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Sog‘lom turmush tarzi insonning ko‘zlangan faolligining o‘ziga xos shakli – o‘zining salomatligini saqlash, mustahkamlash va yaxshilashga qaratilgan faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzining muhimligi salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jamoat hayotining murakkablashishi, texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xarakterli xavflarning ortishi tufayli chaqirilgan.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning mashhur “Tib qonunlari” asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g‘oyalari asosida yozilgan. Alloma insonlar o‘zini o‘rab turgan atrof–muhit bilan muloqotda bo‘lishini va tashqi muhit omillari, o‘z navbatida, uning salomatligiga ta’sir qilishini ta’kidlab o‘tgan. Ulug‘ hakim salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini alohida qayd etib, tartibli hayot tarzi omili sifatida jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi va uyquni qayd etgan. U bunday yozadi: “Me’yorida va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadigan inson hech qachon davolanishga muhtoj emas”.

Xulosa. Inson ana shunday purhikmat misralarni o‘qir ekan, sog‘likning qadri, uning qimmatini yana bir bor anglagandek bo‘ladi. Shu o‘rinda xalqimiz maqollar yordamida qay jihati bilandir, ma’lum bir ma’noda shifokorlik vazifasini o‘tagan bo‘ladi. Zero, shifokorlar o‘zlarining ilmlari, kasb mahoratlari bilan insonlar dardiga darmon bo‘lsalar, zukko xalqimiz esa boy tarixiy tajribalari asosida purma’no

maqollari bilan inson sog‘ligi haqida qayg‘uradilar. Xullas, maqollar ummonida benazir ma’no xazinalari mujassam. Ularni o‘qir ekanmiz, kamalakdek serjilo ma’no tovlanishlarini o‘qib borganimiz sari zakiy va donishmand ajdodlarimizga tahsinlar o‘qiymiz. Necha asrlar o‘tishidan qat’iy nazar, dono xalqimiz tomonidan yetib kelgan durdonalar o‘z qiymatini yo‘qotgan emas. Aksincha, bugungi zamonaviy texnologiyalar va olimlar tomonidan ularning naqadar yuksak zehn-u zakovat vakillari bo‘lishgani ilmiy asoslarda dalillanmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология: ценностно–смысловое пространство языка / Н. Ф. Алефиренко. – 2-е изд. – Москва: Наука, 2012. – 288 с.

2. Бухтоярова Г. Ю. Отображение феноменов болезнь и здоровье в русской языковой картине мира: дис... канд. филол. наук / Г.Ю.Бухтоярова; Московский гос. ун-т. им. М.В.Ломоносова. – Москва: [б.и.], 2010. – 24 с.

3. Bozorov Z.A International scientific and practical conference. “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London”, 2021-2022. 165-169 б.

4. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue, January 2021 of IEJRD E–ISSN: 2349-0721, Peer Reviewed & Referred Journal.

5. Bozorov, Z. A. “The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers”. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 2110-2118.

6. Bozorov, Zayniddin Ashirovich. “The influence of artistic works on the formation of civil society (as an example of the works of T. Malik)”. World of Scientific news in Science 2.4 (2024): 69-74.

7. Shavketovna Y. A., Yarashovna S. G. Specific Characteristics of Paremas Formed on the Basis o “Insect” Lmg in a Simple Sentences //Best journal of innovation in science, research and development. – 2023. – Т. 2. – С. 6.

8. Bozorova G. Formation of abbreviations in medical terminology in Uzbek language //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.

9. Bozorova, G. (2023). Лингвопрагматическая характеристика плеонастических единицспользуемых в политической речи. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752

10. Samandarova G.Y. Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical–spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2 (05), 39-42. – 2021.

11. Samandarova, G. Y. (2023). Basis of the lexical sentence group “insect’ in the form of a compound sentence. *international scientific conference “innovative trends in science, practice and education”*, *2*(4), 59-67. Retrieved from http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493

12. Bozorov Z.A. “Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students’ community”. *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595

13. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. “Great Oriental Intellectuals about Civil Culture”. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. https://innosci.org/wos/article/view/968

14. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1

15. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. Specific characteristics of paremas formed on the basis of “Insect” LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835–3579. (Impact factor: SJIF=9.1)

16. Samandarova G.Y. Sodda gap ko‘rinishidagi “hasharot” lug‘aviy ma’no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o‘ziga xos xususiyatlari // Scientific reports of Bukhara state university. 2023/1 (84). – B. 161-165.

Mirxanova Gulandom Rustamovna,
BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)
E-mail: guli89mirxan@gmail.com

O‘ZBEK TILIDAGI TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. Til lug‘at tarkibining ilm-fan, texnologiya va boshqa ixtisoslashgan sohalarga oid qismini tashkil etuvchi muhim komponenti hisoblangan terminologiya sohasi o‘zbek tilshunosligida XX asrning boshlaridan boshlab jadal rivojlangan bo‘lib, bu borada Til va terminologiya qo‘mitasining faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada o‘zbek terminologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, terminlarning ilmiy tizimliligi, ularning aniq va izchil qo‘llanilishi, xalqaro ilmiy-madaniy hamkorlik ta’sirida boyib borish jarayoni ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, leksik birliklar, ijtimoiy-kommunikativ birlik, termin, atama, leksik sath, semantik tasniflash, terminosfera.

Аннотация. С начала XX века в узбекском языкознании бурно развивается область терминологии, которая считается важной составляющей словарного запаса языка, входящей в состав науки, техники и других специализированных областей. В данной статье анализируются этапы становления и развития узбекской терминологии, её теоретические и практические аспекты. Также рассматривается научная системность терминов, их четкое и последовательное использование, а также процесс обогащения под влиянием международного научного и культурного сотрудничества.

Ключевые слова: словарь, лексические единицы, социально-коммуникативная единица, термин, лексический уровень, семантическая классификация, терминосфера.

Abstract. The field of terminology, which is an important component of the language vocabulary related to science, technology and other specialized areas, has been developing rapidly in Uzbek linguistics since the beginning of the 20th century, and the activities of the Language and Terminology Committee have played a significant role in this regard. This article analyzes the stages of formation and development of Uzbek terminology, its theoretical and practical aspects. It also examines the scientific systematicity of terms, their precise and consistent use, and the process of enrichment under the influence of international scientific and cultural cooperation.

Key words: dictionary, lexical units, socio-communicative unit, term, lexical level, semantic classification, terminosphere.

Kirish. Tilning morfologik, sintaktik sathlaridan farqli ravishda leksik sath yuqori sur’atdagi dinamikasi bilan keskin ajralib turadi. Leksik sathda o‘zgarish – boyish, kengayish, semik siljishlar tez yuz berishi sir emas. Shu sababdan leksikani tadqiq qilishda dominant konstanta ma’no bo‘ladi – ma’no o‘zgarmas ustunligi sababdan avval ularni aniqlash, keyin ma’nolarni ifodalaydigan elementlarni tizimlashtirish optimal yechimdir. Ma’no o‘z joyida turgani holda uni anglatadigan leksik birliklar safi kengayib yoki torayib boraveradi. Ma’no butunlik – zot bo‘lsa, leksema uning namoyon bo‘lishi, ya’ni tajallisidir. Lingvistikaning pirovard muammosi ma’no shakllanishi tendensiyalari, sababi va kontekstini aniqlashdir. Shundan so‘ng ma’noni anglatuvchi leksik element xususiyatlarini to‘la tahlil qilish imkoni tug‘iladi. Terminologiya tildagi lug‘at tarkibining ilm-fan va texnologik sohaga ixtisoslashgan tor yo‘nalishi. Shu bilan birga bu leksema tilshunoslikda ayni lug‘at plastini o‘rganuvchi tarmoq nomi hamdir. Sohalarga oid leksika yangi shakllangan yoki tildagi muayyan leksemaga terminologik ma’no bag‘ishlangan holda mavjud bo‘ladi. Shu sababdan aynan terminologiya til boyishi va unda mavjud lelsemalar yangi ma’no kasb etadigan platforma o‘laroq ko‘zdan kechirilishi kerak. Bu plastni izchil tadqiq etish tilning terminlar vositasida boyish, leksemalarning yangi ma’noga ega bo‘lish mexanizmini tushunish, bir tilning boshqalari bilan aloqasidagi dinamikani kuzatib borish zarurati bilan tirgaklanadi [2, 3-10]. Zamonaviy o‘zbek lingvistikasi rus tilshunosliga tamoyillari asosida, ayni qoliplarda shakllantirilgani sir emas. O‘zbek tilshunosligidagi terminologiya yo‘nalishi taraqqiyoti ham aynan

o‘tgan asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Demak, o‘zbek terminologiyasi ham obyekt tadqiqida umumiy lingvistik xulosalar hamda asos izohlarga tayanadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston jamiyati o‘tgan asr davomida jadal sanoatlashish va texnik taraqqiyot bilan yuzlashdi. Sanoatni izchil tartiblash, mahalliy aholidan yuqori malakali kadrlarni yetishtirish maqsadida ishlab chiqarish va fan-texnologiyaning lisoniy jihati terminlar tadqiqiga katta ahamiyat berildi. Shu sababdan terminlarni tartiblash, o‘zlashma terminlarni tilga singdirish, nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlash amaliy va nazariy lingvistika uchun pirovard masalaga aylandi. Bu vazifalarni bajarish uchun qator jiddiy tashkiliy choralar ko‘rilgan deya olamiz. Masalan, o‘tgan asrning ilk o‘n yilliklarida Til va terminologiya qo‘mitasi faoliyat yuritgan, asr o‘rtalariga kelib ushbu qo‘mita vazifalarini Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti qoshidagi terminologiya bo‘limi bajargan. Ushbu strukturalar tarkibida faoliyat yuritgan mutaxassislar uchun o‘zlashma terminlarni fonetik jihatdan o‘zbek tiliga muvofiqlashtirish, muqobili mavjud terminlarni tarjima qilish va ularga izohlar shakllantirish kabi asosiy vazifalar bo‘ldi. Bu sobiq ittifoq davridagi institutlar o‘zbek terminologiyasining rus tilidagi ayni soha bilan izchil va yaqin aloqada rivojlanishini ta’minladi. Istiqlol yillarida terminlar masalasi bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo‘mitasi shug‘ullangani ma’lum. Qo‘mitaning asosiy maqsadi o‘zbek terminologiyasini tizimlashtirish hamda uzluksiz tartiblash, takomillashtirishdan iborat edi. Bu qo‘mita o‘zbek tilining o‘z leksik sathida mavjud atamalarni iste’molga qaytarish, axborot texnologiyalari davriga oid yangi terminlarni o‘zlashtirish va moslashtirish mexanizmlarini yaratish kabi vazifalarni o‘z zimmasiga olgan. 2004-yilgacha mavjud bo‘lgan qo‘mita o‘z faoliyatini to‘xtatgach, terminlar masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmay qo‘ydi deya olamiz. Bu zamonaviy terminologiyaning taraqqiyot bosqichlari va ushbu taraqqiyotning davlat tomonidan institutlashganidan dalolat beradi. Biroq o‘zbek terminologiyasi mavjudligi faqat shu davrlar bilan cheklangan degan yanglish xulosa paydo bo‘lmasligi kerak.

Turkiy xalqlar qadim davrlardan davlat shakllantirgan elatlardan bo‘lgani bois tilda tizimlashtirilgan terminologiya qadim davrlardan mavjud edi deya olamiz. Xususan, turkiy til terminologik leksikasi shakllanishining ilk bosqichi milodiy VII-X asrlarni o‘z ichiga oladi [3, 114]. Keyinchalik XI-XIV asrlar davomida eski turkiy til terminologiyasi va XX asrga qadar eski o‘zbek tili terminologiyasi amalda qo‘llanilgan. Shunday qilib o‘zbek tilshunosligi terminologiyani o‘n to‘rt asrlik tarixga ega deb e’tirof etadilar.

1.2.-jadval. O‘zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari

Ilk ikki davr terminlari atamaga yaqin, ular xossatan turmushdagi jarayon, buyumlarni nomlash, harbiy va siyosiy tuzilmani tasniflash hamda nomlash kabi semantik vazifalarni bajaradi. Ikkinchi davrdagi terminlar qo‘llanishi uzoq davrga cho‘zildi. Shundan so‘ng XX asr tub o‘zgarishlar bilan birga butkul yangi terminlarni yetaklab keldi. Bu terminlar harbiy va siyosiy sohadan tashqari texnik, ilm-fan taraqqiyotini namoyon qildi. O‘zbek terminologiyasi aynan shu davrga kelib sifat va tarkib jihatdan mutlaqo yangi bir bosqichga ko‘tarildi deyish mumkin. Zamonaviy terminologiya esa globalizm ta’sirida rivojlanmoqda. Bir tomondan siyosiy, ma’muriy va harbiy sohalardagi mavjud terminlar o‘rniga tarixiy muqobillar tiklangani milliy lisoniy kartinaning yirik ulushini hosil qilishga xizmat etgan bo‘lsa, boshqa tomondan fan-texnika sohasi jahon standartlariga mos, butun dunyo qabul qilgan terminlar bilan boyib bormoqda. Anglashilganidek, har qanday jonli tilda bo‘lgani kabi o‘zbek tilining terminologoyasi mudom o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lgan, terminlar o‘zbek tilining yangilanishi va boyishi uchun asos manbalardan biriga aylangan. Mana shu terminlarning sohalar hamda til lug‘aviy sathidagi o‘rni hamda funksiyalarini aniqlash nazariy terminologiyaning asosiy maqsadi bo‘lib, terminlarning mohiyatini to‘laqonli tushunish imkonini yaratadi. O‘zbek tili terminlari chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgani holda terminologik nazariya nisbatan yangi sohadir. O‘zbek tilining terminologiya nazariyasi tilga yangi terminlar kirib kelishi va shakllanishi oqimining eng kuchaygan davrida, ya’ni XX asr o‘rtalarida vujudga keldi. Tilshunoslikning bu tarmog‘i terminlar hosil bo‘lishi, til qay tarzda terminlar bilan boyishi, terminlar qurilishi va semantik tasnifi, ma’no xususiyatlari hamda semantik ko‘lamini aniqlash masalalari

bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, terminlarning umumadabiy tildagi leksikadan farqini ochib berish ham terminologiya nazariyasi vazifalari sirasiga kiradi.

O‘zbek terminologik nazariyasi ham tildagi terminlarning asosiy xususiyatlarini dastlabki bosqichlarda belgilab olgan. Termin xususiyatlari maxsus sohaga ixtisoslashgani, izoh talab qiladi, tushunchani talab qiladi, sistemaviylik, emotsional bo‘yoqdan xolilik, ma’nosi kontekstda o‘zgarmasligi va bir ma’nolilik deb belgilandi. Ushbu ko‘rsatkichlar umum qabul qilingan terminologiyaning nazariy tamoyillaridan olingan bo‘lib, tilga terminlarni qabul qilish, tarjima qilish va moslashtirish shu asoslarda amalga oshiriladi.

Terminologik nazariya tadqiq obyektini o‘rganishda dastlab diaxronik, keyin sinxronik, so‘ng tizmiy yo‘nalishlarini ilgari surdi. Terminni tarixiy rivojllanish trayektoriyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish diaxronik yondashuv bo‘lib, bu usul vositasida maxsus leksikaning shakllanish jarayoni, xususiyati va usullari aniqlashadi. [1, 57-63] Bunda tadqiqotchi muayyan vaqt kesimidagi fan-texnika va boshqa xususiy tarmoqqa oid leksikani ko‘zdan kechiradi. Bu o‘ziga xos evolyutsion ta’limot tildagi terminlarni davrlar osha qanday ma’no va funksional ko‘rsatkichlar kasb etganini tahlil qiladi. Anglashilganidek, diaxronizm lisonni emas, nutqiy vaziyatni, muayyan terminning jonli tilda qay tarzda o‘zgarib borishini kuzatadi. Sinxron lingvistika esa lisonning holati, strukturasi nuqtayi nazaridan tadqiq obyektlarini o‘rganadi. Ya’ni terminlarni sinxronik o‘rganish ularni lisonning boshqa lug‘aviy guruhlardan ajratmagan holda analizni nazarda tutadi.

Jahon tilshunosligida terminologik nazariya taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi yirik bosqichlarga ajratib chiqish mumkin. Biroq bu bosqichlar bir-biridan keskin farqlanib, keyingi bosqich burungi bosqich xulosalarini inkor qilgan deb bo‘lmaydi. Terminologiya nazariyasi ham tilshunoslikning boshqa tarmoqlari singari tadrijiy tarzda rivojlanganini inobatga olsak, quyidagi bosqichlar ham biri boshqasini to‘ldirib, mukammallashtirib borgan jarayonlar o‘laroq anglashiladi. Demak, jahon terminologik nazariyasi taraqqiyoti quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

XIX asr so‘ngida ilk terminologik nazariy tamoyillari shakllana boshladi. Bu aynan shu davrda yuzaga kelgan sanoat inqilobi bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga kelgan soha edi. G‘arb kishisining turmushi yangi tushunchalar, jarayonlar, texnika va texnologiyalar bilan boyidi. Shunga aks-sado sifatida lingvistlar maxsus, qo‘llanishi chegaralangan leksikaga e’tibor qaratishdi – terminlarning vazifalarini belgilovchi tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlar tizimli xarakter kasb etmagan, albatta. Bu davrda terminlarga xos xarakter va vazifalar dastlab Vilgelm Vunt tomonidan aniqlanib, terminlarning o‘zi tegishli bo‘lgan sohadagi o‘rni belgilangan.

Keyingi asr lingvistikasi o‘zining barcha tarmoqlarida yondashuvni tavsifiylikdan tizmiylikka o‘zgartirgani bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda terminlar biror fanga yoki sohaga tegishli alohida leksemalar deb emas, til tizimining ajralmas bo‘lagi, lingvistik megamaydonning tarkibiy qismi sifatida baholandi. Terminlarning o‘zaro aloqadorligi, hamda variantsizligi asoslandi. Aynan XX asrga kelib terminlarni semantik tasniflash, terminosferaning barcha elementlariga xos asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash nazariy terminologiya qarshisidagi asosiy vazifaga aylandi. Bunda dastlab terminlarni semantik jihatdan anglash jarayoni ro‘y berdi, XX asr so‘ngiga kelib terminlarni muayyan tamoyillar asosida bir qolipga solish kun tartibidagi asosiy masala edi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi davrda til korpuslarining yaratilganligi, sun’iy intellektning ommalashuvi terminologiya masalasini yangi nuqtai nazardan o‘rganishga turtki bo‘lmoqda. Terminlar yaratishni avtomatlashtirish, termin tasnifi va izohini sun’iy intellekt vositasida modellashtirish soha qarshisidagi dolzarb masalaga aylangan [5, 67-72]. O‘zbek tilshunosligida terminlar mohiyati, semantik xususiyati, funksional imkoniyatlari va terminologik tizimni shakllantirish masalalari, ya’ni terminologiya nazariyasining formal yuzaga kelishi 20 asr boshida kuzatildi. Biroq terminologiya yo‘nalishida amaliy izlanishlar dastlab qadimgi lug‘atlarda o‘z in’ikosini topganini alohida e’tirof etish lozim. Turkiy tilning qomusiy leksikografik manbasi “Devonu lug‘otit turk” atamalarni tarjima qilish amaliyoti bilan ahamiyat kasb etadi. Turkiy tilning tovush tarkibi, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi haqida ma’lumot beruvchi ushbu lug‘at shu sanab o‘tilgan barcha ma’lumotlar bilan birga atamalar, davlat qurilishi, ijtimoiy qurilish haqida tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ushbu lug‘at yaratilgan 1074–1075-yillarni turkiy terminologiya nazariyasining shakllanish bosqichi deb olish mumkin. Bu manba termin, atamalarni sanab o‘tish va tarjima qilish jihatidan e’tiborga molik. Manbada

mavjud atamalar oʻz davrining siyosiy tuzilmasi, turmush tarzini namoyon qiladi. Lugʻatda joy nomlari, oʻsimlik va hayvon nomlari, kasb-hunarga oid atamalar ham mavjud.

Shundan soʻng arab istilosi sabab turkiy terminologiya oʻrta asrlarda arab tili taʼsirida qoldi. Turkiy terminologiya haqida arabcha filologik risolalarda fikrlar uchraydi. XIV asr mutaffakkirlari turkiy til grammatikasi va lugʻat tarkibi haqida risolalar yaratib undagi termin, atamalar haqida ham toʻxtalib oʻtgan. Xususan, Abu Hayyonning "Kitob ul idrok li-lison ul-atrok", Xalil bin Muhammad bin Yusuf al-Koʻnyaviyning "Kitobi majmuayi tarjumoni turki va ajami va mugʻali", Jamoluddin Turkiyning "Kitob bulgʻat al-mushtoq fi-l-lugʻatat- turk va-l qifchaq" kabi risolalarida tilning turkiy termin va atamalar tizimi atroflicha yoritilgan. Manbalar termin hamda atamalarni mavzulashtirishga urinadi, hayvonot, nabotot, jugʻrofiy istilohlar alohida ajratiladi. Bu davrdagi manbalar terminlarni maʼno guruhlariga tasniflashga ilk urinishlarni namoyon etadi. Albatta, birinchi bosqichda boʻlgani singari termin tushunchasini izohlash va xususiyatlarini aniqlash kabi nazariy masalalar yechilmadi. Bu davrda ham termin hamda atamalari qayd etish va qisqacha izohlash vazifalarini bajargan [6, 97-103]. Masalan, qadimiy turkiy va eski turkiy tillarda aniqlangan terminlar quyidagi fan va sohalarga mansub. Harbiy soha terminologik leksikasi: *toʻp, qurol-yarogʻ, qoʻndoq, qalqon, sol, quloqchin.* Astronomiyaga oid atamalar: *Ot yulduz "Mars", Suv yulduz "Merkuriy", Topraq yulduz "Saturn", Yiğač yulduz "Yupiter", yer "yer, zamin".* Anatomiyada qoʻllanilgan terminologik leksika: *yűräk "yurak", qaraq "koʻz, koʻz gavhari", qarïn "qorin", qol "qoʻl", baš "bosh", bağïr "jigar", övkä/öpkä "oʻpka.* Zoonimlar: *buğra "erkak tuya", arslan "arslon, sher", at "ot", ud "qoramol (buqa yoki sigir), qağatïr "xoʻkiz", bőri "boʻri", bars "yoʻlbars", tiši bars "urgʻochi yoʻlbars*.

Sanab oʻtilgan leksemalar sirasida ayrimlari umumiste'mol tiliga kirib borgani bois ularni terminologik leksika deyish mumkin [7, 52-57]. Shuningdek, eskirgan yoki tarixiy terminlar oʻrnini bugungi kunga kelib zamonaviy ilmiy terminlar egallaganini astronomik istilohlar misolida koʻramiz. Aynan shu misol tarixiy ekvivalentdan koʻra butun dunyoda qabul qilingan standart terminlar ustun kelganini dalillaydi. Zoonimlar va anotomik terminlar umumxalq tilida faol qoʻllanadi. Zamonaviy tibbiyot sohasida tana aʼzolari nomi umumiy lotin tilida emas, har bir tilga tarjima qilingan holda qoʻllanadi. Faqat flora va faunaga oid terminlar lotin tilida qayd etiladi, lekin ilmiy tahlillar, darslik va risolalarda ham asosan tarjima varianti ishlatiladi. Bundan anglashiladiki, davr oʻzgarishi bilan terminlarning qoʻllanish doirasi kengayishi yoki torayishi, zamonaviy ekvivalentlar bilan almashtirilishi mumkin.

XIX asrga kelib oʻzbek terminosferasi arab va fors tillaridan tashqari rus tilidagi terminlar bilan ham boyib boshladi. Lekin bu jarayon aniq tahlil qilinmagan. Rus tilidan oʻzlashgan terminlarning tovush tarkibi oʻzbek tilida qanday moslashtirilganligi, grammatik adaptatsiya masalalari nazariy muammo sifatida oʻrganilmagan. Yaʼni ushbu muammolar tahlili ancha keyin amalga oshirilgan, aynan XIX asr 70 yillarida oʻzbek tilining terminlarga boyish jarayoni jonli tadqiq etilmagan. Masala tadqiqi tilshunos olimlar O.Usmonov va Sh.Hamidovning "Oʻzbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari)" ilmiy ishida olib boriladi. Oʻtgan asr davomida oʻzbek formal tilshunosligi shakllandi – anʼanaviy lingvistik maktab tarkibida terminologik nazariyaga ham alohida ahamiyat berildi [4, 82]. Endi terminlarni lugʻatda sanab oʻtish, izohlash yoki tarjima qilish bilan cheklanmasdan termin haqida nazariy izoh, terminosferaning oʻziga xos xususiyatlari aniq belgilab olindi. Xususan, termin xususiyatini aniqlashtirish uchun oʻzbek anʼanaviy tilshunosligi "termin – har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin oʻz-oʻzidan, stixiyali tarzda paydo boʻlmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi" degan xulosani qabul qildi. Bundan quyidagilar anglashiladi:

birinchidan, terminlar maʼnosi aniq, semantik koʻlami cheklangan. Terminlar sirasida sof polisemiyaga ega leksemalarni uchratish mushkul. Quvvat, tortishish kabi koʻp maʼnoli fizik terminlar ham asl lugʻaviy maʼnosidan anglashilgan mohiyatni termin maʼnosiga ham koʻchirgan. Shu sababdan bulardagi koʻpmaʼnolilik sof polisemiya emasligi ayon boʻladi;

ikkinchidan, termin tilga kichik guruh tomonidan kiritiladi va ayni shunday kichik guruh tomonidan qoʻllanadi. Umumxalq leksikasidan farqli oʻlaroq terminlar tartibsiz, xaotik yuzaga kelmaydi. Terminlarning isteʼmolga kirishi ham uzoq davrli jarayonni talab etmaydi. Tilda paydo boʻladigan terminlar olimlar va soha mutaxassislari tomonidan ilgari suriladi. Ularning maʼnosi aniq belgilangan, har qanday hissiy va uslubiy boʻyoqdorlikdan xoli boʻladi;

uchinchidan, terminlar tilning eng dinamik, faol boyib boruvchi leksik guruhi bo‘lib, ularni qabul qilish, amaliyotda qo‘llash muayyan qonuniyat va me’zonlar asosida yuz beradi. Masalan, ayrim terminlarning baynalmilal shaklini qabul qilish kerak. Boshqa terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish mumkin. Bu borada bir to‘xtamga kelish uchun butun dunyo tendensiyalarini kuzatish, boshqa tillarda mavjud amaliyotni qo‘llash tavsiya etiladi. Ya’ni terminologik leksika tilni boshqa guruhlar bilan chambarchas bog‘lab, uni boshqa tillar bilan yakdil bo‘lishini talab etadi.

Xulosa. XX asrdan e’tiboran, o‘zbek nazariy terminologiyasi bir vaqtning o‘zida ham diaxronik, ham sinxronik usulda o‘rganila boshlandi. Bir tomondan qadimiy atama va terminlarning derivatsion, semantik hamda funksional xususiyatlari, ma’no evolyutsiyasi masalalari diaxronik tadqiqotlar obyektiga aylandi. Boshqa tomondan yangi qabul qilinadigan terminlar uchun me’yor ishlab chiqish, termin yaratish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish va shu bilan birga hozirda terminning til sistemasidagi o‘rnini aniqlash kabi masalalar sinxronik yo‘nalish mavzusiga aylandi.

ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С., Тер-Мкртичан С.А. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – М.: Наука, 1976. – С. 57-63.

2. Винокур Г. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языкознанию. – М., 1961. – С. 3-10.

3. Гринев-Гриневич С. Терминоведение – М.: Академия, 2008. – 304 с.

4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b.

5. Дадабаев Х. Лексико-генетические особенности узбекской терминологии. Лингвист. Илмий мақолалар тўплами – Т., 2015. – С. 4-10.

6. Dadaboyev H. “Devonu lug‘otit turk”ning ti1 xususiyatlari. – T., 2017. – 322 b.

7. Дадабаев Х. Общественнополитическая терминология в историко-хронологических произведениях Агахи. Казахская терминология в годы независимости. – Алматы, 2014. – С. 97-103.

8. Харлицкий С. Информационная структура термина: автореф. дисс. кан. фил. наук. – М., 2003. – 264 с.

Jurayeva Maksuda Mukhammadovna
Professeur agrégé, PhD
Département de Philologie Française
Université d'État de Boukhara
(O‘zbekiston)
E-mail: m.m.jurayeva@buxdu.uz

INTERTEXTUALITE, ALLUSION ET LES ELEMENTS PRECEDENTS UTILISEES DANS LES TITRES DES JOURNAUX FRANÇAIS ET LEUR SIGNIFICATION

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz fransuz matbuotida intertekstuallik, alluziya va pretsedent birliklarning texnik hamda uslubiy jihatdan qo‘llanilishini tahlil qilamiz, chunki bu hozirgi voqealar va o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan madaniy, tarixiy, adabiy havolalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Bundan tashqari, biz fransuz matbuotidagi intertekstuallikning shakllarini, uning matbuotdagi o‘rni va ta’sirini yoritib berdik. Alluziya – madaniy, tarixiy, siyosiy yoki adabiy ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakllantirmasdan, so‘zsiz eslatmadan iborat nutq va jurnalistik jarayon. Bu esa ma’lumotni tanib olish va izohlash uchun o‘quvchining ishtirokiga tayanadi.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, yashirin, aniqlik, idrok, sarlavha, adabiy asar, fransuz matbuoti, ishonchlilik, mustahkamlash, o‘zgartirish, ishora, madaniy, tarixiy, ijtimoiy ahamiyatga ega, illyustratsiya, Fransiyada jurnalistika.

Аннотация. В этой статье анализируется широкое техническое и методическое использование интертекстуальности и аллюзии во французской прессе, поскольку это позволяет устанавливать связи между текущими событиями и культурными, историческими или литературными ссылками, известными читателям. Кроме того, мы осветили формы интертекстуальности во французской прессе, роль и влияние интертекстуальности в прессе. Аллюзия – это фигура речи и процесс в журналистике, который заключается в вызывании культурной, исторической, политической или литературной ссылки скрытно, без ее явного упоминания. Ссылка основана на соучастии читателя, который должен распознать и интерпретировать эту ссылку.

Ключевые слова: интертекстуальность, имплицитный, эксплицитный, восприятие, название, литературное произведение, французская пресса, достоверность, усиление, изменение, намек.

Abstract. In this article we analyze the widely technical and methodical use of intertextuality and allusion in the French press, because it allows to establish links between current events and cultural, historical or literary references known to readers. In addition, we have illuminated the forms of intertextuality in the French press, the role and impact of intertextuality in the press. Allusion is a figure of speech and a journalistic process that consists of evoking a cultural, historical, political or literary reference implicitly, without mentioning it explicitly. It is based on the complicity of the reader, who must recognize and interpret this reference.

Key words: intertextuality, implicit, explicit, perception, title, literary work, French press, credibility, reinforce, modify, allusion, cultural, historical, social significance, illustration, journalism in France.

Introduction. Dans cet article nous analysons l’utilisation largement **technique** et **méthodique** de l’**intertextualité**, l’allusion et les éléments précédents dans la presse française, car elle permet d’établir des liens entre des événements actuels et des références culturelles, historiques ou littéraires connues des lecteurs. De plus, on a illuminé les formes d’intertextualité dans la presse française, le rôle et impact de l’intertextualité dans la presse. L’**allusion** est une figure de style et un procédé journalistique qui consiste à évoquer une référence culturelle, historique, politique ou littéraire de manière implicite, sans la mentionner explicitement. Elle repose sur la complicité du lecteur, qui doit reconnaître et interpréter cette référence.

Mots clés: intertextualité, implicite, **explicite,** la perception, titre, une œuvre littéraire, la presse française, la crédibilité, renforcer, modifier, allusion, signification culturelle, historique, sociale, illustration, le journalisme en France.

Dans le journalisme contemporain, les titres attirants ont une grande importance. Ils véhiculent non seulement le sujet de l'article, mais ont aussi pour mission de capter l'attention et l'intérêt du lecteur tout en suscitant certaines idées. Dans les titres de la presse française, il est fréquent d'employer des unités prépositionnelles, afin de véhiculer des significations spécifiques dans un cadre culturel, historique ou politique.

L'intertextualité est une notion en littérature et en analyse de discours qui fait référence aux liens qu'un texte maintient avec d'autres textes. C'est la façon dont un texte évoque, explicitement ou implicitement, d'autres textes, en les mentionnant, en les modifiant ou en s'en inspirant.

Ce terme, introduit par la théoricienne Julia Kristeva dans les années 1960, désigne comment un texte se nourrit, mentionne, reformule ou résonne avec d'autres œuvres. L'intertextualité met en évidence que chaque œuvre littéraire est marquée par d'autres textes, qu'elle le fasse volontairement ou non.

Elle peut se révéler via des citations explicites, des insinuations, des imitations, des révisions ou encore des reflets thématiques et stylistiques. De ce fait, un livre ne peut être complètement saisi sans considérer les contextes et les textes qui l'entourent.

The main part. Les débats concernant ce que l'on appelle généralement "intertextualité" font souvent référence à des distinctions plus fines, nécessaires pour distinguer les interprétations utilisées par Alasdair Gray. Pour commencer, Michael Riffaterre décrit le terme d'intertextualité comme suit: "L'intertexte est la perception, par le lecteur, de rapports entre une œuvre et d'autres qui l'ont précédée ou suivie".

L'étude de l'intertextualité française examine le maillage complexe des rapports entre les textes, en suivant la manière dont les écrivains incorporent des œuvres précédentes pour produire de nouvelles interprétations. Cette méthode illustre les échanges à travers le temps et la culture dans la littérature française, en mettant l'accent sur les manières subtiles dont les œuvres se nourrissent et se modifient mutuellement. Pour apprécier la richesse et la profondeur de la tradition littéraire française, il est primordial de comprendre l'intertextualité.

Types d'intertextualité

L'intertextualité peut se manifester de différentes manières:

Intertextualité explicite:

Quand un texte fait référence directement à un autre texte.

Exemple: Un auteur intègre un vers de Victor Hugo dans son ouvrage.

Intertextualité implicite:

Quand un texte fait référence à une œuvre ou une pensée sans les citer explicitement.

Exemple: Un roman contemporain qui fait référence au mythe de Don Juan sans toutefois le citer explicitement.

Intertextualité en littérature :

Quand un texte est basé sur une œuvre littéraire précédente.

Exemple: Ulysse de James Joyce, une réinterprétation de l'Odyssée D'Homère.

Dans les titres de presse, l'usage de l'intertextualité est une pratique fréquente. Elle offre aux journalistes la possibilité de séduire les lecteurs en se basant sur des références culturelles, littéraires, historiques ou cinématographiques. Cette méthode confère une dimension sous-entendue à l'information et incite le lecteur à s'engager dans une analyse plus interprétative.

Les types d'intertextualité présents dans les titres des journaux.

Sources littéraires: Les publications font fréquemment appel à des œuvres classiques pour renforcer la crédibilité d'une information.

"Germinal du XXIe siècle?" (Le Monde) → Référence au roman de Zola pour parler d'une grève ouvrière.

"Madame Bovary, version politique » → Utilisation du personnage d'Emma Bovary pour illustrer une désillusion politique.

terminologik birliklar Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsetsual kodekslar asosida tanlangan. Umuman, lug‘atda o‘zbek tilidagi yuridik terminlarning rus va ingliz tilidagi muqobillarining berilishi bilan ahamiyatlidir. Chunki istiqloldan keyin xalqaro munosabatlarning jadallashishi, globallashuv jarayonining muqarrarligi, mamlakatimiz fuqarolarining turli maqsadlarda xorijga safar qilishlariga sabab bo‘lmoqda. Fikr dalili sifatida keltirishimiz mumkinki, 2024-yilda mamlakatimizdan xorijda ishlovchi fuqarolar soni 1 mln. 900 ming kishini tashkil etadi [15]. Bu raqamlarga o‘qish, sayohat va boshqa sabablar bilan xorijga chiquvchi fuqarolarimiz kiritilmaganligini hisobga olganda, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shuningdek, mamlakatimizda yaratilayotgan ijobiy turistik muhit xorijiy sayyohlarni tobora ko‘proq jalb qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan “O‘zbekcha-ruscha-inglizcha yuridik atamalar lug‘ati” ham o‘zbekcha muloqot qiluvchilar uchun, ham xorijliklar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Zero, muayyan mamlakat qonunlarini bilmaslik shaxsni huquqiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Lug‘atda keltirilgan *“huquqlarni tushuntirish – разъяснение прав – explain the rights”, “huquqlarni amalga oshirih – осуществление прав – effectuation of rights”, “huquqiy holat – правовое положение – legal status”* [7] kabi terminlarning uch tilda ifodalanishini bilish foydalanuvchiga dunyoning istalgan mamlakatida o‘z huquqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Shu sababli ko‘p tilli yuridik terminlar lug‘atlarining tayyorlanishi dolzarb masalalardandir.

Natijalar va muhokama. Yuridik terminlarning ko‘p tilli lug‘atlarini yaratishda bir necha talablar ham mavjudki, ularga amal qilish leksikografik manba samaradorligini ta’minlaydi. Bu talablardan eng muhimi tarjima jarayonida to‘liq muvofiqlikka erishishni ta’minlashdan iboratdir. Chunki yuridik terminlarning noto‘g‘ri tushunilishi yuzaga kelishi mumkin. Bu borada H.A.Kerimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Qonun ijodkorligi sohasida har bir jumla, so‘z va qo‘shimchaning to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash zarur. Bu inson hayoti, shaxslararo va davlat idoralari bilan bo‘ladigan munosabatlarda tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi” [6, 25]. Yuridik terminlarning ko‘p tilli lug‘atlarining so‘nggi nashrlaridan biri maxsus lug‘at sifatida baholanishi mumkin. Chunki “Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (2021)da tarjima birliklarining izohi keltirilmagan. Bu termin definitsiyasi tor doira (ya’ni soha vakillari) uchun tushunarli ekanligi bilan izohlanadi [1].

Ma’lum bo‘ladiki, dastlabki davrlarda davlatning til borasidagi shovinistik siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda sof ijtimoiy zarurat nuqtayi nazaridan dunyoning eng muhim tillaridagi yuridik terminlarning ifodasi haqida ma’lumot beruvchi lingvistik manba sifatida dunyo yuzini ko‘rmoqda. Ko‘p tilli terminologik lug‘atlar vositasida qo‘lga kiritilgan natijalar umumiy tarjima lug‘atlarida ham o‘z aksini topmoqda. Zero, terminologik birliklar ham nominativ birlik sanaladi va ba’zan uning so‘zma-so‘z tarjimasi ma’noning o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli muayyan tilda birikma shaklida bo‘lgan terminlar boshqa tilga birgina so‘z bilan tarjima qilinishi mumkin. Bunda asosiy maqsad huquqiy tushuncha ma’nosining boshqa tildagi aynan muqobilini berish sanaladi. Masalan, *huquqning vujudga kelishi* birikmali terminini ifodalovchi tushuncha ingliz tilida birgina *right* leksemasi bilan ifodalanishi mumkin va bu tahlil qilinayotgan lug‘atda qayd etilgan [7, 197]. Shu kabi o‘rinlarda turli sohalarga doir bo‘lgan maxsus tarjima lug‘atlarning ahamiyati namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikning leksikografiya sathida erishilgan natijalar sarhisobi izohli lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Chunki tilning butun leksikasi, ya’ni barcha uslublarga xos bo‘lgan so‘z va iboralar, chegaralangan va chegaralanmagan qatlam birliklarini aynan izohli lug‘atlardan topish mumkin. Jamiyat hayotidagi eng muhim o‘zgarishlar birinchi navbatda qayd etiladigan leksikografik manba ham izohli lug‘atlardir. Izohli lug‘atlarda tushunilishi murakkab bo‘lgan leksik birliklar til egalarining keng qatlami uchun tanish bo‘lgan boshqa leksik birliklar vositasida ifodalanadi. Chegaralangan qatlam birliklarining definitsiyasi murakkabligini hisobga olganda, maxsus izohli ilmiy matnlarda qo‘llanadigan terminlarning keng jamoatchilik ommasiga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Ilm-fan taraqqiy etar ekan, so‘zsiz, o‘rganilayotgan obyektni tavsiflash uchun maxsus leksik birliklarga ehtiyoj tug‘iladi. “Texnika, madaniyat, san’at, ijtimoiy-siyosiy hayotning rivoji o‘zining maxsus so‘zlarini vujudga keltiradi” [4, 3]. Yuridik terminologiya birliklarining izohli lug‘atlari dolzarbligi, aholining keng qatlami uchun zarurligi bilan boshqa terminologik izohli lug‘atlardan farqlanadi. Chunki yuridik soha terminlari va ular ifodalaydigan tushunchalar bilan har bir shaxs har kuni duch keladi. Masalan, yuridik terminologiya tasniflariga kiruvchi unsurlarning aksariyati umumtil leksikasi sifatida ham baholanadi. Jumladan, yuridik terminologiya tarkibiga kiruvchi shaxslarni ifodalovchi lug‘aviy birliklardan *fuqaro, bezori, javobgar, yo‘lto‘sar* kabi; jinoyat turlarini anglatuvchi terminlardan *qo‘rqitish, o‘g‘rilik* kabilar umumtil birliklari

sifatida O‘TILga kiritilgan. Umuman, bu kabi polifunksional lug‘aviy birliklarni o‘zbek yuridik terminologiyasida ajratilgan yettita guruhning [3, 4] har birida mavjudligi ham fikrimizni asoslaydi. Boshqacha aytganda, yuridik terminlarning izohli lug‘atlarini yaratishda mualliflar sohaning ijtimoiy munosabatlarga yaqinligi nuqtayi nazaridan yondashgan holda maqsadlar belgilaydilar.

Istiqlolgacha yaratilgan yuridik terminlarga muayyan izoh ham beruvchi lug‘atlar qatoriga F.Muhiddinov va Q.Mirzajonovlar tomonidan tayyorlangan “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at-spravochnigi”ni (1983) kiritish mumkin. Mazkur lug‘at bir vaqtning o‘zida ham tarjima, ham izohli lug‘atlarning xususiyatlarini o‘zida jamlaganligi bilan ajralib turardi. Chunki lug‘atda rus tilidagi terminning o‘zbek tiliga tarjimasi bilan birga bu leksik birlikning huquqiy jihatdan qo‘llanish xususiyatlari haqida ham qisqacha izoh berilgan edi. Lug‘atni tayyorlashda o‘sha davrda amalda bo‘lgan jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslardan foydalanilgan edi. Masalan, quyidagi lug‘at maqolasida birikmali termin tarjimasi va uning izohi keltirilgan:

“*Административная ответственность* – ma’muriy javobgarlik. Bunday javobgarlik ikki holatda qo‘llaniladi. Birinchi holat – huquqiy tartibni buzgan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’muriy chora. Ikkinchi holat – mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy tartibda choralar ko‘rish, qattiq ogohlantirish, xizmat vazifasidan ozod qilish va hokazo” [8, 7].

Birikmali terminning tarjimasi o‘zbek tilida ham birikmali nominativ birlik (ma’muriy javobgarlik) vositasida berilgan. Tarjimadan keyin terminologik birlik ifodalovchi huquqiy holat qanday o‘rinlarda faollashishi batafsil yoritilgan. Ta’kidlanganidek, bunda amaldagi qonun hujjatlariga tayanilgan. Tabiiyki, bu lug‘atning zamonaviylik nuqtayi nazaridan imkoniyatlarini pasaytiradi. Chunki qonunlar jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida yangilanib boradi. Zero, lug‘at maqolasida qo‘llangan ma’muriy javobgarlik qo‘llanadigan o‘rinlar hozirgi kunda amalda bo‘lgan “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks” (1995)ga tez-tez o‘zgartirishlar kiritiladi. Bunday o‘zgarishlarga zarurat texnika va texnologiyalarning rivojlanganligi, boshqa qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida paydo bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, mazkur lug‘atni yuridik leksikografiya sohasidagi muhim manbalar qatoriga kiritish mumkin. Chunki lug‘at yuqori informativligi bilan ajralib turadi. Lug‘atdagi ma’lumot qamrovi shu qadar kengki, hatto bu leksikografik manba tegishli qonun hujjatlarining o‘ziga xos sharhidek taassurot uyg‘otadi. Masalan, yuqorida keltirilgan lug‘at maqolasida “ma’muriy javobgarlik” uchun o‘tgan asrning 80-yillarida “15 sutka qamoq jazosi; 20 so‘m jarima qo‘llanishi, mayda bezorilik, spekulyativ harakatlar uchun qo‘llanishi” haqidagi ma’lumotlar ham ilova qilingan. Aynan shu kabi ma’lumotlar lug‘atning asosiy vazifasi nimadan iborat ekanligiga ishora qiladi. Ya’ni “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at-spravochnigi” foydalanuvchilari yuridik terminlarning mazmuni, ularning huquqiy maqomi haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yuridik terminlarning izohli lug‘atlarida aksariyati o‘zlashma bo‘lgan leksik birliklarning qanday tushuncha ifodalashini keng jamoatchilikka tushuntirish vazifasiga ustuvorlik berish keyingi avlod nashrlarida ham davom etdi. Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati” (2003) ham aynan shu yo‘nalishdagi leksikografik manba edi. Yuridik terminlarning qomusiy lug‘atini yaratishga bo‘lgan zaruratni mualliflar quyidagicha izohlaydilar: “Avvalgi, so‘zlikdangina iborat bo‘lgan, ruscha-o‘zbekcha tillarda tuzilgan lug‘atlarda ba’zi bir nom bilan olingan atamalar bir-biriga mos kelmadi, maqola ishlash va ularga izoh berish ancha qiyinchiliklar tug‘dirdi. Ularda ko‘pgina atamalar rus tilida yoki boshqa tillarda, ya’ni arab, fors tillarida, shuningdek, milliy tillar – yunon, fransuz, ingliz va nemis tillarida keltirildi” [12, 6]. Bularning hammasi yuridik terminologiyaning istiqlol davrida juda tez rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tabiiyki, qomusiy lug‘atni tayyorlashda sohaga aloqasi bo‘lgan ko‘plab manbalarga tayanish talab etiladi. Bu qomusiy lug‘atning informativligini oshiradi. Leksikografik manbani tayyorlashda mualliflar O‘zbekiston va chet el qonunlari matnidan, maxsus adabiyotlardan, ikki tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan, 1988-yilgi “Словарь иностранных слов” lug‘atidan foydalandilar. Shu sababli lug‘at maqolalari ma’lumotga boy tarzda shakllantirildi. Masalan, yuridik soha mutaxassislarining ham barchasiga tushunarli bo‘lmagan *absentizm* terminining izohi uchun Qomusda quyidagi lug‘at maqolasi keltiriladi:

“Absentizm (*lotin.* Absens – yo‘qlik) – konstitutsiyaviy huquq fanida ushbu atama, saylovchilarning saylovda yoki referendumda o‘z xohishi bilan, ixtiyoriy ishtirok etishdan voz kechishini bildiradi. Hozirgi davr demokratik davlatlarida absentizm keng tarqalgan holatdir: odatda saylovlarda ovoz berish huquqi bo‘lgan 20 dan 40 foizgacha shaxslar ishtirok etmaydi” [12, 10].

Izohning mukammalligi terminologik birlik haqida mutaxassis bo‘lmagan shaxslarning ham to‘liq ma’lumot olishiga imkon beradi. Qayd etish lozimki, “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati”da terminlar uchun etimologik ma’lumotlar ham keltirilgan. Yuqoridagi lug‘at maqolasida ham *absentizm* leksemasining lotin tiliga mansub ekanligi haqidagi ma’lumot izohdan avval keltirilgan. Bunday ma’lumot mutaxassis bo‘lgan shaxslarga ham, nomutaxassis auditoriya uchun ham foydali bo‘ladi, albatta. Chunki terminologik birlikning semantik mohiyatini to‘laqonli anglash uchun uning kelib chiqishi, paydo bo‘lish bosqichida qanday ma’no ifodalaganligini bilish muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, polifunksional terminlarning semantik tahlilida ahamiyatlidir. Umuman, yuridik terminlarning etimologik ma’lumotlari 1999-yilda H.Bektemirov, H.Xolmedov, S.Sodiqovlar tomonidan tayyorlangan “Huquqshunoslikka oid o‘zlashma terminlar” lug‘ati asosida shakllantirilishi ham mumkin. Lug‘at mualliflari yuzlab o‘zlashma leksemalar yuridik termin sifatida ajratilishida ularning dastlabki ma’nolaridan ancha uzoqlashganligiga e’tibor qaratadilar. Yuridik sohaga doir o‘zlashma so‘zlar lug‘ati ana shunday leksik birliklarning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. O‘zbek tilida yuridik termin deb baholanadigan ba’zi birliklarning ma’no taraqqiyotini aniq bilish terminlarni tizimlashtirishda qo‘l kelishi tabiiy. Masalan, *avtonomiya* leksemasi yuridik termin sifatida keng ma’noda ma’lum bir organlar, tashkilotlar yoxud birlashmalarning o‘z hayotiy faoliyatiga doir masalalarni mustaqil hal etishini anglatadi. Ammo bu leksemaning etimologik ma’nosi yunon tilida *autos* – o‘zini, *nomos* – qonun, ya’ni “qonunning o‘zi” jumlasi bilan ifodalanadi. Shunisi muhimki, so‘z o‘zlashtirilar ekan, bu jarayon tabiiy kechishi lozim, tilshunoslarning (yoki boshqa soha vakillarining) bu jarayonga aralashishi maqsadga muvofiq emas. Masalan, akademik A.Hojiyev 1996-yilda taklif etgan *programmist, programmalashtirish* kabi terminlar o‘zbek tilida me’yorlashib ketmadi [11, 17]. Sanalgan leksik birliklar o‘rniga *dasturchi, dasturlash* kabi leksik birliklar termin sifatida o‘zbek tilida ko‘proq qo‘llanadi. Bularning hammasi terminologik tizim birliklarining tabiiy, ijtimoiy talab asosida hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

“Zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan kommunikativ qobiliyatni o‘stiruvchi antroposentrik lug‘atlarni yaratish va ularni elektronlashtirish zarurati kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi amaliy tilshunoslik sohalari taraqqiyotini taqozo qilmoqda” [2, 3]. Yuridik leksikaning zamonaviy elektron lug‘atlarini yaratishda sezilarli muvaffaqiyatga erishilgan, deyishimiz mumkin. “Tushuntirish va ko‘rsatish – leksikografiyaning bosh tamoyili. Izohli, etimologik va tarjima lug‘atlar tushuntirish vazifasini bajarsa, imlo va talaffuz lug‘ati ko‘rsatish vazifasini bajaradi” [9, 18]. Tabiiyki, yuridik terminlarni qamrab oluvchi lug‘atlar ham, birinchi navbatda, tushuntiruvchi lug‘atlardir. Hozirgi kungacha yaratilgan yuridik sohaga doir terminologik lug‘atlarning elektron muqobillarida terminlarning izohi keltiriladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi milliy huquqiy internet portalida joylangan elektron lug‘atda 1300 dan ortiq yuridik terminlar o‘rin olgan. Bu yuridik terminlar huquqiy amaliyot, nazariya, ilm-fan va ta’lim jarayonida keng qo‘llanadigan so‘zlarni qamrab olgan [13]. Yuridik terminlarning barchasi alifbo tartibida joylashtirilgan. Qayd etish lozimki, tahlil qilinayotgan elektron lug‘atdan rus tilida, shuningdek, lotin va kirill alifbolarida foydalanish mumkin. Elektron lug‘atlarning ustuvor jihatlaridan yana biri shundaki, ularni muntazam yangilab borish mumkin. Terminologik tizimda o‘zgarishlarning tez-tez sodir bo‘lishini hisobga olganda, elektron lug‘atlarning samarador ekanligi ayon bo‘ladi. Umuman, elektron yuridik tezarus, lug‘atlarning turli dasturlarda ishlaydigan qurilmalarda qo‘llanuvchi mobil ilova ko‘rinishlari ham yaratilmoqda [14]. Ma’lum bo‘ladiki, yuridik sohada boy tajriba to‘plangan bo‘lib, soha mutaxassislari va tilshunoslar ularni lug‘atlashtirishda faol bo‘ishlari lozim.

Turli fan sohalarining istiqloldan keyin to‘g‘ri yo‘nalishda taraqqiy etishi, dunyo ilm-fanidagi o‘zgarishlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri bahramand bo‘lishi leksikografiya sohasida ham yangi yondashuvlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu borada B.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Ta’limdagi yuksalishlar, kognitiv ta’limga tomon siljishlar o‘zbek tilshunosligi fani oldiga jahon tilshunosligidagi zamonaviy leksikografiya fani erishayotgan yutuqlarga tayangan holda kelgusida o‘quv lug‘atchiligi muammolari bilan jiddiy shug‘ullanishni taqozo etadi” [5, 66-72].

Xulosa. Ta’kidlash lozimki, dunyo tilshunosligida tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, tilni tasvirlash bilan birga uni o‘qitishni yengillashtiradigan vositalarni yaratish, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish dolzarblik kasb etmoqda. Ta’lim tizimining turli bosqichlarida yuridik terminologiyani qamrab oluvchi lug‘atlarning mavjudligi nafaqat yetuk salohiyatli huquqshunos mutaxassislarning yetishib chiqishiga, balki aholining huquqiy savodxonligi ko‘tarilishiga

xizmat qiladi. Terminologik o‘quv lug‘atlarni yaratish ta’limning muayyan bosqichi uchun leksik birliklarni ajratish asosida kechadi. Zero, o‘quv lug‘atlari akademik lug‘atlardan o‘zining muxtasarligi, muayyan soha birliklarini qamrab olishi bilan farqlanadi. Bu borada rus olimi L.A.Novikov quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: “Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o‘quv lug‘atchiligi hajman kichik va ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi” [10, 3-11]. Umumiy o‘rta ta’limda huquqiy munosabatlar, davlat va uning bo‘g‘inlari haqida ma’lumot beruvchi fanlarni o‘qitishda yuridik terminlarni qamrab oluvchi o‘quv lug‘atlari zaruriy qo‘shimcha ta’lim vositasi vazifasini bajaradi. Anglashiladiki, yuridik o‘quv lug‘atlarni foydalanuvchilar auditoriyasi xususiyatlariga mos tarzda tayyorlash bugungi leksikografiyaning dolzarb masalalaridandir.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Ko‘chimob Sh., Sharipova N. Yuridik terminlarning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. – T.: Zamin nashr, 2021. – 208 b.

2. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фанл. д-ри. (DSc) дисс. – 252 б.

3. Ғуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Т., 2005. – 32 б.

4. Исмаилов Ғ. Ўзбек тилида терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Т., 2011. – 36 б.

5. Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // Навоий ДПИ ахборотномаси, 2015. №1. – Б. 66-72.

6. Керимов Д.А. Законодательная техника. – Москва: Норма-Инфра, 1998. – 122 с.

7. Курганов А.М., Джузбаева Д.С. Ўзбекча-русча-инглизча юридик атамалар луғати. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – 200 б.

8. Муҳиддинов Ф., Мирзажонов К. Юридик терминларнинг қисқача русча-ўзбекча луғат-справочниги. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 280 б.

9. Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек луғатчилигида тил ва маданият муштараклиги муаммоси: Филол. фанл. д-ри. (DSc) дисс. – Бухоро, 2021. – 208 б.

10. Новиков Л. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. Под ред. П.Н.Денисова и Л.А.Новикова. – Москва: МГУ, 1969. – С.3-11.

11. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996. – 176 б.

12. Юридик атамалар қомусий луғати. – Т.: Шарқ НМАК, 2003. – 432 б.

13. https://huquqiyportal.uz/dictionary [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 15.02.2025.

14. https://thesaurus.tsul.uz/terms?page [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 15.02.2025.

15. https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/migratsiya/ [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 22.02.2025.

Коршунова Анна Владимировна,
преподаватель БухГУ
(Узбекистан)
E-mail: annakors02@gmail.com

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК

Аннотация. Пословицы и поговорки являются объектом изучения фольклористики, культурологии, литературоведения, паремиологии и лингвокультурологии. В статье анализируются пословицы и поговорки в аспекте лингвокультурологии, что позволяет понять этнокультурные особенности языкового коллектива, нации в целом, отражает обобщенную картину мира всех людей, говорящих на том или ином языке. Лингвокультурологический анализ пословиц и поговорок направлен на выявление национально-культурной специфики. Как языковые знаки пословицы и поговорки рассматриваются в лингвокультурологии в качестве одной из форм фиксации культурно значимых явлений.

Ключевые слова: лингвокультурология, языковая картина мира, концепт, пословица, поговорка, фразеологизм, паремия.

Annotatsiya. Maqol va matallar xalq ogʻzaki ijodi, madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, paremiologiya va lingvokulturologiya fanlarining oʻrganish obyekti hisoblanadi. Maqolada maqol va matallar lingvokulturologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, bu bizga til jamoasining, butun xalqning etnik-madaniy xususiyatlarini tushunishga imkon beradi va ma'lum bir tilda soʻzlashuvchi barcha odamlar dunyosining umumlashtirilgan manzarasini aks ettiradi. Maqol va matallarni lingvistik-madaniy tahlil qilish milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Til belgilari sifatida maqol va matallar lingvokulturologiyada madaniy ahamiyatga molik hodisalarni qayd etish shakllaridan biri sifatida qaraladi.

Kalit soʻzlar: lingvokulturologiya, dunyoning lingvistik tasviri, tushuncha, matal, maqol, frazeologik birlik, paremiya.

Abstract. Proverbs and sayings are the object of study of folklore, cultural studies, literary criticism, paremiology and linguacultural studies. The article analyzes proverbs and sayings in the aspect of linguacultural studies, which allows us to understand the ethnocultural features of a language community, a nation as a whole, reflects a generalized picture of the world of all people speaking a particular language. Linguocultural analysis of proverbs and sayings are aimed at identifying national and cultural specificity. As linguistic signs, proverbs and sayings are considered in linguocultural studies as one of the forms of recording culturally significant phenomena.

Key words: linguocultural studies, linguistic view of the world, concept, proverb, saying, phraseological unit, paremia.

Введение. В XX веке с развитием лингвистических, фольклористических и литературоведческих исследований пословиц и поговорок возник новый аспект анализа: изучение пословиц и поговорок в рамках лингвокультурологии. В русском языке существует большое количество пословиц и поговорок с богатыми лингвокультурологическими компонентами. Они соответствуют динамичному и наследственному характеру взаимодействия языка и культуры и в определенной степени отвечают потребности в раскрытии духовной и культурной деятельности нации. Поэтому пословицы и поговорки рассматриваются как важная составляющая в изучении языковых и национальных личностей. В.А. Маслова пишет: "Традиционно пословицы и поговорки изучаются в фольклоре как жанровые тексты. В лингвистике они только начинают изучаться" [5, 136].

Лингвокультурология возникла как самостоятельная дисциплина в конце XX века. Главные исследования и теоретические результаты получены такими учеными, как Н.И. Толстой, В.И. Телия, В.В. Воробьев, В.А. Маслова, Н.Д. Арутюнова, В.А. Лихачев, В.И. Карасик и др. Их труды определяют понятия, объекты исследования, методы и задачи лингвокультурологии. Хотя вышеупомянутые ученые имеют различные взгляды на лингвокультурологию, ей можно дать следующее определение: "Дисциплина, изучающая проявление, отражение и фиксацию культуры в

языке и дискурсе” [4, 12]. Лингвокультурология – дисциплина, “возникшая на стыке лингвистики и культурологии и исследующая проявления культуры народа, которые отразились и закрепились в языке” [6, 194].

Основная часть. Языковая картина мира является национальным миром в зеркале языка, где можно найти оригинальный способ восприятия мира народом. Она имеет национальную специфику, отличающуюся от других народов, отражает взаимосвязь окружающей действительности и языковой личности человека. А такие языковые средства, как фразеологизмы, паремии, художественные тексты, играют важную роль в выражении и реконструкции языковой картины мира. Языковая картина мира характеризуется следующими особенностями: “универсальностью и национальностью, стабильностью и динамичностью, реальностью и идеальностью, ограниченностью и бесконечностью” [12, 290].

Пословицы – это популярные и устойчивые фразы народного происхождения, обобщающие жизненный опыт, идеи и образы, которые говорят о глубоких истинах коротким, разговорным языком, «характеризующиеся эквивалентностью суждения, высокой обобщенностью значения, полисемией, грамматической целостностью, устойчивостью, ритмической организацией, наличием буквальных и метафорических значений» [1, 248]. Например: *Что наживёшь, то и проживёшь; Родство – дело святое, а торговля – дело иное.* А “поговорка – это краткое народное изречение со структурой замкнутого предложения, содержащее обобщение на уровне конкретной типизированной ситуации, которая включается в семантизацию этой поговорки” [7, 195]. Другими словами, это разговорное, народно-популярное выражение, обычно тревожное по своей семантике и остроумное по исполнению. В нем есть символический, аллегорический смысл, оно не является связной фразой, предложением. Например: *Как снег на голову; Как собака на сене; Семь пятниц на неделе.*

В понимании ученых пословицы и поговорки при широком подходе включаются в состав фразеологии. В.Н. Телия предложила три группы вопросов при изучении фразеологии в аспекте лингвокультурологии:

1) образование фразеологизмов определяется как наиболее культурно и лингвистически специфическая часть их номенклатуры;

2) уточнить соответствия и различия в методах и результатах изучения и описания культурной семантики фразеологических выражений в этнолингвистическом, лингвокультурологическом и контрастном направлениях;

3) выявить общие методы исследования языка и культуры, на основе которых разработать методику изучения составных единиц языковых фраз как знаков культурного «языка» и участвовать в трансляции национального менталитета родного языка [9, 13]. Таким образом, по мнению ученого, задачей лингвокультурологического анализа фразеологизмов, в том числе пословиц и поговорок, является формирование их корпуса, создание методики выявления их национально-культурной специфики, выявление национально-культурных коннотаций.

Одним из базовых понятий лингвокультурологии является культурная коннотация языковых единиц: “Применительно к единицам фразеологического состава языка как знакам вторичной номинации, характерной чертой которых является образно-ситуативная мотивированность, которая напрямую связана с мировидением народа – носителя языка, средостением культурной коннотации, её основным нервом является это образное основание” [10, 214].

Поэтому анализ культурных коннотаций пословиц и поговорок должен прояснить следующие вопросы: каково конкретное содержание культурных коннотаций, каковы источники культурной интерпретации значения пословиц и поговорок, как культурные коннотации отражаются в содержании пословиц или поговорок, как коннотативно-культурные функции участвуют в использовании пословиц и поговорок в речи.

В дополнение к этому необходимо понять еще одно базовое понятие лингвокультурологии: концепт. Концепты, признанные базовыми, “выделены наибольшим коннотативным, ассоциативным, культурным, а часто и мифологическим смыслом” [3, 151]. Эти концепты повторяются в пословицах и поговорках, а пословицы и поговорки с этими концептами наиболее часто воспроизводятся в повседневной речи.

В.Н. Телия приводит определения: “Концепт – это продукт человеческой мысли и явление идеальное, а, следовательно, присущее человеческому сознанию вообще, а не только языковому. Концепт – это конструкт, он не воссоздается, а “реконструируется” через свое языковое выражение и внеязыковое сознание” [8, 57]. Культурная информация, сохраняющаяся в концепте, оказывает важное влияние на мировоззрение нации и индивидуальное сознание.

Исследуя языковую картину мира, заложенную в пословицах поговорках, можно определить ключевые лингвистические и культурные концепты, характеризующие их. Мы проанализируем особенности восприятия объективного мира путем анализа пословиц и поговорок и выявим базовые концепты об этике, морали, религии, жизни, смерти природе и т. д., которые они репрезентируют. Имена концептов могут быть вербализованы в пословицах и поговорках, а могут быть представлены в их значениях:

1. Философские идеи в языковой картине мира: пословицы и поговорки в основном взяты из практической деятельности широких слоев населения и поэтому часто отражают логические закономерности, важные для познания окружающей действительности. Выделяют концепт истины – *“Не по словам судят, а по делам”* – через явления в сущность объекта; концепт противоречий *“Из малого выходит великое”, “Не было бы счастья, а несчастье помогло*”.

2. Этика и мораль в языковой картине мира направляют социальную практику и поведение людей. Традиционные этические и моральные понятия включают в себя представления о добре и зле, жизни и смерти, богатстве и бедности, истине и заблуждении. Они отражают концепт справедливости: “*За добро добром платят, за зло – злом”, “Кто посеет ветер, пожнёт бурю”;* дорожат личной репутацией, также ценят приватность семьи: “*Добрая слава лучше богатства”, “Правда всего дороже”, “Сор из избы не выносят*”.

3. Религия в языковой картине мира: язык является инструментом распространения религиозного учения, он служит важным орудием в формировании религиозной мысли человека. Во многих русских пословицах и поговорках существуют разные религиозные концепты о Боге, рае, грехе, например: *“Жить – Богу служить”. Бог – создатель мира и человечества, нам нужно повиноваться Богу*. “Первородный грех” – одна из основных доктрин христианства, человек рождается грешником перед Богом и поэтому должен пройти через все виды страданий, чтобы искупить свои грехи: *“Нет такого человека, чтоб век без греха прожил*”. После смерти душу судит Бог, и спасаются только те, кто верил в Бога, и попадут в рай, и будут жить вечно: “*С Богом пойдёшь – до блага дойдёшь”*.

4. Жизнь и смерть в языковой картине мира: жизнь и смерть – два самых важных концепта в языковой картине мира человека, они одновременно являются «ключевыми словами» для понимания русской культуры. Эти концепты трактуются дуалистически: в религиозном и бытовом понимании: *“Родится человек на смерть, а умрёт на живот*”. По христианским представлениям загробное существование души человека – это и есть истинная жизнь, но уготована она не всем: *“Злому – смерть, а доброму – воскресение”, “Лучше смерть, нежели зол живот*”. В обыденном представлении лучше умереть, чем плохо жить. В то же время как бы ни была тяжела жизнь, умирать человеку не хочется: “*Жить – мучиться, а умереть не хочется”*.

5. Природа в языковой картине мира: мы живем в природе, и природа оказывает разнообразное влияние на нашу материальную и духовную жизнь. Природная среда также порождает различия разных народов, поэтому на их жизнь, культуру и язык оказывает глубокое влияние природная среда. Россия очень богата лесными ресурсами, жизнь России тесно связана с лесом: *“Грибов ищут, по лесу рыщут*”. Люди оценивают различные природные явления в соответствии с собственными концептами времени, погоды: “*Зимой снег глубокий – летом хлеб высокий”, “Если осень ненастная – весна дождливая”, “В дождь коси, в вёдро греби”*.

6. Нравы и обычаи в языковой картине мира. Нравы и обычаи – это совокупность древних идей, обычаев, верований, ритуалов и привычек, которые формировались в течение длительного периода принимаются и соблюдаются всеми членами общества. У каждого народа есть свои уникальные нравы и обычаи. В языковой картине мира хлеб является символом плодов труда, тепла и радости. Есть такая пословица: “*Хлеб всему голова»*. Хлеб-соль в торжественной церемонии встречи гостей (хлебосольство) – выражение гостеприимства: *“С кем хлеб-соль водишь, на того и походишь”, “Без соли, без хлеба худая беседа*”. Кроме того, у русских есть привычка

принимать паровые ванны, которые считаются полезными для здоровья: *“На пару да на баньке сорок болезней выходит*”. Праздники также являются важной частью обычаев, есть много пословиц и поговорок, отражающих русский фольклор и праздничные обычаи: “*Дорого яичко к Христову дню”, “Без блина не Масленица”*.

7. Цифры в языковой картине мира. Цифры – это не только инструмент для счета, но и специфический культурный язык. Каждый язык имеет свою уникальную цифровую культуру, выбор имени числительного в пословицах и поговорках так же отражает предпочтения и табу народов. “Один” обычно используется для обозначения небольших чисел, что отражает концепт “одиночество”: “*Одному жить – сердцу холодно”, “Один солдат – не полк*”. И наоборот, “семь” и “сто” указывают на высокое число: *“Семь пятниц на неделе”*, что выражает концепт “непостоянство”; “*Сто друзей – мало, один враг – много”* – необходимость дружить с людьми отражает концепт дружба.

8. Историческое событие в языковой картине мира: языки неразрывно связаны с историей. Множество важных исторических событий и анекдотов об известных людях были записаны в учебниках истории и передавались из поколения в поколение с помощью языка. Пословицы и поговорки в простых фразах обобщают исторические события. Примеры: “*Незваный гость хуже татарина*” – проявление бунтарского духа к игу, “*Молода – в Саксонии не была”* используется для обо значения людей, которые не пережили великих событий из-за своей молодости, а “*Язык до Киева доведёт*” выделяет концепт о речи.

Выводы. Таким образом, пословицы и поговорки позволяют понять этнокультурные особенности языкового коллектива, нации в целом, отражают обобщенную картину мира всех людей, говорящих на том или ином языке. Анализ языкового материала позволил выделить закрепившиеся в пословицах и поговорках концепты справедливости, репутации, правды, Бога, рая, греха, времени, погоды и др., которые существуют в сознании носителей русского языка не изолированно, а во взаимосвязи друг с другом. Это свидетельствует о важности для носителей русского языка понятий чести, стремления к истине, благоговения к религии и уважения к природе. В связи с чем концептуальный анализ пословиц и поговорок является перспективным лингвокультурологическим направлением.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 346 с.
2. Гохуа У. Культурная семантика. – Пекин: Военная пресса, 2000. – 114 с.
3. Жданова В.В. Пословицы и поговорки как источник изучения русского культурно-языкового сознания // Русский язык как иностранный: Теория. Исследования. Практика. – СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. – С. 151–160.
4. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 1997. – 194 с.
7. Солодуб Ю.П. Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект). – М.: Флинта: Наука, 2002. – 196 с.
8. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С.173-204.
9. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры. – М., 1999. – С.13-24.
10. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996. – 288 с.
11. Уразметова А.В. Лингвокультурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц: на материале английского и французского языков: автореф. дис. канд. филол. наук. – Уфа, 2006. –76 с.
12. Чжао Лян. Лингвокультурология. – Шанхай: Шанхайский университет иностранных языков, 2006. – 290 с.

Mirzayeva Surayyo Mahmasharif qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi (O‘zbekiston)
E-mail: surayyomirzayeva92@gmail.com

MIMEMIK MATNLARDA EMOTSIONAL-PSIXOLOGIK HOLATLARNING IFODASI (ERKIN BOZOROVNING “OT HAQIDA BALLADA”SI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mimemik matnlarda emotsional-psixologik holatlarning ifodasi Erkin Bozorovning “Ot haqida ballada”si misolida tahlil qilinadi. Mimemik matnlar so‘zsiz yoki qisqa ifoda vositalari orqali hissiy holatlar, fikrlar va xulq-atvorni ifodalashda qo‘llaniladi. Psixolingvistik yondashuv kognitiv jarayonlar va hissiy javoblarni shakllantirishga qaratilgan. Maqola mimemik matnlarning kommunikativ samaradorligi va ularning badiiy matnlarda, ijtimoiy muloqotdagi rolini yoritadi. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi mimemik matnlarning universal tushunilishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Mimemik matnlar, Erkin Bozorovning “Ot haqida ballada”si, harakat va ishoralarni tasvirlash, verbalsiz tasvirlash, metaforalar, tasviriy vositalar, kontrast va qiyoslar, hissiy javoblar.

Аннотация. В статье анализируется выражение эмоционально-психологических состояний в миметических текстах на примере “Баллады о коне” Эркина Бозорова. Мимические тексты используются для выражения эмоциональных состояний, мыслей и поведения без слов или с помощью кратких средств выражения. Психолингвистический подход фокусируется на формировании когнитивных процессов и эмоциональных реакций. В статье рассматривается коммуникативная эффективность миметических текстов и их роль в художественных текстах и социальной коммуникации. Сочетание этих подходов обеспечивает универсальное понимание миметических текстов.

Ключевые слова: мимические тексты, “Баллада о коне” Эркина Бозорова, изображение движения и жестов, невербальное изображение, метафоры, образные средства, контраст и сравнение, эмоциональные реакции.

Abstract. This article analyzes the expression of emotional-psychological states in mimetic texts using the example of Erkin Bozorov’s “Ballad about a Horse”. Mimetic texts are used to express emotional states, thoughts and behavior through wordless or short means of expression. The psycholinguistic approach is aimed at the formation of cognitive processes and emotional responses. The article highlights the communicative effectiveness of mimetic texts and their role in artistic texts and social communication. The harmony of these approaches ensures the universal understanding of mimetic texts.

Key words: Mimic texts, Erkin Bozorov’s “Ballad about a Horse”, depiction of movement and gestures, non-verbal depiction, metaphors, figurative means, contrast and comparison, emotional responses.

Kirish. Nutqiy muloqot fikr bayon qilish jarayoni bo‘lib, shubhasiz, ko‘p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og‘zaki shaklda moddiy voqelanishi bilan bog‘liq. Lekin lisoniy birliklarning voqelanishi bilan bog‘liq bo‘lmagan muloqot turlari ham oz emas. Shunga ko‘ra, muloqot ko‘p hollarda verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz – noverbal vosita (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvol, ohang, sukut va h.)lar orqali axborot berish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zaro ta’siriga ko‘ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Blumfild o‘zining “Til” kitobida yozishicha, “imo-ishora doimiy ravishda kishi nutqini kuzatib boradi, chunki har qanday murakkab hamda tushunarli ishora oddiy nutq asosiga quriladi” va tabiiy aloqa aralashuvda ishlatiladi [1].

Shu jumladan, mimemik matnlar ham turli ko‘rinishdagi insoniy aloqalarning asosiy shakllaridan biri sifatida zamonaviy lingvistika va psixologiyada o‘rganilmoqda. Bunday matnlar insonlar orasidagi o‘zaro tushunishni osonlashtirish uchun pragmatik va psixologik omillarni birlashtiradi.

Mimemik matnlar insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida qisqa, vizual va ko‘pincha noverbal ifoda vositalaridan foydalanadigan matn shakli hisoblanadi. Ushbu matnlar emotsiyalarni ifodalash, hissiy holatlarni yetkazish yoki qisqa g‘oyalarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnda og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlar tabiiy til birliklari bilan ifodalanadi, ularni ongli ravishda tanlash muallif tomonidan uning pragmatik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bizningcha, mimikaning obrazli tasviriga ega bo‘lishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat butun matnning ifodaliligiga hissa qo‘shadi, balki o‘quvchiga muallif niyatini to‘g‘ri tushunish va izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, majoziy tavsifni adekvat tushunish muallif va o‘quvchining mimik harakatning mazmuni va uning paydo bo‘lish sababi haqidagi bilimlari qanchalik mos kelishiga, shuningdek, muallif va o'quvchi foydalanilgan til birliklarining konnotatsiyalarini qanchalik bir xil talqin qilishiga bog‘liq. Tasviriylik – matnning shunday estetik jihatdan ahamiyatga molik qurilishi bo‘lib, til va nutq birliklarini maxsus tanlash va ishlatish orqali muallifning vazifasiga mos keladigan qabul qiluvchining estetik tajribasini namoyon etadi. O‘quvchining muallif niyatini tushunishi uchun zarur element sifatida obrazli nominatsiyalarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lum bo‘lishicha, bu obrazli nominatsiyalardan foydalanish ko‘proq individual mualliflik uslubini ko‘rsatadi, chunki badiiy matnda faktik aniqlikka erishish va o‘z bahosini ifodalash uchun muallif lingvistik vositalar va ularning kombinatsiyasini tanlashda ma’lum erkinlikka ega.

Asosiy qism. Deskriptiv (tasviriy), Komparativ (qiyosiy), Kontekstual tahlil tahlillar orqali Erkin Bozorovning “Ot haqida ballada” asarida insonning emotsional-psixologik holatlarini ifodalovchi lingvistik va uslubiy vositalarni aniqlash, ularning mimemik matnlar janridagi o‘rni va ahamiyatini yoritishni maqsad qilingan. Matndagi mimemik xususiyatlar otning harakatlari, inson his-tuyg‘ulari, va tarixiy qirralarni birlashtiruvchi tasviriy vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Harakat va ishoralar dinamik, emotsional va ramziy tarzda berilgan bo‘lib, mimemik matnning asosiy belgilarini to‘liq aks ettiradi. Matndagi harakat va ishoralar ot timsolining mimemik xususiyatini ochib beradi. U erkinlik, tarix, milliy qadriyat, jasorat va insonning orzu-umidlari bilan bog‘liq ramziy ma’nolarni shakllantiradi. Harakatlar tasvirlanishining badiiyligi uning timsoliy qimmatini yanada boyitadi. Mazkur matnda harakat va ishoralar orqali mimemik mazmun juda chuqur ifoda etilgan. Mimemik matn tushunchasi inson muloqoti jarayonini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Nazariy manbalar va zamonaviy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mimemik matnlar insoniy aloqalarning muhim qismini tashkil etadi. Ularning rivojlanishi va tadqiqi muloqot samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. Vizual tasvirlar orqali ma’lumot yetkazish inson miyasi uchun matnga nisbatan osonroq qabul qilinadi. Bu esa mimemik matnlarning muloqotdagi samaradorligini oshiradi. Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida Erkin Bozorovning “Ot haqida ballada”sini tahlil qilamiz.

1. Harakat va ishoralarni tasvirlash

Matnning asosiy qismi otning harakatlarini tasvirlashga qaratilgan. Har bir harakat chuqur metafora va dinamika bilan berilgan:

“Cheksizlikda ketib borar” – otning harakatlari cheksiz va orzular olamining bir qismi kabi tasvirlangan. Ot harakatda tasvirlangan, ammo bu harakat faqat fizik jihatdan emas, balki ma’naviy, madaniy va tarixiy mazmunni ham o‘z ichiga oladi. Cheksizlik – bu erkinlik, shijoat va vaqtni yengib o‘tish timsoli.

Ekspressivlik shiddatli his-tuyg‘ularni ko‘rsatadigan taqqoslashlarni o‘z ichiga olgan kontekstlarda uchraydi:

“Ko‘kragida shamollarni turtib borar” – shamolni yengib o‘tish qudratli harakatni ifodalaydi. Otning harakatlari shamolga qarshi, tabiat kuchlari bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Bu harakat jasorat, qudrat va tinimsiz harakat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Tuyog‘ida bulutlarni chertib borar” – yengillik va tabiat bilan uyg‘unlikni aks ettiradi. Bulutlar bilan bog‘liq harakatlar osmonga intiluvchanlik va yuksaklik timsoli sifatida ishlatilgan.

Bu misollar harakatlarni sezilarli, jonli va yorqin tasvirlash orqali mimemik xususiyatlarning amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Tuyg‘u va uning shiddatini do‘stona tarzda tasvirlash, shuningdek, his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishini turli yo‘llar bilan ko‘rsatish kerak. Majoziy nominatsiyalarning kombinatsiyasi kontekstda ko‘proq ekspressivlikni ta’minlaydi va muallifga qahramonning xatti-harakatining xususiyatlarini va vaziyatga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri yetkazishga imkon beradi.

2. Verbalsiz tasvirlash va metaforalar.

Verbalsiz kinoni tasvirlashda harakatlar va obyektlarning metaforalashtirilishi asosiy rol o‘ynaydi:

“Bir qadami Toshkent, biri Hirot bo‘lib" — otning harakatlari geografik kenglik bilan bog‘lanib, ulug‘vorlik va tarixiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Otning harakatlari turli hududlarni bog‘lovchi kuch sifatida aks ettirilgan. Bu ishora vatanparvarlik va milliy yaxlitlik timsoliga aylanadi. Sh.Iskandarova ham o‘z tadqiqotida shunday fikrlar bildiradi: “Imo-ishoralar yordamida adresant haqida milliy hududiy va ijtimoiy informatsiyaga ega bo‘lamiz, shu bilan birga, ko‘pchilik xalqlar paralingvistik vositalari adresatga qarab ishlatilishini alohida e’tiborga olishimiz kerak” [2].

“Yer-u ko‘kka sig‘may-sig‘may uchib borar” – ot harakatining chegarasizligi, uning oliyjanob timsoli orqali berilgan.

Bu yerda harakatlar pantomimadan hikoyaga aylantirilgan, chunki o‘quvchi ot harakatlarini tasavvur qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shodlik tuyg‘usini ifodalash uchun tabassumning majoziy nominatsiyalari bilan bir qatorda, muallif tabassum bilan birga keladigan mimikaning vizual idrok etilgan xususiyatlarining xususiyatlarini kontekstga kiritadi.

3. Tasviriy vositalardan foydalanish

Matnda tasviriy vositalar – tashbehlar, epitetlar, va metaforalar ko‘p qo‘llanilgan. Quyida berilgan kontekstlarning sinonimiyasi konstruksiyalarning pragmatik va semantikasida bo‘ladi, ammo muallif grammatik ifodalashning turli usullarini qo‘llaydi: qiyosiy ibora va kesim bilan murakkablashgan murakkab jumla. Kontekstning tasviri nafaqat tilning ekspressiv vositalari (epitetlar, metaforalar, qiyoslar), balki semantik jihatdan o‘xshash, taqqoslash yoki metafora imkoniyatlariga ega bo‘lgan konstruktsiyalar bilan ham ta’minlanishi mumkin.

“Sapchib-sapchib osmonlarga” – harakat dinamikasini ko‘rsatuvchi fe’l. Osmonga sakrash harakatlari orqali iroda, umid va harakatning chegarasizligi tasvirlangan. Bu ishora insonning yuksak orzu-maqsadlarini ifodalaydi. Tuyoqlardagi uchqunni tavsiflash uchun muallif his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan fe’ldan, shuningdek kuchayish funksiyasini bajaradigan qo‘shimcha konstruktsiyadan foydalanadi.

“Tuyog‘idan tamg‘a bosib dovonlarga” – ot harakatining ta’sirini jonlantiradi. Muallif o‘z idiotizmini o‘ziga xos xususiyatlaridan dalolat beruvchi obrazli nominatsiyalar ham qo‘llagan. Tahlil qilinayotgan nominatsiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bajaradigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi. Asarda tasvirlash funksiyasi metafora bilan ta’minlanadi, ular tasvirga tafsilot, ekspressivlik qo‘shadi va muallifning xohish-istaklarini aks ettiradi. Turli mimikalarni aktuallashtiruvchi leksemalarga mos kelishi, uning badiiy matndagi ekspressiv salohiyatidan dalolat beradi.

“Manglayini buyuk Temur silagan ot” – ot tarixiy qudrat va ulug‘vorlik ramzi sifatida tasvirlangan. Ba’zan lisoniy vositalar orqali ifodalangan ming-minglab mazmun va munosabatni birgina nolisoniy birlik orqali yuzaga chiqarish mumkin. Zero, nutqiy muloqotning asosiy vazifasi kommunikantlarning bir-biriga ta’sir o‘tkazishini taqozo etadiki, bunda ijtimoiy faoliyatning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida nutqiy muloqot o‘ziga xos o‘ta qisqa muddatda muvaqqat butunlikni yuzaga keltiradi va oniy (situativ) pragmatik tizimni tashkil etadi. Noverbal vositalar hamma vaqt tovush tiliga ega bo‘lgan kishilar uchun ikkinchi darajali vazifa bajaradi. Bu vositalar ko‘rsatish, ekspressiv xarakterda bo‘lishi mumkin, ammo o‘zicha tushunchalarni nomlay va ifodalay olmaydi. Faqat shunday funksiyaga ega bo‘lgan so‘z tilini kuzatib boradi [5]. Bu tasviriy vositalar harakatning estetik mazmunini boyitadi va mimemik xususiyatlarni yorqin ko‘rsatadi. Hissiy holatni va personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun muallif tavsiflovchi epitetlardan (shu jumladan ularning sinonimik qatorlaridan) foydalanadi. Tuyg‘ularning ifoda intensivligi, dinamikasi, paydo bo‘lishi va yo‘qolishi metaforalar va personifikatsiyalar bilan bog‘liq, Bundan tashqari, muallifning individualligi umumiy til metaforalaridan tashqari, boshqa tropiklarni (epitetlar, taqqoslashlar) o‘z ichiga olgan qismlarda aniq namoyon bo‘ladi. Majoziy nominatsiyalarning kombinatsiyasi muallifning dunyoqarashi va bahosini ifodalovchi individual mualliflik obrazlarining paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratadi.

4. Kontrast va qiyoslar.

Matnda qudratli va zaif otning qiyosini ko‘rish mumkin:

“Yelib borar…” – orzular va ulug‘vorlik timsoli bo‘lgan qudratli ot.

“Aravaga qo‘shilgan bir xashaki ot” – og‘ir mehnatga majbur bo‘lgan, zaiflikni ifodalagan ot. Muallif tomonidan ongli ravishda tanlangan epitetlar kontekstga tasvir, portretga tafsilot beradi va

muallifga qo‘shimcha yashirin ma’nolarni etkazishga yordam beradi va o‘quvchi qahramonlarning bir-biriga munosabatini aniqlay oladi va muallifning niyatini to‘g‘ri tushunadi. Ya’ni, otga arava qo‘shilishi o‘quvchiga yetkazilishi kerak bo‘lgan ma’noni ochilishiga xizmat qilyapti.

“Qamchi azob! Zarbi jondan o‘tib borar”

Bu yerda harakat (qamchi zarbi) orqali dramatizm yaratiladi. Bu ishora otning og‘ir mehnat va zaiflikdan qutulish istagini aks ettiradi. Biroq, shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, otning azob ichra sukut qilishi uning matonatidan ham dalolatdir.

“Qishloqda ot ketib borar, Tushlarini oqar suvga aytib borar”.

Otning oddiy harakatlari orqali orzu-armonlar va umidlar tasvirlangan. Suvga “tush aytish” harakati inson hayotining ma’naviy jarayonlariga ishora qiladi.

Bu qiyos mimemik matnning emotsional ta’sirini oshiradi.

5. His-tuyg‘ular va tarixiy mazmun.

Matnda harakatlar inson his-tuyg‘ulari va tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashtirilgan:

“Bobur Mirzo yig‘lagan ot” va “Jaloliddin ko‘nglini g‘am quchgan mahal” – ot harakatlari shaxslar his-tuyg‘ularini tasvirlashga xizmat qiladi.

“Jonon qizlar qalbiga o‘t yoqib borar” – harakatlar romantik his-tuyg‘ular bilan bog‘langan.

“Manglayini buyuk Temur silagan ot”.

Ot harakatini tasvirlash orqali uning tarixi va ma’naviy ahamiyati ko‘rsatiladi. Temur bilan bog‘liq ishoralar otning milliy timsol sifatidagi ahamiyatini kuchaytiradi. Sh.Safarov va G.Toirovalar “Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari” o‘quv qo‘llanlasida shunday yozadilar: “Muloqot jarayonida ichki omillar (lisoniy, kinetik va ularning ichki ko‘rinishlari) bir-biri bilan muvofiqlashishi kerak”[3]. Yuqoridagi she’riy satrda ham ayni shu muvofiqlikni ko‘rishimiz mumkin:

“O‘zga yurtda vatanning bir parchasiday”.

Ot harakatiga milliy yuksaklik va huviyyat hissini beradigan ramziy ishoralar yuklangan. Bunday nutq nominatsiyalari ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalashga xizmat qiladi va ularning mazmunini ko‘rsatishga imkon beradi.

Xulosa. Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda noverbal xatti-harakatni ifodalash usullari ko‘plab asarlarning mavzusidir ularning xilma-xilligi, birinchi navbatda, o‘rganish obyektini tanlash bilan bog‘liq. Shunday qilib, og‘zaki bo‘lmagan ko‘rinishlarni aktuallashtirishning lingvistik usullarini tahlil qilish semiotikaning turli bo‘limlariga murojaat qilishni o‘z ichiga oladi: kinesika, okulesika, proksemika va boshqalar. Turli xil noverbal kodning tavsifi va uning badiiy asardagi roli turli tadqiqot yo‘nalishlarini belgilaydi, masalan: hissiyotlarni paralingvistik ma’noni ifodalash, modal ifodalash va boshqalar. Ikkinchidan, matnlarning xilma-xilligi, jumladan, og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarning xususiyatlari nafaqat haqiqiy tavsiflovchi, balki qiyosiy tadqiqotlarning paydo bo‘lishini belgilaydi, ular rus va xorijiy adabiyotlar matnlarida paratilni tahlil qilishga asoslangan. Uchinchidan, muayyan muallifning asarlarida personajlarning noverbal xatti-harakatlarini tasvirlashning umumiy til usullari ham, muallifning voqelikni idrok etishini aks ettiruvchi individual usullar ham mavjud. Matnlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo‘lib, ularning lingvistik va vizual xususiyatlarini o‘rganish bugungi kun ilm-fanining muhim vazifalaridan biridir.

Mimemik matnlarda aloqa ishtirokchilari o‘rtasidagi pragmatik munosabatlar verbal va noverbal elementlar orqali namoyon bo‘ladi. Ular kontekstga, ijtimoiy roliga va muloqot maqsadiga bog‘liq holda turli shakllarda ifodalanadi. Mimemik aspektlar muloqot jarayonida emotsiyalarni ifodalash, munosabatlarni aniqlash va axborotni to‘g‘ri tushunish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular kommunikasiya samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tilni aloqa vositasi sifatida o‘rganishda unga yondosh hodisa hisoblanuvchi noverbal vositalarni tadqiq qilishning ham ahamiyati katta. Yuqoridagi fikrning isboti sifatida M.Saidxonovning quyidagi jumlasini keltirishimiz mumkin: “Aloqa-aralashuvda axborot til va tildan tashqari faktorlarga asoslanishi kerak. Tilshunoslikning rivojlanishidagi hozirgi davr tilni tor doirada tahlil qilish bilan umumiy aloqa vazaifasini bajaruvchi verbal va noverbal vositalarni o‘zaro aloqador ko‘rinishda o‘rganishning qo‘llanishi natijasida yangi yo‘nalish va usullar hosil bo‘lish davridir. Bu esa tilshunoslikda kishilik jamiyatining aloqa-aralashuvini o‘rganuvchi yangi ilmiy yo‘nalishlarning hosil bo‘lishiga, boshqa fanlar yoki fan bo‘limlari bilan aloqador bo‘lishiga asos bo‘ladi [4].

ADABIYOTLAR:

1. Блумфилд Л. Язык. – М., 1968. – 144 с.
2. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 63 б.
3. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 237 б.
4. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. –Т.: Фан, 2008. –166 б.
5. Реформатский А.А. Введение языкознание. – М.,1960. – 432 с.
6. Toirova G.I. Nutq muloqot situativ pragmatik sistema sifatida. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 56 b.

Umarov Umidjon Akram o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: umidjon02121996@gmail.com

LITERARY ANALYSIS OF THE NUMBER THREE AND FOUR ARCHETYPES IN J.K.ROWLING‘S “HARRY POTTER”

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Harry Potter” asaridagi uch va to‘rt son arxetiplarining badiiy ahamiyati tahlil qilingan. Uch son arxetipining Harry, Hermione va Ron o‘rtasidagi hamkorlikni ifodalashi, “The Triwizard Tournament” turniridagi uchta chempion orqali uch son arxetipi aks etishi, to‘rt son arxetipining ramziy bir butun oilani tashkil qiluvchi Harry, Lily, James va Sirius Black timsolida mustahkamlik va mukammallik ramzini ifodalashi, Gryffindor, Hufflepuff, Ravenclaw va Slytherin uylarining 4 son arxetipi sifatida tahlil qilinishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Son arxetipi, Uch, To‘rt, ramzlar, mukammallik, hamkorlik, mustahkamlik.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная значимость архетипов чисел три” и “четыре” в “Гарри Поттере”. Выявлено, что архетип числа “три” представляет партнерство Гарри, Гермионы и Рона, архетип числа три отражен через трех чемпионов турнира “Турнир Трех Волшебников”, архетип числа “четыре” представляет собой символ силы и совершенства в образе Гарри, Лили, Джеймса и Сириуса Блэка, образующих символическое целое семейство, и анализируется как архетип числа 4 домов Гриффиндор, Хаффлпафф, Рейвенкло и Слизерин.

Ключевые слова: архетип числа, Тройка, Четверка, символы, совершенство, сотрудничество, стабильность.

Abstract. This article analyzes the literary significance of archetypes of numbers three and four in “Harry Potter”. It is revealed that the archetype of the number three represents the partnership between Harry, Hermione and Ron, the archetype of the number three is reflected through the three champions of the tournament “The Triwizard Tournament”, the archetype of the number four represents the symbol of strength and perfection in the image of Harry, Lily, James and Sirius Black forming a symbolic whole family, and it is analyzed as the archetype of the number 4 of the houses Gryffindor, Hufflepuff, Ravenclaw and Slytherin.

Key words: Number archetype, Three, Four, symbols, perfection, cooperation, stability.

Introduction. Throughout the centuries, various cultures and belief systems have developed intriguing perspectives on the complex relationships between numbers and the cosmos, leading to the examination of numbers as symbols that embody deeper meanings beyond their numerical value, serving as numerical archetypes. These archetypes are shaped based on symbolic archetypes. Writers and readers can explore these archetypes in literature, uncovering complex symbols as a result of their literary significance. These archetypes serve not only as powerful symbols for understanding the world but also as narrative tools capable of conveying complex themes and universal truths. Overall, studying numerical archetypes in literature offers a creative and thought-provoking way to understand how numbers reflect reality and enrich our cultural narratives.

Many authors, including Joseph Campbell, Carl Jung, Dante Alighieri, James Joyce, T.S. Eliot, and Umberto Eco, have explored numerical archetypes in their works. Joseph Campbell, known for his research on mythology and the hero‘s journey, discusses the symbolic meaning of numbers in stories and legends. Carl Jung‘s theories on archetypes encompass the interpretation of numbers as literary symbols. Dante Alighieri transforms perspectives on numbers in literature by incorporating the number three, representing the Holy Trinity, in his epic work “Divine Comedy”. James Joyce also employs the symbolic application of numbers in his literary pieces. Eliot uses a variety of numerical references in his poetry that hold deeper meanings related to time, era, and experience. Known for semiotic analysis, Umberto Eco studies the use of numbers as symbols in literary texts. The works of these authors contribute to a deeper

understanding of how numbers function as literary archetypes and allow readers to explore the hidden meanings beneath the surface of numbers.

In addition, theories about the study of number archetypes and their roles can also be found in Ruth Drayer's "Numerology: The Power in Numbers" [5, 192], Annemarie Schimmel's "The Mystery of Numbers" [7, 314], and Kris Swank's "Harry Potter Numerology: One (Unity)" [3, 10].

Main part. The concept of number archetypes holds significant importance across various cultures and belief systems, and these archetypes are used in literary works to express deeper meanings that influence philosophical discourse and literature beyond the mere quantity of numbers.

The archetype of the number three is often employed in literary contexts to highlight themes of collaboration and harmony among different beings, representing unity in diversity.

According to Jung's theory, the four number archetypes are referred to as "quaternity" [2, 18] and are traditionally understood as symbols of wholeness, stability, perfection, and completeness.

It is important to emphasize the significance of the repetition of certain numbers in the "Harry Potter" series, as J.K. Rowling utilizes them as symbolic archetypes within her work. This series allows for the exploration of many successful themes, and the archetype of the number three, represented by the number "3", holds unique importance in the narrative.

In "Harry Potter", the trio of characters – Harry, Hermione, and Ron – represents three strong forces, expressing unity among them. Harry is the main protagonist and embodies heroism. His bravery and courage reflect the leadership role in the trio. Ron Weasley is interpreted as a symbol of friendship, loyalty, and maintaining order. His ability to mediate and emotional depth are deemed necessary for maintaining balance within the group. Hermione Granger stands out as the intelligent and knowledgeable character, offering higher education and strategic thinking. She provides the essential signals for knowledge and customs within the trio.

They are always together, supporting each other. Even when faced with conflicts and disagreements, they ultimately come together and assist one another in their struggles. This showcases their unity and collective action. They generally protect each other and bring light to desolate and dark places. For instance, after Harry returns from the graveyard, Ron and Hermione are by his side to comfort him, demonstrating their solidarity and optimism.

Additionally, the archetype of the number three is also reflected through the three champions in "The Triwizard Tournament". The three champions come from different schools, signifying the unification of these three institutions and their participation in an important competition. The Triwizard Tournament is held as a friendly competition among three major wizarding schools in Europe: Hogwarts, Beauxbatons, and Durmstrang. One champion is selected from each school, and the three champions compete in performing three magical tasks. The schools take turns hosting the tournament every five years, establishing a wonderful way to foster connections among young witches and wizards from various nations. It is noteworthy that the number three signifies completeness in relation to individuals. Thus, every aspect of the teams from the three schools complements each other, contributing to their unity.

Besides, in the "Harry Potter" series, we can see how the four houses reflect the archetype of perfection associated with the number four. These four houses are called Gryffindor, Hufflepuff, Ravenclaw, and Slytherin [4, 85]. Each house has its own unique history and has produced remarkable wizards. The sorting ceremony that takes place at Hogwarts is considered a very important event because students are sorted into one of the four houses through the Sorting Hat, and the houses they belong to become like their family at Hogwarts. They participate in activities together with the other members of their house, sleep in the common dormitory, and spend their free time in the house's common room. When students are at Hogwarts, their victories bring points to their respective houses, while any rule violations result in the loss of house points. At the end of the year, the members of the house that has collected the most points are awarded the house cup, which is considered a great honor. The connections between the characters and the houses they belong to play an important role in developing their personalities and interests. The following verses spoken by the Sorting Hat provide descriptions characteristic of each house:

"You might belong in Gryffindor,
Where dwell the brave at heart,
Their daring, nerve, and chivalry

Set Gryffindors apart;
You might belong in Hufflepuff,
Where they are just and loyal,
Those patient Hufflepuffs are true
And unafraid of toil;
Or yet in wise old Ravenclaw,
If you've a ready mind,
Where those of wit and learning,
Will always find their kind;
Or perhaps in Slytherin
You'll make your real friends,
Those cunning folk use any means
To achieve their ends." [4, 86]

Based on the example above, it can be concluded that Gryffindor house represents heroism and bravery. The characters emerging from this house typically fight for justice and remain loyal to their principles. For instance, Harry Potter himself, along with his friends Hermione Granger and Ron Weasley, exemplifies heroism and teamwork through Gryffindor. They consistently choose the right path and are always ready to help their friends.

Hufflepuff house embodies fairness, loyalty, and patience. The characters here are portrayed as individuals who value loyalty, friendship, respect, honesty, and hard work. They showcase their honest and caring nature through Hufflepuff.

Ravenclaw house represents intellect and innovation. The members of this house display a passion for knowledge and creativity and are known for their unique approaches to making rational decisions. They enjoy sharing their interesting ideas with others.

Slytherin house reflects strategy and power. Characters from this house often resolutely choose any path to achieve their goals. For instance, Severus Snape and Draco Malfoy best exemplify the manipulative and cunning traits associated with Slytherin. They strive to accomplish their interests through power and skill.

Thus, the four houses in the story aim to reveal the characters' traits and interests, with the unique characteristics of each house playing a crucial role in the development of the characters, and their interrelations and struggles giving deep meaning to the narrative. Each house's distinctive attributes complement one another, reflecting the concept of perfection in humanity and serving as a vivid example of the archetype of the number four.

In reality, the character of a student is accepted into the house that best fits them as determined by the Sorting Hat. It is important to note that the character Harry Potter embodies all the traits characteristic of the four houses throughout the story, which reveals his perfect nature. This is why the Sorting Hat hesitates in deciding which house to place Harry in. We can witness this in the following excerpt that depicts the mysterious dialogue between the Sorting Hat and Harry Potter:

"Hmm," said a small voice in his ear. "Difficult. Very difficult. Plenty of courage, I see. Not a bad mind either. There's talent, A my goodness, yes – and a nice thirst to prove yourself, now that's interesting….So where shall I put you?"

Harry gripped the edges of the stool and thought, Not Slytherin, not Slytherin.

"Not Slytherin, eh?" said the small voice. "Are you sure? You could be great, you know, it's all here in your head, and Slytherin will help you on the way to greatness, no doubt about that – no? Well, if you're sure – better be GRYFFINDOR!"[4, 88].

In the "Harry Potter" series, Harry Potter, his mother Lily Potter, his father James Potter, and his godfather Sirius Black symbolize a cohesive family unit that appears intriguing from the perspective of the archetype of the number four. The archetype of four typically represents perfection, wholeness, and stability. Harry Potter's family plays a significant role in creating this complete structure.

Harry Potter is the main character and leader of this family. Through his unique willpower and abilities, he strives to protect his family and achieve their goals. He is determined to fight for his friends and family.

Lily Potter, Harry's mother, is a symbol of love and heroism. She is portrayed as a strong figure capable of sacrificing her life for Harry. Her love provides a crucial foundation for Harry's life. Lily embodies two essential qualities: motherhood and protection, which serve as personal motivation for Harry.

James Potter, Harry's father, is depicted as an esteemed and well-mannered individual in society. Like Lily, he takes on the responsibilities of heroism.

Sirius Black, Harry's godfather, acts as a pillar of support and protection for him. Sirius is portrayed not only as a guardian but also as a symbol of friendship and freedom. He plays a crucial role in helping Harry alleviate the sense of loneliness in his life.

Thus, in the story, Harry Potter's family serves as a source of stability and wholeness within the framework of the archetype of four, while also being an important source of personal growth and the motivation for heroism. Each family member is essential not only in shaping Harry's identity but also as a strong support on his journey. This family ensures an intriguing narrative development and deepens the essence of the story.

Conclusion. In summary, in "Harry Potter and the Sorcerer's Stone", the archetype of the trio holds significant importance in human development and relationships. In the "Harry Potter" series, the three main characters – Harry, Ron, and Hermione – are the best example of this archetype. Their friendship and joint efforts are central elements of the story, presenting important life lessons. The archetype of the number three in "Harry Potter" deepens the development of the plot and the relationships between the characters. Their collaboration and actions together emphasize the significance of teamwork and friendship. Besides, the four houses – Gryffindor, Hufflepuff, Ravenclaw, and Slytherin – embody the archetype of the number four as a symbol of perfection. Each house represents unique characteristics: Gryffindor embodies bravery and heroism, Hufflepuff represents fairness and loyalty, Ravenclaw reflects intellect and creativity, while Slytherin signifies strategic thinking and power. The members of each house complement one another through their interactions, expressing human perfection. Consequently, the four houses play a significant role in the growth and development of the characters in the story. Additionally, in the "Harry Potter" series, Harry, his mother Lily, his father James, and his godfather Sirius Black symbolically represent a unified family. Within the framework of the archetype of four, this family signifies perfection and stability. Harry, as the leader of his family, ensures further strength through his abilities and willpower. Lily Potter serves as a foundation and protector for Harry with her love, while James exemplifies heroism and responsibility. Sirius Black stands as a symbol of friendship and freedom, fulfilling the role of protector for Harry.

REFERENCES:

1. Akram o'g'li, U. U. (2024). Literary Significance of Number Archetypes. Buletin Antropologi Indonesia, 1(2), 7-7.

2. Clogston, "On the Nature of Four: Jung's Quaternity, Mandalas, the Stone and the Self". – Aug 29, 2007. – 118 p.

3. Kris Swank. Harry Potter Numerology: One (Unity). – 2012. – 124 p.

4. Rowling, J. K. Harry Potter and the Sorcerer's Stone. Scholastic Press, 1998. – 222 p.

5. Ruth A. Drayer. Numerology: The Power in Numbers. – Garden City Park, NY: Square One, 2002. – 192 p.

6. Schimmel, Annemarie. The Mystery of Numbers. – New York: Oxford University Press, 1993. – 314 p.

7. Schimmel, Annemarie, "The Mystery of Numbers". – New York: Oxford University, 1993. – 264 p.

8. Umarov, U. (2023). The significant role of archetypes in children's education. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 42(42).

Hamroyeva Laylo Zulfidinovna,
BDTI akademik litseyi
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)
E-mail: khamrayeva_98@mail.ru

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDAGI METAFORALAR TARJIMASIGA XOS XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi metaforalarning ingliz tiliga tarjima qilinishidagi xususiyatlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqola ko‘chim (metafora) tushunchasiga ta’rif berib, uning badiiy adabiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Yulduzli tunlar” romanining tarjimalarida ko‘chimlar qanday ifodalangani va ularning talqini o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida original va tarjima matnlari solishtirilib, metaforalarning tarjima xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim metaforalar tarjimada to‘liq saqlanmagan, bu esa tarjimon mahoratiga bog‘liq. Ushbu tadqiqot tarjima nazariyasi va amaliyotiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ko‘chim (metafora), badiiy til, tasviriy ifoda, “Yulduzli tunlar”, tarjima asar, ko‘chimlarning talqini, obrazlar, badiiy-estetik qiymat.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу особенностей перевода метафор в романе Пиримкула Кодирова “Звёздные ночи” на английский язык. В статье дается определение понятия “метафора” и показывается ее место и значение в художественной литературе. Также рассматривается, как были выражены метафоры в переводах романа “Звёздные ночи” и как они были интерпретированы. Сравнительный аналитический метод позволяет сопоставить оригинальные и переводные тексты для выявления особенностей перевода метафор. Результаты исследования показывают, что некоторые метафоры не были полностью сохранены в переводе, что связано с мастерством переводчика.

Ключевые слова: метафора, художественный язык, образное выражение, “Звездные ночи”, перевод произведение, интерпретация миграций, образы, художественно-эстетическая ценность.

Abstract. This article is dedicated to analyzing the features of metaphor translation in Pirimkul Qodirov's novel “Starry Nights” into English. The article provides a definition of the term “metaphor” and demonstrates its place and significance in artistic literature. It also examines how metaphors are expressed in the translations of “Starry Nights” and how they are interpreted. The comparative analytical method allows for the comparison of original and translated texts to identify the characteristics of metaphor translation. The research results indicate that some metaphors were not fully preserved in the translation, which is related to the skill of the translator. This work may contribute to the theory and practice of translation.

Key words: metaphor, artistic language, figurative expression, “Starry Nights”, translation of a work, interpretation of metaphors, images, artistic and aesthetic value.

Kirish. Adabiyot har bir millatning ruhiy boyligi va ma’naviy merosining muhim qismi sifatida qadrlanadi. Tarjima san’ati esa, asarlarni turli tillarga aylantirish jarayonida uning badiiy uslubini va ruhini saqlab qolish bilan birga, tarjima qilingan matnning ma’naviy ahamiyatini ham o‘zgartiradi. Shunday qilib, badiiy adabiyotda ko‘chimlar (metaforalar va obrazlar) asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tarjimadagi roli juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili jarayonida bu mavzu bo‘yicha avvalgi tadqiqotlar, jumladan, tarjima nazariyasi va badiiy adabiyotda ko‘chimlarning rolini o‘rganishga qaratilgan ishlar ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, “Yulduzli tunlar” romanidagi ko‘chimlarning tarjimaga ta’siri xalqaro miqyosda ham ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Adabiy tilning boyligini ifoda etuvchi asosiy unsurlardan biri bo‘lgan ko‘chimlar (metaforalar) badiiy asarlarning chuqur ma’nolarini xarakterlashda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘chim, so‘zning majoziy ma’noda ishlatilishi, tilni badiiy jihatdan boyitish va mazmunni yanada chuqurroq

ifodalashda katta ahamiyatga ega. Adiblar koʻchimlar orqali hayotiy tasvirga jon bagʻishlaydi, obrazlarni yorqinroq va jonliroq aks ettiradi [2, 38].

Metaforalar va ularning tarjimadagi ta'siri. Koʻchimlar aslida ikki asosiy maqsadda ishlatiladi: birinchisi, tasviriy ifoda orqali mazmunni kuchaytirish va oʻquvchiga ta'sir koʻrsatish, ikkinchisi esa muayyan soʻzga estetik qiymat qoʻshishdir. Ular sheʻriyatda, nasriy asarlarda va hatto kundalik tilda ham keng qoʻllaniladi. Badiiy asarlar tilida koʻchimlar qahramonlarning ichki kechinmalarini, voqealarning chuqurligini va adibning mahoratini ifodalovchi vosita sifatida namoyon boʻladi [3, 51]. Masalan, "Yulduzli tunlar" romanida "quyosh singari porloq" deyilgan metafora orqali qahramonning kuchli va oʻziga ishonganligini ifodalaydi. Tarjimada esa bu ifoda "radiant as the sun" tarzida berilgan. Ushbu tarjimada asl ma'no saqlangan, ammo ingliz tilida "radiant" soʻzining qamrovi yanada kengroq: u nafaqat porlash, balki shunday kuch-quvvat berishni ham anglatadi. Shuning uchun bu metaforaning etkaziladigan hissiyotlari yanada kuchayadi.

Tarjimadagi yoʻqotishlar va yutuqlar. Tarjima jarayonida koʻchimlarni asliyatdagi mazmunni saqlagan holda boshqa tilga oʻtkazish katta mahoratni talab etadi. Har bir tilning oʻziga xos semantik va madaniy xususiyatlari bor. Tarjimada koʻchimlar notoʻgʻri berilsa yoki asarning badiiy uslubi buzilsa, bu oʻquvchining asar haqidagi umumiy taassurotiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Masalan, romanda "daryo qulashida" degan bir ifoda uchraydi, bu haqda tarjimachi "the fall of the river" deb tarjima qiladi. Ushbu tarjimada "qulash" soʻzi daryoning mavjudligi va oʻziga xos harakatini anglatadi, lekin tarjimadagi ifoda bu harakatni anglamaydi va natijada obrazning kuchini yoʻqotadi.

Metaforalarni tarjima qilishda qiyinchiliklarni yengish uchun tarjimon koʻplab madaniy va tarixiy kontekstni hisobga olishi zarur. "Koʻchim" tushunchasi madaniyatga xos boʻlgan urf-odatlar, diniy va tarixiy ma'lumotlarni oʻz ichiga olishi hamda badiiy asarlarni teranroq, aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani oʻzbek adabiyotining durdona asarlaridan biri boʻlib, unda Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiy hayoti va davlat arbobi sifatidagi faoliyati badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Romanda Bobur obrazining koʻplab qirralari – uning shoh, shoir, jangchi va ma'rifatparvar inson sifatidagi qiyofasi – jonli va ta'sirchan tarzda aks ettirilgan. Asarda koʻchimlar asosiy badiiy vositalardan biri sifatida qoʻllanilib, voqealar va qahramonlar ichki dunyosini ochishda muhim rol oʻynaydi [6, 3].

Romanda hissa qoʻshgan koʻchimlar badiiy estetikaga ta'sir etishi bilan birga, asarning konseptual strukturasida ham ajralmas komponent sifatida harakat qiladi. "Yulduzli tunlar" oʻquvchini tarixiy voqealarga, xalq oʻrtasida kechgan turli hodisalar va tabiiy goʻzalliklar bilan tanishtiradi. Inson hayoti va tabiat oʻrtasidagi chuqur uygʻunlik, hasrat va sevgi, kurash va mehr-muhabbat lirik ohangda ifoda etiladi. Shuningdek, bu asarda shaxsiy hayotdagi tugʻyonlar, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik muammolari va adolat qidiruvi haqidagi falsafiy mulohazalar ham oʻz ifodasini topgan.

Koʻchimlar mushohada ostidagi qahramonlarning ruhiy olamini va tarixiy voqealar uygʻunligini anglatuvchi muhim badiiy xarakterdir. Masalan, Boburning togʻlar va tabiat haqidagi mulohazalari koʻpincha koʻchimlar orqali berilgan. Togʻlar ba'zan kuch-qudrat ramzi sifatida, ba'zan esa uning ichki kechinmalarining in'ikosi sifatida tasvirlanadi. Mazkur adabiy asarning ingliz tiliga tarjima qilingan "Starry Nights" versiyasi koʻchimlarning qanday talqin etilgani alohida e'tiborga loyiqdir. Tarjima jarayonida asliyatdagi koʻchimlarni toʻgʻri va aniq ifodalash uchun tarjimonning badiiy mahorati muhim ahamiyatga ega. Tarjimon kontekstga mos ravishda ba'zi koʻchimlarni qayta talqin qilar ekan, badiiy qoʻshimchalar orqali asarning asliyatidagi hissiyotlarni saqlab qolishga intiladi. Misol uchun, asl matnda "Qal'a etagida Kosonsoyning Sirdaryoga guvullab quyilayotgani, ikki daryo toʻlqinlari bir-biri bilan olishib, qirgʻoqqa shalopplab urilayotgani uzoqdan eshitilib turadi," deya keltirilgan. Tarjimada esa, "Down below, the Kasansai plunges into the Syr Darya and the roar of these two mighty rivers crashing into each other, waves booming against the banks, echoes for many a long mile," shaklida berilgan.

Natijalar va muhokama. Asl matnda daryolar betidagi voqea tasvirlanmoqda, Kosonsoyning Sirdaryoga qanday qoʻshilishi va ularning toʻlqinlarining qirgʻoqqa urilishi ovozi etarlicha ta'riflangan. Tarjimada, "plunges" (guvullab quyilayotgani) soʻzining tanlovi qizgʻin va dinamik ochiq tasvir yaratadi. Uslubiy jihatdan asli matndagi jumlalar tabiiy va toʻgʻri ifoda etilgan, kuzatuvchi sifatida oʻquvchiga tajribalarni his qilish imkonini beradi [2, 37].

Shu bilan birga, tarjimadagi “roar” va “crashing” so‘zlari kuchli ifodalardan foydalangan holda dramatik va hissiy ta’sirni kuchaytiradi. Tarjimaning ahamiyati shundaki, u tabiiy hodisalar va tasvirlar jangovar va kuchli ifoda qilinishiga qaramay, o‘quvchini mana shu go‘zallikni his qilishga undaydi [1, 29].

Umuman olganda, C. Ermakovaning tarjimasi kuchli ifodalardan foydalanib, asli matndagi go‘zal tasvirni muvaffaqiyatli aks ettiradi. Tarjamadagi tovush va aktivlik, o‘quvchiga tabiiy muhitga kirishga imkon beradi, bu esa muallifning maqsadlariga mos keladi. Carol Ermakova, P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida joylashgan metaforalarni tarqatish va faoliyatini chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynagan. U faqat matnni tarjima qilib qolmay, balki uning hissiy ma’no va badiiy etkazilishi uchun ham sa’y-harakat qilgan. Bu jarayonlar Ermakovaning tarjimasini originaligidan ajratib turuvchi asosiy omildir.

Toshkent... O‘n besh-yigirma yildan beri urushning sovuq nafasi tegmagan bu shahar Samarqandga nisbatan osuda hayot kechirmoqda edi. Toshkent qo‘rg‘onining har o‘n ikki darvozasidan odamlar bemalol kirib-chiqib turibdi. (asl matn – P. Qodirovning Yulduzli tunlar asaridan parcha [2, 45]. *Tashkent.... For fifteen years now, this city had been spared the trials of war. The gates of Tashkent – all twelve of them- were open. People could come and go as they pleased. (Carol Ermakova tarjimasi.)* [1, 67]. Carol Ermakova o‘zining “Starry Nights” tarjimasida Tashkent shahrining holatini tavsiflash uchun metaforik ko‘chimlardan foydalanadi. O‘zbek tilidan ingliz tiliga o‘tishda metaforik jarayonlar quyidagi tarzda talqin qilinishi mumkin:

“Gates” (“zarba”) metaforasi: “Tashkentning eshiklari” iborasi nafaqat fizik manzilni, balki ochiq imkoniyatlar va erkin hayot tarzini bildiradi. Bu metafora shahar hayotining tinchligi va omonligini anglatadi.

“Open” (“ochiq”) so‘zi: Ochiq eshiklar bilan, shahar aholisining erkin harakatliligi va ijtimoiy hayotining qulayligi ko‘rsatiladi. Bu metafora tinchlik va xavfsizlikni ifodalaydi.

“Trials of war” (“urush sinovlari”): Bu ibora urush hozirliklaridan mahrum bo‘lgan shaharni ko‘rsatadi, urushning qiyinchiliklariga qarshi tura olish va tinchlikdan bahramand bo‘lish hissini etkazadi. Bu jarayon orqali beqiyos tinchlik va barqarorlik ta’rifi keltirilgan.

“Come and go as they pleased” (xohlagancha kelish va ketish): Bu ifoda shahar aholisining erkinligi va o‘z hayoti ustidan nazoratini anglatadi, xavfsizlik muhitida yashashni yanada yorqinroq ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Ermakova Tashkentni tinch va erkin hayot jihatidan metaforalar orqali ta’riflaydi, bu esa o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini kuchaytiradi va shahar muhiti va aholisining ruhini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tarjima jarayonida ko‘chimlarning roli yanada kuchli bo‘lib, ularni har bir tafsilotda, madaniy kontekstda ham yetkazish zarurati bo‘ladi. Har bir tarjima – bu nafaqat bir tilning ifodasi, balki madaniyat va ma’naviyatning uzviy jarayonidir, bu esa asarning jozibasini yetkazish uchun katta mas’uliyatni talab etadi.

Xulosa. “Yulduzli tunlar” romanidagi ko‘chimlarning inglizcha tarjimalarda berilishi asarning badiiy-estetik qadriyatlarini xorijiy o‘quvchilar uchun ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayonida ko‘chimlarning mazmunini saqlash, ularni tarjima tilidagi madaniy va lingvistik xususiyatlarga moslashtirish orqali asarning ruhiy va badiiy boyligini saqlab qolish maqsad qilingan. Natijada, Pirimqul Qodirovning “Starry Nights” tarjimasi orqali Bobur obrazi, uning ijodi va ichki kechinmalari xalqaro miqyosda tanitilib, o‘zbek adabiyotining ulug‘vorligini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Starry Nights (Tarjima qiluvchi: Carol Ermakova). – La Maison de l’Ouzbékistan, Nouveau Monde Éditions. ISBN: 978-2-38094-388-7.
2. Qodirov, P. (1997). Yulduzli tunlar. – Tashkent: Ma’rifat.
3. Qodirov, P. (2000). O‘zbek adabiyoti va uning rivoji. – Tashkent: Ulughbek.
4. Nida, E. A. (1964). Language and Culture: A Theory of Translation. In: Theoretical Issues in Language and Translation.
5. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. London: Routledge.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press.

7. Charteris-Black, J. (2004). Metaphor and Vocabulary in English. – London: Palgrave Macmillan.
8. Eagleton, T. (1996). Literary Theory: An Introduction. – Minneapolis: University of Minnesota Press.
9. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge.

Axtamova Nigora Baxtiyorovna,
BuxDU tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)
E-mail: axtamova.nigora@mail.ru

QARINDOSHLIK TERMINLARINING TURLI TILLAR DOIRASIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya. Har qanday til lug‘at boyligining bir qismini qarindoshlik atamalari egallagan. Qavm-qarindoshlik nomlarining o‘rganilishi yuzasidan nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki boshqa til vakillari tomonidan ham bu sohada yetarlicha ilmiy ishlar olib borilgan. Ushbu maqolada qarindoshlikka oid leksemalarning rus tili, turk tili hamda o‘zbek tillarida qaysi jihatdan o‘rganilganligi ma’lum darajada yoritib berilgan. Uchala tilda ham qavm-qarindoshlik terminlarining o‘rganilishi qadim va boy tarixga ega ekanligini kuzatdik. Ularda Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asaridagi, “O‘rxun Enasoy” bitiklarida uchraydigan qarindoshlik terminlari tahlilini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: qarindoshlik terminlari, ota, dialekt, lug‘at, matal, ibora, munosabat, davr, ajdod, birodar, etnograf.

Аннотация. Часть словарного запаса любого языка составляют термины родства. В этой области проведено достаточное количество научных работ не только в узбекском языкознании, но и других языков. В данной статье рассматривается, в какой степени и какими способами лексемы, связанные с родством, используются в русском, турецком и узбекском. Было выяснено в определенной степени, что изучение терминов родства во всех трех языках имеет древнюю и богатую историю. Они включают в себя “Divoni lug‘otit turk” Махмуда Кашгари и письмена “Orhun Enasoy”. В статье представлен анализ терминов родства встречающихся в них.

Ключевые слова: термины родства, отец, диалект, словарь, пословица, выражение, родство, эпоха, предок, брат, этнограф

Abstract. Kinship terms make up a part of the vocabulary of any language. A sufficient amount of scientific work has been carried out in this area not only in Uzbek linguistics, but also by representatives of other languages. This article sheds some light on the extent and in what aspects lexemes related to kinship have been studied in the Russian, Turkish and Uzbek languages. We have observed that the study of kinship terms in all three languages has an ancient and rich history. We can see in them the analysis of kinship terms found in Mahmud Kashgari's “Devoni lug‘otit-turk” and the writings of “Orxun Enasoy”.

Key words: kinship terms, father, dialect, dictionary, proverb, phrase, relationship, era, ancestor, brother, ethnographer

Kirish. Dunyo tilshunosligida barcha millatlar lisoniy olamidagi qavm-qarindoshlik tushunchalarining necha asrlik ijtimoiy amaliyotda shakllangan va ijtimoiy tarkibda qo‘llanadigan faol leksik tizim ko‘rinishida, muayyan paradigmalar asosida shaxslarning genetik ierarxiyasini namoyon qilishi batafsil o‘rganilgan. Mazkur masala bir yoki turli tizimdagi tillarning grammatik tuzilishini inobatga olib va tilning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qavm-qarindoshlik tushunchalarini mantiqiy-lisoniy kategoriya sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Boshqa tillardagi kabi o‘zbek, rus, turk va ingliz tillarida ham qarindoshlik atamalari o‘ziga xos leksik tizimni shakllantiradi. Ushbu maqolada asosan, turk tilidagi ilmiy ishlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan va ularda Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari, O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi ba’zi qarindoshlik nomlari tahlili berilgan.

Zero, har qanday tilda odamlar qarindoshlari o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatishga xizmat qiladigan so‘zlar guruhi mavjud. Bular-qarindoshlik termini deb nomlanadigan so‘zlardir. Tilshunoslik juda ko‘p masalalarni o‘z ichiga oladi. Shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlarining o‘rganilishi bo‘lib, o‘zbek tilida bu sohada hali yetarlicha ishlar olib borilmagan. Qarindoshlik terminlarini o‘rganish ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish dunyo tilshunosligida

dastlabki qadamlar qo‘yilgan. Jumladan, slavyan, hind-yevropa, turk tillarida bu sohaga dastlabki qarashlar o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlangan.

Asosiy qism. Turkiy tillarda esa, qavm-qarindoshlik terminlari tahlillariga X.G.Yusupov, S.A.Burnashev va L.A.Pokrovskaya kabi tilshunoslar tomonidan yozilgan maqolalarni misol qilishimiz mumkin. Bu borada o‘zbek tilshunosligida S.M.Mutalibov, Sh.Shoabdurahmonov va I.AIsmoilovlar ilmiy ishlar olib borishgan. M.Gaziyeva va M.Bannobovalar tomonidan yozilgan “Turkologiyada qarindoshlik nomlarining o‘rganilishi” nomli maqolada ham qarindoshlik nomlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganishda o‘zbek xalq maqollari misolida tadqiq etishgan. Sh.Sodiqovaning “Qarindoshlik atamalari tizimi lisoniy kategoriya sifatida o‘rganilishi” nomli tezisida ham qarindoshlik va yaqinlik terminlari majmuyi orqali har bir tilning qarindoshlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasi va xususiyatlarining ifoda plani tahlil qilingan. Bu tezisda olima tomonidan o‘zbek tilining Namangan lahjalari etimologiyasi va qarindoshlik terminlarini shakllantirish hamda rivojlantirish yo‘llarini aniqlashga bag‘ishlangan “Namangan lahjalarining qarindoshlik terminlarini leksik-semantik tahlil qilish” nomli dissertatsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. B.Rajabov va S.Nasirovalarning “Qarindoshlik atamalarining o‘rganilganlik darajasiga doir ma’lumotlar tahlili” nomli maqolasida o‘zbek tilidagi birliklar xitoy tili bilan qiyoslangan holda o‘rganilgan. Xitoy qarindosh-urug‘chilik atamalarining nomlanish tizimi juda murakkab bo‘lib, nafaqat turli xil qarindoshlik munosabatlari yuzasidan nomlanishi, balki bir xil qarindoshlik munosabatiga tegishli bo‘lib, ko‘pincha mahalliy lahjalar orasida katta farqlarga ega.

Turkiy tillardagi eng asosiy manbalardan biri sifatida I.Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” va “Turkiy tillarda ba’zi bir so‘zlar etimologiyasi haqida” nomli kitoblarini keltirishimiz mumkin.

K.Q.Nurullayeva “Xitoy va turkiy tillarda qarindosh-urug‘chilik atamalarining qiyosiy tahlili”, R.Cho‘liyevning “Abdulla Qodiriyning kichik prozaik asarlarida qo‘llangan qavm-qarindoshlik terminlari”, M.Mirzayevning “O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari” tadqiqotlari ham qavm-qarindoshlik nomlarining o‘rganilishiga bo‘lgan qiziqish va e’tiborning yaqqol dalilidir.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham qarindoshlik terminlariga to‘xtalib o‘tilgan, xususan “ota” terminiga alohida e’tibor qaratilgan.

Barcha turkiy tillarda “ota” atamasi fonetik va semantik jihatdan ham barqaror bo‘lib, birinchi navbatda, bir ota-ona ma’nosida qo‘llaniladi. Faqat turkiy shevalarda uning ayollarga nisbatan qo‘llangan shakllari borligi qayd etilgan. Xususan, E.V.Sevortyan turkiy tillarda hatto qadim zamonlarda ham har ikki jins vakillari ham qarindoshlik munosabatlarining murakkab ma’nolariga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidladi. Unda bog‘liq ma’no borligini eslatib turadi. Ammo boshqa holatda, ilmiy adabiyotlardan faqat ajdodlar va keksa erlarga nisbatan qo‘llanilishi tan olinadi. Ta’kidlash kerakki, turkiy tillarda *ata* atamasi o‘zining asl ma’nosida, ya’ni ham ota, ham manzil ma’nosida qo‘llanadi. *Ota* atamasining umumiy qarindoshlik va bevosita murojaat ma’nosidagi differensial xususiyati boshqa turkiy tillarda ham kuzatiladi. Bu hodisani Radlovning turkiy tillar va ularning shevalari asosida tuzilgan lug‘atida yaqqol ko‘rish mumkin. Bu lug‘atlarga ko‘ra ata atamasining turli xil variantlari mavjud: *atta, baba, ada, atiy, ate, tate, tata*. Ayrim turkiy tillarda qadimda to‘g‘ridan to‘g‘ri qarindoshlik atamasi sifatida qo‘llanilgan ata atamasi asta-sekin almashtirilib, uning o‘rnida variantlari qo‘llanilib kelmoqda.

Qarindoshlik terminlarini o‘rganish xalqlarning moddiy va ma’naviy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Qarindoshlik atamalari tizimida sodir bo‘layotgan dinamik jarayonlar jamiyat va davlat rivojlanishining turli bosqichlarida qarindoshlik munosabatlarining rivojlanishini kuzatishga imkon beradi va shuning uchun oilaning o‘zi, urug‘ sifatidagi ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun qarindoshlik atamalarini o‘rganish ekstralingvistik ma’lumotlarga murojaat qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Slavyanshunoslikda F.I.Buslayevni slavyanlar orasidagi qarindoshlik va oilaviy munosabatlarda nasroniy madaniyatining rolini yorqin ko‘rsatgan, qarindoshlik terminologiyasini tahlil qilishda sotsiolingvistik yondashuvning asoschisi deb hisoblash mumkin (1948). Qarindoshlikni ijtimoiy va etnik-madaniy o‘rganishda rus fani uchun muhim bosqich D.A.Olderoggening “Qarindoshlik tizimini o‘rganishning ba’zi masalalari” (1958) “Qarindoshlik tizimlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari” (1960) nashri hisoblanadi.

Qavm-qarindoshlik nomlarini o‘rganishning ikkinchi yo‘nalishi qiyosiy-tarixiydir. Olimlar qarindoshlikning eng qadimgi belgilarini, turli xil tillardagi lug‘at tarixini ko‘rib chiqadilar. Ushbu yo‘nalishning eng muhim yutuqlari sifatida O.N.Trubachevning “Slavyanlarning qarindoshlik atamalari tarixi va ijtimoiy tizimning eng qadimgi atamalari” (1959) monografik tadqiqoti, S.I.Kotkovning “Ocherklar” kitoblaridagi katta bo‘limlar mavjud. 16-18-asrlardagi buyuk rus yozuvining lug‘ati. (‘Qarindoshlik shartlari” bo‘limi; 1970) va F.P.Filin “Qadimgi rus adabiy tilida qarindoshlik va qarindoshlik munosabatlari to‘g‘risida’ (1948), monografiya A.V.Marksistik tilshunoslik” (1953).

Shu yo‘nalishda qiyosiy-tarixiy so‘z yasalishiga oid nashrlarni kiritishimiz mumkin. R.M. Tseitlinning “Slavyan tillarida *pa-* prefiksning ma’nosi to‘g‘risida” monografiyasi (1954), V.V.Lopatinning “Qadimgi rus tilidagi huquqlarning nominal prefiksi to‘g‘risida” (1964) asarlarini ta’kidlab o‘tgan. O‘tgan asrning eng yirik olimlaridan P.A.Lavrovskiy “Slavyanlar o‘rtasidagi qarindoshlik nomlaridagi ildiz ma’nosi” (1867). Ushbu asarlar ‘slavyanlar o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlari terminologiyasining rivojlanishini lingvistik nuqtayi nazardan imkon qadar to‘liq tavsiflash, shuningdek, tegishli fanlar - jamiyat tarixi, material tarixi ma’lumotlarini hisobga olish” vazifasini qo‘ydi. I.M.Sharapovaning “Ryazan dialektlarida qarindoshlik terminologiyasi” (1976), K.A.Fedorovaning “Qarindoshlik terminologiyasi Shimoliy Ural dialektlari” (1964), “So‘z turkumi – ildiz bilan bog‘liq atamalar” kabi asarlarni keltirish o‘rinli.

Quliyev (turkman tilida), I. O. Ismoilov (turkiy tillarda), N. I. Egorov (chuvash tilida), K. N. Dyrenkova (qirg‘iz tilida), E. B. Javaxadze (gruzin va osetin tillarida) asarlarini qayd etaylik. tillarda), V.I.Abayeva (osetin tillarida), qarindoshlik termosistemalarini o‘rganishga bag‘ishlangan A. Bitarova (osetin tilida), V. Skurtu (rumin tilida) kabilarning ishlarida qarindoshlik nomlarining o‘rganilish darajasini ko‘rishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama. Qarindoshlik nomlari barcha tillarning tarixiy nuqtasiga borib taqaladi. Ko‘pgina tillar qatorida turk tilida ham qarindoshlik terminlariga yetarlicha e’tibor qaratilgan. Jumladan, Selim Emin o‘g‘luning “Turk tili lug‘atlaridagi qarindoshlik nomlarining tasnifi” nomli ishida turk tili qarindoshlik so‘zlari jihatidan dunyodagi eng boy til ekanligi ochib berilgan.

Turkiy tilda qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so‘zlar ko‘p bo‘lsa-da, boshqa tillarda bir so‘zda bir nechta qarindoshlik ismlari qo‘llanishi ko‘rinadi. Bu holat turk tilining boyligi bilan birga turk madaniyatida yaqin munosabatlarga berilgan ahamiyatni ko‘rsatadi. Turk jamiyati rivojlangan va mustahkam qarindoshlik aloqalariga ega jamiyatdir. Ushbu munosabatlar orqali birdamlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik va muammolarni baham ko‘rish maqsad qilingan. Qarindoshlik aloqalari qon qarindoshligidan tashqari nikoh, farzandlikka olish va boshqa munosabatlar shakllari orqali kengaytiriladi. Turkiy tilda qarindoshlik nomlari haqida ko‘plab nashrlar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotda 2012-yilda Turk Tili Jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan va boyitilgan va 11-marta kitob holida nashr etilgan turkcha lug‘at va tarmoq muhitidagi hozirgi turkcha lug‘at birgalikda tekshirilgan. Lug‘atda 150 ga yaqin qarindoshlik nomlari mavjud. Bu so‘zlar; sinonimiya, yoshga bog‘liq katta-kichik, jins, qarindoshlarning yaqinlik darajasi, komillik maqomi, madaniy yaqinlik va an'analar, ayol va erkakka ko‘ra, ota, ona va aka-uka tomonidan shakllanganiga ko‘ra, oilaviy ahvolga ko‘ra , birdan ortiq qarindoshlik nomi qabul qilish holati, ko‘plik va birlik ma’nolarda qo‘llanishi, tuzilishi va turkiy, begona yoki aralash bo‘lishiga qarab tasniflangan. Turk tili o‘zining ibora va matallarga, shuningdek, qarindoshlik nomlari, rang nomlari, ovqat nomlari, organ nomlari va boshqalarga boy va rang-barangdir. Bu til nomlar jihatidan ham boy tildir. Bular orasida qarindoshlik nomlari alohida o‘rin tutadi. Bu holatni izohlar ekan, turk jamiyatining turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy dinamikasiga qarash kerak. Turk tilida qarindoshlik nomlarining ko‘pligi ijtimoiy va madaniy hayotning turkiy tilda aks etganligini ko‘rsatadi. Natijada, bu atamalar jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish vositasidir.

Tadqiqotda paydo bo‘lgan tasnif odatda quyidagicha bo‘lib, aniqlangan 150 taga yaqin so‘zlar quyidagicha tasniflandi:

1. Sinonimlik nuqtayi nazaridan munosabat otlari
2. Yoshga bog‘liq kattalik va kichiklik nuqtayi nazaridan munosabat nomlari

3. Jinsga koʻra munosabatlar nomlari
4. Qarindoshlarning bir-biriga yaqinlik darajasiga koʻra ismlari
4.1. Qon aloqasi
4. 1. 1. Birinchi darajali munosabat
4.1. 2. Ikkinchi darajali munosabat
4. 1. 3. Uchinchi darajali munosabat
4.1. 4. Toʻrtinchi darajali munosabat
4.2. Qaynona munosabatlari
4. 2. 1. Birinchi darajali munosabat
4. 2. 2. Ikkinchi darajali munosabat
4. 2. 3. Uchinchi darajali munosabat
4. 2. 4. Toʻrtinchi darajali munosabat
5. Tugʻilish-bosqich holatiga koʻra munosabatlar nomlari
6. Madaniy yaqinlashuv va an'analarga koʻra munosabat nomlari
7. Erkaklar va ayollarning munosabat nomlari
8. Ota, ona va opa-singillarga koʻra munosabat nomlari
9. Oilaviy ahvoliga koʻra qarindoshlarning ismlari
10. Koʻp munosabatli holatlarga koʻra munosabat nomlari
11. Qarindoshlik nomlari koʻplik va birlik ma'nolarda qoʻllanishi
12. Tuzilishi jihatidan munosabat nomlari
13. Turkcha, chet el va aralash maqomiga koʻra munosabat otlari

Hozirgi turkcha lugʻatda qilingan qidiruvda koʻplab soʻzlar qarindoshlik ismlari sifatida topilgan. Biroq bular qarindoshlik ismlari sifatida qoʻllaniladigan va mehr-muhabbatni ifodalovchi iboralar (qayin va b.), jarangli iboralar (chol, kampir va b.), tovush oʻzgarishiga uchragan shakllardir (ona, opa, buvi va b.) nikoh orqali hali qarindoshlikka aylanmagan (unashtirilgan va hokazo) iboralar tasnifga kirmaydi.

Yana bir turk izlanuvchisi Abdulloh Yildirimning "Yenisey bitiklarida qarindoshlik nomlari mohiyati" deb nomlangan ishi ham qarindoshlik atamalarining oʻrganilishi boʻyicha kerakli manbalardan boʻlib hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda Yenisey bitiklarida tilga olingan qarindoshlik nomlari belgilangan.

Bundan tashqari, tadqiqotda, qarindoshlik nomlarining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar va soʻzlarning tarixiy shakllari koʻrsatilgan. Tegishli tekshiruvlar natijasida jami 32 ta qarindoshlik ismlari aniqlanganligini kuzatamiz. Ushbu tadqiqotda Erhan Aydinning Yenisey yozuvlari, Yenisey bitiklari haqidagi eng keng qamrovli tadqiqot asosiy manba qilib olingan.

Turklar oʻrtasidagi qarindoshlik tuygʻusi oʻtmishda boʻlgani kabi bugungi kunda ham eng yorqin munosabatlar bilan yashab kelmoqda. Jamiyatning tuzilishi bu munosabatlar uning barqarorligi uchun juda muhimdir. Birlik, hamjihatlik, hamjihatlik, hamkorlik, bagʻrikenglik va muammolarni baham koʻrish bu munosabatlarning rivojlanishiga mutanosibdir. Chunki oilaviy rishtalar yuqoriroq rivojlanish darajasida kuchliroq boʻladi. Kuchli aloqalar qarindoshlik ittifoqining barqarorligini ta'minlaydi. Turklarning ijtimoiy tuzilishida bu sistema uning qat'iyati turkiy tildagi qarindoshlik nomlarining xilma-xilligiga yoʻl ochdi. Shuning uchun turkcha qarindoshlikni ifodalovchi soʻzlarga koʻra dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. Boshqa tillarda bir nechta qarindoshlik soʻzi bir soʻz bilan ifodalansa, turkiy tilda har bir qarindoshlik rishtasi uchun boshqa soʻz ishlatilishini biz bir qancha ilmiy ishlar yuzasidan kuzatdik. Bular oila, shaxslarining bir-biriga yaqinligidan kelib chiqqan va uzoq tarixiy jarayon davomida oʻz mavjudligini saqlab kelgan soʻzlardir. Bu soʻzlar Oʻrxun bitiklaridan boshlab, chuqur ildiz otgan oʻtmish obrazini aks ettiradi. Tilning turli davrlarida yozilgan turli asarlar mavjud. Navbatdagi bizning e'tiborimizni oʻziga jalb qilgan yana bir turk ijodkorining olib borgan ilmiy ishlari boʻldi.Ayshe Nur Sir Dundarning "Turkiyada huqudagi munosabat. Turk markaziy oila munosabatlari bilan bogʻliq tushunchalar" mavzusidagi ilmiy ishlaridir.Bu tadqiqotlar nafaqat turk tili tarixini, balki turk madaniyati tarixini ham yoritishga yordam beradi. Bu tilshunoslik tadqiqotlariga, ayniqsa, onomastika sohasiga nima olib kelishi bilan katta hissa qoʻshadi. Ushbu tadqiqotda qarindoshlik ismlari va nikoh orqali qarindoshlikni koʻrsatadigan qaynona-qaynotalarga

qaratilgan so‘zlarga cheklovlar mavjud. Qon qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar va o‘gay ota-onalikni bildiruvchi so‘zlar tadqiqotga kiritilgan. Yuridik tilda qarindoshlik va yaqinlik so‘zlarining mos kelishini hisobga olib, bunday o‘rinlarda “nisbatan” so‘zining qo‘llanilishi ma’qul ekanligi ta’kidlangan. Birinchidan, qarindoshlik va yaqinlik atamalari haqida ma’lumot berilgan; Qarindoshlarning ismlari tasniflanib, so‘ngra qarindoshlikka asoslangan so‘zlar tahlil qilingan. Uning kelib chiqishi haqida ilgari surilgan qarashlar baholangan.

Qarindoshlikka aloqador so‘zlar tilning muhim lug‘at tarkibiga kiradi. Ayrim qarindoshlik nomlari tilimizga shunchalik singib ketganki, odamlar orasida murojaat so‘zlari bilan sinonim bo‘lib qolgan, deyiladi tadqiqotdagi kuzatishlar natijasida. Turk madaniyatida oqsoqollarga ismlari bilan murojaat qilmaslik va ularning ismlarini *xonim, bey* yoki *amaki*, *xola* kabi qarindosh nomi bilan ishlatish odat tusiga kiradi.

Qarindoshlik va yaqinlik umumiy ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlar ijtimoiy rivojlanishning uzoq davrida rivojlanadigan insonlar orasidagi munosabatlarning alohida ko‘rinishini aks ettiradi. Kelib chiqishi jihatidan eng qadimiy lug‘at turkumlaridan biri sifatida olish mumkin. Qarindoshlik terminologiyasi va uning qarindoshlik va qarindoshlik nuqtayi nazaridan farq qilishi zamonaviy rus tiliga qadimgi davrlardan, slavyan tilidan va ma’lum darajada umumiy hind-evropa davridan meros bo‘lib kelganligi ham ushbu tadqiqotda aytib o‘tilgan. Bu turkum so‘zlar tilshunoslar, etnograflar, sotsiologlarning tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Biroq, qarindoshlik va mulk ma’nosi bilan so‘z turkumining chegarasi va tuzilishini belgilash muammosi mavjud ekan. Binobarin, til va she’riy nutqda qarindoshlik tizimi va uning quyi tizimlarini tavsiflash bilan bog‘liq muhim vazifalardan biri material tanlash va uning tuzilish tamoyillarini belgilashdan iborat ekanligi haqida fikr yuritilgan.

An’anaga ko‘ra, ilmiy tavsiflarda qarindoshlik, ma’nosini ifodalovchi so‘zlar doirasi qon qarindoshlari (ona, ota, bobo, buvi, nevara, nevara, aka, opa, xola, amaki, jiyan) nomlari bilan chegaralangan va qaynona-qaynota (kuyov, qaynona, qaynopa) , qaynona, kelin, opa-singil, sovchi), shuningdek, turli avlod vakillari (ajdod, avlod) munosabatlarini belgilovchi so‘zlar ham mavjudligi ta’kidlangan. A.I.ning ta’rifiga ko‘ra. Moiseeva, qarindoshlik shartlari "shaxslarning qon munosabatlari va aloqalariga ko‘ra, qarindoshliklariga ko‘ra nomlari, mulkiy munosabatlar esa yaqinlik munosabatlariga ko‘ra shaxslarning nomlari, xususan, nikoh natijasida yuzaga keladigan oilaviy munosabatlar, shuningdek, bolalarning suvga cho‘miltirish marosimi bilan bog‘liq munosabatlar sifatida, qarindoshlik va yaqinlik shartlari o‘rtasidagi alohida oraliq bog‘liqlik turmush o‘rtoqlarning bir-biriga nisbatan ismlari va turmush o‘rtoqlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlardagi shaxslarni bildiradi, oldingi nikohdan bo‘lgan bolalar esa ba’zan boshqa turmush o‘rtog‘ining qarindoshlik shartlariga taqlid qilish sifatida qaraladi», degan ta’rif berilgan. Bunda qarindoshlik deganda faqat bir yoki bir necha avlod qarindoshlari o‘rtasidagi munosabat tushuniladi, qarindoshlik atamalari tizimi esa yopiq (boshqa semantik sohalardan aniq chegaralanganligi ma’nosida, belgilovchi so‘zlar doirasi) deb qaralishi izohlangan. Shuning uchun ham qarindoshlik atamalari leksik birliklarning tarkibiy-semantik tahlil usullarini ko‘rsatishda qo‘llaniladi, bu esa hozirgi zamon fanida qarindoshlik atamalarini tahlil qilishning asosiy yondashuvlarini belgilashiga e’tibor qaratilgan. Ayni paytda bu leksik-semantik tizimning funksional ochiqligi hisobga olinmaydi. Qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar polisemantikdir. Masalan, ONA –

1. Farzandlariga nisbatan ayol.
2. Keksa ayol yoki xotiniga murojaat qilish (so‘zlashuv)

O‘g‘il - 1. Ota-onasiga nisbatan erkak, o‘g‘il.

2. Inson o‘z muhiti, jamiyati, odamlari va boshqalarning xarakterli belgilarining tashuvchisi sifatida.

AKA – 1. Bir ota-onaning boshqa farzandlariga nisbatan o‘g‘il.

2. Erkak uchun tanish yoki do‘stona murojaat shakli.

3. O‘rtoq, hamfikr. Qarindoshlik ma’nosi bilan so‘zlarning ikkilamchi ma’noda qo‘llanishi tizim chegaralarining kengayishini, qarindoshlik munosabatlarini boshqa sohalar (tabiiy, ijtimoiy, shaxslararo munosabatlar sohasi) subyektlariga o‘tkazishni nazarda tutishi ham ushbu tadqiqotda inobatga olingan. Lug‘at ta’riflari qarindoshlik atamalarining kengroq faoliyat ko‘rsatish

imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda qarindoshlik leksikalarining ma’no jihatdan torayishi yoki aksincha kengayishiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Yana bir rus tadqiqotchilardan biri filologiya fanlari nomzodi Troshina Nadejda Nikolaevnaning “Qarindoshlik nominatsiyalari va ularning zamonaviy rus tilida murojaat qilish funktsiyasidagi ekvivalentlari” nomli dissertatsiya ishlari ham juda ahamiyatlidir.

Turli tillardagi qarindoshlik nominatsiyalari so‘nggi o‘n yilliklarda keng doiradagi olimlarning: tilshunoslar, etnologlar, etnograflar, demograflar, sotsiologlar, tarixchilar va boshqalarning o‘rganish mavzusiga aylandi va bu tasodif emas. Yopiq semantik maydonni tashkil etuvchi qarindoshlik terminologiyasi ma’lum bir tilda, ma’lum bir hududda va ma’lum bir davrda so‘zlashuvchi xalqlarga xos bo‘lgan qarindoshlik munosabatlari tizimini aks ettiradi. Qarindoshlik terminologiyasi tilning ekstralingvistik ma’lumotlarga murojaat qilmasdan o‘rganib bo‘lmaydigan qismiga tegishli bo‘lib, uning tuzilishi va semantikasidan uning orqasida yashiringan ekstralingvistik tizim haqida xulosa chiqarish mumkin. Qarindoshlik nominatsiyalari tilshunoslar uchun alohida qiziqish uyg‘otdi, chunki ular har qanday tilda lug‘atning eng qadimgi va eng asosiy qismini tashkil qiladi. Yana bir tomondan, aytilgan lingvistik materialdan ko‘pincha etnografiya va unga aloqador fanlarga oid asarlarda kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixiga oid bir qator muammolarni hal qilish uchun foydalanilishu ushbu tadqiqotda yoritib berilgan. Tilshunoslar va etnograflar hamkorligining natijasi etnolingvistika kabi oraliq ilmiy tadqiqot sohasining yaratilishi edi.

L.G.Morgan (Morgan 1871, 1877) asarlaridan boshlab, oila-nikoh munosabatlarining dastlabki shakllarini qayta qurish uchun birinchi darajali tarixiy manba sifatida qarindoshlik tizimlariga yangi yondashuvni asosladi. Butun jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, turli mamlakatlar xalqlarining tegishli terminologiyasiga oid adabiyotlar kengdir. Turli genealogik mansublikdagi qarindoshlik atamalari tizimini diaxronik va sinxron o‘rganishga katta hissa qo‘shgan A.L.Kroeber, V.Rivers, R.Loui, P.Kirxgof, J.Myordok, G.Doul, L.Ya. A.M.Zolotarev, D.A.Olderogge, N.A.ButinovV.A.Popov, M.V.Kryukov, G.Djafarov va boshqalar sanab o‘tilgan.

Qarindoshlik nominatsiyalariga bo‘lgan katta qiziqish tizimli tahlilning maxsus usullarini ishlab chiqishga va maxsus ilmiy apparatni yaratishga olib kelganligi aytilgan. Rus tilshunosligida qarindoshlik atamalarini o‘rganish ancha uzoq an'anaga ega. A.M.Kuznetsov ta’kidlaganidek, “odamlar o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi so‘zlar qiyosiy-tarixiy metod asoschilarining asarlaridan boshlab hind-yevropa tillarining o‘zaro munosabatlarini isbotlashda keng qo‘llanilgan, chunki bu atamalar eng ko‘p qo‘llaniladi. Hind-Yevropa davrining butun til merosi “eng kam o‘zgarishlarga duch keldi”. Biroq dunyoning turli tillarida qarindoshlik atamalarini o‘rganishning umumiy metodologiyasini ta’minlaydigan ko‘plab nashrlar mavjudligiga qaramay, rus qarindoshlik tizimi hali jiddiy va tizimli o‘rganish mavzusi bo‘lmagan. Bitta dissertatsiya doirasida qarindoshlik atamalarining butun majmuyini (yo‘naltiruvchi va vokativ) har tomonlama tahlil qilish amalda mumkin emas. Shu sababli, tadqiqotlarning aksariyat qismi referent aspektida qarindoshlik nominatsiyalarining ishlashiga bag‘ishlanganligi va vokativ jihati bugungi kunga qadar etarli darajada aniq o‘rganilmaganligidan kelib chiqqan holda, taklif etilayotgan dissertatsiyaning bevosita tadqiqot obyekti qarindoshlik nominatsiyalari bilan cheklangan. manzil funktsiyasi. Biz e’tiborimizni qaratgan ushbu ilmiy maqolada ham kundalik, maishiy, kasbiy, mehnat, ijtimoiy-madaniy va oilaviy muloqot sohalarida og‘zaki so‘zlashuv nutqida murojaat qilish shakllari – qarindoshlik nominatsiyalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Xulosa. Qarindoshlik terminlarining yaratilish tarixi insoniyat tarixining eng qadimgi tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u jamiyat, oila, urug‘chilik orasidagi real munosabatlarni ifodalaydi. U insonning ko‘pchilik odamlar orasidagi maqomini belgilaydi. Qarindoshlik aloqalari bilan bog‘liq bo‘lgan odamlarning unga, munosabatini va uning boshqalarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.Ushbu maqolada biz diqqat qaratgan o‘zbekt,rus,turk tillaridan tashqari ingliz, xitoy, urdu kabi ko‘plab tillarning lug‘at qismining asosini qarindoshlik nomlari tashkil qiladi. Qavm-qarindoshlik terminlari har bir xalqning o‘z tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan leksik qatlam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Yildirim Abdulloh. Yenisey bitiklarida qarindoshlik nomlari mohiyati// “Dergi” maqolalar

to‘plami. –Turkiya, 2020. – B. 20-24.

2. Ayshe Nur Sir Dundar. Turkiyada huqudagi munosabat//Turk markaziy oila munosabatlari bilan bog‘liq tushunchalar. – Turkiya, 2021. – B.74-88.

3. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Т.: Фан, 1966. – 378 б.

4. Ishayev A. Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari o‘zgarganmi?//O‘zbek tili va adabiyoti.– T., 1973. – №6. – B. 79-81.

5. Кодухов В. И. Введение в языкознание. – Москва: Просвещение, 1987. – 286 с.

6. Mukarramov M. Terminlarning leksik semantik gruppalanishga doir//O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1983. – №2. – B. 28-30.

7. Narziyeva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili//O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1986. – №5. – B. 14-17.

8. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: – Москва: Просвещение, 1974. – 156 с.

9. Покровская Л.А. Термини родства в тюркских языках. – Москва: Наука, 1967. – 368 с.

RETRO

****

БЕНАЗИР УСТОЗИМИЗДАН ТУҲФА
(Давоми. Боши 2024-йил, 2-сонда)

НАВЗАР ПОДШОҲЛИГИ

Навзар отасининг адолат ва инсонпарварлик ҳақидаги васиятларини унутди, мол-дунё тўплашга ҳирс қўйди.

Халқ орасида янги шоҳ сиёсатидан норозилик ва ғавғо кўтарилганидан кейин Навзар қўрқиб, Сомни ёрдамга чақириб хат ёзди.

Ба Сагсори Мозандарон буд Сом,
Фиристод Навзар бар у паём.

Сом отланиб Эронга йўл олди. Тахтга яқинлашганида аъёнлар йўлга чиқиб уни кутиб олишди. Аъёнлар Сомга шоҳ Навзар адолатсизлик қилаётганини айтиб беришди, унга подшоҳликни қабул қилишни таклиф қилишди. Сом бу гаплар нотўғрилигини, Навзар каёнийлар хонадонидан бўлганидан тахт ва тож уники эканлигини айтиб, Навзар олдига борди. Аъёнлар маслаҳат анжуманига йиғилишди. Сом ёш шаҳзодага аждодлари Фаридун, Ҳушанг ва Манучеҳрларни эслатиб, уни адолатли ҳукмронлик изига солиб, қимматбаҳо тўн, от ва бошқа тортиқлар билан ўз Зобулистонига қайтди.

Эронда шоҳ Манучеҳр ўлиб, унинг тахтига чиққан ўғли Навзар зулм ва адолатсизликни авж олдиргандан кейин, мамлакатда халқ қўзғолонлари авж олди. Турон ҳукмдори Пашанг аъёнлар ва саркадаларни, масалан Афросиёб, унинг икки биродари Гарсеваз ва Ағрирасни, шунингдек паҳлавонлардан Аржасп, Бормон, Веса ва бошқаларни йиғиб машварат қилди. Бир мунча йил илгари Эрон билан жангларда ўлдирилган Салм ва Турни эслаб, уларнинг ёди ҳали юракларда борлиги, уларнинг қасосини олиш пайти келганлиги ҳақида гаплашиб олди:

Пас онгаҳ зи марги Манучеҳр шоҳ,
Бишуд огаҳй то ба Турон сипоҳ.
Зи норафтани кори Навзар ҳамон,
Яко-як бигуфтанд бо бад гумон.
Чу бишнид солори туркон Пашанг,
Чунон ҳост ки ояд ба Эрон ба жанг.

Шу машваратда Афросиёб бундай деди:

Жаҳонпаҳлавон пураш буд Афросиёб,
Биҳондаш дарангию омад шитоб.
Суҳан ронд аз Тур, аз Салм гуфт,
Ки кин зери доман нашояд нуҳуфт.
... Ки бо мо чикарданд эрониён,
Бадиро бубастанд як-як миён.

Шоир Пашанг кўзи билан саркарда Афросиёбга қараб, унинг қиёфаси ва табиатини шундай тасвирлаган:

Ба мағзи Пашанг андар омад шитоб,
Чу дид он саҳи қад Афросиёб,
Бар-ў бозуи шеру ҳам зўри пил.
Ва-зу соя густарда бар чанд мил,
Забонаш ба кирдори буранда теғ,
Чу дарё дилу каф чу боранда меғ.

Урушга тайёргарлик ишлари бошлангач, Пашангнинг бошқа ўғли Ағрерас саройига келиб отасига бундай деди:

Манучеҳр Эрондан йўқолган бўлса-да, Сом каби паҳлавон қўшин бошлиғи Гаршосп ва Қоран каби саркардалари ҳам бор. У чол Гаршосп Салм ва Турни нима қилганини сен биласан. Давом қилдириб деди:

Агар мо нашўрем беҳтар буват,

Ки – азин жунбиш ошўби кишвар буват.

Пашанг бундай жавоб берди:

Писарро чунинг дод посуғ Пашанг:
Ки Афросиёб он диловар наҳанг,
Яке наррашераст рўзи шикор,
Яке пиллижанги гаҳи корзор,
Туро низ бо ў бибоят шудан,
Ба ҳар бешу кам рои фарруҳ задан.
Набера ки кини ниёро нажуст,
Сазарт гар наҳони нажодаш дуруст.

Турондан қўшин кўтарилиб, Жайҳун ёқасига етгач, бу хабар Эронга етди. Ундан ҳам қўшин кўтарилиб, Деҳистон деган жойга етишди. Навзар қўшинига Қоран лашкарбоши эди. Афросиёб ўз қўшинига Шамосо ва Ҳазарвонларни лашкарбоши қилиб тайинлади. Сўнгги икки саркарда қўшинлари Сийистон томонга йўл олганларида, Эрон лашкарбошиси Сом вафот қилибди. Ўғли Зол унинг дафни билан банд деган хабар тарқалди. Афросиёб отасига хат ёзиб, Сом вафотидан хурсанд бўлганлигини, энди Эрон қўшинини енгиш осонлашганлигини билдирди.

Қўшинлар бир-бирига яқинлашгач, турклар томонидан Бормон деган полвон майдонга чиқиб: мен билан жанг қиладиган полвонларнинг борми, деб сўради. Карши томондан жавоб бўлмади. Кубод деган полвон : мен чиқаман, деди. Лашкарбоши Қоран ёшлардан овоз чиқмай, кексайган акаси Кубоддан овоз чиққанидан хафа бўлиб, сен кексасан, деган таъна оҳангида сўзлади. Кубод эса: биров от устида ўлади биров тўшакда, барибир бир кетиш бор –ку, мен ўлсам, иним менга даҳма қуриб ҳурмат билан дафн қилар, деди-да, майдонга чиқди. Бу урушда, Бормон Кубодни тош билан уриб, ҳалок қилди.

Қўшинлар орасида бир неча кун жанг бўлди, дарёдай қонлар оқди. Афросиёб ва Навзар, Коран ва Бормон урушдилар. Ниҳоят, Навзар ўз қўшини билан Форс томонига чекинишга мажбур бўлди.

Афросиёб қўшини уларни қувиб борди. Турклар Зобулистонга Кобулистонни ҳам эгаллаб, Ҳирманд дарёсигача етдилар:

Ҳазарвон або теғсан сй ҳазор,
Зи туркон бузургон ҳанжаргузор.
Бирафтанд бедор то Ҳирманд,
Або теғу бо гурзу баҳти баланд.

Зол отаси Сом таъзияси билан банд эди, отасига даҳма қурдирди. Меҳроб Кобулда эди. Унга турклардан киши келди. У турклар одами билан яширинча суҳбат қилди. Унга Меҳроб деди:

Зи Заҳокки тозист моро нажод,
Ба-дин подшоҳи наям саҳт шод

яна қўшиб қўйди: Афросиёбнинг бу томонларга қўшин юбориб эгаллаб олганидан хурсанд ман, унга совға -саломлар йўллайман, бироқ бу гаплар ҳозирча сирлигича қолсин.

Зол қуролланиб уруш майдонига тушди, Калбодни енгиб, Шамосонни қочирди. Бироқ Эрон томон қочаётган қўшинларни Афросиёб қуршаб олиб, шоҳ Навзарни қўлга тушириб, калласини чопиб ташлади ва бир неча Эронлик асирларни қамаб қўйдилар.

ШОҲЛИККА МУНОСИБ ТАҲМОСИБ ПОДШОҲЛИГИ

Зол Зобулистондан Эронга келди, аёнлар билан маслаҳатлашди. Каёнийлар авлодидан тахтга муносиб кишини изладилар. Тўс ва Густаҳм яхши саркарда бўладилар, бироқ подшоҳликка муносиб эмаслар. Излаб 80 ёшларга яқинлашиб қолган Таҳмосибнинг ўғли Зувни подшоҳликка муносиб кўрдилар, уни келтириб тахтга ўтқаздилар. У беш йил ҳукм сурди, мамлакатда тартиб жорий қилди, амалдорлар ва аскарларни халқ молини талашдан тийдирди. Орадан қирғоқчилик йили бўлди, ҳар иккала томон (Турон ва Эрон) қўшинлари саккиз ой жанг қилмай туришди.

Икки томон қўшини ҳам: бу қийинчиликлар биз бандаларнинг қилган гуноҳларимиз учун худо бошимизга солган азобдир, деб ўйлашди. Шу фикрга келгач, иккала қўшин бошлиқлари сулҳ қилдилар, турклар Жайҳундан шимол, Ҳўтан ва Чинга, Эронийлар Жайҳундан Жануб, Қобилистон, Зобилистон ва Эронга ҳукмронлик қилиш аҳдига келишди.

Зу лашкарини олиб пойтахтга, Зол эса Зобулистонга жўнадилар.

ГАРШАСП ПОДШОҲЛИГИ

Зунинг вафотидан кейин унинг ўғли Гаршасп тахтга ўлтирди. Бироқ у Эрон ва Турон ўрталарида бўлиб ўтган жанглар гинасини унутмаган эди. Яна урушга тайёрлана бошлади. Бунинг хабари Турон ҳокими Пашанга бориб етди. У ҳам Афросиёбни бундан ҳабардор қилиб, жангга отланишни буюрди Зол бундан хабардор бўлгач: менинг қўлимда қиличим бор экан бу ерларни ҳеч ким босиб ололмайди, дейди. Ҳалигача қарилик андишаси бор эди, энди Рустамдек ёш паҳлавон ёнимда бор экан, бу андиша ўз кучини йўқотди.

Шабу-рўз даржан яксон будам,
Зи пири ҳама сола тарсон будам.
.... Кунун гашт Рустам чу сарви саҳи,
Бизебад бар ў бар кулоҳу меҳи.

Зол Рустамни туғилаётган хавфдан хабардор қилди. Ва деди: сенинг оғзингдан ҳали сут ҳиди келади, у кучли рақиблар билан тенлаша оласанми. Рустам унга жавобан: ҳозир кучга тўлаётганини ва ҳар қандай жангга киришга тайёрлиги билдирди.

Рустам отлар подасига бориб ўзига кучли от танламоқчи бўлди. Ҳар бир кучли бўлиб кўринган от белига қўлини қўйганида, у эгилиб, қорни ерга теккудай бўлар эди. Бир тойга қўл теккизганида у эгилмади ва Рустамга ёқиб қолди. У отнинг оти Рахш эди. Чўпон уни мақтади. Рустам шу отни олди.

Шундан кейин Зол ўғли Рустамга бундай деди:

Ба Рустам чунинг гуфт фарҳунда Зол,
Ки баргир гўполу бияфроз ёл.
Бирав тозиён то ба Албурз кўҳ ,
Гузин кун яке лашкаре ҳамгурўҳ.
Абар Кайкубот офарин кун яке,
Макун пеши ў бардаранг андаке.

Икки ҳафтада қўшин тузиши кераклигини айтиб, бу ишни бажаришинг керак, -деб сўзини давом қилдирди Зол. Кеча ва кундуз от чоптиришдан тўхтамагин. Кайкуботга: лашкар сени истайди (тахтга чиқиб подшоликни қўлга олди, мамлакат тахти хавф остида). Тахтга ўлтиришга ҳақли сендан бошқани билмаймиз.

Узоқ юриб Рустам бир жойга келдики, унда шоҳга ўхшаган киши ўз одамлари билан май ичмоқда эди. Улар Рустам оти узоқдан кўрингандан яхши қарши олдилар, дастурхонга таклиф қилиб, қаёққа бораётганини сўрадилар. У: мен Золу Зарнинг ўғли бўламан, Қубод шоҳ жойини билсанглар, менга айтинглар, бутун лашкар унинг шоҳ бўлишини истайди, деди. Май ичаётган бошлиғи гўзал йигит: Кайқубот мен бўламан, деди. Рустам хурсанд бўлди:

Зи туҳми Фаридун манам Кайқубот,
Падар бар падар ном дорам ба ёд,

Рустам унга деди:

Ки эй хисрави хисравони жаҳон,
Паноҳи бузургону пушти меҳон,
Сари тахти Эрон ба коме ту бод,
Тани жандапилон ба доме ту бод.

Сўнгра Рустам отаси айтган гапларни Қуботга етказди. Қубот қувониб кетди. Рустам шарафига қадаҳлар кўтарилди.

Қубот Рустамга яқинда кўрган тушини айтди: бир оқ қуш келиб, менинг бошимга тожни қўйди. Энди билсам ўша оққуш сен экансан.

Рустам Қуботга: энди тур, шошилайлик, душман қўшини босиб келмоқда деди. Икковлари отланиб, қўшинни эргаштириб Туроннинг илғор қўшинига яқинлашдилар. Рустам Қуботга: сен

урушга кирма, мен ўзим лашкарни бошлаб бораман, деди. Қаттиқ жанг бўлди. Турк қўшини саркардаси Қулун аскарлари орқага ўгирилиб қочишди. Рустам чаманзорга бориб, ариқ лабига ўлтириб, сув ичди.

КАЙҚУБОД

Ба шоҳи нишаст аз бараш Кайқубод,
Ҳамон тожи гавҳар ба сар барниҳод.
Ҳама намдорон шуданд анжуман,
Чу дастону чун Қорани размзан.
Чу кашводу Ҳарроду Барзани гев,
Фишонданд гавҳар барон тожи на.

Шундан сўнг икки мамлакат қўшини яна юзма-юз келиб жанг қилдилар. Қубод томонидан саркарда Қоран, Афросиёб томонидан саракарда Шамосос яккама-якка жанггга отландилар, қаттик курашдан сўнг Қоран енгди, рақиби ҳалок булди.

Қоран жангини кўриб Рустам келиб отасидан сўради: Афросиёб қандай киши, байроғи оти ва ўзи қандай кўринишда? Мен у билан жангга киришаман. Зол унга Афросиёбнинг аждаҳо каби жанг қилишини, жасур ва омадли эканлигини айтди:

Ба-дў гуфт Зол эй писар гўш дор,
Як имруз бо ҳештан ҳуш дор,
Ки он турк дар жанг нар аждаҳост.
Дар оҳангу дар кина арби балост.
Дарафшаш сиё ҳасту ҳафтон сиёҳ,
Зи оҳанш соид зи оҳан кулоҳ.
... Аз ў – ҳуштанрў нигаҳдор саҳт,
Ки марди далер ҳасту пируз баҳт.

Рустам отасига дунёнинг яратувичиси ўзи томонида эканлигини ишонч билан айтиб, қуйидагича жавоб берди:

Ба-дў гуфт Рустам ки эй паҳлавон,
Ту аз ман мадор эч ранжа равон.
Жаҳонофаринанда ёри манаст,
Дилу теғу бозу ҳисори манаст.

Рустам отини қистаб илгарилади, Афросиёб билан юзма-юз келиб, унинг белбоғидан ушлаб кўтарди, энди унга Кайқубод олдига олиб бормоқчи эдики, Афросиёб ерга йиқилди. Уни ўз саркарда ва аскарлари қутқариб қолишди. Бу жанг хабари Кайқубодга етгач, у чексиз қувонди. Кубоднинг ўзи ҳам жангга кирди. Чанг-тўзон кўкка кўтарилди:

Зи гарди саворон дарон паҳн дашт,
Замин шаш шуду осмон гашт ҳашт.

Афросиёб қўшини чекиниб, Жайҳун дарёсининг шимолига ўтди. Афросиёб Пашанг олдига келиб бўлиб ўтган жанг ва ундаги янги ёш паҳлавон Рустам қаҳрамонликларидан сўзлаб яхшиси сулҳ қилишимиз керак, деди:

Жуз аз оштй жустанат рўй нест,
Ки бо ў сипоҳи туро пой нест.
..Аз имрўз коре ба фардо мамон,
Ки донат ки фардо чи гардат замон

Турон ҳукмдори Пашанг Эрон шоҳи Кайқубод номига мактуб ёздирди. Унга бўлиб ўтган жанглар ва хунрезликлардан афсусланганини билдирди. Худодан мадад сўради ҳамда ўзлари Пашанг Афросиёб ва бошқалар аслида Фаридун авлоди эканликларини эътироф қилди:

Ба номи Худовандо Хуршеду моҳ,
Ки ў дод бар офарин дастго,
В азў бар равони Фаридун дурун,
К аз ў дорад ин туҳми мо тору-пуд

Фаридун Эрон ерларини уч ўғлига бўлиб берди, Тур ва Салм инилари Эражни ўлдириб, қон тўкиб, кек уруғини сепдилар, Манучеҳр келиб, бобоси Эражнинг қасосини олди. Энди ер учун

таланиб юришимиз эмас, ер ҳаммамиздан ҳам қолади яхшиси сулҳ тузайлик, ҳар бир ҳукмдор Фаридун тақсимоти бўйича ўз ерида қолсин деди:

Вагар ҳам чунон чун Фаридуни гурд,
Ба Туру, ба Салму ба Эраж супурд.
Бубаҳшему зон паз нажўем кин,
Ки чандин балоҳуд наярзад замин.

Кайқубод Пашанг мактубини олиб унга шундай жавоб ёздирди. Шуни эслатмоқчиманки, пештастлик олдин қўл кўтариш биздан бошланган эмас, дастлаб ситам Турдан бошланди–Эраж ўз тахтидан маҳрум бўлди, ёш хазон қилинди. Аврирас Афросиёбнинг иккинчи иниси жангга кириб ҳалок бўлди. Афросиёб жаҳл билан майдонга чиқди, Эрон шоҳи Навзарни ҳалокатга етказди. Қилинган ёмон ишлардан пушаймон бўлган экансизлар, энди янгидан аҳдлашиш керак. Мен гина сақламайман, бу дунёда кўп яхши-ёмонликни кўрдим. Сувдан Амударёдан нарисини сизга топширдим, Афросиёб ҳам сулҳ тарафдори. Кайқубод 100 йил яшади. Зол , Рустам ва бошқа аъёнларини ҳамда қўшинини олиб ўша даврдаги Эрон пойтахти Истарҳ шаҳрига борди. Уларга тортиқлар ва мукофотлар ҳадя қилди. 4 ўғли бор эди. Тўнғичи Кайковусни чақириб, унга тахтни топширди ва одил ва некбин бўлишини васият қилди:

Тугар додгар бошию кокдин,
Зиҳар кас наёби ба жуст офарин.

Sahifa filologiya fanlari doktori, professor Shoira Axmedova tomonidan tayyorlandi.

QUTLOV

БИЗ БИЛГАН НИЗОМИДДИН (50 ЁШ АРМУҒОНИ)

Амир Алишер Навоий ўзининг “Ҳайрат ул-аброр” (“Яхши кишиларининг ҳайратланиши”) достони муқаддимасида инсоннинг яратувчи томонидан мукаммал қилиб яратилгани ҳақида шундай ёзади:

Борчасини гарчи латиф айладинг,
Борчадин инсонни шариф айладинг.

Бу инсониятга ўзлигини эслатиб турадиган абадиятга дахилдор бўлган сўзлар эканлиги билан аҳамиятлидир. Инсон аввало ўзининг хулқу одоби, ибратли ахлоқи, покиза тийнати, касбу кори, тийилган нафси, беғаш кўнгли, яшаш тарзи, одам ва оламга муносабати, жамиятдаги ўрни каби кўплаб фазилатлари билан инсоний шарифлик чўққисини эгаллаш учун интилиб яшайди. Буни бир умрлик риёзат дейиш мумкин. Ўтмишдаги аллома зотларнинг ҳаётлари бунга далил бўла олади. Инсоний шарифликка мансуб одамларнинг борлиги учун ҳам ҳаётимиз гўзал, турмушимиз бекаму кўст ҳамда мукаммал эканлигига шукрона қилиб яшаш даркор.

Не бахтки, улуғ ниятлар билан яшаб, жамиятда ўзининг муносиб ўрнини топиш саодатига мушарраф бўлган инсонлар орасида таниқли тожик адабиётшунос олими Камол Хўжандий номидаги мукофот ҳамда “Хизмати шоиста”(“Хизмат кўрсатган”) медали,“Тожикистон илм ва маориф аълочиси” нишони соҳиби, Тожикистон журналистлар иттифоқи аъзоси, ”Муродий Академияси” таълим муассасаси асосчиси ва раҳбари, дунё миқёсида ўтказилган қатор нуфузли халқаро анжуманлар иштирокчиси, Хўжанд давлат университети профессори, филология фанлари доктори Низомиддин Муродийнинг ҳам борлигидан қалбимиз ғурурга тўлади.

Низомиддин Муродий Шарқ тиллари факультети форс ва хитой тиллари кафедраси профессори сифатида доимо ўзидан катталарга ҳурматда, кичикларга эса иззатда бўлган, сурати сийратига, одамийлик билан олимлик мақоми бир хил, шахсияти ҳамда истеъдоди бир-бирига тенг бўлган шахс сифатида эътироф этилган серғайрат зукко олимдир.

Низомиддин Муродий ўзбек филологияси факультети олимларининг ҳам доимий ҳамкори. Марҳум устозларимиз профессорлар Муродий Хўжандий, Эргашали Шодиев, Абдусалом Абдуқодировлардан мерос бўлган ўзаро илмий алоқаларимиз бугунги кунда ҳам давом этиб келаётгани қувонарлидир.

Салоҳиятли олим Низомиддин Муродий айни баҳор кунларида ўзининг муборак 50 ёшини қарши олмоқда. Агар Низомиддиннинг чорак асрлик фаолиятига назар ташланса, унинг илм, таълим ва тарбия борасида катта ишларни амалга оширганлиги аёнлашади. Олимнинг ҳозирга

қадар 24 та рисола, 200 га яқин илмий ва илмий-оммавий мақолалар нашр этганлиги – унинг сермаҳсул ижодкор эканлигини кўрсатади.

Низомиддин Муродий олимлар оиласидан етишиб чиққан. Унинг отаси Муродий Хўжандий шарқшунос олим, зуллисонайн шоир ҳамда носир сифатида илмда камолотга эришган, филология фанлари доктори, профессор сифатида Тожикистон фанида катта нуфузга эга бўлган. Шундан бўлса керак, Жалолиддин Румий ҳазратларининг сўзлари билан айтганда, Низомиддин илмни танга (нафсга) эмас, балки қалбига жойлай олгани учун ҳам 27 ёшида фан номзоди, айни навқирон йигитлик палласи – 42 ёшида эса фан доктор илмий даражасига сазовор бўлиб, олимликнинг юксак мақомига эриша олди.

Назаримизда, навқирон олимнинг бундай муваффақиятлари замирида, энг аввало, у туғилиб вояга етган оила муҳити муҳим омил бўлса, унинг кейинги илмий камолотида эса устозларининг раҳнамолиги катта роль ўйнади. Дарҳақиқат, Низомиддин дунёвий илмларда қай даражада мукаммалликка эришган бўлса, диний илмда ҳам ана шундай етуклик унинг фитратида мавжуд эканлиги – ҳақиқатдир.

Бугунги кунда академик Бобожон Ғафуров номидаги Хўжанд давлат университети дунёдаги кўп давлатлар қаторида Ўзбекистондаги нуфузли олий ўқув юртлари билан ҳам ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ўрнатди. Айниқса, халқаро анжуман ва симпозиумларда фаоллик билан иштирок этишдан бошлаб, номзодлик ва докторлик ишларига тақризлар ташкил этишда ҳам бошқа олимлар қатори Низомиддиннинг фаолияти ҳар жиҳатдан ибратга лойиқ. Талабчан олим доимо номзодлик ёки докторлик ишлари билан мукаммал танишиб, сўнг уларга тақриз ёзишга чоғланади.

Одатда илм аҳли орасида шундай гап юради. Яъни илмий ишга танланган яхши мавзу тадқиқотчи учун муҳим омад ҳисобланади. Бу борада ҳам Низомиддин бахти кулган олимлардан. Унинг номзодлик ва докторлик ишлари истиқлолдан кейин юзага келган янги миллий мафкура талаблари асосида бажарилиб, муваффақиятли ҳимоя қилинди. Шодровон устоз, донишманд олим, профессор Абдуманнон Насриддин раҳбарлигида “Форс-тожик адабиётида муножат ва наът” мавзусида ҳимоя қилган номзодлик ишининг номиёқ адабиётдан хабардор кишига муҳим ҳақиқатларни тақдим этиши аниқ.

Истиқлол туфайли ўзига хос янги миллий мафкура юзага келди. Ҳаётнинг барча жабҳаларида ислоҳотлар даври бошланди. Жумладан, узоқ асрлик тарихга эга бўлган адабий меросимизга ҳам соғлом назар билан қараш кайфияти пайдо бўлди. Шулар қаторида мумтоз адабиётни ўрганиш, тадқиқ ва тарғиб қилиш бўйича янгича ёндашувлар устуворлашди. Шу нуқтаи назардан, Низомиддин Муродийнинг номзодлик иши ана шундай янгиланишлар даврининг дастлабки тадқиқот ишларидан бўлиб, истиқлол даврида мумтоз асарларнинг асил моҳиятини кўрсатишга қаратилгани билан алоҳида илмий қимматга эга бўлган ишлари сирасига киради. Унинг “Уйғур адабиётида форс-тожик шеърияти анъаналари” мавзусидаги докторлик диссертацияси ҳақида ҳам шундай мазмундаги фикрларни бемалол билдириш мумкин.

Низомиддиннинг шахсияти унинг олимлик мақоми хусусида ҳамда инсоний фазилатлари шунингдек, серқирра фаолиятига доир яна кўп ва хўп фикрларни билдириш мумкин. Бунга етарлича факту далилларимиз бор. Низомиддиннинг яна бир ўзига хос ва мос фазилати унинг бетакрор овоз эгаси эканлигидир. У шеърий ҳамда насрий матнларни ихлосу эътибор билан ўқишини кўпчилик яхши билишади. Ундаги бу ноёб фазилатга ҳавас билан қарашади. Низомиддин шеър қироат қилганда **Сўзнинг гўзаллиги, Сўзнинг қудрати, Сўзнинг залвори, Сўзнинг жаранги, Сўзнинг шиддатию нолаларини** – барча-барчасини баралла ҳис этиш мумкин.

Яна шу нарсани алоҳида қониқиш ва мамнуният билан қайд этиш зарур. Низомиддин Муродийнинг ибратли фаолияти доимо Тожикистон Республикаси Президенти, миллат пешвоси, муҳтарам Эмомали Раҳмон ҳамда Суғд вилояти Раиси Ражаббой Аҳмадзода ва Академик Бобожон Ғафуров номидаги Хўжанд давлат университети раҳбариятининг эътиборида эканлиги олимларга, умуман, зиё аҳлига бўлган катта ишонч ҳамда эҳтиромнинг ёрқин намунасидир.

Модомики, сўзимиз ибтидосини Низомиддин Мир Алишер Навоий ҳазратларининг Инсонга доир сўзлари билан бошлаган эдик. Боз мўътабар зотга юзланиб, илоҳий руҳ билан йўғрилган қуйидаги мисралари билан якунлашни ўзимиз учун шараф деб билдик:

Демонким кўнгли поку ҳам кўзи пок,

Тили поку сўзи поку ўзи пок.
Мунингдек тийнати покига лойиқ,
Дуосин айтибон поки халойиқ.

Не бахтки, кўнгли пок, ҳам кўзи пок, ҳам тилию сўзи пок ва ниҳоят, тийнати пок жондан азиз қадрдонимиз Низомиддинни ярим асрлик муборак 50 ёши билан чин дилдан қутлаб, унга инсоний шарифлик мартабаси муборак бўлсин деймиз! Барчамиз учун садоқатли ва суюкли, севимли ҳамда самимий дўст бўлган Низомиддин Муродийга чексиз ҳурмат ва эҳтиромимиз доимий бўлишини орзу қилиб қоламиз!

Sahifa Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston) dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Fayzullayev Baxtiyor Bobojonovich tomonidan tayyorlandi.

Tojikistonlik ijodiy hamkorimiz, jurnalimiz tahrir hay’ati a’zosi, salohiyatli olim Nizomiddin Murodiyni 50 yoshlik yubileylari bilan samimiy tabriklaymiz. Muhtaram ustozga Yaratgandan sog‘lik, uzoq va saodatli umr, ilmiy-ijodiy muvaffaqiyatlar tilaymiz.

“Ayniy vorislari” xalqaro elektron jurnali tahririyati

FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR

Kasimova Ra’no Raxmatulloyevna filologiya fanlari doktori, professor Darmonoy O‘rayeva ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Bevosita o‘girmalarda muallif va tarjimon psixologiyasi (ingliz hamda o‘zbek mutarjimlari faoliyati misolida” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil, 29-avgust) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 31-oktabdagi 363/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Iqtidorli olima va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz!

Mizrabova Jeren Ismailovna filologiya fanlari doktori, professor Shoira Axmedova ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Shekspir dramalari tarjimalarida kalamburning qiyosiy lingvopoetik tadqiqi” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil, 16-noyabr) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 12-fevraldagi 367/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Iqtidorli olima va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz!

Ro‘ziyev Yarash Bozorovichning filologiya fanlari doktori G‘ani Zikrillayev ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Noqardosh tillarda o‘zlashtirmalik va uning funksional-semantik xususiyati” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil, 14-sentabr) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 12-fevraldagi 367/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Iqtidorli olim va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz!

Ziyodullayev Akmal Raupovich filologiya fanlari doktori, professor Darmonoy O‘rayeva ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Ingliz va o‘zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2024-yil, 7-sentabr) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 4-oktabrdagi 362/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Iqtidorli olim va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz!

Koziyeva Iqbol Komiljonovna filologiya fanlari doktori, professor Kilichev Bayramali ilmiy rahbarligida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbek va rus tillaridagi antroponimlarning leksik-semantik tadqiqi” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashda (2025-yil, 4-yanvar) muvaffaqiyatli himoya qildi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 6-mart 368/1-son qaroriga muvofiq filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. Iqtidorli yosh olima va ilmiy rahbarni bu yutuq bilan qutlaymiz. Ularning keyingi ishlarida yuksak parvozlar tilaymiz!

MUNDARIJA